

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**S.U.Mehmonov, Z.X.Karimova, A.S.Tursunov**

**BUDJET TIZIMI**

*Darslik*

**Toshkent 2017**

## **S.U.Mehmonov, Z.X.Karimova, A.S.Tursunov. Budget tizimi. darslik.**

Mazkur darslikda O'zbekiston Respublikasida budget tizimining tashkiliy va uslubiy jihatlari yoritilgan. Bunda budget tizimi, uning meyoriy-huquqiy asoslari, budget tizimi budgetlarini boshqarish asoslari, budget tizimi budgetlari daromadlari va xarajatlari, budget jarayonini tashkil etish asoslari, davlat moliyaviy nazorati mavzulari xorijiy adabiyotlardan foydalanilgan xolda keng yoritilgan.

O'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalari talabalari, magistrleri, o'qituvchilari, stajyor tadqiqotchilariga mo'ljallangan bo'lib, undan byudjet sohasida faoliyat qilayotgan hisobchilar shuningdek bu fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

### **Taqrizchilar:**

**M.Alimardonov** - Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya va soliqlar kafedrası professori, i.f.d..

**B.Hamdámov** – Toshkent moliya instituti "Budget hisobi" kafedrası professori, i.f.d..

## MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
1-BOB. BUDJET TIZIMI, UNING MEYORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	5
1.1. Budjet tizimi fani predmetining mazmuni.....	5
1.2. Budjet tizimi va uning printsiplari.....	10
1.3. Budjet tizimining qonunchilik asoslari.....	30
2-BOB. BUDJET TIZIMI BUDJETLARINI BOSHQARISH ASOSLARI.....	60
2.1. Budjet tasnifi (klassifikatsiyasi).....	75
2.2. Budjet tizimini boshqarish.....	85
3-BOB. BUDJET TIZIMI BUDJETLARI.....	90
3.1. Budjet tizimi budjetlari .....	110
3.2. Davlat budjeti daromadlari .....	150
3.3. Davlat budjeti xarajatlari .....	111
4-BOB. DAVLAT MAQSADLI JAMGʻARMALARI .....	112
4.1. Davlat budjeti va Davlat maqsadli jamgʻarmalarini budjetlarini loyihalashtirish, koʻrib chiqish va tasdiqlash.....	120
5-BOB. BUDJET TASHKILOTLARINI BUDJETDAN TASHQARI JAMGʻARMALARI.....	247
5.1. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamgʻarmalaridagi daromadlar va xarajatlari.....	280
6-BOB. OʻZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMGʻARMASI.....	292
6.1. Oʻzbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi	
7-BOB. BUDJET JARAYONINI TASHKIL ETISH ASOSLARI.....	255

7.1. Xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va ularni royxatdan o'tkazish.....	300
7.2. Budget tizimi budgetlarini ijro etish tartibi.....	312
7.3. Budgetlararo munosabatlar .....	355
7.4.Davlat budgeti taqchilligi va profitsiti, davlat tomonidan mablag' jalb qilish .....	380
8-BOB. DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI.....	418
8.1.Davlat moliyaviy nazorati .....	418
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	444

## **SO'Z BOSHI.**

Har bir davlat o'z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun, shuningdek, rivojlanishning har bir bosqichida dolzarb bo'lgan strategic maqsadlarni amalga oshirishi uchun mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma'lum bir qismini o'z qo'lida to'plamog'i ob'ektiv zaruriyatdir. Aynan shu zaruriyat davlat budjetining yuzaga kelishini va uni amalga oshirishni taqozo etadi.

Davlatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjetining o'rni va roli juda muhimdir. Chunki, davlat daromadlar va xarajatlarni tartibga solishda, aholi turmush darajasini oshirishda, ishlab chiqarishni rag'batlantirishda bevosita budjet tizimiga tayanadi. Bugungi kunda mamlakatimiz budjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni amalga oshirilishi borasida budjet tizimining muhim bo'g'inlari, va ushbu bo'ginlar daromadlari va xarajatlarini tushuna oladigan, budjet tizimini barqarorligini ta'minlashga o'zining munosib hissasini qo'sha oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash ko'p jihatdan o'quv-uslubiy bazani shakllantirishga qaratilishi ushbu darslik yaratilishiga asos bo'ldi.

Ushbu qo'llanmaning maqsadi o'quvchilarga budjet haqidagi yaxlit bilimlar tizimini shakllantirish, barcha budjet tizimi bo'g'inlari va ularning aloqadorligi, budjet munosabatlarining namoyon bo'lish shakllari va moliyaviy dastaklarning amal qilish xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Ushbu darslikning farqli xususiyati shundaki, bugungi kunda mamlakatimiz budjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jumladan budjet kodeksini qabul qilinishi va xorij tajribasini o'rgan holda, uni tatbiq etish asosida yaratildi.

Mazkur darslik olti bobdan iborat. Unda Budjet tizimi va uning me'yoriy-huquqiy asoslari, Budjet tasnifi, Budjet tizimi budjetlari, davlat maqsadli jamg'armalari va budjet tashkilotlarini budjetdan tashqari jamg'armalari, Budjet jarayonini tashkil etish asoslari va Budjet tizimi Budjetlarini ijro etish tartibi mavzulari shuningdek mavzuga aloqador nazorat savollari, glosariy aks ettirilgan.

Darslikni yozishda budjet tizimini tashkil etishga oid amaldagi me'yoriy-huquqiy xujjatlar, xorij adabiyoti, maxsus adabiyotlar, ilmiy maqolalar va boshqa tegishli manbaalardan keng foydalanildi. Darslikni mazmun va shakl jihatidan

yanada yaxshilash maqsadida bildiriladigan barcha fikr-mulohazalar va takliflar uchun oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

**Mualliflar.**

## **1-BOB. BUDJET TIZIMI, UNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.**

*Yoki ilmi bo'l, yoki ilmga tayanib ish tutadigan bo'l,  
loaqal ilmni tinglab eshitadigan bo'l,  
ammo to'rtinchisibo'lma, chunki kasodga uchrab halok bo'lasan*

**MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY**

### **1.1. Budjet tizimi fani predmetining mazmuni.**

Ma'lumki, Davlat budjeti iqtisodiy islohotlarni hayotga tatbiq etishda hal qiluvchi omildir, boshqacha qilib aytganda, budjet - islohotlarning eng muhim dastaklaridan biri vazifasini o'taydi, chunki kiringa qarab chiqim qilish iqtisodiyotning oltin qoidasi hisoblanadi.

Davlat budjeti orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashda, respublikamizda qabul qilingan ijtimoiy dasturlarni, birinchi navbatda, aholining ijtimoiy nochor tabaqalarini aniq tarzda qo'llab-quvvatlash, sog'lom avlodni tarbiyalash asosida aholi farovonligini oshirishga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosatning ta'sirchanligi va aniq tarzda moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishda mahalliy budjetlarni samarali ijrosining ahamiyati katta. Bozor iqtisodiyotida davlatning moliyaviy resurslarni boshqarish ahamiyati beqiyos hisoblanadi, shu sababli respublikamizda Davlat budjeti ijrosini amalga oshirishda g'aznachilik tizimiga o'tish zaruriyati paydo bo'lmoqda.

Budjettizimimamlakatmoliyatiziminingmuhimbo'g'inibo'lib,uning muvaffaqiyatli tashkil etilishi samarali budjet siyosatining asosini tashkil etadi. Davlatmoliyasitizimidagitubislohotlarnatijasidabudjetningg'aznajibrosigao'tilishish uningdek, budjetning o'rta muddatli istiqbolini belgilashga o'tish chora-tadbirlari

mamlakatimizda izchillik bilan amaliyotga joriy etilmoqda. Jahon andozalari va xalqaro budjet amaliyotining yangi qat'iy talablari va mezonlari asosida davlat budjetining o'rta muddatli istiqbolini belgilash tizimiga o'tishning joriy etilishi, rivojlangan mamlakatlardasamarali amal qilayotgan tijaviylikka asoslangan budjetla shtirish amaliyotga joriy etilishi budjet tizimi oldigahamulkan vazifalar qo'yadi.

Milliy iqtisodiyotni samarali boshqarish va tartibga solishda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda, har bir davrning ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan taraqqiyot vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishda davlatning boshqa iqtisodiy instrumentlari qatori, mamlakat budjet tizimi ham muhim ahamiyat kasbetadivategishlitarzdanafaqatayrimjoriy, operativ, balkishubilan birgakompleks va strategik vazifalarni ham o'z zimmasiga oladi.

“Budjet tizimi” fanini o'qitishning maqsadi - talabalarga byudjet tizimi byudjetlari haqida nazariy bilimlar berish, ularda mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichida O'zbekiston Respublikasi budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari va ularni hayotga tadbqiq etish yo'llari bo'yicha asosiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

“Budjet tizimi” fanini o'qitishning maqsadi - kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo'lib etishadigan bakalavrlar, magistrantlar budjet tizimining tashkiliy-huquqiy asoslari, budjet jarayoni, turli darajadagi budjetlarni, budjet daromadlari va xarajatlarini, budjet holatini boshqarish, budjet tizimida g'aznachilikni rivojlanishi, budjet nazorati haqida nazariy bilimlar berish, ularda davlatning hozirgi davrdagi budjet tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib fan o'z predmetini o'rgatish uchun quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- ✓ budjet tizimi va uning printsipalarini o'rganish;
- ✓ budjet tizimi qonunchilik asoslarini o'rganish;
- ✓ budjet tasnifi (klassifikatsiyasi)ni o'rganish;

- ✓ budget tizimini boshqarishni o'rganish;
- ✓ budget tizimi budgetlarini o'rganish;
- ✓ davlat budgeti va davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari va xarajatlarini o'rganish;
- ✓ budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari daromadlari va xarajatlarini o'rganish;
- ✓ O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini o'rganish;
- ✓ davlat budgeti va davlat maqsadli jamg'armalari budgetlari loyihasini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlashni o'rganish;
- ✓ xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va ularni ro'yxatdan o'tkazishni o'rganish;
- ✓ budget tizimi budgetlarini ijro etish tartibini o'rganish;
- ✓ budgetlararo munosabatlarni o'rganish;
- ✓ davlat budgeti taqchilligi va profitsiti, davlat tomonidan mablag' jalb qilishni o'rganish;
- ✓ davlat moliyaviy nazoratini o'rganish.

Mazkur fanning boshqa fanlar singari o'ziga xos predmeti va vazifalari mavjud. «Budget tizimi» fanining predmeti O'zbekiston Respublikasida Budget tizimi mexanizmlari va dastaklarini o'rganishdir.

«Budget tizimi» fani budget tizimining mohiyati va mamlakatimizda davlat budgeti va budget tizimi yuzasidan yetarli ma'lumotlar beradi. Mazkur fanda budget tizimi, uning vazifalari, davlat budgeti daromadlari va xarajatlari ijrosi, g'aznachilik tizimida qarzlarni boshqarish, mahalliy budgetlar moliyaviy mablag'larini boshqarish masalalarining nazariy jihatlari yoritiladi.

O'zbekistonda yoshlardan zamonaviy kadrlar tayyorlash taraqqiyotimizning muhim omilidir. Bozor iqtisodiyotining nazariy asoslarini chuqur o'rgatib, uning zamonaviy yutuqlari va xorijiy mamlakatlar tajribasini umumlashtirib, davr taqozosi sharoitida ishlay oladigan, raqobatga bardosh beradigan mutaxassislarni tayyorlashni talab etiladi, bu ishlar o'z-o'zidan yuz bermaydi, albatta.





Bumamlakatimizda davlat budjetini boshqarish sohasida olib borilayotgan islohotlar budjet mablag'lari ishlatilishining moliyaviy nazoratini amalga oshirish mazmunini tubdan o'zgartirishni talab qiladi va moliyaviy nazorat oldiga prinsipial jihatdan yangi vazifalarni qo'yadi.

O'zbekiston demokratik davlat qurishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yar ekan, bunda davlat Budjetini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlatning doimiy iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va ekologik vazifalarini bajarishi uchun mablag'lar markazlashtiriladi.

“Budjet tizimi” fani institutda o'rganiladigan boshqa iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liqdir. “Budjet tizimi” fani bakalavriat bosqichida o'rganilgan “Moliya”, “Budjet tasnifi”, “Budjet hisobi”, “G'aznachilik asoslari”, “G'aznachilikda moliyaviy nazorat”, “Moliyaviy nazorat”, magistraturaning “Davlat moliyasini boshqarish” kabi fanlardan olingan nazariy asoslarga tayanadi.

Shu bilan birga, “Budjet tizimi” fani magistraturadagi qator maxsus fanlarni o'zlashtirish uchun nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.





Budjet tizimi murakkab mexanizm boʻlib, muayyan mamlakatning oʻziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa xususiyatlari asosida va taʼsirida shakllanadi.

*Budjet tizimi barcha darajadagi budjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari, budjet tizimi budjetlarini tuzish va tashkil etish printsiplari, ular o'rtasida budjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar yig'indisini o'zida ifodalaydi. “Budjet kodeksi”, 6-modda.*

Koʻpchilik hollarda, soddaroq tarzda, Budjet tizimi deyilganda, mamlakatdagi mavjud budjetlar toʻplami (majmui) tushuniladi. Soddaroq qilib aytganda, Budjet tizimi bu iqtisodiy munosabatlarga, davlat tuzilishiga va qonun normalariga asoslangan davlat, maʼmuriy-hududiy tuzilishlarning, budjet munosabatlarida mustaqil boʻlgan budjet tashkilotlari muassasalari va maqsadli davlat fondlarining majmuidir.

Budjet tizimi mamlakatdagi turli darajadagi budjetlarni oʻzida ifoda etadi. Boshqacha maʼnoda, Budjet tizimi budjetning oʻzaro bogʻliqlikda boʻlgan boʻgʻinlarining oʻzaro yigʻindisidan iboratdir. Mamlakatning budjet tizimi jamiyatning siyosiy tuzilishiga, davlatning iqtisodiy tizimiga va uning maʼmuriy-hududiy boʻlinishiga bevosita bogʻliq.

Davlatning xoʻjalik yurituvchi subʼektlar va aholi oʻrtasida sodir boʻladigan moliyaviy munosabatlari budjet munosabatlari deyiladi. Bu munosabatlarning moliyaviy munosabatlar tizimining bir qismi sifatidagi oʻziga xos xususiyati shundaki, birinchidan, bu munosabatlar koʻp qirrali taqsimlash jarayonida sodir boʻladi va bu jarayonning ishtirokchisi boʻlib davlat (tegishli hokimiyat organlari

timsolida) qatnashadi. Ikkinchidan, bu munosabatlar umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan markazlashgan pul mablag'lari fondining shakllanishi va ishlatilishi bilan bog'liq.

Budjet munosabatlari juda xilma-xildir, chunki ular ko'p pog'onali va kengqamrovli taqsimlash jarayonining turli yo'nalishlarida (iqtisodiyot sektorlari, ijtimoiy faoliyat sohalari, mamlakat hududlari o'rtasida) sodir bo'ladi. Bu munosabatlar ob'ektiv xarakterga ega, chunki har yili davlat ixtiyorida:

- ✓ kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun;
- ✓ mamlakat fuqarolarining ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun;
- ✓ mudofaa vazifalarini xal etish uchun;

davlat boshqaruvining umumiy xarajatlarini qoplash uchun zarur bo'lgan milliy daromadning bir qismi to'planishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, davlatning o'z funksiyalarini bajarishi uchun ma'lum darajada moddiy va moliyaviy bazaning zarurligi budjet munosabatlarning ob'yektiv zarur va mavjud bo'lishini taqozo etadi. Budjet munosabatlari davlat ixtiyoridagi yirik markazlashgan pul fondi ko'rinishida moddiy-buyum shaklini oladi.

Mamlakat moliyaviy resurslarining davlat ixtiyorida markazlashish darajasini aks ettiruvchi davlat budjetining hajmi qator omillarga bog'liq:

- iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasiga;
- davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasiga;
- korxonalar, tashkilot va muassasalardagi xo'jalik yuritish usullariga;
- jamiyat tomonidan hal etilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarning xarakteriga,
- iqtisodiyotda va ijtimoiy soha-tarmoqlarda amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarning ko'lamiga va boshq.

*Sodda shaklda budjet bu hujjat yoki hujjatlar yig'indisi, ya'ni tashkilotning (oilalar, korporatsiyalar, hukumat) moliyaviy holati va kelgusi rejalari, ya'ni daromadlar, xarajatlar va maqsad hamda natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarni*

*o`z ichiga oluvchi rejalar sifatida qaraladi. Tarixan, budjet so`zi charm karmon, hamyon, sumka va hamyonchadir. Asosan, inglizchada bu termin hukumat ehtiyojlari va resurslarini Parlament bayonotiga Moliya Vaziri ko`tarib boradigan charm sumka sifatida tasvirlangan.*<sup>1</sup>

Davlat budjeti davlat moliyasining markaziy bo`g`ini bo`lishi bilan bir qatorda moliya tizimining ham asosini tashkil etadi. Davlat budjetining iqtisodiy tuzilishi va mazmuni bevosita davlatning funktsiya va majburiyatlaridan kelib chiqadi. Chunki davlat jamiyatni boshqarish uchun o`z oldiga bir nechta vazifalarni qo`yadiki, u vazifalarni moliyaviy mablag`lar bilan ta`minlashda budjet mablag`lari xizmat qiladi.

Davlat budjeti yaxlit hukumatga xizmat qilishi bilan bir qatorda, moliyaviy resurslarni *tarmoqlararo qayta taqsimlashda, hududlararo, mulk shakllariaro qayta taqsimlashda* ham bevosita ishtirok etadi.

Masalan, tarmoqlararo qayta taqsimlashda har qanday iqtisodiy tizimda ham ayrim tarmoqlar uchraydiki, ularning daromadlari o`z xarajatlarini qoplay olmasada, lekin ular ishlab chiqarayotgan tovarlar, ko`rsatayotgan xizmatlar va bajarayotgan ishlar umumjamiyat ahamiyatiga molik bo`lgan tadbirlar bilan bog`liqdir. Bunday tarmoqlar tarkibiga: energetika, transport va boshqalar kirishi mumkin. Ushbu tarmoqlarga budjet orqali yuqori rentabelli tarmoqlarning moliyaviy resurslari qayta taqsimlab beriladi.

Davlat o`z funktsiyalarini bajarishi uchun, shuningdek, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning har bir bosqichi strategik maqsadlarini amalga oshirish uchun mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma`lum bir qismini o`z qo`lida to`plamog`i ob`ektiv zaruriyat ekanligi yuqorida ta`kidlangan edi. Lekin mablag`larni davlat moliyasi orqali qayta taqsimlash ko`lami ko`p jihatdan mamlakat iqtisodiyotining ahvoli va rivojlanish darajasiga, davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashish ko`lamiga, ijtimoiy sohadagi davlatning majburiyatlari

---

<sup>1</sup>Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice, CreateSpace USA, 2016. p. 15

ko'lamiga, aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarining qamrovliligiga bog'liq.

#### Davlat

budjetining kassali ijrosidagi aznachilik tizimining bank tizimidan farqishundaki, avvalo, budjet ijrosi jarayonidagi aznachilik kikkioqimdagipul mablag'larini to'playdi. Daromadlar va xarajatlari bir hisob raqamdan qilinadi, bunday tartib mavjud mablaglar bilan moliyalashtirish jarayonini tezlashtirishga imkon beradi.

*Budjet jarayoni - budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilish, budjet tizimi budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayoni. "Budjet kodeksi", 3-modda*

Budjetning kassa ijrosi deganda har bir budjetning daromadlari mazkur budjetni ijro etuvchi tegishli kassada jamg'arilishi tushuniladi. Shuningdek, ushbu budjetdan mablag' bilan ta'minlanuvchi barcha tashkilotlarga pul mablag'lari ushbu kassa orqali beriladi. Budjet ijrosi shunday jarayonki, u moliya yili mobaynida to'liq va o'z vaqtida, har bir manba bo'yicha daromadlarni tushishini, shuningdek, korxonalar va tashkilotlarni tasdiqlangan budjet xarajatlari smetasi chegarasida moliyalashtirilishini ta'minlaydi. Davlat budjeti g'azna ijrosi kassa birligi, budjet tashkilotlarini moliyalashtirish hisobini yuritish, budjet tiniqligi, budjet majburiyatlarini limiti, shartnomalarni ro'yxatga olish kabi tamoyillarga asoslanadi. Budjet mablag'larini taqsimlovchilari, taqdim qilingan mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitobni amalga oshiruvchilar ya'ni budjetdan mablag' oluvchilardir yoki budjet tashkilotlaridir.

Davlat budjeti ijrosi budjet jarayonidagi asosiy bosqichlardan biri hisoblanadiki, g'aznachilikda belgilangan istiqbol ko'rsatkichlari, tasdiqlangan rejalar va ishlab chiqilgan dasturlarning amaliyotdagi ijrosi qattik nazorat qilinadi.

Budjetning ijrosi - budjetning barcha daromadlarini to'liq va o'z vaqtida tushishini hamda barcha rejalashtirilgan budjet xarajatlarini moliyalashtirish ta'minlanishini ko'zda tutadi. Budjetning daromad qismini ijro etish yuridik va jismoniy shaxslardan soliq va soliqdan tashqari to'lovlar undirish hisobiga amalga oshiriladi. Bunda yuridik va jismoniy shaxslar tegishli to'lovlarni qonunda belgilangan muddatlar va tartibda mustaqil ravishda hisoblaydi va budjetga to'laydi. Budjetning kassali ijrosi deganda har bir budjetning daromadlari mazkur budjetni ijro etuvchi tegishli kassada jamg'arilishi tushuniladi. Shuningdek, ushbu budjetdan mablag' bilan ta'minlanuvchi barcha tashkilotlarga pul mablag'lari ushbu kassa orqali beriladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, budjetning kassa ijrosi, aralash, g'aznachilik va bank usuli bilan amalga oshiriladi. Budjetning ijrosi bank tizimida mamlakatning markaziy banki orqali amalga oshiriladi. G'aznachilik tizimida davlat g'aznasi daromadlarni qabul qiladi, xarajatlarni amalga oshiradi va qolgan mablag'lar uning maxsus hisob raqamida qoladi. "G'azna" inglizcha "treasure" so'zidan olingan bo'lib, insonlar tomonidan ma'lum bir maqsadlarda ega ko'milgan oltin va kumushning topilishi hamda bu topilma podsholarga tegishli bo'lganligini anglatadi. Boshqa iqtisodiy adabiyotlarda "g'aznachilik" –terminiga iqtisodiy kategoriya sifatida ikki xil ta'rif beriladi. G'aznachilik–davlat budjeti kassasini ta'minlaydigan va davlat moliyasini boshqaradigan maxsus davlat organidir. G'aznachilik – mamlakatning moliya siyosatiga va iqtisodiyotni boshqarishga javob beradigan Britaniya davlatidagi vazirlikdir. G'aznachilik–ko'pgina mamlakatlarda Moliya vazirligi tarkibida faoliyat ko'rsatadigan davlatning maxsus moliya organidir. G'aznachilik funksiyalari tarkibiga davlat budjeti loyihasini tayyorlash va uni ijrosini boshqarish, davlat qarzlarini boshqarish, shuningdek, davlat qimmatli qog'ozlarini emissiya qilish kiradi.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi hukumati bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan izchil iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Islohotlar strategiyasi davlat iqtisodiy siyosatining keng qamrovli dastaklarini o'z ichiga oladi. Mana shunday dastaklardan eng muhimlaridan biri-

davlatning izchil moliyaviy siyosati hisoblanadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat moliyaviy siyosatini olib borish va iqtisodni moliyaviy tartibga solish muammolariga alohida e'tibor beriladi.

### Nazorat uchun savollar

1. Budget tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. Budget tizimi fanining predmeti nima?
3. Budget tizimi funksiyalari nimalardan iborat?
4. Budgetning kassa ijrosi deganda nimani tushunasiz?
5. Budget tizimi fani boshqa qaysi iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'langan?
6. Budget tizimi fanini o'qitishdan maqsad nima?
7. Budget tizimi vazifalarini sanab bering?

## 1.2. BUDJET TIZIMI VA UNING PRINTSIPLARI.

*“Hammamizda ham bir xil qobiliyat bo’lmasligi mumkin, lekin hammamizda qobiliyatni rivojlantirish uchun bir xil imkoniyat mavjud”*

**A.P.J Abdul Kalam**

*Budjet so’zi 15-asrlarda paydo bo’lgan bo’lib, O’rta asrlardagi Fransuz tilidan “bougette”, qadimgi fransuz tilidagi “bouje”, ya’ni “charm sumka, hamyon, kichik charm sumka”, lotin tilidagi “bulga” so’zidan olingan bo’lib, “charm sumka” degan ma’nolarni anglatadi. Zamonaviy moliyaviy ma’nosi (1973) g’aznachilik vaziri fiskal rejalarini o’zining hamyonida saqlashi degan tushunchani beradi. Boshqa ma’nosi 18-asrda “yangiliklar shodasi” bo’lib ko’chdi, shu sababdan bu so’zni ishlatish ayrim gazetalar uchun sarlavha sifatida ishlatilgan.*

*Oksford lug’atida keltirilishicha, budjet – ma’lum davr uchun daromad va xarajatni hisoblash degan ma’noni anglatadi: Moliya Vaziri tomonidan yillik daromad va xarajatlarni muntazam baholash ya’ni oldinga qo’yilgan maqsadga muvofiq kerakli pul mablag’ini anglatadi. Merrayam-Vebster lug’atiga ko’ra, Budjet qanday qilib sarflanishi rejalashtirilganligiga bog’liq holda sarflanishga qodir bo’lgan pul mablag’i miqdoridir ya’ni, pul miqdorini qancha sarflanishi mumkinligini va kelajakda qancha sarflanishidir. Bu hukumat tomonidan belgilangan davr ichida qancha sarflanishi rejalashtirilganligi va xarajatlari uchun qancha to’lanishi haqidagi rasmiy ma’lumot. Rene Stourmning fikriga ko’ra:*




*“budjet – davlatning yillik tushumi va xarajatlarini prognoz qiladi va tasdiqlaydi”<sup>2</sup>.*

Davlatning budjet tuzilishi turli darajadagi budjetlarning turlarini, har bir budjet bo‘g‘inining tayinlanishini, turli pog‘onadagi budjetlar o‘rtasida daromad va xarajatlarning taqsimlanishini, ularning amal qilish tamoyillarini, markaziy hukumat va mahalliy hokimiyat organlarining budjet tizimini boshqarishdagi vakolatlarini belgilab beruvchi yuridik me‘yorlarga asoslanadi. Budjet tizimi mamlakatda amal qiluvchi barcha darajadaga budjetlar yig‘indisini bildiradi. Demak, Budjet tuzilishi mamlakatning davlat budjeti va budjet tizimini, uning bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil qilish shakllarini, budjet tasnifini, budjet tizimiga kiradigan barcha darajadagi budjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, budjetlar tarkibi va tuzilmasini, budjet mablag‘larini shakllantirish va sarflashdagi tartib-qoidalar va boshqalarni belgilab beradi (1-rasm).

---

<sup>2</sup>Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice, CreateSpace USA, 2016. p.20



**2-rasm. Budjet tuzilishining tarkibi**

Budjet tuzilishining qanday tuzilganligi mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga va hukumat organlarining vakolatlari taqsimotiga bog'liq bo'ladi. Markaziy hukumat bilan mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari (shtatlar, provinsiyalar, oblastlar, o'lkalar kabi) o'rtasida hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishiga ko'ra barcha davlatlar unitar va federativ (federativ davlatlarda davlat tuzilishining ikki shakli – federativ va konfederativ davlat tuzilishi mavjud) davlatlarga bo'linadi. Unitar va federativ (konfederativ) davlat tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari quyidagi chizmada aks ettirilgan.

**Unitar (yagona) davlat** – bu tarkibidagi ma'muriy-hududiy birliklar (tuzilmalar) o'z davlatchiligiga yoki muxtoriyatiga ega bo'lmaydigan davlat tuzilishidir. Mamlakatda yagona konstitutsiya, hamma uchun umumiy bo'lgan huquq tizimi va yagona hokimiyat organlari, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni markazlashtirilgan boshqarish tizimi amal qiladi.


## Unitar davlatlarda ikki pog'onali budjet tizimi amal qiladi:



Mahalliy budjetlar



Davlat budjeti (bu bo'g'in turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi, masalan, markaziy budjet, respublika budjeti, hukumat budjeti kabi)



### 3-rasm. Ikki pog'onali budjet tizimi amal qiladigan Unitar davlatlar.

Unitar davlatlarga Qozog'iston, Yaponiya, Shvetsiya, Fransiya, Polsha, O'zbekiston kabi davlatlar kiradi.

Federativ asosda tarkib topgan davlatlarda uch pog'onali Budjet tizimi amal qiladi:

- ✓ federal budjet (turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi, masalan: davlat budjeti, markaziy budjet, federal budjet);
- ✓ federatsiya sub'yekt(a'zo)larining budjetlari;
- ✓ mahalliy (munitsipal) Budjetlar.

Federativ tipdagi davlatlarga Rossiya Federatsiyasi, Germaniya Federativ Respublikasi, AQSh, Kanada, Meksika, Avstriya kabi davlatlar kiradi.

Jahon amaliyotida davlat tuzilishining shakllariga mos ravishda bir qancha Budget tuzilishi modellari amal qiladi:

- markazlashmagan model;
- markazlashgan model;
- aralash model.

Budget tuzilishining markazlashmagan modelida markaziy va mahalliy budgetlar avtonom (mustaqil) bo‘lib, ularning har biri o‘z xarajatlarini to‘liq qoplay oladigan daromad manbalariga ega bo‘ladi.

Markazlashgan model barcha darajadagi budgetlarni yagona davlat budgetida birlashtirishni nazarda tutadi, bunda markaziy budget barcha mahalliy budgetlar uchun (daromadlilik darajasini) tartibga soluvchi vazifani bajaradi.

Budget tuzilishining aralash modeli barcha darajadagi Budgetlarni yagona davlat budgetida birlashtirishni nazarda tutadi, lekin bunda har bir yuqori turuvchi Budget quyi budgetlarning daromadlilik darajasini tartibga solish vazifasini bajargani holda, har bir mahalliy budgetning ham o‘z xarajatlarini qoplashga mo‘ljallangan o‘z daromad manbalari mavjud bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining Budget tuzilishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining har yili qabul qilinadigan “O‘zbekiston Respublikasining davlat Budgeti to‘g‘risidagi” Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va davlat budgeti parametrlari prognozlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va boshqa qonun hujjatlari asosida belgilanadi.

*“Budget birinchi navbatda aniq olingan vaqt davomida daromadlar va xarajatlarni prognoz qiladi. U shu bilan birga asosli huquqlar asosida xarajatlar qilish va daromadlarni yig‘ish demakdir. Davlat budgeti o‘zining resurslari hisobi*

va bu resurslarni ma'muriy va ijtimoiy talablar uchun katta miqdordagi xarajatlarning qoplanishidir. E.Bukning fikriga ko'ra, budjet 3 ta komponentdan tashkil topgan: moliyaviy reja; bajariladigan ish tartibini tuzish, tasdiqlash, rejani ijro etish va nazorat qilish; va ayrim hukumat vakillari bu har bir rejani bajarishga va shu tartibda ijro etishga ma'suldirlar.”<sup>3</sup>


#### *Budjet xususiyatlari:*

- ✓ *Bu o'tgan tajriba asosida ishlab chiqilgan tizimli, tashkiliy va ijroiya reja va dasturdir.*
- ✓ *Bu aniq reja emas, lekin amaliy ish uchun qonuniy metoddir.*
- ✓ *Budjet hisobi taxminiy farazlarga asoslanmasligi va xolisona haqiqiy hisob-kitoblarga asoslangan holda bo'lishi lozim.*
- ✓ *Hukumatning barcha yillik daromadi va xarajatlarini qadamba-qadam tizimli ko'rsatishi lozim.*
- ✓ *Budjet muvofiqlashtirilgan mukammal hisob-kitobdir.*
- ✓ *Umuman, bu moliya yili bilan mos keluvchi yillik rejadir.*
- ✓ *Budjet tayyorgarligi va taqdimotini xususiy bo'lmagan a'zo budjetni qonuniy taqdim etish imtiyoziga ega.*
- ✓ *Parlamentar demokratik budjet qonuniy sanksiyalardan oldin qo'yiladi.*
- ✓ *Sanksiyalar e'loni xarajatlarni samarali boshqaradi.*

Budjet tizimining yagonaligi printsiplari budjet hujjatlari va budjet hisobotlarining shakllari, budjet tasnifi yagona bo'lishi hamda budjet tizimi budjetlarining daromadlari va xarajatlarini shakllantirish hamda ijro etish, budjet hisobini yuritish va budjet hisobotini tuzishning yagona tartibini nazarda tutishini anglatadi.

---

<sup>3</sup>Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice, CreateSpace USA, 2016.



#### 4-rasm. O'zbekiston Respublikasi Budjet tizimining printsiplari

Budjet tizimining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi printsiplari Budjet tizimi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq bo'lishi lozimligini anglatadi.

##### ***Budjet tizimi Budjetlarining balansliligi va o'zaro bog'liqligi printsiplari:***

✓ Budjet tizimi budjetlarida nazarda tutilgan xarajatlar hajmi ularning daromadlari va taqchillikni qoplash manbalari yig'indisining hajmiga muvofiq bo'lishi kerak;

✓ Budjet tizimi budjetlarini tuzish va ijro etishda budjetlarning mablag'lari mazkur budjetlarning balanslilikini ta'minlash uchun ular o'rtasida qayta taqsimlanishi mumkin.

✓ Budjet tizimi budjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish printsipti.

✓ Budjet tizimi budjetlarini tuzishda Budjet tasnifiga muvofiq, daromadlar ularning aniq manbalari bo'yicha prognoz qilinadi, xarajatlar esa yo'nalishlar bo'yicha rejalashtiriladi.

✓ Budjet tizimi budjetlari mablag'laridan foydalanishning aniq yo'naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati printsipti. Budjet tizimi budjetlarining mablag'lari muayyan budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarga ushbu mablag'lardan belgilangan maqsadlarni moliyalashtirishda foydalanish uchun ajratiladi

✓ Budjet tizimi budjetlarining mustaqilligi printsipti.

✓ Budjet tizimi budjetlari mustaqildir.

✓ Budjet tizimi budjetlari mablag'laridan foydalanishning natijadorligi printsipti. Budjet jarayoni ishtirokchilari budjet tizimi budjetlarini tuzish va ijro etishda o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida budjet tizimi budjetlarining belgilangan hajmdagi mablag'laridan foydalangan holda natijaga erishish zaruriyatidan kelib chiqadi.

✓ Kassaning yagonaligi printsipti. Budjet tizimi budjetlarining barcha daromadlari Yagona g'azna hisobvarag'iga kiritiladi va ularning xarajatlarini to'lash ushbu hisobvaraqdan amalga oshiriladi.

✓ Budjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi printsipti.

Budjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi printsipti Budjet jarayonining har bir ishtirokchisi Budjet jarayonining har bir bosqichida o'z harakatlari uchun javobgar bo'lishidan iboratdir.

### ***Ochiqlik prinsipi:***

- *Davlatbudgetinivadavlatmaqsadlijamg 'armalarbudgetlariniko 'ribchiqish hamdaqabulqilishtartib-taomillariningjamiyatvaommaviyaxborotvositalariuchunochiqligini;*
- *Tasdiqlangandavlatbudgetivadavlatmaqsadlijamg 'armalaribudgetlarito 'g 'risidagi xborotningommaviyaxborotvositalaridavaO 'zbekistonRespublikasiMoliya Vazirliginingrasmiyveb-saytidae 'lonqilinishini (chopetilishini);*
- *Davlatbudgetivadavlatmaqsadlijamg 'armalaribudgetlariijrosiningborishi to 'g 'risidagi xborotommaviyaxborotvositalaridachopetilishini, shuningdekO 'zbekistonRespublikasiMoliyaVazirliginingrasmiyveb-saytidajoylashtirilishivayangilabborilishinianglatadi.*

Budget tizimi murakkab mexanizm bo'lib, muayyan mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa xususiyatlari asosida va ta'sirida shakllanadi.

Budget tizimini professorlar T.S.Malikov va N.X.Haydarovlar quyidagicha ta'riflaganlar: "Budget tizimi bu turli darajadagi budgetlar va budget mablag'lari oluvchilar yig'indisini, budgetlarni tashkil etishni va tuzish tamoyillarini ifodalaydigan, budget jarayonida ular o'rtasida, shuningdek budgetlar hamda budget mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlar majmuidir. Ko'pchilik hollarda, soddaroq tarzda, budget tizimi deyilganda, mamlakatdagi mavjud budgetlar to'plami (majmui) tushuniladi".

***Keng ma'noda Budget tizimi – iqtisodiy munosabatlarga asoslangan,***

***davlat tuzilishining shakliga mos ravishda tuzilgan, huquq normalari bilan***

***tartibga solinadigan markaziy va mahalliy budgetlar yig'indisidan, shuningdek,***

***har bir budget bo'g'iniga tegishli bo'lgan soliq va yig'imlar yig'indisidan,***



*xarajat vakolatlari hamda Budjetlararo transfertlar yig'indisidan iboratdir. Tor*

*ma'noda budjet tizimi mamlakatda amal qiluvchi barcha darajadagi budjetlar*

*yig'indisidir.*

Soddaroq qilib aytganda, Budjet tizimi bu iqtisodiy munosabatlarga, davlat tuzilishiga va qonun normalariga asoslangan davlat, ma'muriy-hududiy tuzilishlarning, budjet munosabatlarida mustaqil bo'lgan budjet tashkilotlari muassasalari va maqsadli davlat fondlarining majmuidir.

Budjet tizimi mamlakatdagi turli darajadagi budjetlarni o'zida ifoda etadi. Boshqacha ma'noda, budjet tizimi budjetning o'zaro bog'liqlikda bo'lgan bo'g'inlarining o'zaro yig'indisidan iboratdir. Mamlakatning budjet tizimi jamiyatning siyosiy tuzilishiga, davlatning iqtisodiy tizimiga va uning ma'muriy-hududiy bo'linishiga bevosita bog'liq.

Mamlakatning budjet tizimi ikki yoki uch bo'g'inli bo'lishi mumkin. Unitar davlatlar deb yuritiladigan mamlakatlarda budjet tizimi ikki bo'g'indan (markaziy va mahalliy budjetlar), federativ davlatlar deb yuritiladigan mamlakatlarda esa uch bo'g'indan (markaziy budjet, federatsiya a'zolari budjetlari va mahalliy budjetlar) iborat bo'lishi mumkin.

Shuningdek, ba'zi unitar davlatlarda budjetning markazlashtirishdan chiqarilish darajasi, hududlar hukumat organlarining vakolatlari bilan belgilanadigan ko'p darajali budjet tizimiga ega bo'lishi mumkin. Masalan, markazlashtirishdan chiqarilgan unitar davlat – Fransiya to'rt darajali budjet tizimiga, mahalliy hokimiyatlarning soliqqa oid vakolatlari konstitutsiya bilan belgilangan markazlashgan unitar davlat – Shvetsiya uch darajali budjet tizimiga ega.

Biz yuqorida hokimiyatning markaz va ma'muriy-hududiy birliklar o'rtasida taqsimlanishi darajasiga ko'ra barcha davlatlar unitar, federativ va konfederativ

davlatlarga bo‘linishi, ularning hususiyatlarini ta’kidlab o‘tdik. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi unitar davlatdir.

Unitar davlat sifatida O‘zbekiston Respublikasi davlat budjet tuzilmasi ikki bo‘g‘indan – respublika budjeti va mahalliy budjetlardan tashkil topadi. Bu budjetlar mamlakatimizdagi davlat budjeti amal qilishining tashkiliy shakli bo‘lib xizmat qiladi. Davlat budjeti o‘z ichida respublika budjetini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetini va keng tarmoqli mahalliy budjetlarni birlashtiradi.

*Umumiy qilib aytganda ko‘pchilik demokratik davlatlarda budjet 4 ta bosh maqsadni amalga oshirishi lozim:*

- 1) *Konstitutsion yoki qonuniy majburiyatlar;*
- 2) *Ijro etish taqdimoti va budjet ijrosida qonuniy nazoratning mavjudligi;*
- 3) *Organelarga harajatlarning ijroisining nazorati;*
- 4) *Monetar / fiskal strategiyaga erishish.*

Bugungi kunda davlat budjetida davlatning budjetdan tashqari maqsadli fondlari ham konsolidatsiyalashadi (jamlanadi), ular davlat budjeti bilan birgalikda jamlanma Budjetni (konsolidatsiyalashgan Budjet) tashkil qiladi.

Budjetlashtirish tizimning bir turi sifatida tushunilishi mumkin, ya’ni “ular o‘rtasida munosabatlar bilan bog‘lanuvchi tarmoq”. Budjet qaror qabul qilish ma’muriy xodimlar harakatini tashkil etadi (ikkala markaziy tashkilotda ham boshqaruv xodimi yoki hokim shtati va ma’muriy agentlik yo‘nalishlarida), qonuniy xodimlar, tashkillashtirilgan manfaatli guruhlar va birgalikda tashkil etilgan manfaatlar, ya’ni davlat ehtiyojlari va soliqlar haqida davlat masalasini umumiy tushunish orqali namoyon bo‘luvchi manfaatlar. Keltirilgan hamma holatlar va budjetlashtirishni anglab yetish o‘zaro munosabatlarni tushnishi

bildiradi. Bunday tushunish umumiy tizimlar jihatidan o`ylash orqali a'lo darajada erishiladi.

Umumiy ijtimoiy tizim shaxslar, ijro etilgan normalar va ushbu elementlar o`rtasidagi munosabatlar tomonidan tashkil etilgan tashkilotlar, shaxslar va qiymatliklarni ifodalaydi. Tizim turli qismlar orqali qabul qilinuvchi xabarlarining ko`pgina qismlarini tashkil etgan alohida tarmoq sifatida tushuniladi. Tizim elementlarining natijalari va o`zaro ta'sir tizimi ishlab chiqarish uchun bir biriga ta'sir ko`rsatadi, huddi shu yo`nalishdagi natijalar orqali turli xil yo`nalishlar shaklida bo`lishi mumkin. Budget tizimlari siyosiy qatnashchilar, iqtisodiy va ijtimoiy nazariyalar, bir qancha institutsional tuzilmalar va raqobatchi normalar va qiymatlarni o`z ichiga oladi, faqatgina budget hujjatlarini o`rganishdan bevosita ochiq bo`lmagan shakldagi mahsulot ishlab chiqaruvchilarning hammasini o`z ichiga oladi.

Budget munosabatlari va budget tizimi amal qilishining qonuniy-huquqiy asosini 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining **Budget Kodeksi** tashkil qiladi. Ushbu Kodeksga muvofiq, budget tizimi barcha darajadagi budgetlar, davlat maqsadli jamg'armalari budgetlari va budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari, Budget tizimi Budgetlarini tuzish va tashkil etish printsiplari, ular o`rtasida budget jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o`zaro munosabatlar yig'indisini o`zida ifodalaydi.

Respublika Budgeti budget tizimining markaziy bo`g`ini hisoblanadi. Respublika budgeti O'zbekiston Respublikasining Budget Kodeksida va boshqa qonuniy hujjatlarda belgilangan tartibda shakllantiriladi va ishlatiladi. Respublika Budgeti davlat Budgetining umumdavlat ahamiyatidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo`lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag`lar sarfi yo`nalishlari va miqdori nazarda tutiladi .

Mahalliy Budjetlar O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksiga muvofiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Budjeti tuzilmasiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika Budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining Budjetlari kiradi.

Viloyatlar mahalliy Budjetlari tuzilmasiga viloyat Budjeti, tegishli viloyatlar tumanlari va shaharlarining Budjetlari kiradi.

Toshkent shahar mahalliy Budjeti tuzilmasiga shahar Budjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning Budjetlari kiradi.

Barcha darajadagi Budjetlarni shakllantirish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ularning ijrosi hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so‘mda amalga oshiriladi.

Barcha mamlakatlarda ularning geografik joylashuvi, tarmoqlarning turli darajada rivojlanishi va boshqa omillar sababli mintaqalarning ishlab chiqarish, daromad va ijtimoiy salohiyatining boshlang‘ich imkoniyatlari bir xilda emas. Biroq davlatning eng muhim vazifalaridan biri o‘z fuqarolari farovonligining barqaror o‘shini ta‘minlash va barcha mintaqalarning rivojlanishi uchun bir xil sharoitlar yaratishdan iborat. Bunga esa, boshqa iqtisodiy instrumentlar qatori, davlatning moliyaviy resurslarini Budjetlararo munosabatlar orqali qayta taqsimlash orqali erishiladi.

***“Budjetlararo munosabatlar*** - davlat budjet mexanizmining muhim ajralmas elementi bo‘lib, mamlakatning ma‘muriy-hududiy tuzilmalari sub‘ektlari o‘rtasida markaziy boshqaruvning markazdan turib barcha moliyaviy oqimlarni taqsimlash jarayonini oqilona tartibga solishni ta‘minlaydi va bundan tashqari, markaziy hukumatning aniq funksiyalarini davlat boshqaruvining turli darajalarida huquq va majburiyatlarni o‘zaro taqsimlab olish orqali bajarish uchun davlat Budjetida jamlangan pul mablag‘larining ushbu sub‘ektlar o‘rtasida qayta taqsimlanishini o‘z ichiga oluvchi munosabatlar yig‘indisidir” .

O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining alohida bobi **“Budgetlararo munosabatlar”** deb nomlangan va unda Budgetlararo munosabatlarning huquqiy asoslari yoritilgan.

Budgetlararo munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining respublika Budgeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika Budgeti, viloyatlarning viloyat Budgetlari, Toshkent shahrining shahar Budgeti, tumanlar, shaharlar Budgetlari, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalari Budgetlari o‘rtasidagi ushbu Kodeks bilan tegishli Budgetlarga birlashtirilgan xarajatlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tegishli Budgetlarni moliyaviy resurslar bilan ta‘minlashga doir munosabatlardir.

**“Budget kodeksi” 132-modda**

Budget jarayonida:

- O‘zbekiston Respublikasi respublika budgetining tumanlar va shaharlar budgetlari bilan;
- davlat maqsadli jamg‘armalari budgetlarining tumanlar va shaharlar Budgetlari bilan;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika Budgetining, viloyatlar viloyat Budgetlarining va Toshkent shahri shahar Budgetining bir-biri bilan, shuningdek boshqa ma‘muriy-hududiy birlikning tumanlari va shaharlari Budgetlari bilan;
- tumanlar va shaharlar Budgetlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Respublika Budgetidan mahalliy Budgetlarga ajratiladigan Budget subvensiyalari va dotatsiyalari O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunday ajratmalarning miqdori quyidagilarga bog‘liq:

- hududlarning moliyaviy holatiga, jumladan, ularning o'z daromad bazalarining mustahkamligiga;
- hududda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa umumdavlat vazifalari va dasturlari ko'lamiga;
- hududlar bo'yicha tovar (ish, xizmat)lar qiymatidagi farqlarga;
- hududlar aholisining soniga;
- ushbu hududda joylashgan va tegishli Budjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarning Budjet ajratmalariga bo'lgan ehtiyojiga;
- hududlar o'rtasidagi moliyaviy nomutanosiblikni bartaraf etish uchun hisobga olinadigan boshqa omillarga.

Ma'lumki, Budjetlararo munosabatlarni tashkil etish mamlakatdagi davlat tuzilishi bilan bevosita bog'liq. Unitar davlatlarga Budjet resurslari markazlashish darajasining yuqori bo'lishi hamda mahalliy Budjetlar Budjet huquqi va majburiyatlari hajmining nisbatan past bo'lishi xosdir. Federativ asosdagi davlat tuzilishiga ega davlatlarda esa Budjetlararo munosabatlar Budjet federalizmining bir qismi hisoblanadiki, u vakolatlar va javobgarlikni Budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida mutanosib taqsimlashni, turli darajadagi Budjetlarning nisbatan mustaqilligini nazarda tutadi. Hozirgi kunda o'tish iqtisodiyotidagi xoh federativ, xoh unitar davlat tuzilishiga ega bo'lgan ko'pchilik mamlakatlarda Budjetlararo munosabatlar islohotlari Budjetlarning nomarkazlashuvi doirasida amalga oshirilmoqda.

Budjet Kodeksi O'zbekiston Respublikasining Budjet tizimi Budjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va Budjet to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Budjet tizimini boshqarishda yuqori va quyi Budjetlar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil qilish va tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Bu munosabatlarni qonun bilan tartibga solish maqadida Budjet kodeksida daromadlarni Budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida qayta taqsimlash yo'llari, qaysi daromadlarni qaysi Budjet bo'g'iniga tushishi, qaysi xarajatlar qaysi Budjetdan amalga oshirilishi belgilab berildi.

Mazkur paragrafda bayon etilgan fikrlarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash lozimki, Budjetlararo munosabatlarni amalga oshirishning qonuniy-huquqiy asoslarini quyidagilar tashkil qiladi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi;
- "O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi";
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining har moliyaviy yil uchun qabul qilinadigan "O'zbekiston Respublikasining davlat Budjeti to'g'risida"gi Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining har moliyaviy yil uchun qabul qilinadigan "O'zbekiston Respublikasi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat Budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori;
- Boshqa qonuniy-huquqiy xujjatlar.

Budjet tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishda mamlakatda olib borilayotgan islohotlar mexanizmlarining samara berayotgan jihatlaridan keng va unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, bozor munosabatlari sharoitida Budjet tizimida davlat Budjetidan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ijobiy ta'sir etib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish barqarorligini ta'minlaydi. Bir qator xorijiy mamlakatlarning Budjet ijrosidagi natijalarni boshqarish tamoyillariga asoslanib natijaviylikka

yoʻnaltirilgan Budjetlashtirishni amalga oshirish bugungi kunda oʻz samarasini bermoqda.

*"Hattoki, dunyodagi eng asosiy budjet tizimi 3 ta funksiyadan tashkil topgan. Robert Antony 3 ta alohida ma'muriy jarayon, strategic rejalashtirish, boshqaruv nazorati va jarayonli nazoratga aniqlik kiritadi.*

- *Strategik rejalashtirish tashkilotning maqsadini ishlab chiqish, bu maqsaddagi o'zgarishlar, bu maqsadga erishish uchun mablag'lar sarflanishi va ularni joylashtirish jarayoni;*
- *Boshqaruv nazorati ushbu resurslarning tashkilotlar*
- *tomonidan maqsadli joylashtirilganligi va ishlatilganligiga ishonch hosil qilishdan iborat.*
- *Operativ nazorat maxsus vazifalarning samarali amalga oshirilganligiga ishonch hosil qilish jarayoni.*

*Budjet tizimida rejalashtirish maqsadni shakllantirish, muqobillarini baholash va dasturni tasdiqlashni qamrab oladi. Boshqaruv tasdiqlangan dasturni mavjud resurslar orqali samarali amalga oshirishni taqazo etadi. Nazorat budjetni baholash, ajratmalar ajratish, ijro etish va audit jarayonida namoyon bo'ladi. Hisobot, taqiqlar va boshqaruv siyosati budjet tashkilotlari bilan bog'liq turli xil nazorat turlaridir.*"<sup>4</sup>

Davlat budjetining ahamiyatli tomoni shundaki, u moddiy ishlab chiqarish sohalarini moliyalashtirish bilangina chegaralanib qolmaydi. Balki, Budjet mablag'lari noishlab chiqarish sohalariga (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshq.) ham yunaltirilishi mumkin. Ijtimoiy-madaniy sohalaridagi korxonalar hamda tashkilotlarni moliyalashtirish Budjet va Budjetdan tashqari fond mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

*"Budjet tushunchasi O'rta asrlarda qirollik yerlaridan mablag'lar yig'ib olinishi bilan rivojlanishni boshladi. Ikki yoqlama yozuv kitobi ilk bora 1543-1588*

---

<sup>4</sup>Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice, CreateSpace USA, 2016.



yillarda ishlatila boshlangan. Britaniyaliklar pul ajratishning qonuniy tizimini 1688-yilda joriy etishgan. Hisobvaraqa huquqi (“the Bill of Rights”)ga ko’ra 1689-yilda parlamentning ruxsatisiz soliqlar undirilishi mumkin bo’lmagan. Amerika mustamlakamalari tomonidan parlamentga vakil ko’rsatilmagan va ularga soliq solishni joriy qilish noqonuniy sanalgan. Bu Jonatan Mehyu tomonidan 1750-yilda kiritilgan “Vakilsiz soliq yo’q” degan shiorga asos solinishiga olib kelgan. Moliya bo’yicha qonuniy asos rivojlantirilgan va faqat bu Angliyada amalga oshirilgan. Qirol Jon boshqaruvi davrida xarajatlar o’rniga yillik foydani nazorat qilish boshlangan. 1787-yilda buxgalteriya va hisobot tizimi o’rnatildi. 1866-yildagi audit departamenti qonuni va 1866-yilda Jamiyatlar Uyi (the House of Commons)da mahalliy buxgalterlar qo’mitasi konstitutsiyasi muhim davriy rivojlanishga asos bo’ldi.”<sup>5</sup>

Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlardan biri bo’lgan AQShda natijaviylikka yo’naltirilgan Budjetlashtirish amaliyotini joriy etish qariyb 50 yil oldin amalga oshirilgan. AQShning natijaviylikka yo’naltirilgan Budjetlashtirish amaliyoti konsepsiyasini joriy etish bosqichlarini quyidagicha taqsimlash mumkin:

Maqsadli-dasturiy Budjet islohotlari, 1949-1962 yillar;
«Rejalashtirish-dasturlashtirish - Budjetlashtirish» tizimi, 1962-1971 yillar;
«Maqsadlarni boshqarish», 1972-1975 yillar;
«Nol asosli Budjetni ishlab chiqish», 1977-1981 yillar;
«Davlat muassasalari faoliyatini baholash haqida»gi (GPRA) AQSh qonuni 1993-yilda qabul qilindi va aynan mazkur qonun bugungi kunda natijalarni boshqarish amaliyotining asosi bo’lib xizmat qilmoqda.

<sup>5</sup>Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice, CreateSpace USA, 2016.

Mazkur GPRA qonuni davlat Budjet siyosatining bir necha maqsadlarini oydinlashtirdi. Qonunning asosiy bandlari AQSh natijaviylikka yoʻnaltirilgan Budjetlashtirish amaliyotining maqsadlarini uygʻunlashtiradi, rejalar va hisobotlar tizimini tartiblashtiradi, natija larga eltuvchi resurslarning samara doirasini belgilab beradi.

Rossiya Federatsiyasining *NYB*ni joriy etish borasida toʻplangan tajribasi oʻtish davriga xos davlatlar uchun diqqatga sazovor. Mamlakat hukumati «2004-2006 yilda Rossiya Federatsiyasida Budjet jarayonini qayta qurish Konsepsiyasi»ni qabul qilishi bu boradagi dastlabki qadamlardan biri boʻldi. Bu konsepsiya Budjet amaliyoti uchun yangi boʻlgan natijaviylikka yoʻnaltirilgan Budjetlashtirishni keng doirada tatbiq etish imkonini yaratadigan quyidagi asosiy jihatlarda, yaʼni:

- davlat Budjetining rejalashtirish natijalarida va federal subʼektlar faoliyatining asosiy yoʻnalishlari yuzasidan yigʻma bayonnomada;
- federal va mahalliy (har bir boʻgʻinga boʻysunuvchi muassasalar) maqsadli Budjet dasturlarida;
- oʻrta muddatga moʻljallangan istiqbolli moliyaviy rejada;
- Rossiya Federatsiyasining xarajat majburiyatlari Reyestrda namoyon boʻladi.

Hisobotlar doirasida maqsadli Budjet dasturlari davlat hokimiyat organlari faoliyati strategiyalarini aniqlab olib, ishlar borishini muvofiqlashtiradi. Muvofiqlashtirilgan hisobotlar va dasturlar orqali *NYB* tizimidagi makro va mikro darajadagi xarajatlar hamda ularning natijalari oʻrtasida oʻzaro bogʻliqlik shakllantiriladi. Istiqbolli moliyaviy reja tuzish orqali Budjet xarajatlarning hajmi va tarkibining rejalashtirilishiga erishiladi.

Bozor munosabatlari rivojlangan Budjet tizimini boshqarish hamda ularning natijalarini taʼminlash natijaviylikka yoʻnaltirilgan Budjetlashtirish tizimi orqali amalga oshiriladi. Davlat Budjeti ijrosining yangi mexanizmini amaliyotga joriy etish bugungi kunda Budjet islohotlarining asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlib qolmoqda. Budjet tizimini samarali boshqarish zaruriyati Budjetmablagʻlaridan

to'g'ri foydalanishda bosh mezonga aylanadi. O'zbekiston Respublikasi Budjettizimidagi o'tkazilayotgan tub islohotlar davlat Budjeti ijrosini natijaviylikni ta'minlash hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatda davlat Budjeti ijrosining natijaviylikni ta'minlash maqsadida ko'pgina chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijaviylikka yo'naltirilgan Budjetlashtirish amaliyotini joriy etish ham olib borilayotgan islohotlardan biri hisoblanadi.

O'rta muddatli Budjetni rejalashtirishga o'tish keyingi yillarda rivojlangan davlatlar va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida olib borilayotgan Budjet islohotlarining muhim elementlaridan hisoblanadi. O'rta muddatli Budjet strategiyasiga o'tish quyidagi zaruriyat bilan belgilanadi:

- ✓ bir yildan ortiq davrga mo'ljallangan davlat dasturlarini moliyalashtirish va amalga oshirish davlat dasturlarini bajarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan bog'lanishni talab qiladi;
- ✓ ichki va tashqi resurslarning, jumladan investitsion resurslarning konsolidatsiyalanishi;
- ✓ davlat moliyasini rejalashtirish va boshqarish tartibini takomillashtirish orqali investitsion xarajatlarning bo'lajak joriy xarajatlar bilan bog'lash imkoniyati yaratiladi;
- ✓ davlat xarajatlari samaradorligini oshirish;
- ✓ Budjet jarayonining prognozi va shaffofligini ta'minlash.

O'rta muddatli Budjet strategiyasi doirasida Budjet siyosatining yo'nalishlari va chora-tadbirlari moliyalashtirish vositasiga aylanadi va o'rta muddatli ustuvorliklarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Navbatdagi moliyaviy yil uchun Budjet har yili yangilanadigan va bir yil oldinga suriladigan o'rta muddatli (odatda 3 yilga mo'ljallangan) moliyaviy rejaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu Budjet siyosatining uzluksizligini, Budjet mablag'lari taqsimlanishining prognozini ta'minlaydi va shu bilan birga, davlat siyosati maqsadlari hamda ularga erishish sharoitlariga muvofiq tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Bunda o'rta

muddatli Budjet ijro hokimiyati organlarining prognoz tahliliy hujjati maqomini olishi mumkin.


Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda o'rta muddatli rejalashtirishga o'tish shart sharoitlarini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- ✓ barqaror iqtisodiy o'sish va uning o'rta va uzoq muddatli istiqbolda saqlanib qolishi zarurligi;
- ✓ farovonlikni oshirishning o'rta muddatli strategiyasini ishlab chiqish va o'rta muddatga mo'ljallangan boshqa milliy dasturlarning mavjudligi;
- ✓ yangi Soliq kodeksining qabul qilinishi va o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan soliq siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish.

Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish budjet xarajatlarini optimallashtirishga, ularni davlat siyosatining ustuvorliklariga bo'ysundirishga, iqtisodiyotning davlat sektori samaradorligini oshirishga qaratilgan. Natijaviylikka yo'naltirilgan Budjetlashtirish elementlarini nisbatan tez (5-10 yil) va keng miqyosda asosan, Jahon banki, shuningdek, boshqa donorlar ko'magida joriy etishga urinishlar va uning Budjet islohotlarining boshqa yo'nalishlari bilan birga borishi yoki ulardan ilgari ketishi so'nggi yillarda qator rivojlanayotgan mamlakatlarda kuzatildi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda ham moliyaviy yilga mo'ljallangan natijaviylikka yo'naltirilgan Budjetlashtirish amaliyotini keng joriy etishning istiqbol rejaları ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda bir necha milliy dasturlar va hukumat qarorlari mavjud bo'lib, ularni natijaviylikka yo'naltirilgan Budjetlashtirish amaliyotiga muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'zlangan uzoq muddatli strategik rejalar hamda hukumat qarorlarini to'laonlik bilan amalga oshirish kelajak ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Quyidagi 3-rasmda milliy dasturlarni natijaviylikka yoʻnaltirilgan Budjetlashtirish amaliyotiga moslashtirishning namunaviy shakli keltirilgan.



### 5-rasm. Bir necha yillik rejalashtirish integratsiyasi

Oʻzbekistonda Budjetni oʻrta muddatni rejalashtirishni joriy etish shartlari sifatida quyidagilar belgilandi:

- Budjetni oʻrta muddatli rejalashtirish jarayonini tashkil etishning bosh sharti milliy darajada makroiqtisodiy barqarorlikka erishishdir.
- Iqtisodiy oʻsish davlat tomonidan izchil iqtisodiy siyosat olib borish yoʻli bilan ragʻbatlantirilishi lozimligini tushunish va u insonni rivojlantirish manfaatlariga qarab moʻljal olishini taʼminlash. Shu nuqtai nazardan, Budjet-soliqsiyosati iqtisodiy oʻsish natijalarini Budjet yili doirasidan tashqarisida erishilishi mumkin boʻlgan qoʻyilgan aniq maqsadlarga erishishga yoʻnaltirishning muhim vositalaridan biri sifatida qaraladi.
- Iqtisodiy oʻsish va aholi farovonligini oshirishning yuqori darajadagi surʼatlarini taʼminlash uchun hukumat real sektor va ijtimoiy sohani rivojlantirish sohasida bir qancha maqsadli dasturlar ishlab chiqqan va ular

amalga oshirilmoqda. Bu dasturlar o'zaro bog'liq va har yili Davlat Budjetini shakllantirish va taqsimlash parametrlari bilan muvofiqlashtiriladi. Ammo, Budjetni har yillik asosda shakllantirish qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun Budjet resurslarini taqsimlash dinamikasi va tendensiyalarini oldindan ko'rish imkoniyatini bermaydi. Bu eng avvalobir yil mobaynida olib boriladigan Budjet-soliq siyosatining torligi bilan bog'liq. Mazkur siyosat Budjetning bir yil doirasidan tashqaridagi imkoniyatlariga baho berish imkonini bermaydi, bu esa Budjet istiqbolda aniq mo'ljal olishiga monelik qilishi mumkin.

- BMTTD loyihasi doirasida 2007-2009 yillarda davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish strategiyasi urg'uni xarajatlarni boshqarishdan natijalarni boshqarishga ko'chirishni nazarda tutadi. Ushbu loyiha doirasida Moliya vazirligi 2008-2010 yillarga mo'ljallangan boshlang'ich eksperimental o'rta muddatli Budjet strategiyasidan foydalandi. Mazkur strategiya Moliya vazirligiga bo'lg'usi davrlar uchun fiskal siyosat choralarining oqibatlarini va xarajatlarning bazaviy darajalariga siyosat yangichoralarining ta'sirini aniqlashga yordam berdi. O'rta muddatli Budjet strategiyasidan foydalanish borasidagi ishlardan keyingi Budjetlarni tayyorlash jarayonida foydalanish va uni to'laqonli loyiha darajasiga yetkazish nazarda tutildi. Bundan ko'zlangan maqsad – barqaror yillik Budjetni ta'minlash, Budjetning kapital va joriy xarajatlari hisobini yuritishni yaxshilash, yillik Budjetni tuzish bo'yicha takliflar uchun moliyaviy xarajatlarning limitlarini belgilashdan iborat.

Bunda tarmoq vazirliklari o'rta muddatli Budjet strategiyasini keyingi yillarga mo'ljallangan Budjetni tayyorlashga yuqoridan quyiga tushiriladigan eksperimental dasturlar asosida kiritadilar. Bu ish Moliya vazirligi va tanlangan tarmoq vazirliklarida amalga oshirilgan boshlang'ich eksperimental loyiha natijalariga asoslanishi lozim. Bunda Budjet takliflarida siyosat choralarining maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari va natijalariga ko'proq e'tibor berilmog'i, xarajatlar me'yorlaridan foydalanishning ahamiyati pasaytirilmog'i darkor.

Dasturiy Budjetlashtirish to'liq eksperimental loyiha samarali amalga oshirilganidan, axborot tizimini o'z ichiga olgan Budjetni ijro etish g'aznachilik tizimini to'liq joriy etish yakunlanganidan (hozirgi vaqtda rejalarda 2011-yil 1-yanvarga belgilangan) keyingina rejalashtirilishi mumkin.

- O'zbekiston Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari (MRM)ga erishish bo'yicha majburiyatlar olgan, chunki MRM Hukumat aholi farovonligini oshirish masalalarini yechish doirasida islohotlarning dastlabki davridayoq o'z oldiga qo'ygan va Budjet strategiyasini ishlab chiqishda hisobga olgan rivojlanish maqsad va vazifalari bilan mushtarakdir. Bunda Budjet strategiyasini amalga oshirish MRMga erishishda 2010 yilgacha jiddiy yuksalish yuz berishiga va 2015 yilga borib Maqsadlarning aksariyatiga erishilishiga ko'maklashishi lozim. Bu davlat Budjeti xarajatlari o'lchash mumkin bo'lgan aniq natijalarga bog'lab uch yil muddatga rejalashtirilishi lozimligini anglatadi. Budjet siyosati va ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishi Budjet sohasi xodimlari va pensionerlarning real daromadlari o'sishiga, shuningdek sog'liqni saqlash va ta'limning sifati oshishiga olib kelishi lozim.
- O'zbekistonda 2007 yildan boshlab BMTTDning «Davlat moliyasi islohoti» loyihasi doirasida davlat moliya tizimini takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Loyiha doirasida O'zbekiston Respublikasining 2008 yilga va o'rta muddatli kelajakka mo'ljallangan Budjet strategiyasining asosiy yo'nalishlari ishlab chiqildi, shuningdek Budjetni rejalashtirishda yangicha yondashuvlarni qo'llashning Konseptual va metodologik jihatlari tayyorlandi. Ushbu tadqiqotlarning maqsadi sifatida 2008 yilga va o'rta muddatli kelajakka (2009-2010 yillarga) mo'ljallangan Budjet strategiyasi yo'nalishlarini va jamlangan Budjet prognozini ishlab chiqish belgilandi. Shunday qilib, Budjetni o'rta muddatli rejalashtirishni amalga joriy etishga:
- Hukumat iqtisodiy siyosatining o'rta muddatli ustuvor vazifalaridan kelib chiqib Budjet mablag'larini sarflash strategiyasini ishlab chiqish;

- Budget mablag'larini sarflashning unumdorlik darajasini oshirish (barcha darajadagi Budgetlarning xarajatlari pirovard natijaga eng samarali yo'l bilan erishishga qaratilishi lozim);
- bosh taqsimlovchilarning mustaqilligi va javobgarligini kuchaytirish (idoraviy darajada moliyaviy menejment sifatiga baho berish usullari va tartib-taomillarini ishlab chiqish va joriy etish, Budget dasturlarini ishlab chiqish, ichki auditni rivojlantirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash) yo'li bilan erishish nazarda tutilgan.

O'zbekistonda natijaviylikka yo'naltirilgan Budgetlashtirish tizimiga quyidagicha sharh berish mumkin.

1. Oliy Majlis (parlament nazorati). Natijaviylikka yo'naltirilgan Budgetlashtirish amaliyotining me'yoriy-huquqiy hujjatlarining o'rta muddatli strategiyasini belgilaydi.

2. Vazirlar Mahkamasi (hukumat nazorati). O'z vakolatlari doirasidagi vazirliklar, qo'mitalar, idoralar va boshqarmalar ko'lamida Budget loyihalarining umumiy andozasini ko'rib chiqish hamda takomillashtirilgan holda hukumat nazoratini o'rnatadi.

3. Moliya vazirligi. O'z vakolati doirasida umummilliy moliyaviy siyosatni yuritish, Budget loyahasini ishlab chiqish, ularning tasdiqqacha bo'lgan normativ hujjatlarini ishlab chiqish, ijrosini tashkillashtirish, yakuniy Budget ijrosi yuzasidan hisobotni taqdim etish.

O'rta muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni rejalashtiruvchi Davlat maxsus komissiyasi. Mazkur komissiya makroiqtisodiy ko'lamda amalga oshirilishi zarur bo'lgan innovatsion loyihalar, ratsionalizatorlik takliflarini rejalarda belgilashda, umumiy loyihalarni ishlab chiqishda, muvofiqlashtirish va tashkiliy tuzilmasini tuzishda ishtirok etadi.

O'rta muddatli Budgetlashtirish Davlat dasturi loyihasi. O'rta muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni rejalashtiruvchi Davlat maxsus komissiyasi taqdim



etgan loyihalar asosida davlat strategik rejalashtirish, ularni moliyaviy dastaklar bilan ta'minlash rejalarini ishlab chiqish va boshqalar.

**Asosiy Budjet parametrlari.** O'rta muddatli budjet yiliga mo'ljallangan choralarning belgilanishida ishlab chiqilgan maqsadli dasturiy loyihalarning umumiy tahlili keltirilib, mo'ljallangan xarajatlarning miqdori, daromadlarning shakllantirilishi hamda sarflanishi bayon qilinadi. Budjet parametrlari barcha yuqoridagi tahlillarni umumlashtirib aks ettiradi.

Budjet loyihasi quyidagi jarayonlar tahlilini o'z ichiga qamrab oladi:

*1) Budjet loyihasini ishlab chiqish. Bu bosqichda Budjet loyihasi quyidagi organlarning asosiy faoliyat va natijalarining yig'ma jildi asosida ishlab chiqiladi. Bu jarayonda quyidagi masalalar yechimi muhim: Budjetning hajmi; kelgusi davr uchun soliq va pul-kredinishning asosiy yo'nalishlari va Budjet defitsitini qoplash uslublari; daromadlarni loyihalar o'rtasida taqsimlash.*

*Budjet loyihasini tuzishda mamlakatning istiqboldagi iqtisodiy rivojlanishi, inflyatsiya darajasi, aholining bandlik darajasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdan foydalanayotgan aholi soni hisobga olinadi, har bir tarmoq bo'yicha mablag'lar oqimi va ularning samaradorligi tahlili asosida choralar keltirilishi ham muhimdir.*

*2) Davlat strategik rejalarini belgilovchi vakolatli davlat organlari loyihalari. Har bir organ o'z loyihalarini belgilangan tartibda moliyalashtirish huquqiga ega bo'ladi.*

### **Nazorat uchun savollari:**

- 1. Budjet tuzilishining tarkibi qismlarini tushuntiring*
- 2. Unitar davlatlarda qanday budjet tizimi amal qiladi?*
- 3. Budjet tuzilishi modellarini sanab bering*

4. *E.Bukning fikriga ko'ra, budget nechta komponentdan tashkil topgan?*
5. *Budget tizimi xususiyatlari va asosiy prinsiplarini tushuntring*
6. *Umumiy qilib aytganda ko'pchilik demokratik davlatlarda budget nechta bosh maqsadni amalga oshirishi lozim?*
7. *Budget munosabatlari va Budget tizimi amal qilishining qonuniy-huquqiy asosini qaysi qonuniy hujjat tashkil etadi?*
8. *Davlat budgetining ahamiyatli tomoni nimada?*
9. *AQShning natijaviylikka yo'naltirilgan budgetlashtirish amaliyoti konsepsiyasini joriy etish bosqichlarini sanang*
10. *Bozor munosabatlari rivojlangan Budget tizimini boshqarish hamda ularning natijalarini ta'minlash qanday tizim orqali amalga oshiriladi?*
11. *O'zbekistonda o'rta muddatli rejalashtirishga o'tish shart sharoitlarini nimalar bilan izohlash mumkin?*
12. *O'zbekistonda natijaviylikka yo'naltirilgan budgetlashtirish tizimiga qanday sharh berish mumkin?*

### **1.3. BUDJET TIZIMI QONUNCHILIK ASOSLARI.**

*“Agar buyumlarning namoyon bo‘lish shakli va mohiyati bevosita mos tushaverganda, har qanday ilm-fan ortiqcha bo‘lib qolar edi”.*

*KARL MARKS*

Har bir davlat uchun ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy funksiyalarni bajarishga xizmat qiluvchi pul fondiga bo‘lgan ob'yektiv ehtiyojni qondirish uchun budjet zarurdir. Har qanday davlatda ham budjet bir xil kategoriyalarni: *daromad*, *xarajat* va *qarzlarni* namoyon qiladi. Bu holat budjetni iqtisodiy kategoriya deb aniqlash imkonini beradi.

**Budjet huquqiy kategoriya sifatida - qonun bilan mustahkamlangan pul mablag‘larini tashkil topishi va sarflanishi bo‘lib, davlat va mahalliy hokimiyat organlarining funksiyalarini amalga oshirilishini ta‘minlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaviy reja asosida shakllantiriladigan davlatning markazlashgan pul fondidir.**

O‘zbekiston Respublikasida Budjetlar o‘rtasidagi munosabatlarning asosini belgilab bergan bosh qomusimiz - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasida *“O‘zbekiston Respublikasi o‘z moliya va pul-kredit tizimiga ega. O‘zbekistonning Davlat budjeti Respublika budjetidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Budjetidan va mahalliy budjetlardan iborat”* deyilgan.

Budjetlararo munosabatlarning asl mohiyatidan kelib chiqib, zamonaviy tarzda bu tushunchani quyidagicha ifodalash mumkin:

*Budjetlararo munosabatlar* - bu iqtisodiy-huquqiy munosabatlar bo'lib, budjet jarayonida davlatning budjetga kelib tushadigan daromad va xarajatlar vakolatlarini doimiy yoki uzoq muddatga taqsimlash, chegaralash borasida davlat va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabat.

Shuningdek, doimiy yoki uzoq muddatga umumdavlat va mahalliy soliqlar me'yorlarini belgilash, mablag'larni yuqori budjetdan quyi budjetlarga qayta taqsimlashda budjetlarni tartibga solishga asoslanish, xarajat vakolatlarini topshirilishi yoki qarorlar qabul qilish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash, dotatsiya, subventsiya, subsidiya shaklidagi mablag'larni, vaqtinchalik moliyaviy yordamlarni qaytarib berish sharti bilan mablag'larni birlashtirish, shuningdek, mablag'larni jamlagan holda turli darajadagi hokimiyatlar va bir hokimiyatning har-xil hududlarning manfaatlarini hisobga olib xarajatlarni moliyalashtirishdir.

Binobarin, Davlat budjeti daromadlarining to'g'ri va to'liq shakllantirilishini ta'minlash hamda xarajatlarini to'g'ri yo'naltirishga qaratilgan oqilona budjet siyosatini yuritish muhim ahamiyatga ega. Bunda, albatta, ushbu jarayonning huquqiy negizi - qonunchilik katta rol o'ynaydi.

O'zbekistonda aholining farovonlik darajasi, fuqarolarga ko'rsatiladigan xizmatlar, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda ko'rsatiladigan budjet xizmatlarining sifati va samarasi budjet qonunchiligi bilan uzviy bog'liqdir.

*Budjetlarning me'yordagi xususiyatlari:*

*1) Baholashlar naqd pulga asoslangan bo'lishi kerak.*

*2) Barcha moliyaviy o'tkazmalar uchun bitta budjet rejasi asos bo'lishi kerak.*

*3) Budjetlashtirish netto qiymatida emas brutto qiymatda bo'lishi kerak.*

*4) Budjetlashtirishda har yillik budjet keyingi yil uchun asos bo'lishi kerak.*

*5) Baholash ko'rsatkichlari hisobraqam o'tkazmalari bilan muvofiq bo'lishi kerak.*

*6) Budjetlash ishlari budjetni ishlab chiquvchi tashkilot me'yoriy hujjatlariga mos bo'lishi kerak.*

Hozirgi kunda respublikamizda budjet tizimi munosabatlarini tartiga solish va boshqarishga oid asosiy me'yoriy-huquqiy xujjatlar quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (*O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksini tasdiqlash*

*to'g'risida" O'RQ-360-son Qonuniga asosan, 2014-yil 1-yanvardan amaliyotga joriy etilgan).*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining har moliyaviy yil uchun qabul qilinadigan *"O'zbekiston Respublikasi Davlat Budjeti parametrlari to'g'risida"*gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining *"Davlat Budjeti g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"* gi qarori (28.02.2007 y. №594);


Vazirlar Mahkamasining *"O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining G'aznachiligi to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash to'g'risida"*gi qarori (20.03.2007y. №53);

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlangan *"Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, mahalliy budjetlarga budjet ssudalarini berish va olingan budjet ssudalarini qaytarish tartibi to'g'risidagi nizom"* (28.06.2001 y. №58)

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlangan *"Davlat Budjetining g'azna ijrosi Qoidalari"* (04.08.2009 y. №69);

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi (06.04.2010 y. №27) va Davlat soliq qo'mitasi (06.04.2010 y. №2010-17) qarorlari bilan tasdiqlangan *"Yuqori budjetdan quyi budjetlarga o'tkazib beriladigan daromadlarni rejalashtirish, ajratish tartibi to'g'risidagi nizom"*

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlangan *"O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining g'azna ijrosi qoidalari"* (22.11.2016 y. №88);



**1-rasm. Budjet munosabatlarning qonuniy-huquqiy asoslari.**

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlangan "Davlat Budjetining pul mablag'larini rejalashtirish va boshqarish tartibi to'g'risidagi nizom" (06.05.2010 y.№39);

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimida shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini yuritish qoidalari" (24.03.2016 y. №21);

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va uning hududiy bo'linmalarida Budjetdan mablag' oluvchilarning shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ochish, yopish va yuritish qoidalari" (17.12.2012 y.№86);

Moliya Vazirligi va G'aznachiligining yo'riqnomalari, buyruqlari, xatlari va h.k.

Mamlakatimizda budjet tizimi munosabatlari bugungi kunga qadar "*Budjet tizimi to'g'risida*"gi va "*Davlat Budjetining g'azna ijrosi to'g'risida*"gi qonunlar hamda shu sohaga tegishli qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solib kelinmoqda edi. Bu esa alohida me'yorlarning turlicha talqin qilinishiga va ularni amalga oshirishning murakkablashuviga olib kelmoqda edi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda davlat moliyasini boshqarishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, Budjet siyosati ustuvor yo'nalishlarini tartibga solish maqsadida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat moliyasini boshqarish doirasidagi islohotlar, Budjet qonunchiligini takomillashtirish, uni xalqaro me'yorlar talablariga moslashtirish borasidagi muhim o'zgarishlardan biri O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining qabul qilinishi bo'ldi.

***Davlat budjetini tuzish quyidagi qonun-qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi:***

***A) Budjet loyihasi amaldagi hokimyat(hukumat)ning budjet siyosati va fiskal siyosati bilan muvofiq bo'lishi kerak:***

***1) Tushunarlik*** - budjetdagi tushum(daromad)lar va chiqim(xarajat)lar shunday aks ettirilishi kerakki, undan oddiy shaxs foydalanganda ham uni to'liq tushinishi kerak.

***2) Alohidalik(Yakkalik)*** - Davlatning budjet loyihasi uning faqatgina moliyaviy operasialari bilan bog'liq bo'lib, unda moliyaga aloqasi bo'lmagan muammolar ta'sir etmasligi



**B) Budjet mexanizmining shakllanishi quyidagi omillar ta'sirida vujudga keladi:**

1) **Yagonalik** - hukumatning barcha daromadlari barcha davlat tushumlari uchun yagona bo'lgan fondga yoki hisobraqamga tushishi;

2) **Maxsuslik** - bu omil hukumatning barcha daromadlari va xarajatlar moddalarini klassifikatsiyalashda maxsus shakldaligini bildiradi;

3) **Davriylik** - Budjet rejasining ma'lum davr oralig'ida amalga oshirish uchun qonuniy shaklda tasdiqlangan. etmasligi shart.

5) **Maqsadga muvofiqlik** - qonun bo'yich tasdiqlangan budjet rejasi amaliyot(budjet yili)da amalga oshirilgandan so'ng u haqiqiy hisoblanadi.

**D) Budjetni taqdim etishning shakllari va uslublari:**

1) **Aniq(shaffof)lilik** - siyosiy demokratik asosga ko'ra, amaldagi hokimiyat saylov orqali tanlangan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Shunday ekan, budjet loyihasi shunday tuzilishi kerakki, hatto oddiy mutaxassis bo'lmagan kishi uchun ham tushunarli bo'lishi kerak.

*2) Ochiq(oshkora)lik - Budjet hujjatlari barchaga tanishib chiqish uchun ochiq bo'lishi va undagi ma'lumot beruvchi ko'rsatkichlarni o'z maqsadlariga moslashtirilmasligi lozim.*

1974-yildagi «Budjet to'g'risida» gi qonun orqali o'rnatilgan targ'ibotlar doirasida, Kongress parallel rezolyutsiya qabul qilib, bu rezolyutsiya budjetning umumiy qolipini o'rnatdi (parallel rezolyutsiya – bu Kongressning ikkala palatasi ham tomonidan olib boriladigan, lekin prezident imzosini talab qilmaydigan xatti-harakat). Rezolyutsiya budjetning «yorug'-sezgir qog'ozga ko'chirilgan nusxa» si (chizmasi) dir, unda jami budjet raqamlari-kirimlari, budjetga oid vakolatlar (hukumatga xarajatlar bo'yicha majburiyatni yuklash vakolati), chiqimlar (g'aznadan amalda sarflangan mablag'lar miqdori), umumiy maqsadli ko'rsatkich (budjetning tanqisligi yoki ortiqcha miqdori hosil bo'lishi, agar mavjud bo'lsa) hamda hukumat qarzdorliklari ko'rsatiladi.

Bahorda parallel rezolyutsiyaning chiqishidan so'ng, Kongress yana o'zining eski tartibotlariga qaytdi. Kongressdagi qo'mitalar budjet rezolyutsiyasi orqali solinadigan cheklovlar doirasidagi kirimlar va sarflarga ta'sir etadigan qonunchilik hujjatlarining alohida bo'laklarini qabul qilishlari kerak edi. Budjet ajratish qo'mitalarining quyi qo'mitalari budjet ajratishga oid konkret qonun loyihalarini ko'rib chiqardi, kirimlar bo'yicha qo'mitalar esa budjetdagi o'z ulushini ko'rib chiqardi. Siyosatga kiritiladigan o'zgartirishlarning kelishilishiga imkon yaratish uchun, 15 sentyabrgacha ikkinchi rezolyutsiya qabul qilinishi kerak edi. Bu rezolyutsiyadan budjetdagi ziddiyatlarni tartibga solish jarayonida foydalanish mumkin bo'lar edi, bu jarayonda qo'mitalarga sarflar va kirimlar bo'yicha chora-tadbirlarni umumiy budjet rejasiga muvofiq keltirish uchun ko'payish yoki kamayish tomonga to'g'rilash topshirilgan edi. Moliyaviy yil boshlanish payti 1-iyuldan 1-oktyabrga ko'chirilgan edi, shu bilan Kongressga

o'zining budjetga oid har yilgi ishlarini olib borishi uchun qo'shimcha uch oy berildi.

O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksini tasdiqlash to'g'risida" O'RQ-360-son qonuniga asosan, 2014-yil 1-yanvardan amaliyotga joriy etildi.

Mazkur Qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga 2014-2015 yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi normalarining amal qilishi va samaradorligini muntazam ravishda hamda har tomonlama monitoring va tahlil qilinishini ta'minlash, zarur bo'lgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining ayrim normalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflarni kiritish vazifasi yuklatilgan.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi hukumati o'zining ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish niyatida xalqaro donorlik tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikda davlat mablag'larini boshqarish tizimini isloh qilmoqda. 2014-yildan kuchga kirgan Budjet kodeksi bu yo'nalishdagi o'zaro hamkorlikning yana bir natijasidir. Bu hujjat O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, mamlakatimizdagi barcha manfaatdor idoralar, BMT Taraqqiyot Dasturi, XVF va ADETEF (Fransiya) kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan bevosita hamkorlikda ishlab chiqildi. Budjet kodeksi loyihasini tayyorlash jarayonida qator mutaxassislar va mustaqil ekspertlardan iborat idoralararo ishchi guruhi tomonidan ikki yil davomida qizg'in ish olib borildi.

Kodeksni ishlab chiqishda dunyodagi iqtisodiy jihatdan tez sur'atlar bilan o'sishga erishayotgan, ijtimoiy himoyasi kuchli bo'lgan davlatlar tajribasi o'rganildi. Bunda asosiy o'rinda xalqaro standartlar asosida davlat budjeti taqsimotini ommaviy e'lon qilish, undagi parametrlarning, ya'ni, huquqlarning kengaytirilishi, xalqaro buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiqlashtirish, budjetni o'rta muddatlarga rejalashtirish, budjet mablag'lari ishlatilishi natijalarini

tahlil qilish, budget tashkilotlari tekshiruvini tartibga solish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Budget kodeksi asosida Budget tizimining huquqiy mexanizmi takomillashtirildi va unifikatsiya qilingan holda, rivojlangan mamlakatlarda o'zini oqlab kelayotgan davlat moliyasini boshqarishning zamonaviy usullari shakllantirildi.

***Budget kodeksini ishlab chiqish va qabul qilishdan asosiy maqsad – Budget jarayonini tartibga soluvchi hamda amaldagi qarama-qarshi va eskirgan me'yorlarni bartaraf qiluvchi yagona qonun hujjatini ishlab chiqish va budget jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirishdan iboratdir.***

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi umumiy va maxsus qismlardan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasining asosiy ikkita “*Budget tizimi to'g'risida*”gi va “*Davlat Budgetining g'azna ijrosi to'g'risida*”gi qonunlarini, budget jarayonining alohida masalalarini tartibga soluvchi oltita qonun va boshqa bir qator hujjatlarni qamrab olgan.

Xalqarotajribada, ***Budgetkodeksi*** – ma'lumbirmamlakat budjettiziminingasoslarini, uningtuzilishi, umumiyprintsiplarini, turlidarajadagi budgetlarvaularningvakolatlarini, budgetjarayoniasoslariva budgetlararomunosabatlarni, budgetqonunchiligini buzganlik kuchun javobgarlik choralari ni belgilovchi qonunh

AQSh Kongressida har bir federal hudud bo'yicha tasdiqlangan budjet ijrosini nazorat qiluvchi qo'mita mavjud. Kongressmenlar boshqaruv jarayoniga aralashish huquqiga ega emas, biroq, soliq to'lovchilarning mablag'larining "Federal Budjet to'g'risida"gi qonunga muvofiq, xarajat qilinishini kuzatib boradilar. Federal vazirliklar va shtatlarning hukumatlari, ma'muriy protsessual kodeks asosida ajratilgan budjet mablag'larini belgilangan huquqiy jarayon doirasida taqsimlaydilar. Bu ochiq ovozga quyish yo'li bilan aniqlab olinadi. Bunda Kongressda loyihalar ovozga qo'yiladi va ishtirokchilarni qarshi yoki tarafdorligi orqali tasdiqlanadi.

Budjet kodeksi butun budjet jarayonini (davlat budjetini shakllantirish, tasdiqlash, ijro etishni hamda nazoratni ta'minlashni) yagona va yaxlit qonun hujjatida tizimlashtirishni, davlat budjetini ham, budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarni ham tartibga solishning yagona printsiplarini qo'llanishni, budjet jarayoni barcha qatnashchilarining vakolatlarini hamda ularning o'zaro hamkorligi mexanizmlarini belgilashni, shuningdek, budjetlararo munosabatlarni takomillashtirib, mahalliy budjetlarning daromadlar manbalarini mustahkamlab qo'yishni, barcha darajalardagi budjetlar o'rtasida vakolatlarni taqsimlashni va ularning o'zaro hamkorligini nazarda tutadi.

Budjet kodeksining qabul qilinishi amaldagi Soliq kodeksi bilan birgalikda davlat moliyasining yagona birxillashtirilgan, xalqaro standartlarga mos bo'lgan qonunchilik bazasini shakllantirishga, budjet sohasidagi huquqiy munosabatlarni tizimlashtirishga, shuningdek, budjet jarayonining hamma bosqich va darajalarida yagona huquqiy normalar va yondashuvlar qo'llanilishini, mamlakat budjet tizimining ochiq-oshkoraligini va barqarorligini ta'minlashga imkon beradi.

Budjet kodeksi O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va budjet to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

*Mamlakatimizda mazkur normativ hujjatni qabul qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad* - amalda qo'llanilayotgan me'yorlar, nizomlar va budget jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirish, shuningdek, budget jarayonini tartibga soluvchi hamda amaldagi qarama-qarshi va eskirgan me'yorlarni bartaraf qiluvchi yaxlit qonunchilik hujjatini yaratishdan iboratdir.

Qolaversa, Budget kodeksi barcha manfaatdor taraflarni budget tizimi va budget jarayoni to'g'risidagi keng qamrovli hamda ishonchli axborot bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Bu axborot davlat budgetini ishlab chiqish va ijro etish bilan shug'ullanayotgan hukumat uchungina emas, balki OliyMajlis, mahalliy hokimiyat organlari, budget tashkilotlari va barcha fuqarolar uchun ham muhimdir. Budget kodeksi mintaqalarda resurslarni qayta taqsimlash va ularning daromad salohiyatini mustahkamlashning barqaror hamda samarali mexanizmini ta'minlashga qaratilgan. Budget tashkilotlari uchun bu – budgetlarni tuzish va ijro etish hamda ular oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishning aniq va ravshan qoidalaridir.

Fuqarolar uchun esa budget kodeksining qabul qilinishi shu bois ham muhimki, bugungi kunda Davlat budgetining qariyb 60%i ijtimoiy sohaga yo'naltirilyapti. Bular ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoyaga doir xarajatlardir. Tegishincha, agar qonunchilik davlat budgetining ijrosi va uning ijrosini nazorat qilishning aniq taomillarini ta'minlasa, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi xizmatlaridan keng foydalanishni ta'minlash, aholining nochor guruhlarini qo'llab-quvvatlash va davlatning boshqa ijtimoiy majburiyatlarini samarali bajarish mumkin.

Yana shuni ta'kidlash joizki, mazkur kodeks mamlakatimizning mustaqillik davridagi qonunchilik faoliyatida qabul qilingan 16-kodeks bo'lib, u moliyaviy munosabatlarni tartibga soladigan Bojxona va Soliq kodekslaridan keyin qabul qilingan, moliya sohasiga taalluqli bo'lgan uchinchi kodeksdir. Yangi kodeks amaldagi Bojxona va Soliq kodekslari bilan birgalikda davlat mablag'larining

xalqaro standartlarga mos yagona va bixillashtirilgan qonunchilik bazasini shakllantirish imkonini beradi.

*Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda budjet jarayonining ayrim bosqichlari bir nechta qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi, ba'zi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning normalari turlicha talqin qilinishi, bir xil normalarni hayotga tatbiq qilishning qiyinligi, «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonunning alohida moddalari yangi talablarga muvofiq emasligi amaliyotda bir qancha muammolarni vujudga keltirayotgan edi. Budjet kodeksi bu kamchiliklarni bartaraf etish, amaliyotda o'zini oqlagan me'yorlar hamda xalqaro tajriba hisobga olingan holda ayni yo'nalishdagi qonunchilikni takomillashtirish maqsadida butun budjet jarayonini tartibga soluvchi yagona hujjat sifatida ishlab chiqildi.*

Budjet kodeksining qabul qilinishi davlat moliyasining xalqaro standartlarga mos keluvchi, yagona unifikatsiyalashgan qonunchilik bazasi yaratilishiga olib keldi. Unda nazarda tutilgan me'yorlar va qoidalar budjet jarayonining barcha bosqich va darajalarida yagona huquqiy normalar qo'llanilishini va bir xil yondashuvni ta'minlash orqali budjet jarayonining hamma ishtirokchilari ishini yengillashtirishga qaratilgan. Ushbu kodeks nafaqat moliya, g'aznachilik yoki nazorat-taftish organlari xodimlari uchun, balki budjet jarayonida bevosita ishtirok etuvchi mahalliy vakillik va ijroiya organlari vakillari uchun ham muhim hujjat bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi yuqorida ta'kidlaganimizdek, taraqqiy etgan mamlakatlarning bu boradagi ilg'or tajribasini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining asosiy ikkita – «*Budjet tizimi to'g'risida*»gi va «*Davlat Budjeti g'azna ijrosi to'g'risida*»gi qonunlarning deyarli barcha me'yorlarini hamda budjet jarayonining alohida masalalarini tartibga soluvchi oltita qonun, Prezidentimizning farmon va qarorlari, Hukumat qarorlari va idoralararo jami 50 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlarini o'z ichiga qamrab olgan hamda unda turli qonunosti hujjatlarida nazarda tutilgan me'yor va

qoidalar tizimlashtirib, muvofiqlashtirilgan, budjet qonunchiligida foydalaniladigan aniq tushunchalarga ta'riflar berilgan.

Shuningdek, Budjet jarayoniga yangi usullar va dastaklarni joriy etish, hamda xalqaro standartlar va me'yorlarni moslashtirish uchun asos yaratilgan.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi qabul qilinishi munosabati bilan, 2014-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasining «*Budjet tizimi to'g'risida*»gi va «*Davlat Budjetining g'azna ijrosi to'g'risida*»gi Qonulari o'z kuchini yo'qotgan deb topilgan bo'lsa, «*Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida*»gi, «*Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risida*»gi va «*Buxgalteriya hisobi to'g'risida*»gi Qonun hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi tarkibiy tuzilishi 6-rasmda ko'rsatilganidek, 2 qism, 9 ta bo'lim, 28 ta bob va 192 ta moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining umumiy qismi 5 ta bo'lim(I-V bo'limlar), 15 ta bob (1-15 boblar), 82 ta modda (1-82 moddalar)dan iborat bo'lsa, Budjet kodeksining maxsus qismi esa 4 ta bo'lim (IV-IX bo'limlar), 13 bob (16-28 boblar), 110 modda(83-192 moddalar)dan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining ahamiyati va afzalliklari borasida kengroq to'xtaladigan bo'lsak, unda aks etgan quyidagi asosiy yo'nalishlarni alohida qayd etish maqsadga muvofiqdir:

➤ O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksida budjet tizimini boshqarish asoslarini tartibga solish, uning tushunchalari va tuzilish tamoyillari, budjet tasnifi tuzilmasi, tarkibi va qo'llash tamoyillari belgilangan. Ta'kidlash joizki, ilgari «*Budjet tizimi to'g'risida*»gi Qonunda 22 ta asosiy tushunchaga ta'rif berilgan bo'lsa, kodeksda budjet tizimi bilan bog'liq tushunchalar ro'yxati kengaytirilib, budjet tizimi bilan bog'liq 39 ta tushunchaga ta'rif berilgan.

Shuningdek, kodeksda budjet tizimida qo'llaniladigan ba'zi iqtisodiy atama va tushunchalar bugungi kungacha amalda bo'lgan qonunlar va qonunosti



hujjatlarida ifodalanganidan farqli ravishda, yangi talqinda ta'riflangan va tasniflangan.

➤ Budjet Kodeksida «*Budjet tizimi to'g'risida*»gi Qonunda ko'rsatilgan Budjet tizimining 7 ta :

➤ budjet tasnifi tizimi, hisob-budjet hujjatlari va budjet jarayoni tuzilishining yagonaligi;

➤ budjet tuzilishining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;

➤ turli darajadagi budjetlarning o'zaro bog'liqligi; davlat budjeti balanslilikligi;

➤ davlat daromadlarini aniq manbalar bo'yicha va xarajatlarini yo'nalishlari (moddalari) bo'yicha rejalashtirish;

➤ davlat budjeti xarajatlarini budjetdan ajratiladigan tasdiqlangan mablag'lar doirasida va xarajatlar smetalarida ko'rsatilgan maqsadlarda amalga oshirish;

➤ barcha darajadagi budjetlarning mustaqilligi) asosiy tamoyillari qatoriga budjet mablag'larining manzilli va maqsadli sarflanishi, budjet mablag'lari sarflanishining natijaviyligi va samaradorligi, g'aznaning yagonaligi, javobgarlik, ochiq-oydinlik (oshkoralik) kabi budjet tizimining qo'shimcha tamoyillari kiritilgan.

➤ Shunisi ahamiyatliki, ilgari «*Budjet tizimi to'g'risida*»gi Qonunda faqat 3 ta organ - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari va joylardagi davlat hokimiyati organlari hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining Budjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari berilgan bo'lsa, Kodeksda mazkur organlarning vakolatlarini muvofiqlashtirish bilan birgalikda budjet jarayonida ishtirok etuvchi boshqa sub'ektlar, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi; Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi; xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar kengashlari; hududiy moliya organlari; budjet mablag'larini taqsimlovchilar; budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar, hamda davlat

maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarning vakolatlari ham aniq belgilab qo'yilgan.

➤ Yana bir e'tiborli tomoni shundaki, «*Budjet tizimi to'g'risida*»gi Qonunda davlat maqsadli jamg'armalarining faqat 4 tasi aks ettirilgan bo'lsa, Kodeksda 7 ta davlat maqsadli jamg'armalari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalarining maqsad va vazifalari batafsil ko'rsatib o'tilgan.

➤ Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ilgari qonunchilikda jamlanma budjeti deyilganda davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining budjetlari tushunilsa, endilikda jamlanma budjet - davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalarining budjetlari va O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari yig'indisi sifatida talqin qilinmoqda.

➤ 2014 yilga qadar «*Budjet tizimi to'g'risida*»gi Qonunda Respublika budjeti daromad va xarajatlari, hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlari ko'rsatilgan bo'lsa, budjet kodeksida yuqoridagilar bilan birgalikda tumanlar va shaharlar budjetlarining daromad va xarajatlari ham aks ettirilgan.

Qolaversa, Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining qo'shimcha manbalarini aniqlash hamda ulardan foydalanish taomillari belgilanib, budjet ijrosi qismida davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining tasdiqlangan parametrlariga o'zgartirish kiritish tartibi soddalashtirilgan.

➤ Kodeksda budjet jarayonining barcha bosqichlari ochib berilgan. Jumladan, davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarini tuzish, ko'rib chiqish va qabul qilish tartiblari va muddatlari aniq belgilab berilgan.

➤ Alohida bobda budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari hamda shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi nazarda tutilgan.

➤ G'azna ijrosi va davlat xaridlarini amalga oshirish tartiblari ham keng qamrovda belgilangan.

➤ Kodeksda budjetlararo munosabatlar tizimi takomillashtirilgan, hamda qonuniy mustahkamlangan bo'lib, unda budjetlararo munosabatlarning asoslari, budjetlararo transfertlarning shakllari va ularni o'tkazish, budjet tashkilotlariga budjet ssudalarini ajratish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga, chet el davlatlariga ajratiladigan kredit liniyalari va kreditlarni bajarish va budjet tizimining turli darajadagi budjetlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tartiblari ham o'z aksini topgan.

➤ Kodeksdagi yana bir yangilik, budjet hisobi va hisoboti tamoyillari, budjet hisobining milliy standartlarini ishlab chiqish uchun dastlabki shartlar, budjet hisoboti shakllari, budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilarning moliyaviy hisobotlari, davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlar tuzilmasi, davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni tashqi auditdan o'tkazish, uni ko'rib chiqish va tasdiqlash muddatlari va tartiblari belgilab berilgan.

➤ Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, kodeksni ishlab chiqishda xalqaro tajribaga tayanilgan bo'lib, yangi norma orqali budjetni uch yillik davrga shakllantirish uchun poydevor qo'yilgan. Ma'lumki, iqtisodiyoti rivojlangan aksariyat mamlakatlarda budjetni shakllantirish va tuzish uch yillik istiqbol uchun amalga oshiriladi.

Mazkur tajribadan kelib chiqqan holda, kodeksda budjetdan mablag' oluvchilar faoliyati natijalari bilan budjet xarajatlarini rejalashtirishning bog'liqligini ta'minlaydigan o'rta muddatli budjetni rejalashtirish va dasturli budjetlashtirish printsiplarini joriy etish uchun asos yaratilgan. Buning uchun kodeksda bir qator yangi normalar kiritilgan. Ushbu yangiliklar budjet xarajatlarini budjetdan mablag' oluvchilarning faoliyati natijalari bilan bog'lashni ta'minlaydi. Bu esa, budjetni o'rta muddatga rejalashtirish printsiplarini joriy etish uchun asos yaratib, bir yildan ziyod davrga budjet tuzish imkoniyatini tug'diradi.

➤ Kodeksning yana bir muhim jihati shundaki, unda favqulodda holat sharoitlarida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Qaroriga ko'ra O'zbekiston

Respublikasining Favqulodda Davlat Budjeti qabul qilinishi, hamda Favqulodda Davlat Budjetining amal qilishi davrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining O'zbekiston Respublikasi Davlat Budjeti to'g'risidagi qarorlarining, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining Qoraqalpog'iston Respublikasining budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari daromadlari va xarajatlari hajmi haqidagi qarorlarining amal qilishi to'xtatib turilishi belgilab qo'yilgan.

➤ Kodeks orqali kiritilgan yana bir yangi norma - davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlar Oliy Majlis tomonidan qabul qilingandan keyin, hisobot yili uchun davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari Bbudjetlarining ijrosi to'g'risidagi axborotni O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish talabidir.

➤ Kodeksning yana bir muhim ahamiyati unda davlat moliyaviy nazorati masalalari ham alohida tartibga solingan, davlat moliyaviy nazorati asoslari, uslublari va turlari, davlat moliyaviy nazorati organlari, davlat moliyaviy nazoratini tashkil qilish tartibi, davriyligi va muddatlari, moliyaviy nazorat ob'ektlarining huquq va majburiyatlari aniq ko'rsatib o'tilgan.

➤ Kodeksda amaldagi me'yorlarni kengaytirish bilan bir qatorda, budjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlari, davlat tomonidan mablag' jalb qilish, budjet ijrosi ustidan nazorat va budjet qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikni aks ettiruvchi yangi moddalar qo'shilgan.

Shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi budjet kodeksida turli darajadagi budjetlarning vakolatlari chegaralanib, budjetlararo munosabatlar tizimi takomillashtirilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining "Budjetlararo munosabatlar" nomli 20-bobida budjetlararo munosabatlar tushunchasi, budjetlarning darajalari o'rtasida daromadlar va xarajatlarni o'tkazish, budjetlararo transfertlarning shakllari, subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiya, budjetlararo o'zaro hisob-kitoblar, budjetlararo transfertlarni o'tkazish

tartibi, budget ssudasi shaklidagi budgetlararo transfert, aylanma kassa mablag'lari, Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlariga qo'llaniladigan cheklovlarga to'xtalib o'tilgan.

- O'zbekiston Respublikasi respublika budgetining tumanlar va shaharlar budgetlari bilan;

- davlat maqsadli jamg'armalari budgetlarining tumanlar va shaharlar budgetlari bilan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgetining, viloyatlar viloyat budgetlarining va Toshkent shahri shahar budgetining bir- biri bilan, shuningdek boshqa ma'muriy-hududiy birlikning tumanlari va shaharlari budgetlari bilan;

- tumanlar va shaharlar budgetlari o'rtasida o'zaro munosabatlariga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan.

Alohida qayd etish lozimki, respublikamizda Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlariga qo'llaniladigan cheklovlar huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan.

Jumladan, *Budget kodeksining 142-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlari balanslashtirilgan daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi lozim. Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlari taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi.*

Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlarini qabul qilish va ijro etishda:

- mablag'lar jalb qilishni amalga oshirishga, yuqori turuvchi budjetlardan budjet ssudalari olish bundan mustasno;

- tasdiqlangan budjetdan ajratilgan mablag'lardan ortiq xarajatlarni amalga oshirishga;

- tegishli budjetlar mablag'lari hisobidan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berishga;

- yuridik va jismoniy shaxslarga budjet ssudalari va kredit liniyalari berishga yo'l qo'yilmaydi.

Mamlakatimizda kechayotgan iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari, tadbirkorlar va ishbilarmonlarga yaratilayotgan qulaylik va imtiyozlar hamda soliq qonunchiligini takomillashtirish borasidagi islohotlar yangi Soliq kodeksini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirdi va u 2008-yilning 1-yanvaridan amalga kiritildi.

2007-yilgacha amalda bo'lgan Soliq kodeksi 135 moddadan iborat bo'lib, soliq munosabatlarini tartibga solishda u bilan birga yo'riqnoma, nizom va tartiblar ham qo'llanilar edi. Soliq qonunchiligiga tez-tez o'zgartishlar kiritilishi va soliq normalarining boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi noaniqlik, tushunmovchilik va soliq normalarining har xil talqin qilinishiga olib kelib, bu aksariyat hollarda soliq to'lovchilarning haqli e'tirozlariga sabab bo'lardi.

Yangi Soliq kodeksi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Kodeks 64 bob, 392 moddadan iborat bo'lib, u soliq masalalarini tartibga soluvchi barcha me'yor va qoidalarni mujassamlashtirgan va to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi hujjatga aylandi. Jumladan, yangi kodeksda Prezidentimizning iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan Farmon va qarorlarida bayon etilgan normalar to'liq ifoda topgan.

Yangi Soliq kodeksi haqida gap ketganda, uning tadbirkorlar imkoniyatlarini kengaytirish va manfaatlarini himoya qilishdagi ahamiyatiga alohida to'xtalish lozim. Ya'ni yangi qonun hujjatiga muvofiq bahsli holatlarda masala soliq to'lovchi foydasiga hal etiladi. Qonun tili bilan aytadigan bo'lsak, yangi Soliq kodeksiga avvalgisida mavjud bo'lmagan soliq to'lovchining haqligi prezumtsiyasi printsipli kiritildi. Unga ko'ra, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchi foydasiga talqin etiladi.

Bundan tashqari, Soliq kodeksining soliq ma'murchiligi masalalariga bag'ishlangan Umumiy qismi avvalgisiga nisbatan tubdan o'zgartirildi va kengaytirildi. Mazkur qismda fuqarolarga sodda va tushunarli bo'lishi uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushunchalariga, shuningdek, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor kabi tushunchalarga alohida ta'riflar berildi. Endilikda barcha soliq to'lovchilar soliqlarni qaysi maqsadda to'layotganliklari to'g'risida to'liq va kengroq tasavvurga ega bo'ladilar, bu esa, o'z navbatida, soliq madaniyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, yangi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilanishini, imtiyozlar to'liq yoki qisman bekor qilinishini, soliq solinadigan baza oshirilishini nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari, ular rasmiy ravishda e'lon qilingan paytdan e'tiboran kamida 3 oy o'tgach, amalga kiritilishi qayd etildi.

Ayni chog'da soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari o'zgartirilishini ko'zda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari hisobot davri boshlanishidan kamida 1 oy oldin e'lon qilinishi kerakligi va ular rasmiy ravishda e'lon qilingan oydan keyingi hisobot davrining birinchi kunidan e'tiboran amalga kiritilishi belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, Soliq kodeksida soliq nazoratining shakllari ham belgilanib, ularning mazmun-mohiyati alohida moddalarda aniq-ravshan tarzda yoritildi.

Chunonchi, unda soliq tekshiruvlari tushunchasi va ularning shakllari, soliq tekshiruvlarining turlari, ishtirokchilari, tekshiruvni o'tkazish uchun asos, muddatlar, uning davriyligi hamda soliq tekshiruvlarini o'tkazish tartibi to'g'risida tushunchalar ochib berildi.

Soliq nazorati bobida, jumladan, kameral nazorat, xronometraj masalalari yoritilgan. Ularni o'tkazish tartibi, muddatlari, davriyligi hamda ularni o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ko'rsatib o'tilgan.

Yuqorida yangi Soliq kodeksi soliq masalalarini tartibga soluvchi barcha me'yor va qoidalarni mujassamlashtirgan, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi hujjatga aylandi, deya ta'kidladik.

Shuning uchun ham uning amalga kiritilishi munosabati bilan o'z ahamiyatini yo'qotgan bir qator qonun hujjatlari butunlay bekor qilindi.

"Muddatida to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirib olish to'g'risida"gi, "Davlat boji to'g'risida"gi, "Patta to'lovi to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidan.

Yangi Soliq kodeksi, uning avvalgisidan farqli jihatlari haqida shu kabi yana ko'plab e'tiroflarni bildirish mumkin. Bir so'z bilan aytganda, qonunchilik taraqqiyoti xalq va jamiyat manfaatlarini ko'zlagan holda amalga oshiriladi. Yangi kodeks ham bu borada ezgu maqsadlar ro'yobiga xizmat qilishiga shubha yo'q.

2012-yil yanvar oyida Kongress Budget Boshqarmasi o'zining budget istiqbollari qayta ko'rib chiqib nashr qildi, bu 2001 yil yanvar oyidan beri moliyaviy ahvol qanchalik yomonlashganini ko'rsatdi. Bu prognozda KBB federal budgetda 2013-2022 moliya yillari davomida \$3.1 trillion miqdorida umumiy defitsit bo'lishi mumkinligini baholadi. Bu baho ostida YaIM foizi sifatidagi xalq qo'lidagi qarzlarni aslida 2013 yilda 75% ga, 2022 yilda 62% ga pasaytirilardi. Bu baho etarlicha optimistik edi, chunki KBB budget prognozlari "joriy qonunni" ko'zda tutishi kerak, va joriy qonun siyosatda yuz berishi ehtimoli bo'lgan: defitsitni yomonlashtiradigan soliq ushlanmalar muddatini cho'zish kabi



o'zgarishlarni o'z ichiga olmaydi. Aslida, KBB prognoziga ko'ra, soliq ushlanmalari muddatini cho'zish va shunga o'xshash boshqa siyosiy o'zgarishlarni o'z ichiga olgan xalqning qarzi 2022 yilgacha YaIMning 100% iga yaqinlashib qolardi.

Nazorat uchun savollar.

1. *Budjetlararo munosabatlar deb nimaga aytiladi?*
2. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasida nima deyilgan?*
3. *Hozirgi kunda respublikamizda budjet tizimi munosabatlarini tartiga solish va boshqarishga oid qanday me'yoriy-huquqiy xujjatlar mavjud?*
4. *Budjetni qanday xususiyatlari mavjud?*
5. *Budjet kodeksini ishlab chiqish va qabul qilishdan asosiy maqsad nima?*
6. *Budjetning davriylik omili deganda nimani tushunasiz?*
7. *Budjet kodeksi necha bob va moddadan iborat?*

## **2-BOB. BUDJET TIZIMI BUDJETLARINI BOSHQARISH ASOSLARI**

**Moliyaviy muvaffaqiyat moliyaviy  
cheklovlar va xarajatlarni  
rejalashtirishsiz kelmaydi.**

*(Bodo Shefer)*

### **2.1 . Budjet tasnifi (klassifikatsiyasi)**

**Budjet tuzilishi** mamlakatning davlat budjeti va budjet tizimini, uning bo'g'inlari o'rtasidagi budjetlararo munosabatlarni tashkil qilish shakllarini, budjet tasnifini, budjet tizimiga kiradigan barcha darajadagi budjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, budjet mablag'larini shakllantirish va sarflashdagi tartib-qoidalar va boshqalarni belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 8-moddasida qayd etilgan "Budjet tizimining yagonaligi" (Budjet hujjatlari va budjet hisobotlarining shakllari, budjet tasnifi yagona bo'lishi hamda budjet tizimi budjetlarining daromadlari va xarajatlarni shakllantirish hamda ijro etish, budjet hisobini yuritish va budjet hisobotini tuzishning yagona tartibini nazarda tutishi lozim) tamoyiliga muvofiq, barcha darajadagi budjetlarni shakllantirish va ijro etishda yagona budjet tasnifi qo'llaniladi. Barcha darajadagi budjetlarning daromadlari va xarajatlari tasniflash ob'ektlariga tegishli raqam(kod)lar berish bilan guruhlanadi hamda tasnif ko'rsatkichlari doirasida shakllantiriladi va ijro etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 18-moddasidabudget tasnifi tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

*Budget tasnifi –budget tizimi budgetlarining daromadlari va xarajatlari, shuningdek Davlat budjeti taqchilligini qoplash manbalarini guruhlashdan iborat bo'lib, budget tizimi budgetlarini shakllantirish, tuzish va ijro etishni tizimlashtirish uchun foydalaniladi.*

**Budget tasnifi xalqaro tasnif tizimlariga muvofiq ishlab chiqiladi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.**


1999 yilga qadar mamlakatimiz budget amaliyotida asosan sobiq Ittifoqda qo'llanilgan tasnifdan foydalanib kelindi. Mazkur tasnif budget daromadlari va xarajatlarining bo'limlar, boblar va moddalarga bo'linib, umumlashgan funksional va iqtisodiy tasnif belgilariga ega edi. Bu tasnifning batafsil bayoni xalqaro standartlarga muvofiq hisobotlar taqdim etish yoki milliy hisoblar tizimiga mos kelishi jihatidan talabga javob bermas edi. Yangi tasnifni amalga kiritish bilan bu kamchilikka barham berildi va yangi tasnif 2000 yil budgetini ishlab chiqish va ijro etishda ilk bor qo'llanildi. Yangi tasnif budget daromadlari va xarajatlari ijrosini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

#### **Budget tasnifi:**

- davlat budjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida budget ma'lumotlarini bir tizimga solish uchun foydalaniladi;
- mamlakat budget ma'lumotlarini xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslash imkonini beradi.

Soliq bazalarining kengayishi, soliq tizimiga o'zgartirishlar kiritilishi, yangi soliq turlarining joriy etilishi yoki amaldagi soliqlarning bekor qilinishi,

shuningdek, davlat oldidagi vazifalarning o'zgarishi bilan budget xarajatlari tarkibining o'zgarishi amaldagi budget tasnifiga tegishli o'zgartishlar kiritilishini taqozo etadi. Shu sababli budget amaliyoti taraqqiyotining ma'lum bosqichlariga kelib, mavjud budget tasnifnomasiga o'zgartishlar kiritib turiladi. Budget tasnifi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Budget ko'rsatkichlarining milliy tasniflash tizimini ishlab chiqishda xalqaro tasniflash tamoyillariga rioya qilinishi kerak.



#### 1-rasm. Muhim tasniflash tizimlari.

Bunda budget tashkiliy birliklar, bo'limlar, qismlar hamda xarajatlarga ko'ra ikki guruhga bo'linib, har bir kategoriyada ish haqi, maoshlar kabi tavsiflanadi.

Afzalliklari:

- Obyekt muhimligi tasnifi boshqarishni va hisobga olishni qulaylashtiradi.
- U mablag'larni aniq joylashtirishni namoyon etib beradi, masalan, ish haqiga, safar xarajatlariga qancha foiz xarajat ketishi va boshqalar.
- Obyekt muhimligi tasnifi safar xarajatlari, chet elga chiqish va boshqa asosiy muhim xarajatlarni o'z vaqtida moliyaviy jihatdan aniqlashga imkon beradi.

Kamchiliklari:

- Obyekt muhimligi tasnifi asosini tashkil etuvchi budget mazmuni shundan iboratki, budgetni joylashtirishning o'zi saxiylikka olib keladi. Faoliyatga

bog'lanmagan boshqaruv sababli u isrofgarchilik va ortiqcha sarflarni ko'paytiradi, faoliyat ikkinchi darajaga o'tib qoladi.

➤ Obyekt muhimligi tasnifida urg'u xarajatlarda qaror qabul qilishni, qonuniylikni, tartibga amal qilishni o'zida ifodalovchi jarayon qarorlariga asoslanadi va ular doimiy audit bahosi, to'g'rilashi va puldan samarali foydalanish ahamiyatsiz bo'lib qoladi.

➤ Davlat ma'lumotlarida va dasturlarida yetarli bo'lmagan ma'lumotlar mavjud bo'ladi. Dasturni boshqarish, dasturni me'yorlashtirish va resurslarni samarali joylashtirish e'tiborga olinmaydi.

➤ Har qanday ko'p nusxalik, to'liq bo'lmagan faoliyat va xarajatlarning oldini olish mushkul.

➤ Budjetni yaratuvchilar uchungina ushbu talab eng muhim hisoblanadi. Uzoq muddatli samaradorlik maqsadidagi siyosat yildan yilga kechiktirib boriladi.

### **Funksional tasnif**

Funksional tasnif budjetni amalga oshirish tizimida juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham funksional tasnifda budjet xarajatlarini tashkil etish funksiyalar, dasturlar, faoliyatlar va loyihalardan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi kerak. Funksional tasnif boshqaruv funksiyasini narxlarga bog'liq holda faoliyatini me'yorlashtirishdan iborat. Funksional tasnifda dasturning natijasi muomilalar jismoniy maqsadlar miqyosida kiringa bog'langan bo'lishi talab qilinadi. Ular moliyaviy shartlarda budjetni ta'minlash uchun o'zgartiriladi va dastur yoki faoliyatga joriy etish talab qilinadi. Funksional klassifikatsiya quyidagicha tasniflanadi.

<b>Funksional</b>		
<b>Termin</b>	<b>Ta'rif</b>	<b>Misol</b>
<i>Funksiya</i>	Maxsus xizmat turlari bilan ta'minlab beruvchi davlatning alohida bo'limi	Ta'lim

<i>Dastur</i>	Odatda yakuniy mavjud bo'lgan funktsiyaning segmentidir. Ushbu yakun davlatning muhim bo'linishi bilan ta'minlanadi.	Boshlang'ich/ O'rta/ Texnik/ Professional ta'lim
<i>Faoliyat/ Loyiha</i>	Dasturning bir turiga kiruvchi ishlar yoki jadvallarga bo'linishi.	Maktab binosi, laboratoriyalarini qurilishi va boshqalar

### 1-jadval. Funktsional klassifikatsiya tasniflanishi.

Ushbu turdagi tasnif davlat manbalari tabiati va jamiyat sarfining ulushi haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

### Iqtisodiy tasnif

Davlat budjeti iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lib hisoblanadi. Chunki uning to'la hajmdagi tasdiq hujjatlari va davlat sarflari va budget orqali ifodalanadigan turli xil siyosatlari iqtisodiyotning tarkibini va yo'nalishini o'zgartira olishi mumkin bo'lgan muhim omillar hisoblanadi. Shu sababli budget ta'minotini iqtisodiy ko'lamlar jihatidan guruhlash muhim hisoblanadi. Masalan, kapital shakllanishida qancha chetdan ajratildi, qancha to'g'ridan-to'g'ri sarflandi, qancha pul mablag'i grantlar, kreditlar berish orqali boshqa iqtisodiyot sohalariga davlat tomonidan o'tkazildi va boshqalar. Iqtisodiy tasniflash davlatning umumiy harajatlarini foydali iqtisodiy turlarga ajratadi. Ular investitsiya, chiqim, kirinning yaralishi, kapital shakllanishi va boshqalar. Quyida turkumlanish keltirilgan.

<b>Umumiy xarajatlarning iqtisodiy tasnifi:</b>	
<b>1. Chiqim xarajatlari</b>	a) Mudofaa b) Boshqa davlat ma'muriyati
<b>2. O'tkazma to'lovlar (Joriy)</b>	a) Foiz to'lovlari

	b) subsidiyalar c) davlatga va birlashgan territoriyalarga grantlar d) boshqalar.
<b>3. Budget resurslarining yalpi kapital shakllanishi</b>	a) Jismoniy aktivlar b) Moliyaviy aktivlar
<b>4. Boshqalar</b>	
<b>5. Umumiy harajatlar</b>	

Yillik qiyoslash kapital shakllanishiga xarajatning o'rishini yoki muddatdan o'tib ketishini ifodalaydi.

Davlat moliyasining xalqaro statistikasiga muvofiq davlat boshqaruvi sektori xarajatlari ikki mezon bo'yicha tasniflanadi:

- ularning funksional maqsadiga ko'ra;
- operatsiyalarning iqtisodiy tavsifiga ko'ra.

Budget tasnifi – qaror qabul qilish tizimining muhim vositasi bo'lganligi sababli, unda davlatning asosiy funksiyalaridan kelib chiqadigan davlat faoliyatining maqsadli yo'nalishlari aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Bu vazifani davlatning asosiy funksiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarning funksional tarkibi yechadi. Umumlashgan holda bu funktsiyalar barcha mamlakatlar uchun o'zgarmas va xarakterli bo'lib, ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- davlat boshqaruvi;
- ichki va tashqi havfsizlikni ta'minlash;
- xalqaro faoliyat;
- ilmiy-texnika taraqqiyotiga ko'maklashuv;

➤ ijtimoiy rivojlanish.

Iqtisodiy guruhlash xarajatlarni predmetli belgi asosida mufassal taqsimlash imkonini beradi (ish haqi, aholiga transfertlar va hokazolar) va barcha oluvchilarga budjet ijrosi nuqtai nazaridan yagona yondashuv imkoniyatini yaratadi.

Iqtisodiy tasnif uch asosiy kategoriyadan tashkil topgan:

joriy xarajatlar, kapital aktivlarni sotib olish va yaratish, moliyaviy kapitalni ko'paytirish, ushbu to'lovlarni oluvchilar uchun kapital aktivlarining yemirilishidan kelib chiqqan yo'qotishlarni kompensatsiyalash bilan bog'liq bo'lmagan pullik va bepul to'lovlar;

kapital xarajatlar, o'zida asosiy kapital, strategik yoki favqulodda zaxiralarni, yerlarni, nomoddiy aktivlarni sotib olish xarajatlarini, asosiy kapitalni sotib olishga sarflanadigan pulsiz to'lovlarni, asosiy kapitalning yemirilishi yoki buzilishi bilan bog'liq yo'qotishlarni kompensatsiyalashni namoyon etadi;

kreditlash minus qarzni qoplash (sof kreditlash), o'zida davlat boshqaruv organlarining operatsiyalarini mujassamlashtirib, iqtisodiyotning boshqa sektorlariga nisbatan moliyaviy buyurtmalar vujudga kelishi yoki davlat siyosatini olib borish maqsadida korxonalar kapitalida ulush bilan qatnashishni nazarda tutadi. Bu operatsiyalar debitor tipi bo'yicha guruhlanadi, ya'ni ichki qarzdor va qarzdor-norezident tipi bo'yicha. Bu ko'rsatkich DMSda byudjet taqchilligi hajmini belgilaydigan omil sifatida qaraladi.

Davlat budjetining moliyaviy resurslarni taqsimlanish jarayoniga manzilli tus berish uchun, DMSda budjet xarajatlarini idoraviy xususiyatlaridan kelib chiqib guruhlash nazarda tutiladi. Bu esa o'z navbatida, mablag'larni ularning aniq taqsimlovchilari bo'yicha taqsimlanishini aks ettirish imkonini beradi. Xarajatlarni



funksional, idoraviy va iqtisodiy guruhlash xarajatlarning bir tasnifidan boshqasiga o'tish imkonini berish uchun o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Davlat moliyalashtirishi davlat boshqaruvi sektori tomonidan boshqa tarafga va aksincha, harakat qiluvchi to'lovlarning barcha oqimlarini qamrab oladi va natijada moliyaviy buyurtmalar vujudga keladi yoki qoplanadi.

Moliyalashtirishga likvidlikni boshqarish bilan bog'liq davlat zaxiralarining har qanday o'zgarishi ham kiradi. Moliyalashtirish operatsiyalarining turli shakllari bo'yicha ma'lumotlar shunday tashkil qilinadiki, davlat moliyalashtirishining iqtisodiyotga ta'sirini baholash imkoni bo'lsin. Buning uchun davlat moliyalashtirishi va davlat likvidligini boshqarish bilan bog'liq operatsiyalar kreditor yoki qarz majburiyati egasi tipi bo'yicha yoki qarz majburiyati tipi bo'yicha tasniflanadi. Shu ikki tasnif doirasida ichki va tashqi moliyalashtirish o'rtasidagi farq aniqlanadi.

DMSning xalqaro standartlariga muvofiq, qarz olish davlat boshqaruvi sektorining daromadlariga kirmaydi, balki budget taqchilligini moliyalashtirish manbasi sifatida ko'riladi. *Taqchillikni quyidagicha aniqlash mumkin: daromadlar va olingan transfertlar summasi minus xarajatlar va kreditlash summasi minus qarzni qoplash. Majburiyatlarning o'zgarishi va qarz summasining o'zgarishi*<sup>6</sup>. Yuqorida qayd etilgan operatsiyalardan farqli o'laroq, davlat qarzi davlat boshqaruvi sektorining avval va kelajakda qoplanishi rejalashtirilayotgan operatsiyalar natijasida jamg'arilgan moliyaviy majburiyatlarning hajmi sifatida qaralishi mumkin.

Majburiyatlar kelajakda davlat boshqaruvi sektorining operatsiyalari yordamida qoplanishi yoki muddatsiz qarz sifatida qayta rasmiylashtirilishi kerak. Davlat qarziga xizmat ko'rsatish foizlarni to'lash va (yoki) qarzning asosiy summasini qoplash orqali bajariladi. Davlat qarzi tarkibida faqat foizi to'lanadigan muddatsiz majburiyatlar hamda qarzning asosiy summasini to'lash bo'yicha

---

<sup>6</sup>Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice, CreateSpace USA, 2016. p. 15

talablar amal qilsa, har qanday foizsiz majburiyatlar aks etishi zarur. Davlat qarzi qarz majburiyatlarining egalari tiplari bo'yicha ichki va tashqi qarz majburiyatlariga taqsimlanadi. Qo'shimcha ravishda qoplanmagan qarz tasnifidan foydalanilishi mumkin, u kreditor va qarz majburiyati tipidan kelajakda ichki va tashqi davlat qarzigacha taqsimlash yo'li bilan keltirib chiqariladi.

## **2. Budjettasnifining turlari: Budjetdaromadlaritasnifi, Budjetxarajatlaritasnifi, uning guruhlanishi.**

Budjet tasnifi budjet tizimi budjetlarining daromadlari va xarajatlarini, shuningdek Davlat budjeti taqchilligini qoplash manbalarining guruhlanishi bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- budjet tizimi budjetlari daromadlarining tasnifi;
- budjet tizimi budjetlari xarajatlarining tasnifi;
- Davlat budjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi.

Budjet tasnifi budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish hamda ijro etishni tizimlashtirish uchun foydalaniladi va u budjet ma'lumotlari xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslanishini ta'minlaydi.

### **Budjet tasnifini tuzishning asosiy tamoyillari**

<b>Budjet tasnifining asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:</b>	
<b>to'liqlilik</b>	budjet tasnifi budjet jarayonining barcha ishtirokchilarini qamrab olishi shart;
<b>yagonalik</b>	budjet tasnifi budjet jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan yagona budjet tasnifi qo'llanilishi shart;
<b>o'zaro muvofiqlik</b>	budjet tasnifining kodlari bir vaqtning o'zida budjet jarayonining har xil operatsiyalarini aks ettirish uchun qo'llanilmasligi kerak, ya'ni budjet tasnifining har bir kodi o'ziga xos bo'lishi shart.

Budjet tizimi budjetlari daromadlarining tasnifi daromatlarni ularning turlari va manbalari bo'yicha kodlashdan iborat bo'ladi.

Yigirma bir koddan iborat bo'lgan daromadlar tasnifi tuzilmasi to'rt qismli ko'rinishga ega:

budjet tizimi budjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi;

daromadlarning turlari;

hududiy tasnif.

Daromadlar tasnifi tuzilmasi quyidagi ko'rinishga ega:

<b>Budjet tizimi budjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi</b>	<b>Daromadlarning turlari</b>	<b>Tashkiliy tasnif</b>	<b>Hududiy tasnif</b>
X XXX X X	X XXX XXX	XXX	XX XXX

Davlat moliyasini boshqarishning Axborot tizimi (keyingi o'rinlarda DMBAT deb yuritiladi) tatbiq etilguniga qadar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni tuzishda faqatgina «Daromadlarning turlari» kodi qo'llaniladi.

Budjet tizimi budjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi (1 — 6 kodlar) budjetga tushayotgan daromatlarni tegishli mablag'lar manbalariga va ushbu budjetlar darajalariga mansubligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

7 ta raqamli daromadlarning turlari (7 — 13 kodlar) quyidagilardan iborat:

- bo'lim;
- paragraf;
- daromad tipi.

Bo'lim daromadlarni ularning olish manbalari bo'yicha guruhlanishini bildiradi:

**3 100 000 «Soliqlar»;**

**3 200 000 «Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar»;**

**3 300 000 «Grantlar»;**

**3 400 000 «Boshqa daromadlar»;**

**3 500 000 «Aktiv va majburiyatlarga tranzaksiyalar bo'yicha tushumlar».**

Paragraf soliq yoki boshqa turdagi daromadlarni soliqqa tortish bazasi bo'yicha daromadlarning guruhlanishini bildiradi.

«Soliqlar» (3 100 000) quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

**3 110 000 «Daromad, foyda va kapital o'sishiga soliqlar»;**

**3 130 000 «Mol-mulkka solinadigan soliq»;**

**3 140 000 «Tovarlar va xizmatlarga soliqlar»;**

**3 150 000 «Xalqaro savdo va operatsiyalarga soliqlar»;**

**3 160 000 «Boshqa soliqlar»;**

«Grantlar» (3 300 000) quyidagi paragraflarni ga oladi:

**3 310 000 «Xorijiy davlatlar davlatlaridan»;**

**3 320 000 «Xalqaro tashkilotlardan»;**

**3 330 000 «Davlat boshqaruvi sektorining boshqa birliklaridan».**

«Boshqa daromadlar» (3 400 000) quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

**3 410 000 «Mol-mulkdan daromadlar»;**

**3 420 000 «Tovarlarni va xizmatlarni sotilishi»;**

**3 430 000 «Jarimalar, penyalalar va neustoykalar»;**

**3 440 000 «Ixtiyoriy transfertlar, grantlar bundan mustasno»;**

**3 450 000 «Aniqlab bo'lmaydigan va boshqa daromadlar».**

«Aktiv va majburiyatlarga tranzaksiyalar bo'yicha tushumlar» (3 500 000) quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

**3 510 000 «Tranzaksiyalardan aktivlarga tushadigan tushumlar»;**

**3 520 000 «Majburiyatlarga tranzaksiyalar bo'yicha tushumlar».**

Tashkiliy tasnif (14 — 16 kodlar) kelib tushayotgan daromadlarning ana shu daromadlarni ma'muriy jihatdan idora qiluvchi tegishli organga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va sh.k.) mansubligini identifikatsiyalash maqsadida qo'llaniladi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zaro hisob-kitoblar bo'yicha yuqori (quyi) budjetning quyi (yuqori) budjet oldidagi majburiyatining qaytarilishi hisobiga quyi budjetlarga dotatsiya, subventsiya, budjet ssudalari va mablag'lari kelib tushganda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga birlashtirilgan koddan foydalaniladi.

Hududiy tasnif (17 — 21 kodlar) kelib tushayotgan daromadlarning ushbu daromadlar shakllantirilayotgan yoxud o'tkazib berilayotgan tegishli ma'muriy-hududiy birlikka mansubligini identifikatsiyalash maqsadida qo'llaniladi.

Budjet tizimi budjetlari xarajatlarining tasnifi budjet tizimi budjetlari xarajatlarini kodlashdan iborat bo'ladi hamda davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish sektori birliklari asosiy funktsiyalarini bajarishiga, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishiga budjet mablag'larini yo'naltirilishini aks ettiradi.

### Xarajatlar tasnifi quyidagilardan iborat:

- budjet tizimi budjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi;
- hududiy tasnif;
- vazifa jihatidan tasnif;
- iqtisodiy tasnif;
- iqtisodiy tasnif (xarajatlar guruhi bo'yicha);
- tashkiliy tasnif.

### Xarajatlar tasnifi tuzilmasi quyidagi ko'rinishga ega:

Budjet tizimi budjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi				Vazifa jihatdan tasnif			Tashkiliy tasnif	Iqtisodiy tasnif			Hududiy tasnif	
<b>X</b>	<b>XXX</b>	<b>X</b>	<b>X</b>	<b>X</b>	<b>XXX</b>	<b>XXX</b>	<b>XXX</b>	<b>XX</b>	<b>XX</b>	<b>XXX</b>	<b>XX</b>	<b>XXX</b>

DMBAT tatbiq etilguniga qadar xarajatlar smetasini va xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi hisobotni (Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni qo'shgan holda) tuzishda «Vazifa jihatdan tasnif», «Tashkiliy tasnif» va «Iqtisodiy tasnif» kodlari qo'llaniladi.

### Hududiy tasnif (Andijon viloyati misolida)

Kod		Nomi
Hudud	Tuman/shahar	
<b>03</b>	<b>000</b>	<b>Andijon viloyati</b>
<b>03</b>	<b>200</b>	<b>Tumanlar</b>
<b>03</b>	202	Oltinko'l tumani
<b>03</b>	203	Andijon tumani
<b>03</b>	206	Baliqchi tumani
<b>03</b>	209	Bo'z tumani

<b>03</b>	210	Buloqboshi tumani
<b>03</b>	211	Jalolquduq tumani
<b>03</b>	214	Izbosgan tumani
<b>03</b>	217	Ulug'nor tumani
<b>03</b>	220	Qo'rg'ontepa tumani
<b>03</b>	224	Asaka tumani
<b>03</b>	227	Marhamat tumani
<b>03</b>	230	Shahrixon tumani
<b>03</b>	232	Paxtaobod tumani
<b>03</b>	236	Xo'jaobod tumani

Budjet tizimi budjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi (1 — 6 kodlar) amalga oshirilayotgan xarajatlarning qaysi mablag'lar manbasi va budjetlar darajasiga (tegishli budjet darajasiga, davlat maqsadli jamg'armasi turiga va sh.k.) mansubligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

Vazifa jihatdan tasnif (7 — 13 kodlar) barcha budjet darajalari xarajatlari guruhlanishini o'zida ifodalaydi hamda davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish sektori birliklari asosiy funktsiyalarini bajarishiga, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishiga budjet va budjetdan tashqari mablag'larni yo'naltirilishini aks ettiradi.

Vazifa jihatdan tasnif ikki darajadan iborat:

Vazifa jihatdan tasnifning birinchi darajasi (bo'limlar) davlatning asosiy vazifasini bajarish uchun moliyaviy resurslarning yo'nalishini aks ettiradi. Kichik bo'limlar vazifa jihatdan tasnifning ikkinchi darajasi hisoblanib, davlat vazifalarining bajarilishida budjet mablag'larining bo'limlar doirasidagi yo'nalishini aniqlashtiradi.

Vazifa jihatdan tasnifning kichik bo'limlarining tuzilishi davlatning asosiy vazifalarini aniqlashtirish tamoyiliga asosan qurilgan.

**Vazifa jihatdan tasnifning kodi 7 ta raqamdan iborat bo'lib, shundan 4 ta raqam — bo'lim, 3 ta raqam esa — kichik bo'limdir.**

Vazifa jihatdan tasnifning bo'limlari va kichik bo'limlari yagona bo'lib, budget jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetini tuzishda, tasdiqlashda va ijro qilishda foydalaniladi.

Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi amaldagi tasnifga nisbatan davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish sektori birliklari asosiy funksiyalarini bajarishiga, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishiga budget va budgetdan tashqari mablag'larni yo'naltirilishini yanada aniqroq aks ettiradi.

Bunga misol tariqasida davlat budgetidan ta'lim sohasiga amalga oshiriladigan xarajatlarni quyidagi solishtirish jadvali orqali amaldagi va yangi vazifa jihatidan tasnifni solishtirib ko'rishimiz mumkin:

Amaldagi tasnif			Yangi tasnif			
Bo'lim	§	Nomi	Kodlar			Nomi
<b>000</b>	0	Jami xarajatlar	7	000	000	Jami xarajatlar
<b>200</b>	X	Umumiy ta'lim	7	090	000	ta'lim
	1	Maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari	7	091	000	Maktabgacha ta'lim
	2	Maktablar-bolalarni maktabgacha tarbiyalash muassasalari	7	091	100	Maktabgacha bolalar muassasalari
	3	Boshlang'ich, to'liqsiz o'rta va o'rta maktablar	7	091	200	Maktabgacha maktab-bolalar muassasalari
<b>205</b>	x	O'rta maxsus, oliy ta'lim va kadrlarning malakasini oshirish	7	096	400	Respublika maqsadli kitob jamg'armasi xarajatlari
			7	096	500	Maktab ta'lim jamg'armasi
<b>202</b>	x	Fan	7	097	000	Ta'lim sohasidagi ilmiy-tadqiqot tajriba konstruktiv ishlanmalar
	2	Ilmiy-texnikaviy dasturlarning ustuvor yo'nalishlari	7	098	100	Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligini saqlash xarajatlari
<b>214</b>	x	Davlat boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari	7	098	200	O'rta maxsus kasb hunar ta'limi markazini saqlash xarajatlari
	4	Vazirliklar, davlat qo'mitalari, va boshqa	7	098	400	Xalq ta'limi vazirligini saqlash xarajatlari



		organlarni saqlash xarajatlari				
<b>240</b>	x	Kapital qo'yilmalar va umumiy loyihalashtirish	7	098	800	Kapital qo'yilmalar va namunaviy loyihalashtirish

Ya'ni, yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, yangi budjet tasnifida ta'lim sohasi uchun davlat budjetidan (davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar budjetidan amalga oshirilgan xarajatlarni ham qo'shgan holda) amalga oshirilgan barcha xarajatlar, u hoh ta'lim muassasalarini saqlash xarajatlari bo'lsin, yoki ta'lim sohasida amalga oshirilgan kapital qurilish xarajatlari bo'lsin, yohud ta'lim sohasidagi ilmiy-tadqiqot tajriba konstruktiv ishlanmalar bo'lsin ta'lim uchun amalga oshirilgan barcha xarajatlarni o'zida to'liq aks ettiradi.

Amaldagi xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifida esa, ushbu xarajatlar (masalan, ta'lim sohasida amalga oshirilgan kapital qurilish xarajatlari yoki ta'lim sohasidagi ilmiy-tadqiqot tajriba konstruktiv ishlanmalar) ta'lim sohasi xarajatlarida emas, balki boshqa yo'nalishdagi xarajatlar tarkibida aks ettirilgan.

Iqtisodiy tasnif budjet tizimi budjetlari xarajatlarini xo'jalik belgilariga, ishlab chiqarish elementlariga ko'ra farqlashni nazarda tutadi, davlat boshqaruvida amalga oshirilayotgan xarajatlarning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib budjet xarajatlari yo'nalishlarini belgilab beradi. Iqtisodiy tasnifning tuzilmasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Toifa	Modda va kichik modda	Element
<b>Xx</b>	xx	xxx

**Iqtisodiy tasnif toifalar, moddalar va kichik moddalar kodlarini o'z ichiga olgan 7 raqamdan iborat.**


toifa — 2 ta raqam;

modda — 1 ta raqam;

kichik modda — 1 ta raqam;

element — 3 ta raqam.

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 24-moddasida Davlat budjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifiga quyidagicha ta'rif berilgan, Davlat budjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi ularni ichki va tashqi manbalar bo'yicha guruhlashdan iborat.



50-bo'lim «Ichki manbalar» quyidagi paragraflardan tashkil topgan:

501 «Davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar»;

503 «Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar»;

504 «O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti mablag'larining moliya yili boshidagi qoldiqlari»;

505 «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larining qoldig'i»;

506 «O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'larining qoldig'i»;

507 «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi mablag'larining qoldig'i»;

508 Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar jamg'armasi mablag'lari;

509 «Boshqa ichki manbalardan jalb qilinadigan mablag'lar».

51-bo'lim «Tashqi manbalar» quyidagi paragraflardan tashkil topgan:

511 «Davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar»;

512 «Xalqaro moliyaviy institutlar, tashkilotlar kreditlari»;

513 «Xorijiy davlatlar kreditlari»;

514 «Boshqa tashqi manbalardan jalb qilinadigan mablag'lar».

### **Davlat budjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi**

<b>Kodlar</b>		<b>Nomi</b>
<b>bo'lim</b>	<b>paragraf</b>	
<b>50</b>	<b>x</b>	<b>ichki manbalar</b>
	1	Davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar
	5	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larining qoldig'i
	6	O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'larining qoldig'i
	7	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi mablag'larining qoldig'i
	8	Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar jamg'armasi mablag'lari
	9	Boshqa ichki manbalardan jalb qilinadigan mablag'lar
<b>51</b>	<b>x</b>	<b>Tashqi manbalar</b>
	1	Davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar
	2	Xalqaro moliyaviy institutlar, tashkilotlar kreditlari

	3	Xorijiy davlatlar kreditlari
	4	Boshqa tashqi manbalardan jalb qilinadigan mablag'lar

Ko'plab mamlakatlar moliyaviy boshqarish oshkoraligi va hisobdorligini oshirish, ularning yanada samarali bo'lishi uchun qo'shimcha tasnifdan foydalaniladi. Shunga qaramasdan, kengaytirilgan turli xil tasniflardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozim bo'ladi. Bundan tashqari, zarur axborot va texnik tizimini qurish uchun ko'proq kuch va resurslarini talab qiladi.

Budjet tasnifi tizimi agar quyidagi xususiyatlari uchun muhimki, u o'z vaqtida va ishonchli ma'lumotlarni ishlab chiqarish uchun foydali hisoblanadi.

Budjet amaliyotida yuz berayotgan o'zgarishlar – budjet ijrosining g'aznachilik tizimiga o'tilishi, yagona budjet va hisob tizimining ishlab chiqilishi yangi budjet tasnifini ishlab chiqish va kiritishni taqozo etdi.

Masalan, Moliya vazirining buyrug'iga binoan 2008 yilda davlat budjeti daromadlari va xarajatlarining yangi tasnifi tasdiqlandi, uni joriy etishni (xalqaro maslahatchilarning tavsiyalariga binoan tuzatishlar kiritilganidan so'ng) 2010-yil 1 -yanvardan Toshkent shahrining Bektemir tumanida boshlash rejalashtirildi.

Yangi tasnifning muhim vazifalari:

- budjet mablag'larining shaffofligi va maqsadli ishlatilishini ta'minlash;
- budjetning daromadlar va xarajatlar ko'rsatkichlari tarkibi
- budjetning daromadlar va xarajatlar ko'rsatkichlari tuzilishi davlat moliyasining xalqaro statistikasi standartlariga muvofiqligini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lar manbalari va budjet darajalari tasnifi Davlat budjetining g'azna ijrosiga o'tilishi munosabati bilan kiritilgan bo'lib, o'zi bilan mablag'lar manbalari (Davlat budjeti, Davlat maqsadli

jamg'armalari mablag'lari, boshqa budjetdan tashqari Davlatning jamg'armalari, grantlar, kreditlar)ni O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilmalari darajalari bo'yicha guruhlanishini namoyon etadi va Davlat budjeti xarajatlarini ularni tashkil topish joy (hudud, tuman, shahar)lariga daxl etishga imkon berdi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 20-avgustdagi 65-sonli buyrug'i bilan (2010-yil 11-oktyabrda 2146-raqami bilan ro'yxatga olingan) O'zbekiston Respublikasi budjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma tasdiqlandi. Ushbu hujjat milliy budjet tasnifini davlat moliyasi tasnifining xalqaro standartlari bilan uyg'unlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, 2011 yilning 1 yanvaridan amalga kiritildi.

Ma'lumki, budjet tasnifi Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlaridan mablag' oluvchi tashkilotlarga qo'llaniladi hamda Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro qilish, shuningdek, Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash maqsadida foydalaniladi

Ushbu hujjatning afzalliklari va muhim jihatlarini quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha ochib berish mumkin:

*-milliy budjet tasnifini davlat moliyasi tasnifining xalqaro standartlari bilan uyg'unlashtirilishi;*

*- budjet tasnifining davlat budjeti g'azna ijrosi buxgalteriya hisobining yagona hisob varaqlar rejasi bilan uyg'unlashtirilishi natijasida davlat budjeti ijrosi bilan bog'liq ma'lumotlarni takomillashtirilishi (tizimlashtirilishi);*

*- budjet jarayonining barcha ishtirokchilarini (davlat budjeti, budjetdan mablag' oluvchilar, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalarni) to'liq qamrab olinishi natijasida budjet tasnifida davlat budjeti ijrosining yanada to'liqroq aks ettirish imkonining vujudga kelishi va hokazo.*

Xususan, ma'muriy, iqtisodiy va funktsional tasniflash , tasnifning boshqa shakllari bilan bir qatorda qo'shimcha ma'lumot taqdim etishi mumkin:

- ma'muriy birlik , soliq to'lovchining yoki oluvchining geografik mavqega ko'ra tasniflashdavlat savdolari va subsidiyalar;
- Davlat o'tkazmalari va subsidiyalar benefitsiarlarining tasniflash;
- kreditlar va grantlarni yozish uchun foydalaniladigan tashqi qarzarlar uchun ishlatiladigan moliyalashtirish manbalari tasnifini va hamkasbi mablag'lar.

Budjetlashtirish tizimning bir turi sifatida tushunilishi mumkin, ya'ni “ular o'rtasida munosabatlar bilan bog'lanuvchi tarmoq”. Budjet qaror qabul qilish ma'muriy xodimlar harakatini tashkil etadi (ikkala markaziy tashkilotda ham boshqaruv xodimi yoki hokim shtati va ma'muriy agentlik yo'nalishlarida), qonuniy xodimlar, tashkillashtirilgan manfaatli guruhlar va birgalikda tashkil etilgan manfaatlar, ya'ni davlat ehtiyojlari va soliqlar haqida davlat masalasini umumiy tushunish orqali namoyon bo'luvchi manfaatlaridir. Keltirilgan hamma holatlar va budjetlashtirishni anglab yetish o'zaro munosabatlarni tushninishni bildiradi. Bunday tushunish umumiy tizimlar jihatidan o'ylash orqali a'lo darajada erishiladi.

Umumiy ijtimoiy tizim shaxslar, ijro etilgan normalar va ushbu elementlar o'rtasidagi munosabatlar tomonidan tashkil etilgan tashkilotlar, shaxslar va qiymatliklarni ifodalaydi. Tizim turli qismlar orqali qabul qilinuvchi xabarlarining ko'pgina qismlarini tashkil etgan alohida tarmoq sifatida tushuniladi. Tizim elementlarining natijalari va o'zaro ta'sir tizimi ishlab chiqarish uchun bir biriga ta'sir ko'rsatadi, huddi shu yo'nalishdagi natijalar orqali turli xil yo'nalishlar shaklida bo'lishi mumkin. Budjet tizimlari siyosiy qatnashchilar, iqtisodiy va ijtimoiy nazariyalar, bir qancha institutsional tuzilmalar va raqobatchi normalar va qiymatlarni o'z ichiga oladi, faqatgina budjet hujjatlarini o'rganishdan bevosita ochiq bo'lmagan shakldagi mahsulot ishlab chiqaruvchilarning hammasini o'z ichiga oladi.

## **Nazorat uchun savollar.**

- 1. Budget tasnifi tushunchasiga ta'rif bering.*
- 2. Obyekt muhimligi tasnifining afzalliklari va kamchiliklari qanday?*
- 3. Iqtisodiy tasnifning asosiy kategoriyalari nimalardan iborat?*
- 4. Budget tasnifining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?*
- 5. Daromadlar tasnifi tuzilmasi qanday ko'rinishga ega?*
- 6. Xarajatlar tasnifi nimalardan iborat?*
- 7. Budget taqchilligi nima?*
- 8. 50-bo'lim "Ichki manbalar" qanday paragraflardan tashkil topgan?*
- 9. O'zbekiston Respublikasi Budget tasnifi qo'llash bo'yicha yo'riqnoma qachon va kim tomonidan tasdiqlangan?*
- 10. Ushbu hujjatning afzalliklari haqida gapirib bering.*

## 2.2. BUDJET TIZIMINI BOSHQARISH.

Budjet tizimini boshqarish quyidagilarni nazarda tutadi:


➤ *Budjet tizimining asosiy tamoyillariga amal qilgan holda budjet munosabatlarini boshqarish;*

➤ *Barcha darajadagi budjetlarni shakllantirish, ko'rib chiqish, qabul qilish, ijro etish jarayonlarini boshqarish;*

➤ *Budjet jarayonida ishtirok etuvchi sub'ektlar, organlar va budjet mablag'larini oluvchilar faoliyatini boshqarish;*

Budjet tizimini boshqarish ham boshqarish kategoriyasining barcha funktsiyalarini bajaradi, ular orqali budjet tizimini boshqarish oldidagi maqsad va vazifalar amalga oshiriladi. Bu funktsiyalar quyidagilardan iborat:

- ✓ *rejalashtirish*
- ✓ *tashkil etish*
- ✓ *muvoqlashtirish*
- ✓ *nazorat*
- ✓ *motivatsiya(rag'batlantirish)*






## **1-rasm. Boshqarish elementlari**

Budjet tizimini boshqarish tushunchasi sub'ektiv tushuncha. Budjet tizimini boshqarish alohida vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi, ularning vakolatlari «Budjet kodeksi»da tegishli boshqaruv organlari nizomlari va boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar bilan belgilab berilgan.

Budjet tizimini boshqarish ob'ektlari bo'lib Budjet munosabatlari, Budjetning daromadlar bo'yicha shakllanishi va xarajatlar bo'yicha bajarilishi, Budjetlararo munosabatlar va shu kabi ijtimoiy-iqtisodiy pul munosabatlari hisoblanadi. Davlat budjetini boshqarish sub'ektlari esa bevosita shu munosabatlarni boshqarish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishda ishtirok etuvchi ma'lum bir vakolatlarga ega bo'lgan davlatning qonunchilik-ijroiya institutlari – boshqaruv organlaridir. Budjet tizimini boshqarish sub'ektlari qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- ❖ **Oliy Majlis;**
- ❖ **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;**
- ❖ **Mahalliy davlat hokimiyati organlari;**
- ❖ **O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning quyi organlari;**
- ❖ **O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi;**
- ❖ **Markaziy bank;**
- ❖ **Vakil qilingan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari va boshqa alohida vakolatli organlar**

## Byudjet tizimini boshqarish sub'ektlari



- ❖ *Oliy Majlis;*
- ❖ *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;*
- ❖ *Mahalliy davlat hokimiyati organlari;*
- ❖ *O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning quyi organlari;*
- ❖ *O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi;*
- ❖ *Markaziy bank;*
- ❖ *Vakil qilingan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari va boshqa alohida vakolatli organlar.*



### 2-rasm. Budjet tizimini boshqarish sub'ektlar

Davlat budjeti amal qilishining, shakllanishi va ishlatilishining qonuniy-huquqiy asoslarini quyidagilar tashkil qiladi.

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi;
- “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonun;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining har moliyaviy yil uchun qabul qilinadigan “O'zbekiston Respublikasining davlat Budjeti to'g'risida”gi Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining har moliyaviy yil uchun qabul qilinadigan “O'zbekiston Respublikasi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat Budjeti parametrlari to'g'risida”gi Qarori;
- Hududiy davlat boshqaruvi va ijroiya organlarining mahalliy budjetlar parametrlarini tasdiqlash to'g'risidagi Qarorlari;
- Boshqa qonuniy-huquqiy xujjatlar.

*Qonun chiqaruvchi organlar (idoralar) – shahar konsulliklari, maktab kengashlari, shtat qonun organlari va congress ba'zida nisbatan kuchsizroq organ bo'lganliklari uchun mav'qega ega bo'ladilar (ularga berilgan kuch va ular*

*tomonidan qilingan da'vo shartlari evaziga) lekin bu tushuncha oxirgi yillarda ancha o'zgardi. Davlatning barcha darajasidagi Qonun chiqaruvchi organlar siyosat belgilash uchun o'zlarining vakolatlarini qayta ma'qullashmoqda va ularga berilgan vakolatlarga ega bo'lish qobiltayini oshirish maqsadida chora-tadbirlarni ishlab chiqmoqdalar. Bunda davlat budjeti bo'yicha qonun chiqaruvchi organlar muhokamasi uchun mavjud muhitga ta'sir etadigan ko'zga tashlanuvchi xarakterlar va ijobiy o'zgarishlar mavjuddir. Bular;*

- *qonun chiqaruvchi organlarning birinchi va eng muhim vakillik organi sifatidagi o'rni;*
- *huquqshunoslar o'zlarining ishlari uchun qanday jarayonda tanlanishi bo'yicha tendensiyalar;*
- *qonuniy nuqtai nazardan kelib chiqqan holda harakat qilish va;*
- *mamlakat bo'ylab rivojlantiruvchi tarafdorlarning chuqur bo'linishi.<sup>7</sup>*

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Budget sohasidagi vakolatlari quyidagilar:**

✓ davlat budjeti va davlat maqsadli jang'armalari budjetlari, shuningdek soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini ishlab chiqish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;

✓ davlat budjeti va davlat maqsadli jang'armalari budjetlari, shuningdek soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini ko'rib chiqish hamda tegishli xulosa taqdim etish uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;

✓ Budjetnoma loyihasini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

✓ Budjetnomani O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga taqdim etadi;

✓ davlat boshqaruvi organlarining Davlat budjetini va davlat maqsadli jang'armalari budjetlarini ijro etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi hamda nazorat qiladi;

---

<sup>7</sup>Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice, CreateSpace USA, 2016. p. 15

✓ davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni har chorakda ko'rib chiqadi;

✓ o'tgan moliya yili uchun Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tashqi audit o'tkazish hamda baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;

✓ davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi;

✓ Budjet Kodeksining 144, 145 va 149-moddalarida nazarda tutilgan hollarda moliya yili mobaynida Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi;

✓ O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

✓ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi mablag'laridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq budjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining budjet sohasidagi vakolatlari quyidagilar:**

✓ davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari, shuningdek soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xulosa taqdim etadi;

✓ davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot bo'yicha tashqi audit va baholashni amalga oshiradi hamda ular yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xulosa taqdim etadi;

✓ vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda banklarning budjet tizimi budjetlari daromadlari va xarajatlari moddalarining maqsadli ijrosini boshlang'ich ma'lumotlar bo'yicha nazorat qilish imkonini beruvchi axborot tizimlari va resurslariga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi;

✓ davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari daromad qismining ijrosi yuzasidan monitoring o'tkazadi;

✓ budjet tizimi budjetlari mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi qonun hujjatlariga muvofiq budjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining budjet sohasidagi vakolatlari quyidagilar:**

✓ Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarini, tumanlar va shaharlar budjetlarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq ko'rib chiqadi va qabul qiladi;

✓ Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari, tumanlar va shaharlar budjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq har chorakda ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

✓ mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilaydi;

✓ Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari qonun hujjatlariga muvofiq budjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin;

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining budjet sohasidagi vakolatlari quyidagilar:**

✓ tegishli budjet loyihasini ishlab chiqish va uni ijro etish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;

✓ budjet so'rovi olinishiga qarab tegishli Budjetlarning loyihalarini tuzish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, ularni tayyorlash tartibi va muddatlarini belgilaydi;

✓ Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti loyihasini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari, tumanlar va shaharlar budjetlari loyihalarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga ko'rib chiqish va qabul qilish uchun taqdim etadi;

✓ Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining qarorlariga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari, tumanlar va shaharlar budjetlari parametrlarini tasdiqlaydi;

✓ Budjet Kodeksining 146 — 148-moddalarida nazarda tutilgan tartibda moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari, tumanlar va shaharlar budjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi;

✓ Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari, tumanlar va shaharlar budjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga tasdiqlash uchun taqdim etadi;

✓ davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlariga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

✓ Budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

✓ Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar

budgetlarining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

✓ Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari Budget Kodeksining 28-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan vakolatlar bilan bir qatorda tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgetining, viloyatlar viloyat budgetlari va Toshkent shahri shahar budgetining zaxira jamg'armalari mablag'laridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari qonun hujjatlariga muvofiq Budget sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bevosita budget tizimini boshqarishni amalga oshirib, budget munoabatlarini operativ boshqarish organi hisoblanadi va Budget Kodeksiga muvofiq, quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:**

✓ davlat budgeti hamda soliq va budget siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini tayyorlaydi;

✓ davlat maqsadli jamg'armalari budgetlari loyihalarini ko'rib chiqadi;

✓ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Budgetnoma loyahasini ko'rib chiqish uchun taqdim etadi;

✓ O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasiga O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti daromadlari prognozini har chorakda etkazadi;

✓ budget mablag'larini taqsimlovchilarga va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga ular uchun nazarda tutilgan budgetdan ajratiladigan mablag'lar hajmlarini etkazadi;

✓ Budget mablag'larini taqsimlovchilarning xarajatlar smetalari va jamlanma xarajatlar smetalari, shtat jadvallarini, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;

✓ Budjet Kodeksining 145-moddasida nazarda tutilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi respublika Budjetining xarajatlari yoyilmasiga moliya yili mobaynida o'zgartirishlar kiritadi;

✓ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Budjet Kodeksning 144, 145 va 149-moddalarida nazarda tutilgan tartibda Davlat Budjeti, O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari Budjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar taqdim etadi;

✓ Budjet Kodeksining 146-moddasida nazarda tutilgan tartibda moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining tasdiqlangan parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarini ko'rib chiqadi;

✓ soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularning manbalari kesimida to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

✓ budjet tizimi budjetlarining mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

✓ Qoraqalpog'iston Respublikasi Budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlar, shuningdek budjet tashkilotlari hamda budjet mablag'lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlari shakllarini va ularni taqdim etish tartibini tasdiqlaydi;

✓ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risida hisobot taqdim etadi;

✓ budjetdan tashqari maxsus hisobvaraqlarda zaxiralar tashkil etadi;

✓ davlat budjetini ijro etish jarayonida unga tushumlarni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha zaxiralarni aniqlaydi;

✓ budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;

✓ budjet ssudalarini beradi;



✓ davlat tomonidan mablag'lar jalb qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining shartnomalari va davlat kafolatlarini ro'yxatdan o'tkazadi;

✓ davlat qarzining hisobini va monitoringini yuritadi;

✓ budjet tizimi budjetlarining kassa ijrosini yuritadi;

✓ budjet tizimi budjetlarining Yagona g'azna hisobvarag'idagi va boshqa bank hisobvaraqlaridagi mablag'larini boshqaradi;

✓ budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazadi;

✓ budjet tizimi budjetlarida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig'iga ko'ra to'lovlarni amalga oshiradi;

✓ budjet tizimi budjetlari ijrosining budjet hisobini yuritadi;

✓ davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatadi, O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlarini bajaradi;

✓ O'zbekiston Respublikasiga kelayotgan insonparvarlik yordami hamda texnik ko'maklashish mablag'lari hisobini yuritadi;

✓ budjet tizimi budjetlari daromadlari va xarajatlarining balanslilikiga ta'sir ko'rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni moliyaviy hamda iqtisodiy ekspertizadan o'tkazadi;

✓ o'z vakolatiga kiradigan masalalarga doir normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi;

✓ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq Budjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin;

#### **Hududiy moliya organlarining budjet sohasidagi vakolatlari quyidagilar:**

✓ Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari, tumanlar va shaharlar budjetlari loyihalarini tayyorlaydi hamda ularni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga ko'rib chiqish uchun kiritadi;

✓ soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularning manbalari kesimida to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

✓ tegishli budjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha zaxiralarni aniqlaydi;

✓ budjet tashkilotlariga va budjet mablag'lari oluvchilarga ular uchun nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmlarini etkazadi;

✓ budjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini hamda budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;

✓ Budjet Kodeksining 146-148-moddalarida nazarda tutilgan tartibda tegishli budjetlar parametrlariga moliya yili mobaynida o'zgartirishlar kiritadi;

✓ tegishli budjetlarning mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

✓ yuqori turuvchi moliya organlariga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga tegishli budjetning ijrosi to'g'risida har choraklik hisobotlarni taqdim etadi;

✓ budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;

✓ tegishli budjetlar ijrosining budjet hisobini yuritadi;

✓ mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli budjetlar daromadlari va xarajatlari balanslilikiga ta'sir ko'rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarini moliyaviy va iqtisodiy ekspertizadan o'tkazadi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya boshqarmalari ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan vakolatlar bilan bir qatorda:**

✓ davlat budjeti daromadlari prognozini davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlariga har chorakda tegishli ma'muriy-hududiy birliklar bo'yicha etkazadi;

✓ budjet ssudalarini beradi.

✓ Hududiy moliya organlari qonun hujjatlariga muvofiq budjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**Budjet mablag'larini taqsimlovchilarning budjet sohasidagi vakolatlari quyidagilar:**

✓ Budjetdan ajratiladigan mablag'larni olish uchun Budjet so'rovlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi;

✓ Budjet buyurtmalarini tuzish uchun ko'rsatkichlarni va materiallarni o'z tasarrufidagi tashkilotlarga etkazadi;

✓ xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini tuzish uchun o'z tasarrufidagi tashkilotlarga ularning tegishli moliya yiliga budjetdan ajratiladigan mablag'lari hajmlarini etkazadi;

✓ o'z tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;

✓ tasdiqlangan xarajatlar smetalarini va jamlanma xarajatlar smetalarini, shtat jadvallarini, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirishlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi;

✓ xarajatlar smetalari va shtat jadvallaridagi o'zgartirishlar to'g'risida o'z tasarrufidagi tashkilotlarni xabardor qiladi;

✓ o'z tasarrufidagi tashkilotlarda budjet hisobi yuritilishini tashkil etish va nazorat qilishni ta'minlaydi;

✓ o'z tasarrufidagi tashkilotlardan moliyaviy hisobotlarni qabul qiladi;

✓ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tegishli davr uchun jamlanma moliyaviy hisobotlar taqdim etadi.

Budjet mablag'larini taqsimlovchilar qonun hujjatlariga muvofiq budjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**Budjet tashkilotlarining va budjet mablag'lari oluvchilarning budjet sohasidagi vakolatlari quyidagilar:**

✓ budget buyurtmasini budget mablag'larini taqsimlovchiga, budget mablag'larini taqsimlovchi bo'lmaganda esa, tegishli hududiy moliya organiga Budget Kodeksning 89-moddasida belgilangan tartibga muvofiq kiritadi;

✓ xarajatlar smetalarini tasdiqlaydi hamda ularni budget mablag'larini taqsimlovchiga, budget mablag'larini taqsimlovchi bo'lmaganda esa, tegishli hududiy moliya organiga budgetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida ro'yxatdan o'tkazish uchun kiritadi;

✓ xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan budgetdan ajratiladigan mablag'larni mo'ljallangan maqsadga muvofiq tasarruf etadi;

✓ budgetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzadi;

✓ Budget Kodeksining 150-moddasida belgilangan tartibda xarajatlar smetalariga o'zgartirishlar kiritadi;

✓ tegishli davr uchun moliyaviy hisobotlarni budget mablag'larini taqsimlovchiga, budget mablag'larini taqsimlovchi bo'lmaganda esa, tegishli hududiy moliya organiga taqdim etadi.

✓ budget tashkilotlari ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan vakolatlar bilan bir qatorda, shuningdek:

✓ shtat jadvallarini tasdiqlaydi va ularni budget mablag'larini taqsimlovchiga, budget mablag'larini taqsimlovchi bo'lmaganda esa, tegishli hududiy moliya organiga budgetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida ro'yxatdan o'tkazish uchun kiritadi;

✓ Budget Kodeksining 150-moddasida belgilangan tartibda shtat jadvallariga o'zgartirishlar kiritadi;

✓ muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida tegishli hujjatlarni sudlarga, g'aznachilik bo'linmalariga o'z vaqtida taqdim etadi, shuningdek shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishini ta'minlaydi;

✓ budget hisobini yuritadi va moliyaviy hisobotlarni tuzadi;

✓ budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalarini shakllantiradi va ulardan foydalanadi.

✓ budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar qonun hujjatlariga muvofiq budjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarning budjet sohasidagi vakolatlari quyidagilar:**

✓ davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihalarini tayyorlaydi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga kiritadi;

✓ davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalarini, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;

✓ davlat maqsadli jamg'armalarining budjetlari daromadlari prognozini davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlariga yilning har choragida etkazadi;

✓ Budjet Kodeksining 149-moddasida nazarda tutilgan tartibda davlat maqsadli jamg'armalari budjetlariga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

✓ davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar va boshqa tushumlar to'liq hamda o'z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

✓ davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi;

✓ davlat maqsadli jamg'armalari mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

✓ davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarini ijro etish jarayonida tushumlarni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha zaxiralarni aniqlaydi;

✓ davlat maqsadli jamg'armalarining xarajatlari maqbullashtirilishini amalga oshiradi;

✓ davlat maqsadli jamg'armalarining Yagona g'azna hisobvarag'i va boshqa bank hisobvaraqlaridagi mablag'larini boshqaradi;

✓ davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari ijrosining budjet hisobini yuritadi;

✓ davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining daromadlari va xarajatlari balanslilikiga ta'sir ko'rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni moliyaviy va iqtisodiy ekspertizadan o'tkazadi.

Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar qonun hujjatlariga muvofiq budjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Budjet tizimini boshqarishda yuqori va quyi budjetlar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil qilish va tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Bu munosabatlarni qonun bilan tartibga solish maqadida Budjet kodeksida daromadlarni budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida qayta taqsimlash yo'llari, qaysi daromadlarni qaysi budjet bo'g'iniga tushishi, qaysi xarajatlar qaysi Budjetdan amalga oshirilishi belgilab berildi. Bu budjet munosabatlarini tartibga solishda muhim qonuniy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Xorij davlatlari misolida ko'radigan bo'lmak, Amerika Qo'shma Shtatlarida budjet tizimini boshqarish bir muncha farq qiladi, bunga asosiy sabab ularning shtatlarga bo'linganligi va shtatlarning mustaqil budjet siyosatini yuritishidadir. AQSh shtatlari budjetining har bir shtatda budjet siyosatining mustaqil tarzda yuritilishi, ya'ni shtatlarning daromadlari va xarajatlarini o'zlari qabul qilishlari va shtatlarda daromadlar manbalarni o'zlari shakllantiradilar. Shtatlar budjeti AQShning oliy organi, ya'ni Kongressga yillik hisobotlarini topshiradilar va Prezident tomonidan tasdiqlanadi.

Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi respublikaning markaziy moliya-iqtisodiy organi sifatida O'zbekiston Respublikasining moliyaviy narx siyosatini hayotga tatbiq etadi va uning butun hududida moliya, narx-navoni tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasining vazifalari va funktsiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika budjetini

ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromad qismi barqarorligini ta'minlashni, valyuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta'minlaydi. Moliya vazirligi respublika budjeti ham daromadlar, ham xarajatlar bo'yicha ijro etilishi uchun, moliyaviy resurslarni umumrespublika ehtiyojlariga safarbar etish ishlarini tashkil etish uchun javob beradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari boshqarmalari va bo'limlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona tizimini tashkil etadi.

Moliya vazirligi o'z tizimiga kiruvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri yoki o'zi tashkil etadigan organlar orqali muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi.

Moliya vazirligi tizimiga kiruvchi organlarni boshqarish jarayonida Vazirlik O'zbekiston Respublikasining moliyaviy va narx-navo siyosatini amalga oshirishning birligini ta'minlaydi.

***Shu maqsadlarda Moliya vazirligi:***

● O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi tarkibiga kiruvchi organlar faoliyatini kelishilgan yagona moliyaviy, soliq, valyuta va narx-navo siyosatini shakllantirish ishlarini olib borishga, oltin zahirasini ko'paytirish yo'li bilan O'zbekiston Respublikasining moliyaviy mustaqilligini ta'minlashga, respublika iqtisodiyotini sog'lomlashtirishga, bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida narx-navoni tartibga solishning iqtisodiy usullari rolini kuchaytirishga va aholini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltiradi;

● xalq xo'jaligi va ijtimoiy-madaniy sohani mablag' bilan ta'minlaydi, respublika mintaqalarining yaxlit ishlab chiqarish va ijtimoiy taraqqiyoti uchun moliyaviy negiz yaratadi;

● o'z vakolati doirasida respublika moliya tizimi tarkibiga kiruvchi organlar faoliyatini nazorat qilishni tashkil etadi va amalga oshiradi, ular faoliyati usullari

va shakllarini takomillashtiradi, mazkur organlar xodimlarining kasb mahoratini oshirish ishlarini muvofiqlashtiradi;

● O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, yo'riqnomalar, preyskurantlar va boshqa hujjatlarni tasdiqlaydi va chiqaradi;

● respublika xalq xo'jaligini, O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik va boshqa davlat muassasalarini, xalqaro birlashmalar va tashkilotlarga a'zolik badallari to'lashni valyuta bilan ta'minlaydi.

Moliya vazirligi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining boshqa qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga va boshqa me'yoriy aktlarga amal qiladi.

Moliya vazirligi respublikada moliyaviy faoliyatning huquqiy asoslari mustahkamlanishini ta'minlaydi, qonun loyihalari bo'yicha moliyaviy xulosa beradi va o'z huquqi doirasiga kiruvchi masalalar bo'yicha qonunchilikni qo'llanish amaliyotini umumlashtiradi, bu qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqadi va ularni Vazirlar Mahkamasiga kiritadi, shuningdek, o'z huquq doirasida idoraviy me'yoriy aktlar chiqaradi.

Moliya vazirligi o'z faoliyati jarayonida respublikaning moliyaviy manfaatlariga, korxonalar, birlashmalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning huquqlariga rioya etilishini, shuningdek, Vazirlik tizimida qonunchilik to'g'ri qo'llanishini ta'minlaydi.

Moliyavazirliginingbudjettizimini boshqarish bo'yichavakolatlari, asosiyvazifalarivafunksiyalari O'zbekistonRespublikasiVazirlarMahkamasining 1992 yil 23 noyabrdagi 553-sonqaroribilantasdqiqlangan "O'zbekistonRespublikasiMoliyavazirligito'g'risidagiNizom" bilantartibgasolinadi. Mazkur Nizomga muvofiq, Moliya vazirligining budjet tizimini boshqarish bo'yicha vazifalari quyidagilardan iborat:



➤ moliya tizimining, soliq va narx-navo siyosatining O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatishini, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishini, milliy daromadning, korxonalar va tashkilotlar daromadlarining va boshqa moliyaviy resurslarning o'sishini ta'minlash;

➤ respublikaning moliyaviy resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish va fan-texnika taraqqiyotining ustivor yo'nalishlariga jamlash, ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirish, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan yaxlit xalq xo'jaligi dasturlarini mablag' bilan ta'minlash, zarur moliya, valyuta rezervlarini tashkil etish;

➤ moliya, budjet, valyuta va soliqni rejalashtirish va mablag' bilan ta'minlash usullarini takomillashtirish;

➤ soliq solish, narx belgilash, sug'urta, valyuta-moliya auditorlik va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida qonunchilik va me'yoriy aktlarni ishlab chiqishda qatnashish; (O'zR VM 22.09.2000 y. 365-son Qaroriga muvofiq)

➤ moliya, soliq narx belgilash, sug'urta, valyuta auditorlik va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining funksiyalari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi ishlarni amalga oshiradi:



➤ respublika yig'ma moliya balansining moliyaviy resurslarini shakllantirishning uzoq muddatli va qisqa muddatli istiqbolni belgilashlarini tuzish ishida, shuningdek, umumrespublika maqsadli budjetdan tashqari pul jamg'armalarini shakllantirishda qatnashadi, ularni tashkil etish, foydalanish va miqdorlari tartibi, O'zbekiston Respublikasi mintaqalari tomonidan mazkur pul

jamg'armalariga mablag' ajratish kvotalari to'g'risidagi takliflarni tayyorlaydi;

➤ respublika va mahalliy budjetlarni shakllantirishning yangi usullari asosida hududiy moliya-budjetni, soliqni rejalashtirishni takomillashtiradi;

➤ moliya-budjetni va soliqni rejalashtirish, narx belgilash, xalq xo'jaligi va ijtimoiy-madaniy sohani mablag' bilan ta'minlash sohasida uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi, respublika va mahalliy budjetlardan sarflanayotgan xarajatlar smetasini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ijro etishning umumiy qoidalarini belgilaydi;

➤ amaldagi qonunchilikka muvofiq budjetni tuzish va ijro etish ishlarini tashkil etadi;

➤ respublika vazirliklari, idoralari va korxonalari tomonidan respublika budjetining ijro etilishini, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va respublikaning boshqa banklari tomonidan budjetning kassa ijrosi qoidalariga rioya qilinishini, shuningdek, banklar tomonidan kapital sarmoyalarni mablag' bilan ta'minlashni va budjet mablag'lari hisobidan ro'yobga chiqariladigan boshqa tadbirlarni nazorat qilishni amalga oshiradi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishgan holda respublika budjeti ijrosiga tegishli masalalarni hal qiladi;

➤ joriy yilda respublika budjeti va valyuta rejasining bajarilishi yuzasidan hisobot tayyorlaydi va uni Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi;

➤ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda pul muomalasini mustahkamlash, so'mning xarid quvvatini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, pul daromadlari va aholi xarajatlarining muvozanatliligini ta'minlash bo'yicha zarur chora tadbirlar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga axborot beradi, respublika davlat ichki zayomlarini chiqarish va ularni tarqatish, shuningdek, lotereyalar o'tkazish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

➤ aholini ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash tadbirlarini mablag' bilan ta'minlash manbalarini aniqlaydi va mablag' bilan ta'minlaydi;

➤ respublika davlat boshqaruv organlarining tashkiliy tuzilmasini yaxshilashga va ularni saqlash xarajatlarini arzonlashtirishga qaratilgan takliflarni

ishlab chiqadi;

➤ Budjetni muvozanatlashtirish zaruratidan kelib chiqib, soliqlar tizimini respublikadagi boshqa daromadlarni takomillashtirish, davlat moliya mablag'larini mustahkamlash, korxonalar, birlashmalar, tashkilotlarning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati hamda fuqarolarning tadbirkorlik ishlari uchun eng maqbul moliyaviy sharoitlarni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;

➤ respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini mablag' bilan ta'minlash uchun respublika Hukumati tomonidan xorijiy kreditlar jalb qilish zarurati bo'yicha ekspertiza o'tkazadi, hujjatlarni rasmiylashtirishda ishtirok etadi, respublika Hukumati tomonidan olingan xorijiy kreditlarning kelib tushishini hisobga olish va nazorat qilishni amalga oshiradi;

➤ O'zbekiston Respublikasining tashqi qarzi o'z vaqtida to'lanishi va tashqi qarz bilan bog'liq ishlar amalga oshirilishini nazorat qiladi;

➤ O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlarga beg'araz yordam ko'rsatishi, xalqaro birlashmalar va tashkilotlarga a'zolik badallarini to'lash, O'zbekistonning MDH davlatlari va xorijiy davlatlardagi elchixonalari konsulxonalari, vakolatxonalari va boshqa diplomatik muassasalarini saqlash bilan bog'liq a'mollarni hisobga olishni va ularni mablag' bilan ta'minlashni amalga oshiradi;

➤ korxonalar, birlashmalar, tashkilotlarning buxgalterlik hisobi va hisobotlari yuzasidan metodologik rahbarlikni amalga oshiradi hamda ularni takomillashtirish chora-tadbirlarini ko'radi; turli darajadagi budjetlarning ijrosi, budjetdagi muassasalar xarajatlar smetasining ijrosi bo'yicha buxgalterlik hisobini yuritish tartibini belgilaydi; O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda budjetlarning kassa ijrosi bo'yicha hisob-kitob va hisobotlar shakllarini belgilaydi; balansning hisob-kitob moddalari, qimmatbaho narsalarni qayta ro'yxatdan o'tkazish va natijalarini rasmiylashtirish tartibini belgilaydi, schyotlarning namunaviy rejalarini, buxgalteriya hisobi va xisobotining namunaviy shakllarini, ularni qo'llash va to'ldirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomalarni tasdiqlaydi;

➤ respublika va mahalliy budjetlardan mablag' bilan ta'minlanadigan

korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar va muassasalarning moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qiladi va tekshiradi, respublika budjetini tuzish va ijro etish bo'yicha moliya idoralari ishini yaxlit taftish qiladi, zarurat bo'lganda vazirliklar idoralar, birlashmalar, kontsernlar, uyushmalar, mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish qiladi va tekshiradi;

➤ tugallangan taftish va tekshirish natijalari bo'yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan zarur ko'rsatmalar beradi va boshqalar.

### ***Moliyaviy ishlar vazirligini budjet tizimidagi o'rni (Hindiston)***

*Hindistonning nazoratchi bosh auditori*

#### **A) *Kelib chiqishi***

*Buxgalteriya va audit tajribalari Hindlarga tarixiy davrlardan ma'lumdir. Kautilyaning Arshastra asari Mauryan davrlaridagi buxgalteriya va audit faoliyati jarayonlari va mexanizmlarini yaqqol yoritib beruvchi davlat arboblari haqidagi tarixiy kitobdir.*

Mukerj Guptaning fikriga ko'ra boshqaruvchilar mukammal va tartibli tizimlarni joriy qilishgan ya'ni hozirgi bosh hisobchi lavozimiga o'xshash tarzda buxgalteriya tashkilotini alohida vazifalarga joylashtirib chiqqan va davrlar mobaynida auditda hisob-kitobning amaliy tajribalari saqlanib kelgan. Gupta sulolasi davrida Maurya namoyondalari davrida bo'lgani singari hisob kitoblar saqlanib qolgan va davrlar mobaynida auditga va maqullangani topshirilgan, keyinchalik, hisob boshqarmasi vakili va vazirlar kengashida o'z harakatlari uchun javobgar hozirgi bosh hisobchiga to'g'ri keluvchi keng ravishda talqin qilinganda Patyuoarika deb nomlanuvchi so'zdan foydalanish yuzaga keldi. O'rta asrlarda Dehlida Mushrif va Mustafilar saltanati buxgalteriyaga va auditga javobgar bo'lishgan. Muhgal boshqaruvchilari daromadlarni yig'ish va auditorlik ishlarini olib borishga o'z diqqatlarini qaratishgan. Vazir yoki Devon Muhgal davrida moliya boshqarmasi

vakili sifatida faoliyat yuritgan. Shunga qaramay buxgalteriyaning va auditning yangi zamonaviy tizimlarini Hindiston hududida amaliyotga joriy qilinishi Britanlar hukmronligi davriga borib taqaladi. Qirolchaning 1858 yildagi hisobchilarni tayyorlash va yakka tartibdagi auditorlarni tayinlash tog'risidagi qarori Hindiston bosh hisobchilari idorasida yangi lavozimni vujudga keltirdi. 1860 yilda buxgalteriya va auditorlik vazifalari birlashtirildi va bosh auditor singari bosh hisobchi ham qayta shakllantirildi. 1919 yilgi Hindiston hukumat qonuni bosh auditorga yuqori davlat maqomi berdi va 1935 yildagi qonunga ko'ra, 166 dan 171 chi moddagacha bosh auditor idorasini kuchaytirishga qaratilgan. 1950 yil Hindiston konstitutsiyasi mustaqilligidan so'ng bosh auditor bosh nazoratchi auditor deb qayta nomlandi.

### ***(B) BNA ning konstitutsiyaviy o'rni***

BNA ning vazifalari Hindiston konstitutsiyasi va mustaqil konstitutsiyaviy tashkilot tomonidan belgilanadi. BNA qonun hujjatlari orqali ruxsat etilgan har bir harakatga ketgan har bir sarf-meyori ustidan nazorat qiluvchi shaxsdir.

Konstitutsiya BNA mustqilligini kafolttlaydi va hech kimga yon bosmasdan, qo'rqmasdan, mehr oqibat qilmasdan moliyaviy birdamlikni, odamlarni qiziqishini qonunan himoya qilish va qonun bilan mutanosibligiga ko'maklash vazifalarini talab qiladi. BNA ning o'rni Hindiston konstitutsiyasining 5 qismi va 5 bo'limida 148 moddada keltirib o'tilgan.

- 1) Hindiston nazoratchi va bosh auditori prezident tomonidan uning qo'li va muhri asosida ma'lum muddatga tayinlanadi va idoradagi o'zini tutishi va faoliyati yuzasidan faqatgina oliy sud tomonidan o'z lavozimidan chetlatilishi mumkin.
- 2) Nazoratchi va bosh auditor etib tayinlangan har bir shaxs, ishga kirishdan avval prezidentdan avval kimnidir o'z vakili sifatida aniqlaydi va tavsiya etadi va shu shaxs 3 tartibga muvofiq bu shaxs rozilik bildiradi va qasamyod qiladi.
- 3) Bosh auditor va nazoratchining xizmatining oylik maoshi va boshqa shart-sharoitlar qonun orqali Parlament tomonidan belgilab berilishi mumkin va o'zlari hohlaguncha ikkinchi tartib bo'yicha belgilanadi. Shuni inobatga olish kerakki, na

Bosh auditorning oyligi na nazoratchining oyligi ishni tark etish, pensiyaga, yosh nuqtai nazaridan nafaqaga chiqish yuzasidan kelishuvdan keyin uning kamchiliklaridan farqlanmaydi.

4) Bosh auditor yoki nazoratchi ishni to'xtatgandan so'ng Hindiston hukumatda yoki boshqa davlat hukumat idoralarida ortiq faoliyatini davom ettira olmaydi.

5) Bu qonun yoki parlament tomonidan yaratilgan qonunlarning amal qilinishi masalasi, shaxslarning Hind auditorlik tashkilotida yoki buxgalteriya boshqarmasida xizmat qilish shart-sharoitlari va Bosh auditorning va nazoratchining boshqaruv vazifalari nazoratchi va bosh auditor bilan surishtiruv ishlari olib borilgandan so'ng prezident qoidalari asosida ko'rsatib beriladi.

6) Nazortchi bosh auditor idorasining boshqaruv xarajatlari oyliklar, mukofot pullari va nafaqa to'lovlari yoki shaxsning idoradagi xizmati Hindiston barqaror fondi tomonidan to'lanadi.

### ***(C) Nazoratchining va bosh auditorning burch va vazifalari***

*Nazoratchi va bosh auditor parlament tomonidan chiqarilgan qonunlar asosida davlat hisob organlari va hisob birlashmasi yoki boshqa davlat organlari bilan aloqada o'z burch va vazifalarini bajaradi bu konstitutsiya amal qilishdan avval, vakil qilib tayinlangan shaxs hisob birlashmasi va davlat hisob boshqarmasi bilan bog'langan tarzda Hindiston hisob boshqarmasi va viloyatlar boshqarmalarida bosh auditor tomonidan tan olinishi bilanoq zudlik bilan bu kabi burch va vazifalarni amalga oshiradi. Hisob birlashmasi va davlat hisob boshqarmasi prezident tomonidan nazoratchi va bosh auditorning taklifi asosida faoliyat yuritadi.*

*1) Auditorlik hisobotlari. Nazoratchi va Hindiston bosh auditorning hisob birlashmasiga oid hisobotlari prezidentga ko'rib chiqishi uchun topshiriladi va prezident uni parlamentning har bir palatasiga topshiradi.*

### ***C) BNA ning majburiyat va vakolatlari***

*Hindistonning hokimliklari va viloyatlar hisobvaraqaalari bilan aloqadorlikda Konsitutsiya boshlanishidan oldin BNA ayrim majburiyatlarni va vakolatli faoliyatlarni Uyushma, Davlat va boshqa davlat vakolatli organlari hisob raqamlari bilan aloqadorlikda amalga oshiradi va qabul qilingan har qanday qonun Parlament nazorati ostida yoki uning yordamida tayinlanadi va BNA ayrim majburiyatlarni va vakolatli faoliyatlarni Uyushma, Davlat hisobotlari bilan aloqadorlikda Hindistonning Umumiy Auditorlikdan foydalangan holda amalga oshiradi.*

*Auditorlik bayonoti Hindistonning Moliya va Umumiy Auditorlik Uyushma hisob raqamlariga tegishli bayonotlarni Prezidentga taqdim etadi, Prezident bayonotlarni Parlament Uyiga taqdim etishga tayyorlaydi.*

*Hindistonning Moliya va Umumiy Auditorligi mamlakat hisob raqamlariga tegishli bayonotlarni mamlakat gubernatoriga taqdim etadi. Mamlakat gubernatori bayonotlarni mamlakat qonun chiqaruvchi organiga taqdim etishga tayyorlaydi.*

*D) BNA majburiyatlari, vakolatlari va servis hizmatidagi holati. 1971-yildagiga 1976, 1984, 1987 va 1994 yillarda o'zgartirishlar kiritilgan.*

*Hindistonning Moliyaviy va auditorlik ishlari bo'yicha funksiyasi Hindistonning konsitutsiyasining asosan 149 dan 151 gacha bo'lgan bo'limida keltirib o'tilgan. 149-bo'limda Hindistonning hokimliklari va viloyatlar hisobvaraqaalari bilan aloqadorlikda Konsitutsiya boshlanishidan oldin BNA ayrim majburiyatlarni va vakolatli faoliyatlarni Uyushma, Davlat va boshqa davlat vakolatli organlari hisobotlari bilan aloqadorlikda amalga oshiradi va qabul qilingan har qanday qonun Parlament nazorati ostida yoki uning yordamida tayinlanadi va BNA ayrim majburiyatlarni va vakolatli faoliyatlarni Uyushma, Davlat hisobotlari bilan aloqadorlikda Hindistonning Umumiy Auditorlikdan foydalangan holda amalga oshiradi.*

*Bu o'tish dasturlari mobaynida, Moliya va Umumiy Auditorlik(BNA) o'zining majburiyatlari va vakolatli faoliyatlarini 1936 yil Hindiston hukumati tomonidan qabul qilingan (Audit va hisobvaraqaalar) buyruq, asosida uyushgan va shtat hisobotlari bilan muvofiqlikda bajarishni davom ettiradi. Bu buyruq 1936-yil Hindiston hukumati tomonidan qabul qilingan (Audit va hisobvaraqaalar) buyruq, 1971 yildan Moliyaviy va Umumiy Auditorlik (majburiyat, vakolat va servis holati) qonuni sifatida Parlamentda tasdiqlandi. 1971 yil 15 dekabrda kuchga kiritildi va 1976, 1984, 1987, 1994 yil unga o'zgartirishlar kiritildi. Bu qarorning negizi konstitutsiyaning 148(3) va 149 bo'limida berib o'tilgan. Unga ko'ra (a) BNA servisi sohasida ishlovchilar uchun oylik maosh va boshqa imkoniyatlar va (b) BNA ning majburiyatlari va vakolatlari, Uyushma, Davlat va boshqa davlat vakolatli organlari hisobotlari va auditorlik hisobotlari bilan aloqadorlikda tayinlanishi keltirib o'tilgan. Davlatning boshqa qonunlari BNA ning yoki vakillarining majburiyatlarini belgilamaydi va ularning vakolatlarini taqsimlamaydi. Shu bilan birga BNA ning majburiyat va vakolatlarini Parlament chiqargan qonunlar asosida tayinlanadi, Davlatning qonun chiqaruvchi organi tomonidan bu qonunlarga qisqartirish va o'zgartirish kiritilishi mumkin emas.*

*E) BNA ning hisob raqamlar bilan bog'liqlikdagi majburiyatlari:*

*Qonunning 10 dan 12 bo'limigacha Moliya va Umumiy Auditorlik(BNA)ning Uyushma, Davlat va Uyushgan Territoriyalar qonun chiqaruvchi organlar bilan aloqadorlikda hisobotlarni to'plash majburiyatlarini ochib beradi.*

*Bu 10- bo'limning 1-qismida bo'lgan birinchi ehtiyot chorasi prezidentning BNA ga u bilan maslahatdan so'ng, farmoyish orqali, quyidagicha ko'rsatish mumkin:*

*(i) Uyushma hisob raqamlari ( bir marta yoki bosqichma-bosqich bir necha buyruqlar berish orqali),*

*(ii) ma'lum bir servis hisobotlari yoki Uyushma idoralari hisobotlarini to'plash mas'uliyati bo'lganidan, yordam berish vakolatiga ega.*



*Bu 10 bo'limning qismida bo'lgan ikkinchi ehtiyot chorasi mamlakat gubernatorining BNA ga, prezidentning birinchi maqullashi va BNA bilan maslahatdan so'ng, farmoyish orqali, quyidagi*

*(i) Mamlakat hisobotlari( bir marta yoki bosqichma-bosqich bir necha buyruqlar berish orqali),*

*(ii) ma'lum bir servis hisobotlari yoki Mamlakat idoralari hisobotlarini to'plash mas'uliyati bo'lganidan, yordam berish vakolatiga ega. Prezidentning BNA ga u bilan maslahatdan so'ng, farmoyish orqali, har qanday toifadagi va o'ziga xos hisobotlarni saqlash mas'uliyati bo'lganidan, yordam berish vakolatiga ega.*

*Prezident 1978-yil 20-iyunda nazoratchi va auditorlarni 1977-1988 yillardan boshlab hukumatning moliyaviy hisobotlarini tayyorlash ma'suliyatini kamaytirish bo'yicha qaror qabul qildi. C&AG ham Prezidentning 1989-yil 10-aprelda ishlab chiqilgan qaroriga ko'ra 1988-1989-yillardan boshlab Pondicherry hududlari birlashmasining maqsadlari uchun yillik kirim va chiqim hisobotlarini tegishli qoidalar asosida har yili namoyish qilish tayyorgarliklari ma'suliyatidan ozod qilindi. Prezidentning 27-iyun 1989 yildagi qarori va Gao shtati Gubernatori tomonidan ishlab chiqilgan qarorga muvofiq u ham 1988-1989 yillardan boshlab Gao shtati maqsadlari uchun yillik kirim va chiqim hisobotlari va tegishli qoidalar asosida har yili taqdim etish javobgarliklaridan ozod qilindi. Yuqoridagi hujjatlarga muvofiq Bosh auditor va nazoratchi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash majburiyatidan ozod qilinganligi haqida qayd etilgan lekin u Prezident, Gubernator, Administrator oldida Parlament, Shtat qonunchiligi asosida hisobot topshirishga javobgar hisoblanadi.*

*Prezidentning ilgari qabul qilingan Bosh auditor va nazoratchi to'g'risidagi qaroriga asosan bosh auditor va nazoratchi shtatlarning moliyaviy hisobotlarini tayyorlash ma'suliyatidan ozod qilinishi talab etilgan. Bosh auditor va nazoratchi majburiyati bilan bog'liq aktning 12 bo'limi ular hukumat birlashmasiga, shtat*

*hukumatiga va hududiy birlashmaga moliyaviy hisobot tayyorlashda qonun chiqaruvchi organlar bilan ma'lumot berish va yordam berish bilan bog'liqdir.*

*BNAning audit bilan bog'liq vazifasi aktning 13,21,23 va 24 bo'limlarini o'z ichiga oladi. Aktning 13 bo'limi BNA dagi vazifasi Hindistonning jamlanma fondidan, har bir shtat va har bir qonun chiqaruvchi organlarga ega bo'lgan hududiy birlashmalardan ajratiladigan xarajatlarni audit qilish va hisobotlarda ko'rsatilgan mablag'larni qonuniy asosda va murojaat etilgan xizmat yoki maqsadlar uchun to'g'ri taqsimlanganligi va hukumat boshqaruviga xarajatlarni mos kelishini aniqlashdir.*

***Xarajatlar auditi quyidagilarni o'z ichiga oladi:***

- fond ta'minoti auditi;*
- doimiy audit;*
- mulk auditi;*
- samaradorlik-mahsuldorlik auditi;*
- tizimlar auditi.*

*Hisobotlarning aniq va to'liq tekshirilishi to'lov dalillari va voucher haqiqiylikida namoyon bo'ladi. Fond ta'minoti auditining maqsadi hisobotlarda ko'rsatilgan mablag'larni qonuniy asosda to'langan yoki murojaat qilingan xizmat yoki maqsadlar to'g'ri taqsimlanganiga ishonch hosil qilish hisoblanadi.*

*Hukumat birlashmalarining, shtat hukumatlarining va hududiy birlashma hokimiyatlarining o'zlashtirma hisobotlari tegishli hukumatlar tomonidan tuziladi va saqlanadi. Nazoratchi va bosh auditor tomonidan ko'rib chiqiladi va audit qilinadi. Qolgan shtat hukumatlarining o'zlashtirma hisobotlari yuqorida qayd etilgan hisobotlar yordamida nazoratchi va bosh auditor tomonidan tuziladi va saqlanadi. Bu audit jarayonida xarajatlarning hukumat boshqaruviga mos kelishida namoyan bo'ladi (Doimiy audit).*


*Audit mulkni ijro etish harakatini ham tekshiradi va mulk xarajatlaridagi halollik, iqtisodiy va qonunchilik belgilari, xarajatlar sabablari, yo'qotishlar, behuda va foydasiz xarajatlar to'grisidagi mulohazalar va ularni rasmiylashtirilishini ko'rib chiqadi (Mulk auditi).*

*Samaradorlik va mahsuldorlik auditi rivojlantirish dasturlarining bajarilish samaradorligi va jarayonini har tomonlama baholash hisoblanadi. Bu audit qay darajada va baholash va soliq yukini aniqlashda urinib ko'riladi, ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlar ko'rib chiqiladi, erishilishi kerak bo'lgan narx darajasi; bo'lim yoki agentlik qay darajada o'zining moliyaviy majburiyatlarini bajaryabdi va ularning iqtisodiy faoliyati dasturga muvofiq amalga oshirilganligiga ishonch hosil qilish. Tizimli auditda tashkilot va tizimlar boshqarish, hisob berish, hisoblash va ichki nazorat tahlil qilinadi va sifat standartlari va ijro etish baholanadi. Actning 13 bo'limida nazoratchi va bosh auditor birlashmaning, shtatlarning va qonun chiqaruvchi organlarga hududiy birlashmaning barcha operatsiyalari auditlashi hamda tasodifiy fondlar va ijtimoiy hisoblarga bog'liq va savdo ishlab chiqarish, foyda, yo'qotishlar hisobotlari va balans varaqasi, boshqa qo'shimcha hisobotlar birlashmalar, shtat yoki hududiy birlashma bo'linmalarida saqlanishi va auditlanishi qayd etilgan. 13 bo'limda nazoratchi va auditor tamonidan audit qilingan hisobotlar, operatsiyalar, xarajatlar haqida hisob berish ham nazoratchi, auditor vazifasi hisoblanadi.<sup>8</sup>*

**G'aznachilik O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tarkibidagi davlat ijroiya organi hisoblanadi.**

---

<sup>8</sup>Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice, CreateSpace USA, 2016. p. 15



**3-rasm. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining tashkiliy tuzilishi**

G'aznachilik organlarining xarajatlarini moliyalashtirish respublika budjetidan amalga oshiriladi.

Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot G'aznachilik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladi. Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi G'aznachilik tomonidan, shuningdek, davlat soliq va bojxona xizmati organlari, budjet tashkilotlari hamda davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan davlat budjetining g'azna ijrosi buxgalteriya hisobining yagona hisoblar rejasi va budjet tasnifi asosida tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi. Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi yagona hisoblar rejasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

G'aznachilik yuridik va jismoniy shaxslarga ular tomonidan ortiqcha to'langan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar summalari, qonun

xujjatlarida belgilangan tartibda yagona g'azna hisobraqamidan yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobraqamlaridan qaytarilishini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi budget Kodeksiga, shuningdek, turli darajadagi davlat boshqaruvi o'rtasida tushumlar taqsimotini tartibga soladigan boshqa qonunlarga muvofiq, G'aznachilik tushumlarni turli darajadagi budgetlar o'rtasida taqsimlash uchun javobgar hisoblanadi. G'aznachilik belgilangan budget tasnifiga muvofiq, barcha davlat tushumlarini ularning aniq ro'yxati bo'yicha yagona g'azna hisobraqamida yuritilishini ta'minlaydi, qonun asosida g'aznachilikning yagona hisobraqamidan barcha to'lovlarni amalga oshirishga G'aznachilik javobgar hisoblanadi.

Davlat moliyasini isloh qilish, davlat budgetining g'azna ijrosini joriy etish, budget mablag'larini boshqarish va ularning shakllanishi va ishlatilishini nazorat qilish jarayonlari mukammallashib, takomillashib bormoqda. Bu jarayonlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat Budgetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594-son (28.02.2007) Qarorining qabul qilinishi muhim qadam bo'lib xizmat qildi. Prezident Qarorining ijro etilishi doirasida Moliya vazirligi huzuridagi "Davlat Budgetining g'azna ijrosini tatbiq etish va uslubiyoti boshqarmasi" hamda mahalliy moliya organlarining g'aznachilik bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat Budgetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594-son (28.02.2007) Qarori bilan Moliya vazirligi G'aznachiligi zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatildi:

➤ davlat Budjetining kassa ijrosi, jumladan, tushadigan daromadlarni turli darajadagi Budjetlar o'rtasida taqsimlash, Budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va davlat Budjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;

➤ davlat Budjeti mablag'larini yagona g'aznachilik hisobraqami, shuningdek tegishli Budjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisobraqamlarini joriy etish orqali boshqarish;

➤ Budjet tashkilotlarini, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashga yo'naltiriladigan Budjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni amalga oshirish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishi, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo echimini nazarda tutish hamda vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

➤ xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovar(ish, xizmat)lar etkazib beruvchilarning bevosita hisobraqamlariga budjet mablag'lari oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

➤ davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, davlat budjeti ijrosi haqida axborot yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish;

Germaniya Federativ Respublikasida davlat moliyasining oliy nazorat organi bo'lib, Federal hisob palatasihisoblanadi. Budjet ijrosi hisoboti Moliya vazirligidan parlament va hisob palatalariga yuboriladi. Hisob palatasining xulosasidan keyin, parlament budjet ijrosi to'g'risidagi qonunni tasdiqlaydi.

Qonun chiqaruvchi qo'mitalardan ekstensiv foydalanish butun bir qo'mitasi amaliy emas holda harakat qilishda muhim hisoblanadi, lekin komissiya tuzilmalar parchalanishiga kiritiladi. Qo'mitalar o'zlarining huquqlari doirasida kichik qonun chiqaruvchi organlar hisoblanadi. Qo'mita tuzilmalari barqarorligini hisobga olgan

holda AQSH Deputatlar palatasida 435 nafar azo va Senatida esa 100 nafar a'zolar mavjud. Shtatlar ichida yangi Hamsipair 424 a'zo bilan eng yirik qonun chiqaruvchi hisoblansa Nebraska 49 a'zolar bilan eng kichigidir. 50 ta shtatdan 42 tasida kamida 100 nafardan qonun chiqaruvchi deputatlar mavjud.

Ko'p palatali qonun chiqaruvchi organlarda qonunlarni ishlab chiqish har bir palatadagi qarama-qarshi qo'mitalar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday qo'mitalar quyi palata va senatning to'liq a'zoligi orqali ustida deb harakat qilinadigan chiquvchi xarajatlarni xabarini berib boradi. Har ikkala xarajatlar o'rtasida farqlar mavjud bo'lganda, konferensiya qo'mitasi odatda ikkala palata tomonidan boshqatdan qayta tiklangan xarajatlar deb qaraluvchi xabarlarni tayinlaydi. Agar palatalar bir marta bir xil xarajatlarni o'tkazib yuborsa, qonun chiqaruvchi organ gubernator yoki prezident tomonidan maqullanishiga yoki rad etilishiga tayyor turadi.

Mahalliy darajada, kam palatalilik ustunlik qilgan joyda budget qo'mitasi ko'pincha shahar konsulliklari yoki maktab kengashlari kabi to'liq qonun chiqaruvchi organlarga qator tavsiyalar taqdim etish uchun va ijro etuvchi organlar budget tasdiqini qayta ko'rib chiqish va o'zgartirishlar kiritish uchun asosiy ma'suliyatni o'z zimmasiga oladi.

### **Nazorat savollari.**

1. Budget tizimini boshqarishni tashkil etishdan asosiy maqsad nima?
2. Budget tizimini boshqarish elementlari o'z ichiga nimalarni oladi?
3. Budget tizimini boshqarish subyektlari haqida misollar keltiring?
4. Davlat budjeti amal qilishining, shakllanishi va ishlatilishining qonuniy-huquqiy asoslari bo'lib nimalar xizmat qiladi?

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Budget sohasidagi vakolatlariga nimalar kiradi?

6. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining Budget sohasidagi vakolatlariga nimalar kiradi?

7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi budget sohasida qanday vakolatlarni amalga oshiradi?

8. Hududiy moliya organlarining budget sohasidagi vakolatlariga nimalar kiradi?

9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachilik organi tashkiliy tuzilishi qanday?



### 3-BOB. BUDJET TIZIMI BUDJETLARI

#### 3.1. Budjet tizimi budjetlari

*“Hayot faqat o’qishdan iborat emas.*

*Hayotning mana shu qismini ham bosib*

*o’ta olmasang, nimaga ham qodir bo’la olarding?”*

*Oksford universitetidan maxsus.*


O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 6-moddasida “Budjet tizimi tushunchasi” ga quyidagicha ta’rif berilgan, “Budjet tizimi barcha darajadagi budjetlar, davlat maqsadli jamg’armalari budjetlari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg’armalari, budjet tizimi budjetlarini tuzish va tashkil etish prinsiplari, ular o’rtasida budjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o’zaro munosabatlar yig’indisini o’zida ifodalaydi. Moliya yili uchun budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish, ko’rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi - so‘mda amalga oshiriladi”.

**Keng ma’noda budjet tizimi** – iqtisodiy munosabatlarga asoslangan, davlat tuzilishining shakliga mos ravishda tuzilgan, huquq normalari bilan tartibga solinadigan markaziy va mahalliy budjetlar yig‘indisidan, shuningdek, har bir budjet bo‘g‘iniga tegishli bo‘lgan soliq va yig‘imlar yig‘indisidan, xarajat vakolatlari hamda budjetlararo transfertlar yig‘indisidan iboratdir. Tor ma’noda budjet tizimi mamlakatda amal qiluvchi barcha darajadagi budjetlar yig‘indisidir.

Biz oldingi mavzuda hokimiyatning markaz va ma’muriy-hududiy birliklar o’rtasida taqsimlanishi darajasiga ko‘ra barcha davlatlar unitar, federativ va konfederativ davlatlarga bo‘linishi, ularning xususiyatlarini ta’kidlab o‘tdik. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi unitar davlatdir.

Unitar davlat sifatida O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi *ikki bo‘g‘indan – respublika budjeti* va *mahalliy budjetlardan* tashkil topadi. Bu budjetlar mamlakatimizdagi davlat budjeti amal qilishining tashkiliy shakli bo‘lib

xizmat qiladi. Davlat budjeti o'z ichida respublika budjetini, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetini va kengtarmoqli mahalliy budjetlarni birlashtiradi.



**1-rasm.O'zbekiston Respublikasi budjet tuzilmasi**

O'zbekiston Respublikasi budjet tuzilmasining bo'g'inlari ham o'z navbatida tarkibiy tuzilishga ega.

**Davlat budjeti (ko'pchilik hollarda davlat maqsadli jamg'armalarisiz Davlat budjeti deb yuritiladi) quyidagi darajadagi budjetlardan iborat:**

1. O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti;
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari.

**Respublika budjeti**- davlat budjetining umumdavlat ahamiyatiga molik tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Mahalliy budjet**- davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda ma'lum ma'muriy

birlikning daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasining budjeti** - davlat budjetining Qoraqalpog'iston Respublikasi pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, mazkur budjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti tuzilmasiga Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining budjetlari kiradi.

### **Hindiston budjetining tuzilishi.**

#### **Budjet turlari**

**Budjetni tuzush tayyorgarligi** - bu har bir mamlakatning moliyaviy boshqaruvi sari birinchi qadam hisoblanadi. Hukumatning budjetni tayyorlashiga javobgar bo'lishi sababdan budjetni quyidagi uch turkumga bo'lish mumkin.

#### *A) Qonun chiqaruvchi turi*

*Budjetning qonun chiqaruvchi turi hokimiyatning qonun chiqaruvchi komiteti orqali tayyorlanadi. Ushbu turdagi budjet turi ijro etuvchi bo'lishdan ko'ra qonun chiqaruvchi bo'lish ko'proq muhim bo'lishini ifodalaydi.*

#### *B) Ijro etuvchi turi*

*Parlamentar demokratiya tizimi amal qilayotgan davlatlarda budjetning ushbu turidir. Ushbu budjet turi urfga kirgan. Budjet qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan tasdiqlangandan so'ng, ijro etuvchi hokimiyat ijro bo'yicha javobgardir.*

#### *C) Komissiya turi*

*Komissiya turi ma'sul shaxslar yoki ma'muriy qonun chiqaruvchi vakillar bilan birgalikda tashkil etuvchi komissiya guruhi orqali tayyorlanadi.*

O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 3-moddasida “**Budget tizimi budjetlari**” tushunchasi berilgan bo‘lib, “*Budget tizimi budjetlari- O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari*» dan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining II-bo‘limi “*Budget tizimi budjetlari*” ga bag‘ishlangan bo‘lib, bu bo‘limda *Davlat budjeti tuzilmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining tuzilmasi, davlat maqsadli jamg‘armalari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari bayon etilgan.*

Bir qator ilmiy adabiyotlarda davlat budjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yoritishda uning:

- ✓ iqtisodiy kategoriya sifatida;
- ✓ moddiy tushuncha sifatida;
- ✓ huquqiy kategoriya sifatida mavjud ekanligi va amal qilishi nazarda tutilgan.

***Iqtisodiy kategoriya sifatida davlat budjeti***– davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotni, uning faol qismi bo‘lgan milliy daromadni (qisman milliy boylikni) qayta taqsimlash yuzasidan kelib chiqadigan pul munosabatlari tizimi bo‘lib, ular natijasida iqtisodiyotni, ijtimoiy-madaniy sohalarni, mudofaa va davlat boshqaruvi ehtiyojlarini moliyalashtirishga mo‘ljallangan pul fondi – davlat budjeti tashkil topadi va maqsadga muvofiq tarzda ishlatiladi.

***Moddiy tushuncha sifatida davlat budjeti***– markaziy hukumat va tegishli darajadagi mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatini ta‘minlovchi, ular oldidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondidir. O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 3-moddasida davlat budjetiga aynan moddiy ma‘nodagi tushuncha sifatida ta‘rif berilgan. Unda ta‘kidlanishicha, “*O‘zbekiston Respublikasining*


***Davlat budjeti (Davlat budjeti)- davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun mo'ljallangan markazlashtirilgan pul jamg'armasi***” dir.

***Huquqiy kategoriya sifatida davlat budjeti***– markaziy va tegishli mahalliy hokimiyat va ijroiya organlari tomonidan ishlab chiqiladigan va belgilangan tartibda tasdiqlanadigan, markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirish, taqsimlash va maqsadli ishlatishni ko'zda tutuvchi asosiy moliyaviy reja, yuridik hujjatdir. Yuridik hujjat sifatida O'zbekiston Respublikasida davlat budjeti Budget Kodeksida belgilangan tartibda va muddatlarda har moliya yili uchun (O'zbekiston Respublikasida moliya yili kalendar yiliga mos keladi, lekin dunyo mamlakatlarida ularning an'analari va mamlakat hayotidagi muhim, hal qiluvchi tarixiy sanalariga muvofiq, budjet yili kalendar yiliga mos kelmasligi mumkin) tuziladi, ko'rib chiqiladi, tasdiqlanadi va ijro etiladi.

***Davlat budjetining iqtisodiy mazmunideganda umumdavlat pul fondini shakllantirish, mablag'larni budjetlar ichida taqsimlash va sub'ektlarni budjetdan moliyalashtirish natijasida vujudga keladigan, o'zaro bog'langan taqsimlash munosabatlarining butun kompleksi tushuniladi.***

***Davlat maqsadli jamg'armalari quyidagilardir:***

- 1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi;*
- 2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi;*
- 3. Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar jamg'armasi;*
- 4. O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi;*



**2-rasm. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti tuzilmasi**

5. *O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi;*

6. *O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi;*

7. *O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi.*

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari quyidagilardir:

- *Budjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi;*
- *Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi;*
- *vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning budjetdan tashqari jamg'armalari;*
- *budjet tashkilotlarining undiriladigan to'lovlar hisobiga shakllantiriladigan budjetdan tashqari mablag'lari.*

***O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti daromadlari quyidagilar hisobidan shakllantiriladi:***

1) *umumdavlat soliqlari, shu jumladan:*

- *yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;*
- *yagona soliq to'lovi;*
- *jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;*
- *qo'shilgan qiymat solig'i;*
- *aktsiz solig'i;*
- *yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;*

2) *bojxona bojlari;*

3) *qo'shimcha foyda solig'i;*

4) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar bo'yicha foyda keltiradigan mahsulotdagi davlat ulushi;

5) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga imzoli bonus va tijoratbop topilma bonus to'lanishidan tushgan tushumlar, qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari, kompensatsiya to'lovlari va jarima sanksiyalari, davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tkazilgan pul mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga berilgan budjet ssudalarini, chet davlatlarga berilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar, aktsiyalarning davlat ulushi (payi) bo'yicha dividendlar (daromadlar), mobil aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lov, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining foydasi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining **respublika budjetidan** quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

- 1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- 2) davlat grantlari, subsidiyalar va ijtimoiy buyurtma shaklida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- 3) iqtisodiyot xarajatlari;
- 4) respublika vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari buyurtmachi bo'lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;
- 5) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari;
- 6) sudlarni, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;



7) *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasini shakllantirish xarajatlari;*

8) *boshqa xarajatlar:*

O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan:

❖ *Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga subventsiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar;*

❖ *davlat maqsadli jamg'armalariga budjet ssudalari va dotatsiyalar;*

❖ *yuridik shaxslarga budjet ssudalari va kredit liniyalari hamda chet davlatlarga kreditlar belgilangan tartibda ajratilishi mumkin.*

O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 35-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti tuzilmasiga Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining budjetlari kiradi.

Viloyatlar mahalliy budjetlari tuzilmasiga viloyat budjeti, tegishli viloyatlar tumanlari va shaharlarining budjetlari kiradi.

Toshkent shahar mahalliy budjeti tuzilmasiga shahar budjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning budjetlari kiradi.

***Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining daromadlari quyidagilar hisobidan shakllantiriladi:***

1) *belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlari, shu jumladan:*

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- yagona soliq to'lovi;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aktsiz solig'i;

- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

2) mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shu jumladan:

- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;
- yagona yer solig'i;
- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish uchun yig'im;

3) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

4) bozorlardan tushadigan daromadlar;

5) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, qonun hujjatlariga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni, huquq bo'yicha davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan ajratiladigan subventsiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining daromadlari hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo va o'simlik yog'i uchun aktsiz solig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari daromadlariga o'tkazib beriladi.

*Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:*

1) *ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari*, shu jumladan:

- umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, maktabdan tashqari ta'lim, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, boshqa yordamchi va uslubiy ta'lim muassasalarini saqlab turish xarajatlari;
- bolalar uylari, davlat bolalar shaharchalarini saqlab turish, qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimidagi yordamchi xizmatlar va maqsadli tadbirlar xarajatlari;
- Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi filialini, ko'p tarmoqli va ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini, ixtisoslashtirilgan kasalxonalar va dispanserlarni, tug'ruqxonalar va akusherlik majmualarini, tibbiy tashxis qo'yish va davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlarini, qon quyish xizmati va sud-tibbiyot ekspertizasi muassasalarini, Salomatlik va tibbiyot statistikasi instituti filialini, hududiy sog'liqni saqlashni boshqarish organlari tasarrufidagi boshqa davolash-profilaktika muassasalari va yordamchi tashkilotlarni saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning

- viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan xizmatlarga haq to'lash xarajatlari;
- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;
  - hududiy madaniyat va sportni boshqarish organlari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari;
  - Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi arxivlarni saqlab turish xarajatlari;
  - Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi qariyalar va nogironlarning internat-uylari, pansionatlari va sanatoriylari, nogironlarni reabilitatsiya qilish markazlarini, boshqa muassasalarni saqlab turish xarajatlari, shuningdek aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;
  - shahar yo'lovchilar transporti tashuvchilarining yo'lovchilarni va bagajni cheklangan ta'riflar bo'yicha tashish, shuningdek alohida toifadagi fuqarolarni imtiyozli tashish xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq zararlarning o'rnini qoplash xarajatlari;

2) *iqtisodiyot xarajatlari*, shu jumladan:

- qishloq xo'jaligi sohasida hududiy nazorat organlarini saqlab turish, shu jumladan hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashuvchi muassasalar xizmatlariga haq to'lash, shuningdek erlarni rekultivatsiya qilish ishlarini bajarish;
- uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'ektlarida ta'mirlash ishlarini olib borish;
- suv yo'llarining ayrim texnik uchastkalarini saqlab turish;
- aholi punktlarini obodonlashtirish;

- shaharlarning, boshqa aholi punktlarining ko'chalarini va xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash, shuningdek ayrim tashkilotlar xarajatlari;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'rmon xo'jaligini saqlab turish xarajatlari;

3) *Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari buyurtmachi bo'lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;*

4) *mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, shu jumladan:*

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesini;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, ularning boshqarmalari va bo'limlarini saqlab turish xarajatlari;

5) *Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining zaxira jamg'armalarini shakllantirish xarajatlari;*

6) *davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash xarajatlari;*

7) *Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.*

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan va Toshkent shahrining shahar budjetidan tumanlar va shaharlar budjetlariga budjet ssudalari, dotatsiyalar, subvensiyalar va o'tkazib beriladigan daromadlar ajratilishi mumkin.

*Tumanlar va shaharlar budjetlaridan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:*

*1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:*

- tumanlar (shaharlar) xalq ta'limi muassasalari faoliyatini uslubiy jihatdan ta'minlash va tashkil etish bo'limlarini, shuningdek ular tasarrufidagi maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini saqlab turish hamda qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar budjetlaridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimidagi tadbirlar xarajatlari;

- tumanlar (shaharlar) tibbiyot birlashmalari tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalarini hamda davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati tuman, shahar muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

- tumanlar (shaharlar) madaniyat va sport ishlari bo'limlari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan kam ta'minlangan oilalarga tayinlanadigan hamda to'lanadigan ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam hamda tabiiy ofatlardan jabrlangan oilalarga moddiy yordam, uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish, Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro ob'ektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

*2) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:*

- tumanlar va shaharlar davlat veterinariya bo'limlarini, laboratoriyalarini saqlab turish;

- shaharlarning va boshqa aholi punktlarining ko'chalarini, shuningdek xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash;


- uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'ektlarida ta'mirlash ishlarini olib borish;

- aholi punktlarini obodonlashtirish xarajatlari;

3) tuman va shahar hokimliklarini hamda ularning bo'limlarini saqlab turish xarajatlari;

4) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;

5) boshqa xarajatlar, shu jumladan qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar budjetlaridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ayrim tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.



**3-rasm. Tumanlar va shaharlar budjetlaridan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi.**

O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliya yili yakunlari bo'yicha tahliliy maqsadlar uchun hamda budjet tizimi budjetlarining (budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari bundan mustasno) barcha tushumlari va xarajatlarini hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi

mablag'larini, ular o'rtasidagi transfertlarni hisobga olmagan holda hisobga olib borish uchun tuziladi.

O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti tarkibiga quyidagilar kiradi:


- *Davlat budjeti;*
- *davlat maqsadli jamg'armalarining budjetlari;*
- *O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari.*

Budjet Germaniya Federativ Respublikasi moliya tizimining asosiy bo'g'inini tashkil etadi. Uning tarkibi va budjet jarayoni davlat tuzumining federal xarakteriga mos keladi. Davlat budjetiga ma'muriy boshqaruvning uchta darajasi daromadlari va xarajatlari kiradi:

1. Der Bundeshaushalt - federatsiya budjeti;
2. Die Landerhaushalte- federal erlarning budjeti, ya'ni hududiy budjetlar;
3. Die Gemeindehaushalte - mahalliy hokimiyatlar (obshinalar) budjeti.

Davlat yig'ma budjeti uch darajaning budjetlari daromadlari va xarajatlarini o'z ichiga oladi va ulardan budjetlararo transfertlar (subsidiyalar, dotatsiyalar)ni ayirish yo'li bilan hosil qilinadi .





**4-rasm. O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti**

Iqtisodiyotni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotga davlat kapital qo'yilmalarini safarbar etishda davlatning aniq maqsadlarga mo'ljallangan fondlari muhim ahamiyatga ega. Shunday fondlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 11 maydagi 3751- sonli Farmoni bilan tashkil qilingan *Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidir*. Mazkur jamg'arma iqtisodiyotning yetakchi, eng avvalo bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnikaviy qayta qurollantirish loyihalari amalga oshirilishini ta'minlash, mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish, shuningdek samarali tarkibiy va investitsiyaviy siyosatni amalga oshirish maqsadida tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi moliyaviy muassasadir va u ustuvor investitsiya loyihalarini hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlashga, mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishilishiga, shuningdek samarali tarkibiy va investitsiya siyosati amalga oshirilishiga doir loyihalarni moliyalashtirish uchun belgilangan mablag'larni jamlaydi.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini boshqarish Kengashi O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining yuqori boshqaruv organi bo'lib, uning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ijro etuvchi direktiyasi O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ijro etuvchi organi va mablag'larini taqsimlovchidir.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 16 maydagi PQ-350-sonli qarori bilan Tasdiqlangan Nizom asosida o'z faoliyatini olib boradi. Ushbu Nizomga muvofiq,

Jamg'arma Vazirlar Mahkamasi huzuridagi moliyaviy muassasa bo'lib, faoliyatining asosiy maqsadi iqtisodiyotning yetakchi, eng avvalo bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnikaviy qayta qurollantirish bo'yicha loyihalarning amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish hamda samarali tarkibiy va investitsiyaviy siyosatni amalga oshirishdan iborat.

*Jamg'arma o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.*

Jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilib, yuridik shaxs huquqlariga, o'zining mustaqil balansiga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida hisobvaraqa, shu jumladan xorijiy valyutadagi hisobvarag'iga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tushirilgan muhriga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Hukumati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi timsolida Jamg'arma muassisi hisoblanadi. Tijorat banklari, xorijiy jamg'armalar, investorlar va boshqa manfaatdor tuzilmalar ham Jamg'arma muassislari bo'lishlari mumkin.

Nima uchun hukumat ushbu keng qamrovli munozaraning sub'yekti bo'ldi. Asosiy ikkita sababdan bittasi shuki, davlat jamiyat talablariga "javobgar". 1880-yilda taklif etilgan Vagner qonuniga ko'ra, iqtisodiy taraqqiyot hukumat o'zi yolg'iz ijro eta oladigan yangi faoliyatlarni uchun imkoniyatlar yaratadi. Ikkinchi sabab hukumatda o'sish uchun tahminiy tendensiya mavjuddir. Bunda hukumat siyosiy rahbarlarning qo'llab-quvvatlashi natijasida o'sib boradi. Hukumat tomonidan rag'batlantiruvchi javob sifatida ko'plab omillar qatorida quyidagilar taklif etiladi:

- *Umumiy mahsulotlar uchun ehtiyoj. Mudofaa, Milliy xavfsizlik, tabiiy*

ofatlar va fuqarolar uchun foydali yana boshqa dasturlar xususiy sektor tomonidan nazorat qilinmaydi, balki hukumat tomonidan qamrab olinadi. Urush boshlansa, hukumat o'z xarajatlarini oshiradi. Muammodan so'ng, urushdan oldingi vaqtga qaraganda kattaroq tendensiyaga ega bo'lishadi. Ta'lim yana bir muhim umumiy mahsulotdir. Ta'lim olgan insonlar ko'proq samarali o'sishga va jamiyat umumiy boyligining oshishiga olib keladi, xususiy sektor maqbul davlat ta'limi ta'minotiga ishonib qolmasligi kerak.

- *Demografik o'zgarishlar.* Umumiy aholi hamda yangi tug'ilganlar va katta yoshdagi aholining o'sishi davlat dasturlarining yaratilishini va kengaytirilishini rag'batlantiradi.

- *Yashash tarzining o'zgarishi.* Odamlarning qishloq joylardan shaharlarga, keyinchalik shaharlardan shahar tashqarisiga ko'chib o'tishlari natijasida davlat xizmatlariga bo'lgan talab ham shunga mos tarzda ergashadi. Hukumat yanada ko'proq maktablar, yo'llar, kommunal xizmat ko'rsatishni va jamoat xavfsizligini ta'minlashi shart bo'ladi.

- *Tashqi ta'sirlar.* Asosiy foyda keltiruvchi sanoat firmalari havo va suvni ifloslantirishi mumkin. Hukumat ushbu holatlardan vujudga keluvchi zararlarni nazoratda tutishiga to'g'ri keladi.

- *Iqtisodiy qiyinchiliklar.* Depressiya va boshqa salbiy iqtisodiy vaziyatlar davlatning o'sishini rag'batlantiradi.

- *Yuqori riskli vaziyatlar.* Risk yuqori bo'lganda xususiy sektor ko'p miqdorda resurslarni investitsiya qiladi, shuning uchun hukumat dasturlarni moliyalashtirishga e'tibor qaratadi. Misol uchun elektr quvvati manbasi sifatida yadro energiyasini rivojlantirish va fazo dasturini yaratishni o'z ichiga oladi. Dastlab fazo faoliyati ma'lum jihatlarining risklari hukumat aralashuvining natijasi sifatida, fazo tadqiqoti bilan shug'ullanuvchi tijorat manfaatlari hamda xususiy transportlar va sun'iy yo'ldoshlarni uchirishga o'tilganlikni boshqara oladigan bo'lib bormoqda.

- *Texnik o'zgarish.* Yangi texnologiyaning paydo bo'lishi bilan hukumatga yordam ta'minlandi, misol uchun temir yo'llar va aeroportlar, yuqori

texnologiyalar turlari va axborotlar oqimi bilan ta'minlash, misol uchun internet va temiryo'llar, radio va televidenya asosidagi yangi sanoatlarni boshqarish.

Ushbu sabablar nega hukumat zarur va nega yillar davomida kengaytirilganligini tushuntirishda asosli hisoblanadi.

*Nazorat savollari:*

1. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi nechta bo'g'indan iborat?
2. O'zbekiston respublikasida qanday byedjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar bor va ularning soni nechta?
3. Budjet tashkilotlarinig budjetdan tashqari jamg'armalariga misol keltiring?
4. Respublika budjetining daromadlari manbalarini sanang?
5. Respublika budjeti daromadlari qanday xarajatlarni moliyalashtirishga sarflanadi?
6. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar budjetlarining daromadlariga qaysilar kiradi?
7. Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetidan qanday xarajatlar amalga oshiriladi?
8. O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti tarkibiga qaysi budjetlar kiradi?
9. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi o'z faoliyatini qaysi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi?
10. O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti kim tomonidan va qanday muddatlarda tuziladi?

### **3.2.DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI.**

*Vaqt kelib fan xayoldan o`zib ketadi.*

**Vern**

**Budjet daromadlari** - bu davlat budjet tizimining budjetlariga qonun hujjatlarida belgilangan beg'arazlik va qaytarib bermaslik tartibida kelib tushadigan pul mablag'laridir.

**Davlat daromadlari** - bu yaratilgan milliy boylikning davlat ehtiyojlari uchun jalb etiladigan qismidir. Davlat daromadlari keng mazmunli tushuncha bo'lib, o'z ichiga budjet daromadlari (milliy daromadning turli darajadagi budjetlarga jalb etilgan qismi)ni ham, budjetdan tashqari davlat jamg'armalari mablag'larini ham o'z ichiga oladi. Budjet daromadlari davlat daromadlarining eng salmoqli qismini tashkil etadi.

Davlat o'ziga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajara olishi uchun moliyaviy resurslarga muhtoj bo'ladi va shu sababli mamlakat milliy daromadining bir qismi pul yoki boshqa to'lovlar tarzida uning tasarrufiga ajratiladi. Natijada davlat o'z daromadlariga ega bo'ladi. Bu mablag'lar davlat va mahalliy organlar ixtiyorida bo'lib, tegishli davlat hokimiyati organlari tomonidan tasarruf etiladi.

Davlat o'z mablag'larini shakllantirish jarayonida ijtimoiy ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida, davlat, jamoat, xususiy mulkchilik shakllaridagi korxonalarda vujudga keltirilgan daromadlarni, shuningdek, fuqarolarning mehnat, tadbirkorlik va boshqa daromadlarining muayyan qismini o'z tasarrufiga oladi, davlat daromadlarini vujudga keltirishda moliyaviy tizimning barcha bo'g'inlari faol ishtirok etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, davlat budjeti daromadlari – davlat bilan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi o'rtasidagi mamlakat budjet fondining

shakllanishi jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni anglatadi. Ayrim adabiyotlarda, ma’ruzalarda va boshqa ilmiy ishlarda “**davlat budjeti daromadlarining asosiy bosh manbai soliqlardir**”, degan bizning nazarimizda birmuncha noto’g’ri bo’lgan fikrlarni uchratish mumkin. Aslida, **davlat budjeti daromadlarining asosiy manbai bo’lib mamlakat yalpi milliy mahsuloti va milliy daromadi hisoblanadi, davlat markazlashgan pul fondiga mablag’larni jalb qilish quroli esa soliqlardir.**

O’zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 50-moddasiga binoan Davlat budjeti daromadlari quyidagilardan iborat:

- soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar;
- davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;
- meros, hadya huquqi bo’yicha davlat mulkiga o’tgan pul mablag’lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezident-yuridik shaxslarga berilgan budjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to’lash hisobidan to’lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar.

Davlat budjeti daromadlarining asosiy moddiy manbai mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotning tarkibi bo’lgan milliy daromad hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, yalpi ichki mahsulotning o’sishi davlat budjeti daromadlarini barqarorligini ta’minlaydi.

Budjetidaromadlarining asosiy manbai soliqlardir. Soliqlarmajburiy pullik to’lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildirib, bu munosabatlar soliq to’lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o’z mulkiga aylantiruvchi sub’ekt sifatida davlat o’rtasida sodir bo’ladi. Korxonalar va tashkilotlar tovar mahsulotlarini ishlab chiqqanida va sotqanida, aholiga turli xizmatlarni ko’rsatqanida, ishlar bajarganida yoki bozorlarda oldi-sotdi qilqanda ham pul

to'lovlarini amalga oshiradi. Lekin bu munosabatlarning hammasi ham soliq munosabati bo'la olmaydi. Soliq munosabatida davlat mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash yo'li bilan majburan davlat budjetiga mablag' to'plash jarayonini amalga oshiradi.

**Soliqlarning o'ziga xos belgilari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:**

- majburiylik;
- xazina to'plash;
- qat'iylik va doimiylik;
- aniq soliq to'lovchi uchun ekvivalentsizlik.

**1. Majburiylik.** Soliq va yig'imlar majburiy xarakterga ega bo'lib, bunda davlat soliq to'lovchi daromadlarining bir qismini majburiy to'lov sifatida budjetga olib qo'yadi. Bu majburiylik mamlakatning qonun chiqaruvchi oliy organi tasdiqlab bergan maxsus qonunlar asosida amalga oshiriladi. Demak, majburiylik belgisi huquqiy tomondan davlat tomonidan kafolatlangan.

**2. Xazina to'plash** belgisi shunda namoyon bo'ladiki, soliqlar albatta xazinaga, ya'ni davlat budjetiga va davlatning boshqa maqsadli pul fondlariga tushadi. Bordi-yu, yuridik va jismoniy shaxslar boshqa ixtiyoriy fondlar - «Iste'dod», «Ekosan», «Kamolot», «Nuroni» jamg'armalariga to'lovlarni amalga oshirsalar, bu to'lovlar xazina to'plashga xizmat qilsada, soliq munosabati bo'lmaydi. Chunki majburiylik tamoyili yo'q, shuningdek, bu to'lovlar davlat mulkiga tushmaydi.

**3. Soliqlar qat'iy belgilangan va doimiy harakatda** bo'ladi. Tarixda 50-100 yillab o'zgarmasdan harakatda bo'lgan soliqlar mavjud. Ilmiy asosi qancha chuqur va mustahkam bo'lsa, soliqlar shuncha qat'iy va uzoq yillar o'zgarmasdan harakat qiladi yoki juda kam o'zgaradi. Masalan, daromad solig'i, mulk solig'i, yer solig'i kabilar bir necha asrlardan beri amal qilib kelmoqda. Har bir davr, har bir ijtimoiy tuzumda davlat, o'z iqtisodiy maqsadlari va iqtisodiy siyosatining asosiy



yo'nalishlaridan kelib chiqib, bu soliqlarning amal qilish mexanizmiga o'zgartirishlar kiritib kelgan.

4. Soliqlar alohida olingan soliq to'lovchi uchun **noekvivalentlik xarakteriga** ega. Har bir soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq summasi to'lovchining shaxsan o'ziga to'liq qaytib kelmaydi, ular mamlakat miqyosida butun jamiyatga qaytib keladi. Soliq to'lovchiga nisbatan bu to'lov ekvivalentsiz pul to'lovidir. Masalan, soliq to'lovchi muayyan bir davrda davlatning sog'liqni saqlash va maorif xizmatlaridan hech foydalanmagan bo'lishi mumkin. Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida hamma soliq to'lovchilarning to'lagan soliq va yig'implari davlatning ularga ko'rsatgan xilma-xil xizmatlari (mudofaa, xavfsizlikni ta'minlash, tartib-intizomni saqlash va boshqa ijtimoiy-zaruriy xizmatlar) orqali o'zlariga qaytib keladi. Demak, soliq to'lovchilar nuqtai nazaridan olganda hamma soliqlar bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning ko'rsatgan ijtimoiy xizmatlari uchun to'lanadigan haq(to'lov)dir.


Soliqlar davlat budjetiga va davlat pul fondlariga kelib tushadigan, majburiy xarakterga ega bo'lgan pul munosabatlaridir. Shuningdek, soliqlar iqtisodiy kategoriya bo'lganligi uchun bozor iqtisodiyoti munosabatlari, shu jumladan, moliyaviy munosabatlar tarkibiga kiradi. Bozor iqtisodiyoti erkin iqtisodiyotdir, ya'ni har bir huquqiy shaxs, tadbirkor o'z tovariga erkin baho belgilashi, mahsulot yetkazib beruvchini ixtiyoriy topishi va o'zi iste'molchini topib, unga mahsulotini sotish huquqiga ega. Shuning uchun davlat ular daromadlarining bir qismini taqsimlab, budjetga oddiy ajratma sifatida ololmaydi. Soliq shaklida daromadlarni undirish uchun qonun chiqaruvchi organ (Oliy Majlis)ning qarori zarur, ya'ni qonuniy asosda undirilgan to'lov budjetga o'tadi. Erkin iqtisodiyot sharoitida soliqlar ham erkin, ochiq, aniq bo'ladi, demokratik to'lovga aylanadi.

Soliqlar iqtisodiy kategoriya bo'lganligidan to'lovchilar va davlat o'rtasida daromadlar taqsimlanayotganda tomonlarning iqtisodiy manfaatini albatta e'tiborga olish zarur. Davlat soliq to'lovchilar daromadini istaganicha ololmaydi, soliqlarni budjetga undirishning ma'lum chegarasi mavjud. Bu chegarani davlat, soliq to'lovchilarning mahsulot ishlab chiqarish va foyda olishdagi faoliyatini

hisobga olib belgilaydi. Ikkinchi tomondan, soliqlardan makrodarajada iqtisodiyotni rivojlantirish, bozor infratuzilmasini yaratish va boshqa umumdavlat maqsadlari uchun yetarli moliyaviy resurslar to'plash uchun foydalaniladi. Soliqlarning mohiyati soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi doimiy, uzoq muddatli munosabatlarda o'z ifodasini topadi.

Budjet tizimi bo'g'inlari daromadlarini shakllantirishiga ko'ra soliqlarning **umumdavlat (respublika) va mahalliy soliqlarga** bo'linishi hukumat idoralarining markaziy hukumat va mahalliy hukumatlarga bo'linishi asosida kelib chiqadi.

Har bir hokimiyat idoralari o'zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o'z budjetiga va uni ta'minlaydigan soliqlarga ega bo'lishi kerak. Respublika hukumati umumdavlat miqyosida katta vazifalarni - mudofaa, xavfsizlikni saqlash, tartib-intizom infrastrukturasi yaratish, turli ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish, fuqarolar ijtimoiy himoyasini tashkil etish va boshqa bir qator yirik vazifalarni bajaradi. Shuning uchun uning budjeti ham, soliqlari hajmi ham salmoqli bo'lishi shart. Qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, yuridik shaxslarning daromadi (foydasi)dan, fuqarolar daromadidan olingan soliqlar respublika budjetiga tushadi.



**1-rasm. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi**

Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika budjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy budjetlar daromadlilik darajasini tartibga solib turish maqsadida ajratmalar ajratilishi mumkin. Bordi-yu, ajratmalar evaziga ham mahalliy budjetlarning xarajatlari qoplanmasa, u holda subvensiya yoki dotatsiya beriladi. Agar kelgusi yilda mahalliy budjetlarning o'z manbalari barqarorlashib, soliqlari hajmi ko'payib qolsa, respublika soliqlaridan ajratmalar berishning zaruriyati bo'lmaydi. Respublika va mahalliy soliqlar yagona mohiyatga ega bo'lib, budjetga to'lanishi lozim bo'lgan majburiy to'lovlardir.

Mahalliy soliqlar mahalliy hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to'liq biriktirib beriladi. Mahalliy hukumatlar asosan mehnatkashlarga yaqin bo'lganligidan, ular ijtimoiy masalalarni - maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin odatda bu soliqlar va yig'implar ular budjetlari xarajatlarining 30-40 foizini qoplaydi, xolos. Mahalliy budjetlar daromadlarini ko'paytirish eng dolzarb masalalardan biridir. Faqat o'z daromad manbaiga to'liq ega bo'lgan mahalliy hukumatgina o'z faoliyatlarini to'liq amalga oshirishi mumkin. Mahalliy soliqlarning muhim xususiyati shundaki, ular faqat shu hududning budjetiga tushadi. Ular hisobidan boshqa budjetlarga ajratmalar berilmaydi.

Mahalliy soliq Fransiya soliq tizimining anchagina qismini tashkil etadi. Mahalliy organlar budjeti 80 ming mustaqil budjetdan tashkil topgan. (kommunalar, birlashgan kommuna, departamentlar, regionlar va h.k.) Mahalliy hokimiyat-iqtisodiy hayotni asosiy subyekti hisoblanadi. Davlat budjetini 60 foizini mahalliy budjet tashkil etadi. Mahalliy budjet dinamikasi quyidagicha ifodalanadi. Mahalliy soliq tizimini to'rtta asosiy yo'nalishga ajratish mumkin:

- ✓ yer solig'i qurib bitirilgan uchastkalar uchun;
- ✓ yer solig'i qurib bitirilmagan uchastkalar uchun;
- ✓ turar-joysolig'i;
- ✓ mutaxassislik solig'i [7].

*Soliqqa tortish quyidagi tamoyillarga asoslanadi [9]:*

*Layoqatlilik – qiymat va miqdor bo`yicha to`lovga qobillilik*

*Qulaylilik – har bir kishi qiyinchiliksiz qabul qilishi va to`lashi kerak*

*Samaradorlik – soliq yig`ish ko`p xarajatli va tartibsiz bo`lmasligi kerak*

*Adolatlilik – belgilangan soliqlar adolatli va xolis bo`lishi kerak*

*Betaraflilik(neutral) – ma`lum iqtisodiy alternativ uchun afzal ko`rish va qarshilikning yo`qligi*

*Oldindan kutiluvchanlik –ta`minot uchun oldindan ko`ra olishlilik va ehtimollilikning mavjudligi*

*To`lov miqdorining cheklanganligi – maqsadli asoslangan miqdordagi umumiy manfaatlilik*


*Oddiylik – to`lovchilarning tushunishi kerakligi*

Bosh masala aholi ish, xizmatlarda har qanday soliq davriyligi bo'ladi, ya'ni soliq qanchalik yetarli darajada daromadlarni davlat tomonidan fondga tushirish xizmatini ta'minlaydi. Davlat ko'pgina daromad manbalaridan foydalanadi—daromad solig'i, mol-mulk solig'i va savdo-sotiq solig'i ushbu soliqlarning budjetdagi o'rnini ham katta chunki bu soliqlarning soliqqa tortish holatlari, soliqqa tortish bazasi shunaqa katta va shu bilan birga ko'p daromadni samarali boshqarishga ta'sir qiladi. Yana boshqa sabablari ham bor, daromadning yetarli darajada bo'lishidir, shunga qaramay, tanlangan aniq bir daromad boshqa manbadan yuqoriroq bo'ladi. Bular o'z ichiga daromad manbalarining adolatliligi (yoki xolisligi), iqtisodiy tanlovlardagi daromad manbalarining buzilishlari, soliqni boshqarish xarajatlari va alohida daromad manbalarining siyosiy ehtimolligini oladi. Kam hollarda, agar hukumatlar daromadning yagona manbasiga tayansa va shuningdek, masalalar istalgan bir manba qanchalik darajada hukumatning umumiy budjetiga hissa qo'shishi asosida vujudga keladi.



**2-rasm. Budjet daromadlarini shakllantirish jarayonining prinsiplari**

## O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti daromadlari



Boshqa daromadlarga imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusi to'lanishidan tushgan tushumlar, qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'implar, tovon pullari, kompensatsiya to'lovlari va jarima sanksiyalari, davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tkazilgan pul mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga berilgan budjet ssudalarini, chet davlatlarga berilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar,



aksiyalarning davlat ulushi (payi) bo'yicha dividendlar (daromadlar), mobil aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lov, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining foydasi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

### Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining daromadlari



#### Umumdavlat soliqlari, shu jumladan:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i
- yagona soliq to'lovi
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq
- qo'shilgan qiymat solig'i
- aksiz solig'i
- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

#### Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shu jumladan:

- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i
- transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq
- mol-mulk solig'i
- yer solig'i
- yagona yer solig'i
- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish uchun yig'im

yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari



Boshqa daromadlarga davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, qonun hujjatlariga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni, huquq bo'yicha davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

**To'g'ri (bevosita) soliqlar:**

- yuridik shaxslar olinadigan foyda solig'i;
- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovidan davlat budjetiga ajratmalar;
- yagona soliq to'lovidan (mikrofirmalar va kichik korxonalar bilan birgalikda) davlat budjetiga ajratmalar;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik va

**Egri (bilvosita) soliqlar:**

- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aktsiz solig'i;
- bojxona bojlari;

**Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari:**

- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;
- yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

**Ustama foyda solig'i**

**Boshqa daromadlar**

**3-rasm. Davlat budjetining daromadlari amaliyotdagi klassifikatsiyasi**

To'g'ri soliqlar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga qoldirib, ular investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratadi va shu yo'l bilan bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga turtki beradi. Bu soliqlarning stavkalari ko'paytirilsa, korxonalarning biznes imkoniyatlari kamaya borib, iqtisodiy rivojlanishni susaytiradi. Demak, bu guruh soliqlarning stavkalari to'g'ridan-to'g'ri bozor iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'liqdir.

Egri soliqlarning yuridik jihatdan to'lovchilari mahsulot (ishlar, xizmatlarni) yuklab yuboruvchilar (xizmat ko'rsatuvchilar) bo'lib, soliqning haqiqiy o'g'irligi keyingi (so'nggi) iste'molchining zimmasiga tushadi, ya'ni bu yerda haqiqiy soliq to'lovchi yashiringan. Bu soliqlarning summasi tovar (ish, xizmat) narxi ustiga ustama ravishda qo'yiladi. Bu soliqlarning ijobiy tomoni respublikada ishlab chiqarilgan tovarlarning chetga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlar ko'p bo'lishiga yordam beradi. Egri soliqlar orqali tovarlar qiymati oshirilmasa, bozorlarda ularning taqchilligi ortadi. Egri soliqlar stavkasining asosli ravishda oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etmaydi, ya'ni investitsion faoliyatini qisqartirmaydi. Ammo soliq stavkasi tahlil qilinmasdan oshirib yuborilsa korxonalar sotish qiyinchiligiga uchrab, foyda olishni ham, budjetga to'lovlarni ham kamaytirishi mumkin.

Bu soliqlarning yana bir tomoni - muomaladagi ortiqcha pul massasini kamaytirib, inqirozni jilovlab boradi. Biroq bu soliqlar mehnat bilan band bo'lgan aholining real daromadlarini pasaytiradi. Korxonalarda to'g'ri soliqlar stavkasini kamaytirish hisobiga berilgan imkoniyat ko'proq mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirib, tovarlar assortimentining oshishini ta'minlashi kerak.

Jahon soliq amaliyotida to'g'ri va egri soliqlar nisbatiga qarab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasini yoki iqtisodiy qiyinchiliklarni tahlil qilib berish mumkin. Masalan. AQSh da to'g'ri soliqlar salmog'ining budjet daromadida 90 foizga yaqin bo'lishi, bu yerda rivojlangan bozor iqtisodiyoti amal qilayotganidan darak beradi.

## O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining daromadlar tizimi

Ko'rsatkichlar	2013 yil		2014 yil		2015 yil		2016 yil	
	mlrd. so'm	Jamig a nisbat an (%)	mlrd. so'm	Jamig a nisbat an (%)	mlrd. so'm	Jamig a nisbat an (%)	mlrd. so'm	Jamiga nisbata n (%)
I. Davlat maqsadli jamg'rmalar daromadlarisiz– jami	25104,9	100,0	30160,8	100,0	36184,9	100,0	40505,8	100,0
<b>1.To'g'ri soliqlar</b>	6583,1	26,2	7790,4	25,8	8554,3	23,6	9338,5	23,0
<b>1.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i</b>	1239,0	4,9	1302,3	4,3	1284,8	3,5	1266,0	3,1
<b>1.2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat budjetiga ajratmalar</b>	817,3	3,3	989,8	3,3	1193,1	3,3	1383,2	3,4
<b>1.3. Yagona soliq to'lovidan davlat budjetiga ajratmalar</b>	755,1	3,0	911,6	3,0	1067,1	2,9	1237,9	3,0
<b>1.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i</b>	2769,7	11,0	3313,9	11,0	3648,8	10,1	4040,4	10,0
<b>1.5. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq</b>	342,1	1,4	505,0	1,7	617,0	1,7	742,5	1,8
<b>1.6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i</b>	659,9	2,6	767,8	2,5	743,5	2,0	668,5	1,6

<b>2. Egri soliqlar</b>	<b>13039,4</b>	<b>51,9</b>	<b>15618,2</b>	<b>51,8</b>	<b>19115,8</b>	<b>52,9</b>	<b>22298,1</b>	55,0
<b>2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i</b>	7737,8	30,8	9123,1	30,2	10721,7	29,6	12505,0	<b>30,9</b>
<b>2.2. Aksiz solig'i</b>	3726,5	14,8	4506,0	14,9	5528,8	15,3	6480,0	<b>16,0</b>
<b>2.3. Bojxona boji</b>	992,6	4,0	1142,0	3,8	1583,6	4,4	1717,4	<b>4,2</b>
<b>2.4. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatilganlik uchun olinadigan soliq</b>	582,5	2,3	847,1	2,8	1281,7	3,5	1595,7	<b>3,9</b>
<b>3. Mol-mulk va resurs to'lovlari</b>	<b>3755,5</b>	<b>15,0</b>	<b>4521,4</b>	<b>15,0</b>	<b>5741,8</b>	<b>15,9</b>	<b>5806,5</b>	14,3
<b>3.1. Mol -mulk solig'i</b>	831,4	3,3	1135,0	3,8	1716,7	4,7	1874,0	<b>4,6</b>
<b>3.2. Yer solig'i</b>	646,3	2,6	665,2	2,2	929,6	2,5	873,5	<b>2,1</b>
<b>3.3. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq</b>	2180,1	8,7	2595,8	8,6	2931,8	8,1	2874,6	<b>7,1</b>
<b>3.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq</b>	97,7	0,4	125,4	0,4	167,7	0,4	184,4	<b>0,4</b>
<b>4. Ustama foyda solig'i</b>	<b>294,5</b>	<b>1,2</b>	<b>388,4</b>	<b>1,3</b>	<b>548,2</b>	<b>1,5</b>	<b>390,2</b>	1,0
<b>5. Boshqa daromadlar</b>	1432,4	5,7	1842,4	6,1	2224,8	6,1	2672,5	6,6

Davlat budjeti daromadlarini tahlil qilar ekanmiz, 1-jadal ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, daromadlar tarkibida egri soliqlar salmoqli o'ringa ega. Ushbu daromadlar 2013 -yilda 51,9 foizni, 2014- yilda 51,8 foizni, 2015- yilda 52,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016- yil 55,0 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i 2013 -yilda 30,8 foizni, 2014 -yilda 30,2 foizni, 2015 -yilda 29,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016- yilda 30,9 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Aksiz solig'i 2013- yilda 14,8 foizni, 2014- yilda 14,9 foizni, 2015 -yilda 15,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016- yilda 16,0 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Bojxona boji 2013- yilda 4,0 foizni, 2014- yilda 3,8 foizni, 2015 -yilda 4,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda 4,2 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq 2013- yilda 2,3 foizni, 2014- yilda 2,8 foizni ,2015- yilda 3,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016- yilda esa 3,9 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan.

Davlat budjeti daromadlarida to'g'ri soliqlarning salmog'ini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu soliqlar 2013- yilda 26,2 foizni, 2014- yilda 25,8 foizni, 2015-yil 23,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda 23,0 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Jumladan, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i 2013- yilda 4,9 foizni, 2014- yilda 4,3 foizni, 2015-yil 3,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016- yilda 3,1foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat budjetiga ajratmalar 2013-yilda 3,3 foizni, 2014-yilda 3,3 foizni, 2015-yilda 3,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016- yilda 3,4 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 2013-yilda 11,0 foizni, 2014-yilda 11,0 foizni, 2015- yilda 10,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda 10,0 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan.

Davlat budjeti daromadlaridan mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari salmog'i 2013-yilda 15,0 foizni, 2014-yilda 15,0 foizni, 2015-yilda 15,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda 14,3 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan.

*Hindistonda konstitutsion belgilangan birlashma, davlat, markaziy va davlat hokimiyati o`rtasida soliqqa tortish ko`lamini guruhlovchi amaldagi ro`yxatlarga asoslangan soliqqa tortish tizimi mavjud. Uning tavsiflari Hindiston Konstitutsiyasi 7-bandida quyidagicha aniq ro`yxatlarga asosan tartiblangan*

- *1-ro`yxat . Union(Birlashma) ro`yxati bo`lib, u faqatgina parlament huquq bera oladigan subyektlardan tashkil topgan.*
- *2-ro`yxat. State(Davlat) ro`yxati bo`lib, u faqatgina davlat qonun chiqaruvchi hokimiyati huquq bera oladigan subyektlardan tashkil topgan.*
- *3-ro`yxat. Concurrent(Birgalikdagi) ro`yxati bo`lib, u Parlament ham, Qonun chiqaruvchi hokimiyat ham huquq bera oladigan subyektlardan tashkil topgan.<sup>1</sup>*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, aholi bandligini ta'minlash, daromadini yanada oshirish va hayot sifatini yuksaltirish, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, bu jarayonda soliq yukini pasaytirishga qaratilganligi iqtisodiy siyosatning bosh maqsadi hisoblanadi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga muvofiq, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi 2017-yilda 7,5 %ni tashkil etadi.

2017-yilda foyda solig'i stavkasi 7,5%ni tashkil etishi va bu soliq stavkasining bosqichma-bosqich kamaytirilishi yuridik shaxslar ixtiyorida qoluvchi mablag'lar summasi ko'payishi ko'rinishidagi qo'shimcha investitsiya resurslarining yuzaga kelishi hamda mablag'ni tejash va uni korxonalar ixtiyorida qoldirib, ularning o'z aylanma mablag'larini ko'paytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash imkonini beradi.

*Daromad Solig'i Qonuniga(1961) ko`ra belgilangan me`yordan ko`p daromadga ega bo`lgan har bir shaxsdan Moliya Qonunida belgilangan*

---

<sup>1</sup>Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice, CreateSpace USA, 2016. p. 15



*stavkalariga muvofiq daromad solig`i undiriladi. Shaxslar individual shaxsni, hind oilalarini, shaxslar guruhini, kompaniya, firma, mahalliy hokimiyat va hech qanday guruhga mansub bo`lmagan shaxslarni o`z ichiga oladi.*

*Daromad solig`i hisobot yilida 1-apreldan 31-martgacha bo`lgan davrda undiriladi. **1961- yilda daromad solig`ini quyidagi turlari mavjud bo`lgan:***

- *Uy xo`jaligi faoliyatidan daromad solig`i;*
- *Tadbirkorlik faoliyatidan daromad solig`i;*
- *Ish haqidan daromad solig`i;*
- *Kapital harakatidan olingan foydadan daromad solig`i;*
- *Boshqa faoliyatdan olingan foydadan daromad solig`i;*
- *Korporatsiya daromad solig`i.*

*Korporatsiyalarning daromad solig`i yirik kompaniyalarning foydasidan undiriladi.*

***Kompaniyalardan undiriladigan soliq turlari 3 ta, ular quyidagilar:***

*1. Hindistonda doimiy ro`yxatda turuvchi kompaniyalar indian comp yoki nazorat va boshqaruv to`liq Hindistonda joylashgan kompaniyalardan olinadigan daromad solig`i.*

*2. Hindistonda ro`yxatdan o`tmagan, ya`ni Hindiston kompaniyalariga tegishli bo`lmagan norezident kompaniyalar, boshqaruv va nazoratining ma`lum qismi Hindistondan tashqarida bo`lgan kompaniyalardan Hindistondagi tijorat faoliyatining foydasidan olinadigan daromad solig`i.*

*3. Xorijiy kompaniyalar – kompaniyaning nazorat va boshqaruv organi Hindistondan tashqarida joylashgan xorijiy kompaniyalardir. Hindistonda qo`lga kiritgan foydasidan olinadigan daromad solig`i.*

*Yuqoridagi soliq turidan tashqari kompaniyalar quyidagi soliqlarni to`lashga to`g`ri keladi.*

### ***Kompaniyalar to'laydigan soliq turlari:***

- *Eng kam muqobil soliq (minimum alternative tax MAT).*

*Bu soliq Hindistonda nol stavkali/soliqdan ozod kompaniyalarni soliqqa tortishda samarali foydalanilmoqda. Bunda kuzatilishicha ko'p kompaniyalar hisob-kitob daftarlarida ko'p miqdordagi foydalar va juda ko'p dividendlar ko'rsatilsa ham, turli imyitozlardan foydalangan holda oz miqdorda soliq to'laganlar yoki to'lamaganlar. Shunday qilib MAT kompaniyalarning daromadidan minimal foizda soliq olinib daromad solig'ini takomilashtirishni nazarda tutgan edi. Dastlab barcha soliq to'lovchilar uchun MAT deb tanishtirilgan soliq keyinchalik AMT deb qo'llanildi. MAT dasturi faqat korporativ soliq to'lovchilar uchun amal qiladi. AMT esa nokorporativ soliq to'lovchilar uchun. Ya'ni MATdan kompaniyalar foydalanadi, AMTdan esa kompaniyalardan boshqa soliq to'lovchilar uchun mo'ljallangan.<sup>1</sup>*

Iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning davlat budjetining daromadlaridagi salmog'ini nazariy va amaliy ma'lumotlarga tayangan holda o'rganish muhim hisoblanadi.

Soliq-budjet siyosatida keyingi yillarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasining o'zgarish tendentsiyasini kuzatishimiz mumkin. 2015- yilning 1- yanvaridan e'tiboran respublikamizda 4 pog'onali soliq stavkalarini qo'llash tartibi joriy etilib, bu jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblashda eng kam ish haqining bir baravarigacha bo'lgan eng quyi pog'onadagi miqdoriga «0» darajali stavkani qo'llash tartibini nazar tutadi. Boshqacha aytganda, fuqarolarning eng kam ish haqining bir baravarigacha daromadlari soliqqa tortilmaydi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarining bosqichma-bosqich pasaytirilib borilishi O'zbekiston Respublikasi soliq tizimidagi islohotlarning eng e'tiborli jihatlaridan biri hisoblanadi.

---

<sup>1</sup>Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice, CreateSpace USA, 2016. p. 15

O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- jismoniy shaxslarning ish haqi, mukofotlar va boshqa daromadlariga solinadigan tabaqalashgan progressiv soliq stavkalari;

- jismoniy shaxslarning dividend va foiz tariqasida oladigan daromadiga soliq stavkasi (10%);

- norezident jismoniy shaxslarning daromadlariga to'lov manbaida solinadigan soliq stavkalari (faoliyat va daromad manbaiga qarab tegishli 6%; 10%; 10%; 20%);

- imtiyozli soliq stavkalari.

1998-1999 yillarda jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq besh pog'onali 15%, 25%, 35%, 40% va 45% shkala bo'yicha olingan bo'lsa, 2001-2014 yillardan boshlab uchta pog'onali shkala bo'yicha undirilgan. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Prezidentimizning 2014- yil 4- dekabrda PQ-2270-sonli qaroriga muvofiq 2015- yil 1- yanvardan boshlab jismoniy shaxslar olinadigan daromad solig'i 4 pog'onali shkala asosida soliqqa tortilishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasining 2012- yil 25- dekabrda "Soliq va budget siyosatining 2013- yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi, shuningdek, soliq hisobotini taqdim etish davriyligi qisqartirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-343-sonli qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012- yil 25- dekabrda PQ-1887-sonli qarori bilan 2013- yilning 1- yanvaridan boshlab jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va qat'iy belgilangan soliq eng kam ish haqining 1- yanvar holati bo'yicha hisoblanishi belgilab qo'yildi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha endilikda qabul qilingan tartibga ko'ra, eng kam ish haqi miqdori o'zgarganda ham jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i shkalasi o'zgarmaydi. Masalan, 2016 -yilning 1- yanvar holatiga eng kam ish

haqi miqdori 130240 so'mga, 2017- yilning 1- yanvar holatiga eng kam ish haqi miqdori 149775 so'mga teng.

Korporativ soliqlar sof korporativ jamg'armalarga baza sifatida foydalaniladi. Yagona daromad solig'i bazasi asosga ko'ra xarajatlardan oldin daromad hisobga olinsa, ba'zi istisnolar va chegirmalardan tashqari korporativ daromad soliqlari faqatgina xarajatlar amalga oshirilgandan keyingi sof foydadan to'lanadi. Bunga qo'shimcha qilish mumkinki, ba'zi chegirmalar kapital yo'qotishlar, faoliyatdagi yo'qotishlar, kapital investitsiyalarining qadrsizlanishi, xayriya badallari va tadqiqot va rivijlanish xarajatlari uchun hisobga olinadi. Bu chegirmalar qanday qilib hisobga olinishi murakkab masaladir, ya'ni korporatsiya qanchalik darajada kapital investitsiyalarini qadrsizlantirdi. Federal korporativ soliq stavkalari tez sur'atlarda 15%dan 35%ga sof jamg'armalar o'sishi bila oshdi.

Federal korporativ daromad solig'idan tushumlar YaIMga nisbatan foizda har bir OECD davlatidan, Turkiyani inobatga olmaganda haqiqatda past bo'ladi. Ko'pchilik shtatlar korporativ daromad soliqqa ega shuningdek, garchi shu yaqin yillarda shtat darajasida korporativ daromad solig'ining ahamiyati kamaygan bo'lsa-da, 2010-yilda korporativ daromad soliqlari umumiy shtat daromadiga nisbatan taxminan 5%ni tashkil qildi, ikki dekadaga oldinga nisbatan taxminan bir yarim darajada.

Korporativ daromad solig'idan yig'ilgan summaning umumiy miqdoriga qo'shimcha tarzda mamlakatlar bo'yicha umumiy stavka tuzilmalari jihatidan bu soliqlarni solishtirish mumkin. 2010-yilda ikkala umummilliy va shtat/mahalliy hukumat korporativ soliqlarini inobatga olganda AQSh korporativ soliq stavkalari 39,2% da, OECDning boshqa mamlaktlaridan, 39,5% stavkaga ega bo'lgan Yaponiyadan tashqari, balandroq edi. Korporativ daromadni milliy hukumat darajasida soliqqa tortishni qaraydigan bo'lsak, faqatgina Fransiya (34,4%da) va Belgiya (34%da) bilan AQShdagi eng yuqori (32,7%) stavkadan balanddir.

Daromad solig'i soliq to'lovchilarning daromadidan undirilsa, mol- mulk soligi uning mol mulkiga nisbatan undiriladi. Mol- mulk solig'i 1957-yildagi mol-mulk solig'i to'g'risidagi qonun orqali tartibga solinadi. Mol-mulk solig'i asosiy vositalar qiymatiga nisbatan undiriladi. Asosiy vositalar mol-mulk solig'i to'g'risidagi qonunning 2-ea bo'limida ta'rifi keltirilgan. Mol-mulk solig'i qonunda asosiy vosita hisoblangan mulk shakllari mavjud mulkdorlardan undiriladi.

### **Quyidagi buyumlar asosiy vositalar hisoblanadi:**

Har qanday bino va inshootlar yoki tijorat maqsadida yoki mehmonlar uchun uy kabi. Yana bu o'z ichiga ferma, hokimiyat va boshqaruv organlaridan 25 km uzoqlikdagi fermalar ham kiradi. Quyidagi bino va maydonlar bu kategoriyaga kirmaydi.

- Yashash uchun mo'ljallangan uylar va kompaniyalar tomonidan ishchilarga yoki uzoq davr mobaynida ishlagan boshqaruvchi va direktorlarga, yillik maoshi 10 000 000 Rsdan kam bo'lgan xodimlarga berilgan uylar;
- Uylar (turar joy yoki tijorat maqsadida) ya'ni soliq to'lovchilarning birjadagi aksiyalarning biron- bir ko'rinishida nomoyon bo'lishi;
- Soliq to'lovchiga tegishli bo'lgan tadbirkorlik yoki boshqa faoliyat uchun mo'ljallangan uylar;
- Joriy yilda minimal 300 kun mobaynida foydalaniladigan yashah uchun mo'ljallangan uylar;
- Tijorat xarakterdagi ixtiyoriy mol-mulklar;
- Avtomashinalar(soliq tolovchilar tomonidan biznes faoliyatida foydalaniladigan hamda ijaraga olingan yoki ulush sifatida qo'shilgan );
- Tilla buyumlar, mebellar, kumush platina yoki ixtiyoriy qimmatbaho metallar tarkibidagi shu kabi moddalar bo'lgan qimmatbaho metallar;

Urban hudud (urban yer joylashgan joyni anglatadi), quyidagilardan boshqalari:

bir binoning qurilish amalda bo'lgan vaqt uchun hech qanday qonun ostida emas yoki qurilish tegishli bo'lgan organining roziligi bilan amalga oshiriladi, qaysiki har qanday yer yoki u sotib olingan kundan boshlab ikki yil muddat ichida sanoat maqsadlari uchun soliq to'lovchi tomonidan o'tkazilgan har qanday foydalanilmagan hududni yoki u sotib olingan kundan boshlab 10 yil muddatga aksiyalari savdo sifatida soliq to'lovchi tomonidan o'tkazilgan.

Yer qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalaniladigan Hukumat rejalarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi yeri sifatida tasniflanadi.

a) aholisi 10000 dan kam bo'lmagan, yurisdiksiya hokimligiga ega, xabardor maydoni qo'mitasi, shahar maydoni qo'mitasi, joylashtirish kengashi;

b) har qanday joylashtirish kengashi mahalliy chegaralardan quyidagi masofa oralig'ida o'lchanadi.

1 dan ortiq 2 km bo'lmagan, aholisi 10000 dan ortiq, 1 lakhdan oshmaydigan bo'lsa

II maydonining aholisi 1 lakhdan ko'p lekin 10 lakhdan oshmagan bo'lsa, 6 kms dan ortiq bo'lmagan holda

III maydonining aholisi 10 dan ortiq lakhs bo'lsa, hudud 8 km dan ortiq emas.

Sof boylik o'z ichiga asosiy vositalarni oladi, odatda, soliqlar quyidagi hollarda bo'ladi, soliq to'lovchi tomonidan soliqlar baholanib aktivlarini kuni bo'yicha to'lanadi, ma'lum aktivlarini o'z ichiga, soliq to'lovchi uchun ular sof boylik bo'lib kiritilgan bo'lishi kerak.

Shaxslar turmush o'rtog'i bilan birgalikda boyligi taqsimlangan, uning o'g'li, xotini, uning turmush o'rtog'i yoki uning o'g'lining xotini, ammo bir kishining, ya'ni kichik bolaning bevosita yoki kechiktirib bo'lmaydigan foydasi

taqsimotga oshirilmaydi. Qaytarib o'tkazish ostida o'tkazilgan aktivlar jarayoni sof mol-dunyosi xarajatlari bo'linadi.

Foyda solig'i qoidalari;

- har bir inson sof boyligi 30,00,000 dan oshadigan kishi shu soliqni to'lashi kerak.
- vaqtida qaytmasa yoki qayta ko'rib chiqish vaqtida oldingi qaysi biri baholash yilning oxirigacha yoki baholash tugaganidan oldin bir yil muddat ichida berilishi mumkin.
- oy davomida sof boyliklarini qaytarib topshirish kechiktirilganda keyingi oy boshida 1 foiz jarima undiriladi.

Daromad solig'i birmuncha yangi tushunchadir, ammo qo'shimcha qilib aytish mumkinki, hukumat tomonidan foydalaniladigan daromad manbalari uchun muhimdir. 1913-yilda tasdiqlangan Konstitutsiyaga 16-O'zgartirish kiritish qismi amalga kiritilmaguncha AQShda daromadga soliq solishga ruxsat berilmagan. Shu vaqtdan beri, daromad solig'i federal hukumat uchun eng asosiy daromad manbaiga aylandi, davlat va mahalliy hukumatlar uchun muhim manba hisoblanganligiga qo'shimcha tarzda aytganda. An'anaviy tarzda va qulaylik uchun, davlat va mahalliy daromad soliqlari turli xil stavkalar tuzilishiga ega bo'lsa-da, federal daromad solig'iga o'xshagan holda boshqariladigan bo'ldi. Ushbu bo'lim federal daromad soliq tizimining tuzilishini tasvirlaydi va davlat hamda mahalliy hukumatlar shaxsiy daromad soliq tizimlarining qisqacha alohida xususiyatlarini muhokama qiladi. Daromad soliqlari, odatda quyidagi tuzilishga ega:

1. Daromadni hisoblash (agarda federal daromad solig'i bo'lsa, belgilangan yalpi daromad yoki AGI (ingl.adjusted gross income)), ya'ni soliq bazasining dastlabki hisoblanishi.

2. Yagona soliq to'lovchilar xususiyatlari sababli belgilangan yalpi daromaddan qisqartirishlar. Bu chegirmalar (standard yoki tasniflangan) yoki imtiyozlar (soliq to'lovchi va mas'ul shaxslar uchun) shaklida namoyon bo'ladi.

3. Soliq solinadigan daromad uchun soliq stavkalari talabi (agarda federal soliqdan hisoblangan bo'lsa), ya'ni AGI natijasidan chegirmalar va imtiyozlarni ayirish.

4. Soliq kreditlari sababli to'langan soliqdagi qisqartirishlar, ya'ni soliqlar to'lashda dollar uchun dollar qisqartmalari.

Barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasida ham budjet daromadlari tarkibida solikli daromadlarning hissasi sezilarli darajada yuqoriligi bilan ajralib turadi (90% ga yaqin). Rossiyada bu ko'rsat kich 72%, AQShda 90%, Qozog'istonda 95% ga yaqinni tashkil etadi.

Ushbusoliqidaromadlarniturldarajadagibudjetlarbalanslashganliginita'minlashmaqсадidabudjetlaro'rtasidataqsimlashmuammosigao'tishbosqichidagibarchahadavlatlarbudjetlararomunosabatlartiziminiislohqilish jarayonigaduchkelmoqda.

Bungaasosiysababxanuzgachatartibgasoluvchisoliqlarningmahalliybudjetxarajatlarinimoliyalashtirishningasosiymanbaibo'libqolayotganligidir.

Bubirtomondanbudjetlararomunosabatlarniajralmastarkibiyqismibo'lsa,boshqatomondansamaralibudjetlararomunosabatlariislohotiniamalgaoshirishgato'sqinlikqilishimumkin. Chunkibundaytartibgasoluvchidaromadlardanme'yoriy ajratmalar ajratishamaliyotimahalliybudjetlarnishakllantirishdabeqarorlikvanoaniqliknikeltiribchiqarishi,

mahalliybudjetlarsoliqyig'implarinioshirishhmdasoliqimkoniyatlarinikengaytirishgaqiziqishinirag'batlantirmasligimumkin.

Mamlakatdaislohotlarniamalgaoshirishbosqichidasoliqvavakolatlarnibudjetlaro'rtasidataqsimlashmexanizmi, bizningfikrimizcha, o'zidayanadamurakkabtizim sifatidanamoyonbo'ladi. Metodologiya, tamoyilva



uni amalga oshirish amaliyoti—qiyin va murakkab jarayon bo'libginaqolmay, budjetlararomunosabatlartiziminishakllantirishda o'tishbosqichi muammolariningko'pqirraliginiko'rsatibberadi. Bundaysharoitlarda mahalliybudjetlarbalanslashganliginita'minlashhamdauningmanbalarinitakomill ashtirish yanadamuhimahamiyatkasbetadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari balanslashtirilgan daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi lozim. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasivamahalliybudjetlarbalanslashganligiumum davlatsoliqlariniO'zbekistonRespublikasirespublikabudjetidanhamdayuqorituruv chibudjetlardanberiladiganme'yoriy ajratmalar va moliyaviy yordamni taqsimlashvaqaytataqsimlashhisobigaamalgaoshiriladi.

O'zbekistonamaliyotidaumumdavlatsoliqlaridantartibgasoluvchisoliqsifatidafoy dalanilishinikuzatishimizmumkin.

Me'yorlarnianiqlashdamahalliyvaumumdavlatsoliqlarihamdategishlibudjetlarmi nimalxarajatlariprognoziamalgaoshirilib, ungamuvofiqajratmalarme'yorianiqlanadi. Qoraqalpog'istonRespublikasi, viloyatlarvaToshkentshahribudjetlariga ajratmalar me'yoriharyiliOliyMajlistomonidandavlatbudjetiqabulqilingandanso'ngO'zbekis tonRespublikasiPrezidentiningqaroribilantasdiqlanadi.

Tumanvashaharlarbudjetlarigaajratmalarmi qdorihamharyiliQoraqalpog'istonRespublikasivazirlarkengashi, viloyatlarvaToshkentshaharhokimlarining qarorlari asosida ko'rib chiqiladivatasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan ajratiladigan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining daromatlari hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo va o'simlik yog'i uchun aksiz solig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari daromadlariga o'tkazib beriladi.

### **Xalqaro**

**amaliyotdasoliqvakolatlarinibudjetlaro'rtasidataqsimlashning 3 taasosiy modelidan foydalaniladi.**

**Federativ tizim hamdako'pmunitsipial subyektlarga egamamlakatlaramaliyot idako'phollardabarcha 3 tamodeldan foydalanish kuzatiladi.**

#### **Birinchimodel –**

soliqlarniyig'ishbo'yichavakolatlar chegaralarinio'rnatish va ularnima'lum hukum atdarajasigabiriktirish. O'zbekiston amaliyotida ushbu modeldan foydalaniladi, rasman har bir soliq turi qaysidir budjet darajasigabiriktirilgan, ya'ni umum davlat va mahalliy soliqlar. Ta'kidlash joizki, deyarli barcha mamlakatlar budjetlararomunosabatlar amaliyotida hududiy va mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy soliqlarnio'rnatishdagi vakolat cheklanganligi tufayli ushbu modeldan qisman chetga chiqish yuz beradi, ya'ni soliq qatortishning barcha asosiy elementlari respublika soliq qonunchiligasosida aniqlanadi.

#### **Ikkinchimodel – soliq qatortish bazasidan birgalikda foydalanish.**

Bu modeldan Rossiya Federatsiyasida foydalanilishini kuzatishimiz mumkin. Xususan, korxonafoydasigasoliq stavkasi 20% nitashkiletadi, uning 2% dagimiqdori Federal Budjetgatushishiko'zdatutilgan bo'lsa, qolgan 18%i RF sub'ektlari ixtiyorida qoladi.

#### **Uchinchimodel –**

butun mamlakat hududida yagona stavkadasoliqqatortiladigan aniq soliqlardan kelib tushadigan daromadlarini turlidarajadagibudjetlaro'rtasidame'yoriya taqsimlash.

Bundasoliqlarning budjetlararo taqsimotiasosidaturli xil mezonlari yotishim umkin: aholisoni, biror-bir hududning geografik joylashuvi, iqtisodiyahvolivah.k. Soliqlarni taqsimlash miqdori va tartibi turli muddatlarga o'rinatilishim umkin. Umum davlat soliqlarining bir qismini tegishli davlat organitomonidan o'rinatilgan me'y orlar bo'yicha budjet tizimibo'g'inlari o'rtasida taqsimlanadi.

*Hozirgi kunda, shtatlar hamda markaz o'rtasidagi fiskal vakolatlar konstitutsiyada aniq va deyarli hech qachon raqobat qila olmaydigan qilib belgilangan. Markaz ishlab chiqarayotgan (inson iste'moli uchun ishlab chiqariladigan alkogolli ichimliklar, opium, narkotiklar va boshqalardan tashqari) tovarlardan soliq undirish vakolatiga ega, hamda o'z vaqtida shtatlar esa o'sha tovarlar savdosiga soliq solish vakolatiga ega. Davlatlararo savdolarda esa markaz ham soliq undirish vakolatiga ega bo'ladi (Savdolardan markaziy soliq), biroq, soliq aynan biror davlat bilan bo'lgan munosabatlar shakllangandagina ushlab qolinadi. Xizmatlar bo'yicha esa, faqatgina markaz yakka holda xizmat ko'rsatishni soliqqa torta oladi. Shunga qaramasdan shtatlar mamlakatga olib kirilayotgan yoki Hindistondan olib chiqib ketilayotgan har qanday tovarlar savdosiga soliq sola olmaydi, bunda markaz ushbu soliqni qo'shimcha majburiy bojxona yig'implari shaklida undirib oladi. Ushbu qo'shimcha majburiy bojxona yig'imi aksiz, savdodan soliq, hukumat QQSi va mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlardan undiriladigan boshqa soliqlarni balanslashtiradi. GSTni amaliyotga joriy etish, bir vaqtning o'zida markaz hamda shtatlarning GSTni yig'ib olish imkoniyatlarini kengaytirish, Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritishni taqozo etadi. Markazga hamda shtatlarga GSTni undirish uchun bir vaqtning o'zida yurisdiksiya belgilash, ikki taraf o'rtasidagi GSTni yig'ish tuzilmasi, loyihalashtirish va amaliyotga tatbiq etishni ta'minlay oluvchi noyob institutsional mexanizmi yaratishni talab qiladi. Bunday mexanizm samarali bo'lishi uchun u konstitutsion kuchga ega bo'lishi lozim.*

- Konstitutsiyaning 122-moddasiga tuzatish (o'zgartirish).

*Yuqoridagi va boshqa savollarga javob topish maqsadida 2011-yil 22-martda Lok Sabhada Konstitutsiyaga 115-o'zgartirish kiritildi. Aytib o'tilgan tuzatish 15-Lok Sabha tugatilguncha amalda bo'ldi. 2014-yil 19-dekabrda esa 16-Lok Sabha, Konstitutsiyaga 122-o'zgartirish kiritildi. Ushbu qonun loyihasi ma'lum turdagi tovarlardan tashqari barcha tovarlarni yetkazib berish va xizmat ko'rsatishga GST undirishni nazarda tutadi. Soliq xuddi ikki karrali GST kabi markaz va shtatlar o'rtasida o'zaro hisoblanadi. Parlament esa davlatlararo savdolar yoki tovar va xizmatlar importidan GST undirishning mutlaq vakolatiga ega bo'ladi. Markaziy hukumat GSTga qo'shimcha tarzda tamaki va tamaki mahsulotlariga aksiz solig'ini solish huquqiga ega bo'ladi.*

*GSTC a'zolarining teng yarmi GSTC yig'ilishlarida kворum shakllantira olishi mumkin. GSTC yig'ilishlarida qarorlar jami ovozlarning eng kamida 3/4 qismidan ortig'i berilgandagina qabul qilinishi mumkin. Markaz jami ovozlarning 1/3 qismini, barcha shtatlar esa birgalikda umumiy ovozlarning 2/3 qismini bera oladi.*

*CGST va SGST orasidagi yig'imlarga oid qonun, qoida va jarayonlar maksimal darajada ikki taraf o'rtasida kelishiladi.*

**• GST va Markaz-Shtat moliyaviy munosabatlari**

*Hozirgi kunda, shtatlar hamda markaz o'rtasidagi fiskal vakolatlar konstitutsiyada aniq va deyarli hech qachon raqobat qila olmaydigan qilib belgilab qo'yilgan. Markaz ishlab chiqarilayotgan (inson iste'moli uchun ishlab chiqariladigan alkogolli ichimliklar, opium, narkotiklar va boshqalardan tashqari) tovarlardan soliq undirish vakolatiga ega, hamda o'z vaqtida shtatlar esa o'sha tovarlar savdosiga soliq solish vakolatiga ega. Davlatlararo savdolarda esa markaz ham soliq undirish vakolatiga ega bo'ladi (Savdolardan markaziy soliq), biroq, soliq aynan biror davlat bilan bo'lgan munosabatlar shakllangandagina ushlab qolinadi. Xizmatlar bo'yicha esa, faqatgina markaz yakka holda xizmat ko'rsatishni soliqqa torta oladi. Shunga qaramasdan shtatlar mamlakatga olib kirilayotgan yoki Hindistondan olib chiqib*

*ketilayotgan har qanday tovarlar savdosiga soliq sola olmaydi, bunda markaz ushbu soliqni qo'shimcha majburiy bojxona yig'implari shaklida undirib oladi. Ushbu qo'shimcha majburiy bojxona yig'imi aksiz, savdodan soliq, hukumat QQSi va mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlardan undiriladigan boshqa soliqlarni balanslashtiradi. GSTni amaliyotga joriy etish, bir vaqtning o'zida markaz hamda shtatlarning GSTni yig'ib olish imkoniyatlarini kengaytirish Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritishni taqozo etadi. Markazga hamda shtatlarga GSTni undirish uchun bir vaqtning o'zida yurisdiksiya belgilash, ikki taraf o'rtasidagi GSTni yig'ish tuzilmasi, loyihalashtirish va amaliyotga tatbiq etishni ta'minlay oluvchi noyob institutsional mexanizmni yaratishni talab qiladi. Bunday mexanizm samarali bo'lishi uchun u konstitutsion kuchga ega bo'lishi lozim.<sup>1</sup>*

Nazorat uchun savollar.

- 1. Budget daromadlari nima va uning tarkibi?*
- 2. Budget daromadlarining tuzilish tartibi qanday?*
- 3. Soliq belgilari qanday?*
- 4. Soliq tizimi va soliqqa tortish tamoyillariga qaysilar kiradi?*
- 5. Xalqaro amaliyotda soliq vakolatlarini budgetlar o'rtasida taqsimlashning qaysi modellari mavjud?*

---

<sup>1</sup>Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice, CreateSpace USA, 2016. p. 15

### 3.3. Davlat budjeti xarajatlari

Har bir mamlakatning normal ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanishi uchun samarali faoliyat qiluvchi davlat zarur. Davlat jamiyatga va mamlakat fuqarolariga zarur tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiyot va ijtimoiy tarmoqlarning samarali faoliyat qilishi uchun me'yoriy va institutsional tuzilmalarning qonuniy asoslarini yaratish va shu bilan o'z fuqarolarining yashashi va ishlashi uchun moddiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratib berish vazifalarini bajaradi. Shu vazifalardan kelib chiqqan holda davlatning asosiy funksiyasi quyidagilardan iborat:

Bozor xo'jaligining institutsional asoslarini shakllantiruvchi qonuniy xujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish, amalga oshirish va takomillashtirish

Makroiqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotni samarali boshqarish va tartibga solish

Asosiy ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish, aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash

Milliy manfaatlarni himoya qilgan holda, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish va tartibga solish

Davlat boshqaruvini, mamlakat mudofaasi va milliy xavfsizligini ta'minlash

Tabiat muhofazasi va ekologik muvozanatni ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish va sh.k.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mamlakat iqtisodiy salohiyatining oshib borishi bilan davlatning kuch-qudrati, uning o'z funksiyasini kengaytirib borish imkoniyati ortib boradi. Davlat o'z funksiyasini muvaffaqiyatli bajarishi uchun, shuningdek, rivojlanishning har bir bosqichida dolzarb bo'lgan strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma'lum bir qismini o'z qo'lida to'plamog'i va maqsadga muvofiq sarflamog'i ob'ektiv zaruriyatdir. Aynan shu ob'ektiv zaruriyatning mavjud bo'lishi davlat budjeti xarajatlarining mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Davlat budjeti xarajatlari YaIMning qayta taqsimlanishi natijasida davlat budjetida jamlangan pul mablag'larining maqsadga muvofiq qayta taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog'liq budjet qonunchiligi bilan tartibga solinadigan pul munosabatlari yig'indisidir.

Xulosa qilib aytganda, milliy iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda, har bir davrning ustuvor taraqqiyot vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishda davlatning boshqa iqtisodiy instrumentlari qatori, davlat budjeti ham muhim ahamiyat kasb etadi va ma'lum vazifalarni bajaradi.

**Budjet xarajatlarning tarkibi va tuzilishi.** Davlatning iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda kechayotgan jarayonlarga ta'sir etish quollaridan bir davlat budjetidir. Davlat budjet xarajatlari orqali jamiyat talablariga mos ravishda pul mablag'larini moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari o'rtasida qayta taqsimlanish jarayonini tartibga solib turishi, iqtisodiyotning ustivor tarmoqlarining rivojlanishini rag'batlantirishi, ilmiy-texnika taraqqiyotining jadallashuviga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, budjet xarajatlari iqtisodiyotni va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan boshqarish va tartibga solishda muhim vosita – dastak bo'lib xizmat qiladi.

Budjet xarajatlari – davlat va mahalliy hokimiyat vazifa va faoliyatini moliyaviy ta'minlashga yo'naltiriladigan pul mablag'laridir.

Budjet mablag'lariga egalik qiluvchilar – budjet mablag'larini oluvchilar yoki boshqaruvchilar bo'lgan, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalaridagi tashkilotlar budjet xarajatlari orqali moliyalashtiriladi. Shunday qilib, budjet xarajatlari tranzit xarakterga ega. Budjetda faqat budjet xarajatlarining miqdori xarajatlar moddalari bo'yicha belgilanadi, bevosita xarajatlarni esa budjet oluvchilar amalga oshiradilar. Bundan tashqari dotatsiyalar, subvensiyalar, subsidiyalar va budjet ssudalari vositasida budjet tizimi darajalari bo'yicha budjet mablag'larini qayta taqsimlash budjet orqali amalga oshadi. Budjet xarajatlari asosan qaytarib olinmaydigan xarakterga ega. Faqat budjet kreditlari va budjet ssudalari qaytariladigan asosda berilishi mumkin. Xarajatlar tuzilmasi yil uchun tasdiqlanadigan budjetda bevosita ko'rsatiladi va budjet daromadlari kabi iqtisodiy vaziyatga, ijtimoiy ustuvorliklarga bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra davlat budjeti xarajatlari – davlatning markazlashgan pul fondini taqsimlash va ishlatish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlardir.

Budjet xarajatlarining turlari xilma-xil bo'lib, bir qator omillarga bog'liq:

- davlatning tabiati va funksiyasiga;
- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga;
- budjetning iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish soha-tarmoqlari bilan aloqalarining ko'lamiga;
- davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga;
- budjet mablag'larini taqdim etish shakllariga va boshqalar.

Bu omillar ta'siri ostida har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning har bir bosqichidagi budjet xarajatlari tarkibi va tuzilishi shakllanadi. Masalan, agar davlatning asosiy e'tibori iqtisodiyot tarmoqlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lsa, unda budjet xarajatlari tarkibida yirik investitsiyalarni davlat resurslari hisobidan moliyalashtirish xarajatlari ustun bo'ladi. Davlatning asosiy e'tibori jamiyatdagi ijtimoiy



muammolarni hal qilishga, aholini ijtimoiy himoyalashga, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lsa, xarajatlar tarkibida ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlar ortib boradi.

O'z iqtisodiy mazmuniga qarab budget xarajatlari joriy va kapital xarajatlarga bo'linadi.

Budjetning joriy xarajatlari– budget xarajatlarining bir qismi bo'lib, davlat hokimiyati organlarining, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining, budget tashkilotlarining joriy faoliyatini ta'minlashga, davlat tomonidan quyi pog'onadagi budjetlar va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga mablag' ajratish, dotatsiyalar, subvensiyalar va subsidiyalar shaklida yordam ko'rsatish uchun ajratiladi.

Budjetning kapital xarajatlari – budget xarajatlarining innovatsiya va investitsiya faoliyatini ta'minlaydigan qismi hisoblanadi. Unga tasdiqlangan investitsiya dasturiga muvofiq ishlab turgan yoki yangidan tashkil qilinadigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga investitsiyalar uchun mo'ljallangan xarajatlar kiradi. Bu xarajatlar investitsiya maqsadlari uchun budget kreditlari tarzida beriladigan mablag'lar, kapital ta'mirlash xarajatlari va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa xarajatlardan iborat.

Davlat budjetining xarajat qismi quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- iqtisodiyot xarajatlari;
- markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari;
- sudlarni, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;
- boshqa xarajatlar.

Davlat budjetining xarajat qismi tarkibida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining zaxira jamg'armalari hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

- maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash muassasalari, bolalar uylari, ta'lim muassasalarini axborot-uslubiy jihatdan ta'minlash muassasalari, vazirliklar va idoralar tasarrufidagi ta'lim muassasalari, boshqa yordamchi muassasalarni saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimi tadbirlarining xarajatlari;

- respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi, OITSGa qarshi kurashish respublika markazi, Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati, karantin va o'ta xavfli infeksiyalar profilaktikasi, Salomatlik va tibbiyot statistikasi instituti, ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlarining klinikalari, qon quyish xizmati va sud-tibbiyot ekspertizasi respublika muassasalari, respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi boshqa davolash-profilaktika muassasalari hamda yordamchi tashkilotlarni saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan xizmatlar haqini to'lash xarajatlari;

- qonun hujjatlariga muvofiq ayrim toifadagi fuqarolarga tibbiy xizmatlar ko'rsatilganligi uchun respublika ixtisoslashtirilgan markazlari xarajatlarining o'rnini qoplash (subsidiyalar);

- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

- respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, tele- va radiodasturlar yaratish hamda ularni tarqatishga doir xizmatlar ta'minoti va ularga haq to'lash, hukumatning alohida qarorlariga ko'ra ommaviy axborot vositalarini saqlab turish, kino- va videomahsulotlar yaratish, madaniy myeros ob'ektlarida restavratsiya ishlarini bajarish, tasdiqlangan kalendar rejalarga muvofiq madaniyat va sportni rivojlantirish bo'yicha qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlarining davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida grantlar bo'yicha amalga oshiriladigan ilmiy-texnik loyihalar, noyob ilmiy ob'ektlarni va fanga xizmat ko'rsatuvchi muassasalarni saqlab turish, ilmiy loyihalar ekspertizasini o'tkazish hamda qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti hisobidan amalga oshiriladigan fanga doir alohida tadbirlar xarajatlari;

- davlat arxivlarini saqlab turish xarajatlari;

- respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi urush hamda mehnat faxriylari uchun pansionatlar va sanatoriylarni, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalarini saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- davlat mukofotlari, davlat pul mukofotlari bilan taqdirlanganligi munosabati bilan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofotlari va mukofotlarini to'lash xarajatlari;

- bolalikdan nogironlarga va bola tug'ilganda beriladigan nafaqalarni, qonun hujjatlarida ayrim toifadagi shaxslarga belgilangan kompensatsiyalarni to'lash uchun vakolatli organga mablag'lar ajratish xarajatlari;

- Chyernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro ob'ektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ayrim toifadagi shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va kompensatsiyalarni to'lash xarajatlari;

2) davlat grantlari, subsidiyalar va ijtimoiy buyurtma shaklida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

3) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

- qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi respublika nazorat organlarining xarajatlari, suv, qishloq, o'rmon xo'jaligi xarajatlari, qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunandalariga qarshi kurashish muassasalarining xizmatlariga haq to'lash va ularni saqlab turish xarajatlari;

- hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

- qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan to'lanadigan yagona yer solig'i bo'yicha tushumlarga muvofiq budjetdan ajratiladigan mablag'lar va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasining har yili tasdiqlanadigan asosiy parametrlari doirasida budjetdan ajratiladigan maqsadli mablag'lar;

- qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan standartlashtirish va sertifikatlashtirish, topografiya-geodeziya, kartografiya va kadastr, shuningdek geologiya qidiruv ishlari, davlat shaharsozlik kadastrini yuritish xarajatlari, chegaradosh

davlatlarga haq evaziga yerdan foydalanish to'lovi, gidrometeorologiya xizmati muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

- atrof muhit va landshaftning muhofaza qilinishini, biologik xilmaxillikning himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar;

4) respublika vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari buyurtmachi bo'lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

5) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari, shu jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarini;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonini;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) kotibiyatini;
- qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag'laridan saqlab turilishi nazarda tutilgan davlat boshqaruvi organlarini;
- O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

6) sudlarni, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;

7) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasini shakllantirish xarajatlari;

8) boshqa xarajatlar.

O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar;

- davlat maqsadli jamg'armalariga budjet ssudalari va dotatsiyalar;
- yuridik shaxslarga budjet ssudalari va kredit liniyalari hamda chet davlatlarga kreditlar belgilangan tartibda ajratilishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

- umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, maktabdan tashqari ta'lim, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, boshqa yordamchi va uslubiy ta'lim muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

- bolalar uylari, davlat bolalar shaharchalarini saqlab turish, qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimidagi yordamchi xizmatlar va maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi filialini, ko'p tarmoqli va ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini, ixtisoslashtirilgan kasalxonalar va dispanserlarni, tug'ruqxonalar va akusherlik majmualarini, tibbiy tashxis qo'yish va davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlarini, qon quyish xizmati va sud-tibbiyot ekspertizasi muassasalarini, Salomatlik va tibbiyot statistikasi instituti filialini, hududiy sog'liqni saqlashni boshqarish organlari tasarrufidagi boshqa davolash-profilaktika muassasalari va yordamchi tashkilotlarni saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan xizmatlarga haq to'lash xarajatlari;

- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

- hududiy madaniyat va sportni boshqarish organlari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi arxivlarni saqlab turish xarajatlari;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi qariyalar va nogironlarning intyernat-uylari, pansionatlari va sanatoriylari, nogironlarni reabilitatsiya qilish markazlarini, boshqa muassasalarni saqlab turish xarajatlari, shuningdek aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- shahar yo'lovchilar transporti tashuvchilarining yo'lovchilarni va bagajni cheklangan tariflar bo'yicha tashish, shuningdek alohida toifadagi fuqarolarni imtiyozli tashish xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq zararlarning o'rmini qoplash xarajatlari;

## 2) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

- qishloq xo'jaligi sohasida hududiy nazorat organlarini saqlab turish, shu jumladan hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashuvchi muassasalar xizmatlariga haq to'lash, shuningdek yerlarni rekultivatsiya qilish ishlarini bajarish;

- uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'ektlarida ta'mirlash ishlarini olib borish;

- suv yo'llarining ayrim texnik uchastkalarini saqlab turish;

- aholi punktlarini obodonlashtirish;

- shaharlarning, boshqa aholi punktlarining ko'chalarini va xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash, shuningdek ayrim tashkilotlar xarajatlari;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'rmon xo'jaligini saqlab turish xarajatlari;

3) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari buyurtmachi bo'lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

4) mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, shu jumladan:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesini;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, ularning boshqarmalari va bo'limlarini saqlab turish xarajatlari;

5) Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgetining, viloyatlar viloyat budgetlarining va Toshkent shahri shahar budgetining zaxira jamg'armalarini shakllantirish xarajatlari;

6) davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan yuridik va jismoniy shaxslarga etkazilgan zararining o'rnini qoplash xarajatlari;

7) Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgetining, viloyatlar viloyat budgetlarining va Toshkent shahri shahar budgetining mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budgetidan, viloyatlarning viloyat budgetlaridan va Toshkent shahrining shahar budgetidan tumanlar va shaharlar budgetlariga budget ssudalari, dotatsiyalar, subvensiyalar va o'tkazib beriladigan daromadlar ajratilishi mumkin.

Tumanlar va shaharlar budgetlaridan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:



- tumanlar (shaharlar) xalq ta'limi muassasalari faoliyatini uslubiy jihatdan ta'minlash va tashkil etish bo'limlarini, shuningdek ular tasarrufidagi maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini saqlab turish hamda qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar budjetlaridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimidagi tadbirlar xarajatlari;

- tumanlar (shaharlar) tibbiyot birlashmalari tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalarini hamda davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati tuman, shahar muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

- tumanlar (shaharlar) madaniyat va sport ishlari bo'limlari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan kam ta'minlangan oilalarga tayinlanadigan hamda to'lanadigan ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam hamda tabiiy ofatlardan jabrlangan oilalarga moddiy yordam, uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish, Chyernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro ob'ektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

## 2) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

- veterinariya laboratoriyalari va hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashish stantsiyalarini saqlab turish;

- shaharlarning va boshqa aholi punktlarining ko'chalarini, shuningdek xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash;

- uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'ektlarida ta'mirlash ishlarini olib borish;

- aholi punktlarini obodonlashtirish xarajatlari;

3) tuman va shahar hokimliklarini hamda ularning bo'limlarini saqlab turish xarajatlari;

4) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;

5) boshqa xarajatlar, shu jumladan qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar budjetlaridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ayrim tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.

Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarining izchil ravishda ortib borayotganligi davlatimiz tomonidan kuchli ijtimoiy siyosatning moliyaviy asoslari shakllantirilayotganligidan dalolatdir.

Davlat budjeti xarajatlarining tarkibidagi ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari yil sayin oshib borgan. Keyingi 4 yil mobaynida jami budjet xarajatlarining tarkibida ijtimoiy sohaga qilinayotgan xarajatlar 59 foizdan ortiqroqni tashkil etgan. Ushbu holat jahondagi barcha davlatlar orasida eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etadiki, o'z navbatida, respublikamizda izchil amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning uzoq, strategik ahamiyatga ega ekanligidir. Shuningdek, ushbu xarajatlarning o'sib borishi bilan birga, ularning davlat budjeti xarajatlaridagi eng yuqori salmoqni tashkil etmoqda.

## 1-jadval

### Maqsadli fondlarsiz davlat budjeti xarajatlarining tarkibi

Ko'rsatkichlar	2013 yil		2014 yil		2015 yil		2016 yil (prognoz)	
	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%
<b>Davlat budjeti xarajatlari, milliard so'm</b>	26312	100	31582	100	37967,7	100	42721,3	100
<b>Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari</b>	15573	59,2	18873	59,7	22457,0	59,1	25299,3	59,2

<b>Iqtisodiyot xarajatlari</b>	2791	10,6	3385	10,7	4119,7	10,1	4507,6	10,6
<b>Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish</b>	1300	4,9	1500	4,7	1800	4,7	2100	4,9
<b>Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari xarajatlari</b>	825	3,1	1000	3,1	1199,9	3,1	1324	3,1
<b>Boshqa xarajatlar</b>	5813	22,0	6903	21,8	8391,1	22,0	9490,4	22,2

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari faoliyati uchun xarajatlar jami xarajatlar tarkibida 2013-2016 yillarda jami budjet xarajatlari 3,1 foizni tashkil etmoqda.

Iqtisodiyotga davlat tomonidan ta'sir ko'rsatish vositalari ichida davlat budjetining iqtisodiy maqsadlardagi harajatlari alohida o'rin egallaydi. Bu turkum xarajatlarga quyidagi xarajatlar kiradi:

- [iqtisodiyot xarajatlari](#)
- [markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari.](#)

Iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirilgan xarajatlar kamayib borish tendentsiyasiga ega. Lekin bu xarajatlarni moliyalashtirishdan butunlay voz kechish ham maqsadga muvofiq emas. Hatto taraqqiy topgan bozor sharoitida ham davlat mablag'larini jalb qilishni talab qiladigan sohalar, tarmoqlar, tadbirlar mavjud bo'ladi.

Davlat budjetining xarajatlari tarkibida markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirishga mo'ljallangan xarajatlari alohida o'rin egallaydi va davlatning strategik maqsadlarini, ya'ni iqtisodiyotning hal qiluvchi, ustuvor hisoblangan tarmoqlari bo'lgan – neft, energetika, g'alla yetishtirish, paxtani

qayta ishlash sanoati kabilarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilmoqda. Bu xarajatlar budjet xarajatlarining 2016 yilda o'rtacha 4,9 foizini tashkil qiladi.

Umuman, davlat budjetidan iqtisodiyot xarajatlari asosan qishloq va suv xo'jaligi tarmog'ida faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilmoqda. Shu orqali agrar tarmoqda faoliyat yurituvchi korxonalarini va xususan, fermer xo'jaliklarining barqaror faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratib byerilmoqda.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, iqtisodiyot xarajatlari esa 2013 yilda 2791 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, jami budjet xarajatlarida 10,6 foizni tashkil etgan. 2016 yilga kelib ushbu xarajatlarning jami davlat budjeti xarajatlaridagi salmog'i 10,6 foizni tashkil etmoqda. Lekin, ushbu xarajatlar nominal mazmunda o'sib borgan.

Markazlashtirilgan investitsiyalarni budjetdan moliyalashtirish uchun 2013 yilda 1300 mlrd. so'mni, 2014 yilda 1500 mlrd. so'mni, 2015 yilda 1800 mlrd. so'mni va 2016 yilda 2100 mlrd. so'mni tashkil etmoqda. Bu, o'z navbatida, hozirgi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modyernizatsiya qilish va yangilash, innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish bilan bog'liq yirik va strategik ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni moliyalashtirishda budjet investitsiyalarining ham ahamiyati yuqoriligidan dalolat byeradi.

Davlat budjetidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan iste'mol qilinadigan elektr-energiyasi to'lovlariga xarajatlar;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondiga maqsadli ajratmalar;

– hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag'lar.

Davlat budjetidan iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash uchun xarajatlari tarkibida Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan iste'mol qilinadigan elektr-energiyasi to'lovlari jami budjet xarajatlari tarkibida 2013 yilda 3,5 foizni, 2014 yilda 3,4 foizni va 2015 yilda 3,3 foizni tashkil etgan. 2016 yilda esa, 3,3 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan.

## 2- jadval

### Davlat budjetining iqtisodiyot xarajatlari tarkibi, jamiga nisbatan foizda

Ko'rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil (prognoz)
<b>Davlat budjeti xarajatlari</b>	100	100	100	100
<b>Iqtisodiyotga ajratilgan xarajatlar</b>	10,6	10,7	10,1	10,6
<b>Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan iste'mol qilinadigan elektr-energiyasi to'lovlari</b>	3,5	3,4	3,3	3,3
<b>Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondiga maqsadli ajratmalar</b>	0,8	0,9	0,8	0,9
<b>Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag'lar</b>	0,8	0,9	0,6	0,6
<b>Boshqa xarajatlar</b>	5,7	5,8	6,1	2,1

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2007 yil 29 oktyabrdagi «Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq “Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini 2008-2012 yillarda yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi” ishlab chiqilgan. Ushbu dastur doirasida maxsus fond tashkil etilgan bo'lib, ushbu fond mablag'larini shakllantirishga budjetdan xarajatlar amalga oshirilmoqda. Ushbu fondga ajratmalarning 2016 yildagi miqdori jami budjet xarajatlariga nisbatan 0,9 foizni tashkil etgan.

“Hosildorligi past bo'lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xom ashyosini yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tartibi to'g'risida”gi Nizomda davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar quyidagi yo'nalishlarda sarflanishi ko'zda tutilgan:

- fermer xo'jaliklarining soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorliklari, boshqa joriy majburiyatlari, asosiy maxsulotlarni etishtirish uchun moddiy-texnika resurslar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun qarzlarini to'lashga;
- kelgusi yil hosili uchun sotib olinadigan resurslar va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun oldindan to'lovlarga;
- yerlarni meliorativ holatini yaxshilash tadbirlarini va xo'jalikning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq boshqa xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Ushbu xarajatlarning jami budjet xarajatlaridagi salmog'i 2016 yilga kelib 0,6 foizni tashkil etmoqda. Umumiy tendentsiyada pasayish kuzatilayotgan bo'lsa-da, nominal mazmunda uning o'sib borayotganligi kuzatilmoqda.

Investitsiyaviy moliyalashtirish va xalqaro chegaralar orqali o'tadigan kapital oqimlari iqtisodchilar va hukumatning e'tibor qaratadigan asosiy ko'rsatkich bo'lib qolishda davom etadi. Globallashuv atamasi ustida hanuzgacha bahslar davom etmoqda va u haqida aniq bir tugal xulosaga kelinmagan. Tarixan, boshqa mamlakatlar ishlab chiqarish salohiyatini

belgilashda investitsiyalar sezilarli o'ringa ega bo'lgan. Biror kompaniya yoki investitsiyalovchi banklar guruhining xorijdagi birorta ishlab chiqarish sohasiga investitsiya kiritishi, investitsiya kiritilgan mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini oshirgan va investor investitsiya qilgan mablag'ini tezda qaytarib olib chiqib ketishi osonlik bilan hal etib bo'lmaydigan masalaga aylangan. 1980-yillarning oxirida jismoniy kapitaldan farqli ravishda, aktsiya va obligatsiya kabi moliyaviy instrumentlarga xalqaro transaksiyalar hajmi sezilarli darajada o'sdi. 1990-yillardagi Osiyo va rivojlanayotgan bozorlardagi inqirozlarning tezlashishining asosiy sabablaridan biri investorlarga o'zlari kiritgan sarmoyalarni tezda qaytarib olish imkonini beruvchi savdoga oid moliyaviy instrumentlarga qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi bilan bog'liq edi. 2007-yildagi yuzaga kelgan bozor inqirozi Qo'shma Shtatlarga jiddiy darajada takrorlanmadi. Biroq, Portugaliya, Italiya, Gretsiya va Ispaniya kabi boshqa mamlakatlar investorlar mazkur mamlakatlar moliya bozorlaridan o'zlarining portfel investitsiyalarini olib chiqib ketganligi sababli qattiq bosimni boshdan kechirdilar.

Savdo balansida yuz berayotgan harakatlarning muhimligi bu hatti-harakatlar iqtisodiyotni moliyalashtirilishida qanchalik darajada ishtirok etayotganligi bilan belgilanadi. XIX asr o'rtalaridan 1980-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan davrda AQSH iqtisodiyoti mamlakatning ichki manbaalari hisobiga moliyalashtirilgan. Milliy jamg'armalar xorijda amalga oshirilgan milliy jamg'armalar o'rtasidagi ijobiy saldo sababli milliy investitsiyalarni mablag' bilan ta'minlash uchun etarli bo'lgan. Iste'mol tovarlariga uy xo'jaliklarining sarflarining ortishi, jamg'arishning qisqarishi, davlat budjeti defitsiti holatida, iqtisodiyotni investitsiyalashni tashqi manbaalar hisobidan moliyalashtirishga majbur bo'lindi. AQSH iqtisodiyotining muhim qismi ichki jamg'armalar hisobidan emas, balki xorijiy investitsiyalar orqali moliyalashtirildi. Bu xorijiy investitsiyalar AQSH hududidagi, biroq AQSHning iqtisodiyotining o'ziga tegishli bo'lmagan xorijiy aktivlar bo'yicha kelajakdagi da'volarni o'zida ifodalaydi.

Qo'shma Shtatlarda sanoat aktsiya va obligatsiyalarini chiqarish orqali, davlat qarzini istisno qilgan holda, xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali moliyalashtirish iqtisodiyotni kengaytirish uchun foydali bo'lgan bo'lardi. Bu holada, AQSH davlat qarzi hisobiga investitsiyalash AQSH ning ichki ishlab chiqarish salohiyatini oshirmadi, balki bu erda moliyaviy ta'minlanish uchun hukumatning ehtiyojlari bilan investitsiyaviy moliyalashtirish uchun sanoat ehtiyojlari o'rtasida raqobpt yuzaga keladi. Makroiqtisodiy nuqtai nazardan, byudjet defitsitini bunday tashqi moliyalashtirish, kelgusida AQSH davlat sektori qarzlarining xorijiy kreditorlariga to'lovlarni amalga oshirish uchun AQSH tovar va xizmatlarining katta qismini uzoq vaqt davomida xorijda sotishga majbur bo'ladigan vaziyatni yuzaga keltiradi. Bu miqdor AQSH iste'moli yoki investitsiya uchun mavjud bo'lmaydi. Shunday qilib, savdo balansi, shuningdek umumiy to'lov balansi beqarorligi, federal hukumat budjet defitsiti bilan chambarchas bog'liqdir.

1990 yillar oxiridagi AQSH dagi jadal iqtisodiy o'sish bu fikrni tasdiqladi. Federal budjet 1998-yilda balansga erisha oldi. Bunda AQSH hukumati nafaqat budjet defitsitini moliyalashtirish uchun uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar chiqarishga ehtiyoj sezmedi, balki uch yil ichida budjetning profitsit qismiga G'aznachilik amalda oliy jinsdagi qarzlarini qaytarib sotib oldi. XX asr oxiriga kelib, defitsitni qoplash uchun xorijiy qarzdan foydalanish muammosi o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan edi, biroq 2002 yilning boshlarida yana yirik budjet defitsitining yuzaga kelishi, federal budjet kamomadini qoplash uchun xorijiy investorlar rolini oshirib yubordi. Buning ustiga Amerika Qo'shma Shtatlarida uy maishiy jamg'arish darajasi nisbatan past darajada ekanligi qayd etildi.

*AQSH iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning o'sib borishi mamlakat iqtisodiyotiga nisbatan xorijliklarda ishonch borligini ifodalaydi. 2011- yildagi bozor parokandaligi yuzaga kelganda, AQSH iqtisodiyotiga investorlarning ishonchi boshqa mamlakatlarga qaraganda mutloq ustunlikda bo'lmagan*



*bo'lsa ham nisbatan kuchliroq bo'ldi, shu davrda boshqa mamlakatlarda AQSHdagiga qaraganda nisbatan kam investitsion qarorlar amalga oshirildi.<sup>1</sup>* Xorijiy investorlar AQSH G'aznachiligi banknotalarini ularga belgilangan foiz stavkalari va risklardan himoyalanganligi uchun investitsiya kiritish uchun eng maqbul variant deb hisoblashdi.

AQSH Kongressi 2011 yilda imkon qadar jahon moliya bozorlarida to'lovlarini o'z vaqtida to'lash uchun AQSH ning imkoniyatlari darajasida kontsernlar tashkil qilish orqali davlat qarzlari miqdorining oshib borishini to'xtatmay turishiga qaramasdan, AQSH hukumati yuridik noxushliklarga duch kelishdi, davlat budjeti defitsini qisqartirish uchun qarzlarning oshirib borilishiga bog'liq ravishda kelishuvga erishildi.

**Ta'limxarajatlari.** Mustaqil O'zbekistonda ta'lim tizimi 1992 yili yulida mustaqil O'zbekistonning "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni qabul qilinishi bilan islohetilab oshirildi. Mazkur qonung ko'rsatgan ta'lim-tarbiya dasturlari va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy tajriba, xalqimizning uzoq yillarda davomidagi ilmiy va madaniy analari hamda jamiyat rivojining istiqbolli asos qilib olingani. Ushbu qonun asosida 1997 yilga qadar respublikamiz bo'yicha ta'lim muassasalarining islohetilab oshirildi. Buyillarda "Maktabgacha tarbiya", "Umumiy o'rta ta'lim", "Maktabdan tashqari ta'limiy ishlar", "Yoshlarning siyosatiga oid" kabi qator kontseptsiyalar vada sturlari yaratildi.


Bugungi kundabiz busohadayerish ganyutuqlarimiz mustaqillik yillarida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini ta'lim uchun amalga oshirish yotgan dasturlarining natijasida ekanligini ta'lim uchun kerak bo'ladigan.

---

<sup>1</sup>Makarand A. Paithankar. Public Budgeting theory and practice, CreateSpace USA, 2016.

O‘zbekistan Respublikasining

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida davlatimizda ta’limning ushbu shakllari belgilangan:




Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy yo‘nalishlari va amalga oshirish bosqichlari 1-rasmda keltirilgan.

Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yoshavlodga uzsiz ta’lim berish va unitarbiyalash jarayonini yaxlitqamraboladigan yagona ta’lim majmui hisoblanadi. Bunday ta’lim tizimining har bir bo‘g‘inini alohida o‘rin va mas’uliyatga egadir. Dastur ta’limni amalga oshirish,

qo'yilgan vazifalarga yerishishanashubog' inlarning holatini rivojlanish darajasiga, ularning o'zarouyg'unligiga bog'likdir.

## Ta'lim

bujamiatning strategik resursi va davlat hamda jamiyat qurilishida muhim ustuvorlik ekanligini hisobga olib, butun ta'lim tizimining har bir bosqichini boshqarishda davlatetakchirolo'ynaydi.



### 1-rasm. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy yo'nalishlari va bosqichlari

Ta'lim tizimi ustidan davlat rahbarligi, avvalo, quyidagilardan amoyon bo'ladi:

- ta'lim tizimi maqsadlarini aniqlashda;

- uning rivojlanishini tartibga soluvchimeʼyoriy-huquqiy asoslarni ishlab chiqishda;
- resurslarning taʼminlash va moliyalashtirishning boshqaruv birligini taʼminlashda;
- qoʻyilgan maqsadlarga erishish jarayoni ustidan monitoringni amalga oshirishda.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturidabazaviy hisoblanmish xalq taʼlimi, yaʼni boshlangʻich taʼlimni rivojlantirish va uning jahon standartlariga javob beradigan darajaga etkazish, boshlangʻich taʼlimdagi oʻrnatilgan texnologiyalarini qoʻllash, uning moddiy-texnik bazasini yaxshilash hamda oʻqituvchilarning moddiy ragʻbatlantirishni kuchaytirish kabi vazifalar ham belgilangan.

Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturiy oshavlodga uzluksiz taʼlim berish va unitarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona taʼlim majmui hisoblanadi. Buning taʼlim tizimining har bir boʻlagi alohida oʻrin va masʼuliyatga ega. Dastur taʼlimni amalga oshirish, qoʻyilgan vazifalarga erishishni nashub oʻgʻinlarning holatini rivojlanish darajasiga, ularning oʻzaro uygʻunligiga bogʻlikdir.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga muvofiq, taʼlim bir necha bosqichlarni qamrab oluvchi uzluksiz jarayon sifatida qaraladi (2-rasm):

Yosh	Taʼlim muassasasining turi		Taʼlim bosqichlari (darajalari)
25 va undan yuqori	Katta ilmiy-xodim izlanuvchilar va mustaqil izlanuvchilar institutlari (3 yil davomida)		Oliy taʼlimdan keyingi taʼlim
24	Oliy taʼlimning kasbiy dasturlari	Magistratura	(2)
23			

	(tibbiyot, o'qishmuddati 12 yilgacha)	yildankambo'lmagan) Umumiyoliyta`limdast urlari (4 yildankambo'lmagan)	Oliyta`lim
22			
21			
20			
19			
18	<b>Akademiklitsey</b> (o'qishmuddati 3 yil)	<b>Kasb-hunarkolleji</b> (o'qishmuddati 3 yil)	O`rtamaxsus, kasb- hunarta`limi
17			
16			
15	<b>Umumiyo`rtamaktab</b> (o'qishmuddati 5 yil)		Umumiyo`rtata`lim
14			
13			
12			
11			
10	<b>Boshlang'ichmaktab</b> (o'qishmuddati 4 yil)		
9			
8			
7			
6	<b>II bosqich</b>		Maktabgachata`lim
5			
4			
3	<b>I bosqich</b>		
2			

## 2-rasm. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim bosqichlari

oliyta`limikkibosqichniqamraboladi: bakalavriatvamagistratura;

- oliyo'quvyurtidankeyingita`lim;

- malakaoshirishvakadrlarniqaytatayyorlash;

- maktabdantashqaritalim.

Budjetkodeksigamuvofiq,

maktabgachata`limmuassasalarixarajatlarirespublikavamahalliybudjetlardanamal  
gaoshirilishibelgilangan.

O'zbekistonRespublikasidamaktabgachatarbiyamuassasalarifaoliyatinitarti  
bgasoluvchimuhihme'yoriyujjatlardanbiriO'zbekistonRespublikasiVazirlarMa

hkasining 2007 yil 25 oktyabrdagi “Maktabgachata`limsohasidaginormativ-huquqiyhujjatlarnitasdiqlashtog`risida” gi 255-sonqaroriasosidasdiqlangan “O`zbekistonRespublikasidadavlatmaktabgachata`limmuassasasitog`risidaNizom”

dir.MazkurNizomO`zbekistonRespublikasidamaktabgachata`limtiziminitakomill ashtirish, uninguzluksizligini, shuningdekKadrlartayyorlashmilliydasturivazifalarisamaraliamalgaoshirilishinit a`minlashmaqсадidaishlabchiqilganhamdadaavlatmaktabgachata`limmuassasalari faoliyatinitartibgasolishdaniboratdir.

Maktabgachata`limmuassasasio`zfaoliyatidaO`zbekistonRespublikasiKonstitutsiyasivaqonunlariga,


O`zbekistonRespublikasiOliyMajlisiningqarorlarivaboshqahujjatlariga,

O`zbekistonRespublikasiPrezidentiningfarmonlari, qarorlarivafarmoyishlariga,

O`zbekistonRespublikasiVazirlarMahkamasiningqarorlarivafarmoyishlarigaham dao`zustavigaamalqiladi.

Davlatmaktabgachata`limmuassasalarinimoliyalashtirishmanbalariniquyidagi 3-rasmdako`rishimizmumkin.

O`zbekistonRespublikasiVazirlarMahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi “Budjettashkilotlarixarajatlarinimoliyalashtirish tartibinitakomillashtirish to`g`risida” gi 414-sonqaroridavlatbudjetihisobigamablag` bilanta`minlanadigantarmoqlardaiqtisodiyislohotlarnichuqurlashtirish, budjettashkilotlarinimablag` bilanta`minlash mexanizminitakomillashtirish, budjetmablag`laridansamaralivaaniqfoydalanishmaqсадidaqabulqilingan.



### 3-rasm. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini moliyalashtirish manbalari

U quyidagilarni nazarda tutadi:

- budjet mablag'laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda budjet intizomini mustahkamlash uchun budjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish;
- budjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarni mablag' bilan ta'minlash mexanizmini soddalashtirish va budjet mablag'laridan foydalanishda yuqori natijalarga yerishish maqsadida mavjud mablag'larni oqilona taqsimlash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- budjet tashkilotlari xodimlari mehnatini rag'batlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarning o'rnashib qolishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 18 maydagi "Xalq ta'limi muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 139-son qarori xalq ta'limi

muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini yanada takomillashtirish, moliyaviy-iqtisodiy masalalarni hal etishda maktabgacha ta`lim muassasalarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish maqsadida qabul qilingan. Mazkur qarorga muvofiq, mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan maktabgacha ta`lim muassasalariga, ularda buxgalter lavozimini kiritgan holda bosqichma-bosqich yuridik shaxs maqomida berilish ko'zda tutilgan. Shubilan birga, maktabgacha ta`lim muassasalarining mudirlari g'ayabuxgalterlariga hududiy moliya organlarining xalq ta`lim muassasalarini moliyalashtirish bo'limlari bilan birgalikda quyidagi funksiyani amalga oshirish yuklatildi:

- pedagog xodimlarni tariflashni hisobga olgan holda maktabgacha ta`lim muassasalarining xarajatlari metasini va shartlar jadvalini tuzish va ularni moliya organlaridaro'yxatdano'tkazish;
- belgilangan tartibdaro'yxatdano'tkazilgan xarajatlari metasini, shu jumladan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berish yuzasida shartnomalarni faqat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining hududiy bo'linmalaridan qalij roetish va tuzish;
- maktabgacha ta`lim muassasalarida o'z vaqtidagi joriy to'lovlarni amalga oshirish, ish haqi, nafaqalar va ularni tenglashtirilgan to'lovlarni hisoblab chiqish va to'lash;
- tasdiqlangan shartlarga, smetalar g'ayamoliya intizomiga qonun hujjatlariga muvofiq qat'iy rioya qilinishini ta'minlash.

Umum ta`lim muassasalarini faoliyatini metodik va tashkiliy jihatdan ta'minlashni yanada takomillashtirish maqsadida 2011 yil 1 martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta`limi hududiy organlarini tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida» gi 52-son qarori qabul qilindi.



Mazkur qarorga ko'ra, Xalq ta'limi tumanlar (shaharlar) bo'limlari hamda ular huzurida faoliyat ko'rsatuvchi metodik kabinetlar, ta'lim standartlari monitoringi bo'limlari (sho'balari), o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va psixologik-pedagogik diagnostika markazlari negizida, ulardagi mavjud xodimlar sonini o'rtacha 5,0 foizga qisqartirgan holda xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limlari tashkil etildi.

Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- idoraviy mansubligidan va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va ular tomonidan davlat ta'lim standartlariga rioya etilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

- maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim, ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya ishlarini metodik ta'minlashni tashkil etish, o'quv-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy va ilg'or shakllarini, eng yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, - ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakl va metodlarini joriy etish;

- ta'lim muassasalari tomonidan ular huzurida tashkil etilgan zamonaviy moddiy-texnika bazasidan, shu jumladan o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari, kompyuter texnikasi, mebellar va jihozlardan samarali foydalanilishini ta'minlash;

- o'quvchilarning kasbga yo'naltirilishini va psixologik-pedagogik diagnostikasini, vasiylikni, bolalar va o'smirlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni, ular bilan, shu jumladan ijtimoiy nochor bolalar bilan doimiy ish olib borishni tashkil etish.

Maktabgachata'limmuassasalariningjonboshigarejalashtirishtizimigao'tish gachabo'lgandavrdaushbuusulningumumiyo'rtata'limtizimidatajribadano'tishio'ziningijobiynatijalarinibyerdi. O'zbekistonRespublikasiPrezidentining 2009 yil

son qaroribir nafartarbiyanuvchigaxarajatlarning bazaviy meʼyorlaridankelibchiq dan holdamaktabgachatarbiyabolalarni muassasalaribudjetini rejalashtirishvaxarajatl arinimoliyalashtirishning yangitartibini joriyetishtoʻgʻrisidagi 19- bandinibajarish maqsadida 2010 yil uchun maktabgachataʼlim muassasalaridabir nafartarbiyanuvchigaxarajatlarni ng bazaviy normativlarini aniqlashtartibitoʻgʻrisida Nizom ishlabchiqildi va bilan maktabgachataʼlim muassasalaribudjetini hisoblashning yangitartibioʻrnatildi. Ushbu hujjatdabir nafartarbiyanuvchinitarbiyalash xarajatlarning hududlar (viloyatlar), maktabgachataʼlim muassasasi turlari (4 - 5, 9 - 10,5 soatli) kesimidagi bazaviy normativlari, shuningdek, bogʻchavayasliguruxlaridagi bolalarni oʻqatlantirishning moliyaviy meʼyorlarikeltirilgan.

Bu meʼyorlarasosida Nizom dabyerilgan formulaboʻyicha maktabgachataʼlim muassasasining umumiy budjetini hisoblabchiqariladi.

Har keyingi yil (2011 va 2012 yillar) uchun xarajatlarning yangi bazaviy normativlari ishlabchiqildi hamda Moliyava Xalq taʼlim vazirliklarining qoʻshma qarorlaribilantasiqlandi.

“2012 yil uchun davlat maktabgachataʼlim muassasalaridabir nafartarbiyanuvchigaxarajatlarning bazaviy normativlarini aniqlashtartibitoʻgʻrisidagi Nizom” gamuvofiq harbirdavlat maktabgachataʼlim muassasasi ga ajratiladigan budjet mablagʻlarining umumiy hajmi quyidagi formulaasosida amalga oshiriladi:

$$BS = (N_1/K_1) * BN3_1 + (N_2/K_2) * BN3_2 + N_1 * P_c + N_2 * P_{ya} + (N_1 + N_2) * BN3_3$$

bu yerda:

**BS** - maktabgachataʼlim muassasasi budjeti;

**BN3<sub>1</sub>** -

bir nafar bogʻchatarbiyanuvchisinitarbiyalash xarajatlarning bazaviy normativi;

### **BN3<sub>2</sub>-**

birnafaryasli tarbiyalanuvchisining tarbiyalash xarajatlarining bazaviy normativi;

### **BN3<sub>3</sub>- MTDMning boshqaxarajatlari (IV guruh)**

bo'yicha birnafaryasli tarbiyalanuvchigaxarajatlarning bazaviy normativi;

**N<sub>1</sub>** - bog'chaguruhlaridatarbiyalanuvchilar soni;

**N<sub>2</sub>** - yasliguruhlaridatarbiyalanuvchilar soni;

**K<sub>1</sub>** - bog'chaguruhlaribo'yichakoeffitsient;

$$K_1 = N_1 / (N_1 * 20);$$

**N<sub>1</sub>** - bog'chaguruhlarisoni;

**K<sub>2</sub>** - yasliguruhlaribo'yichakoeffitsient;

$$K_2 = N_2 / (N_2 * 15);$$

**N<sub>2</sub>** - yasliguruhlarisoni;

**P<sub>c</sub>** -

budjetbo'yichabirnafaryasli bog'chayoshidagitarbiyalanuvchiovqati uchun ajratilgan mablag' miqdori;

**P<sub>ya</sub>** -

budjetbo'yichabirnafaryasli yoshidagitarbiyalanuvchiovqati uchun ajratilgan mablag' miqdori.

Maktabgachata'lim muassasalaridabirnafaryasli tarbiyalanuvchigaxarajatlarning (miqdori har budjetyili uchun budjet sohasi xodimlari ish xaqi hajmining oshirilishi hamda muassasalar tomonidan iste'mol qilinadigan tovarlar va xizmatlarning narxi, tariflarining o'zgarishiga bog'liq holda qayta ko'rib chiqiladigan va o'rnatiladigan) bazaviy normativlariga quyidagixarajatlarni kiritilgan:

- tarbiyachilar, ma'muriy-xo'jalik va yordamchi hodimlarning mehnatiga xaq to'lash xarajatlari,

xodimlarnimoddiyragʻbatlantirishfondi,

Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi meʼyoriy hujjatlariga muvofiq yagona ijtimoiy toʻlov (2014 yil uchun mehnat gaxa qoʻlash fondining 25 foizi);

- davlat maktabgachataʼlim muassasasini saqlash bilan bogʻliq boshqaxarajatlar (kommunal xizmatlar, joriy taʼmirlash, oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish, chiqimga oid materiallar va x.k.).

Shuningdek,

xarajatlarning bazaviy normativlariga ayrim turdagi xarajatlarning miqdori

(tegishli yil uchun budjet koʻrsatkichlaridan nazarda tutilgan)

boʻyicha indeksatsiya summalarini ham kiritilgan.

Davlat maktabgachataʼlim muassasasidagi binafartarbiyalar uchun xarajatlarning bazaviy normativlariga har bir davlat maktabgachataʼlim muassasasi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilanadigan,

hududiy moliyavaxalq taʼlimi organlarini tomonidan tasdiqlanadigan,

manzilliroʻyxatlarga muvofiq ajratiladigan quyidagi xarajatlarni kiritilmaydi:

- koʻmir sotib olish va yetkazib berish;
- barcha turdagi kommunal xizmatlar isteʼmolini oʻlchaydigan hisoblagichlarni sotib olish va oʻrnatish;
- asosiy vositalarni sotib olish;
- kapital taʼmirlash.

Maktabgachataʼlim muassasasi faoliyati uchun zarur budjet mablagʻlarini miqdori ribziyuqoridagi koʻrib chiqqan usul boʻyicha aniqlanadi.

Ushbu mablagʻlar muassasaning xarajatlari metasiga kiritiladigan va rejalashtirilgan jarayonida metaning xarajat guruhlarini boʻyicha taqsimlanadi.

**Sogʻliqni saqlash xarajatlari.** Maʼlumki, tibbiy xizmatlar ancha qimmat turadigan neʼmat boʻlib, har bir kishi oʻz hayoti davomida isteʼmol qilishi mumkin boʻlgan tibbiy xizmatga haq toʻlash uchun qancha mablagʻ yigʻib

qo'yish lozimligini avvaldan bilmaydi. Lekin bir guruh fuqarolar birlashib, yoki butun bir jamiyat bu maqsadga mo'ljallangan mablag'ni jamg'arishi mumkin.

Shu munosabat bilan sog'liqni saqlash tizimini aralash moliyalashtirish shakliga o'tish masalasi islohotlarning markazida turgan masala sifatida qaralishi mumkin.

Ma'lumki, tibbiy xizmatlar bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bular quyidagilar:

- Tibbiy xizmatlarning ko'pchiligi ijtimoiy ne'mat xisoblanadi, shuningdek, ular "tashqi effekt" xususiyatiga ega;
- Tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoj hamda ularning oqibatlari doimo noaniqlik bilan bog'liq;
- Informatson asimetriyaning mavjudligi.

Mana shu o'ziga xosliklarning mavjudligi davlatning sog'liqni saqlash tizimiga aralashuvini taqozo qiladi. Davlatning sog'liqni saqlash sohasidagi majburiyatlari sifatida quyidagilarni aytib o'tish lozim:

- Davlat daromadlari shakllanishining barqarorligini ta'minlash orqali sog'liqni saqlash sektori uchun resurslarning mamlakat miqyosida safarbar etilishini ta'minlash;
- Turli mulk shakllaridagi tibbiyot muassasalari faoliyatining me'yoriy-huquhiy bazasini yaratish;
- Aholiga davlat tomonidan kafolatlangan bazaviy tibbiy xizmatlar paketiga kirgan asosiy tibbiy xizmatlarni taqdim etish va ularni moliyalashtirish yuzasidan javobgarlik;
- Tibbiy xizmatlarning sifat standartlarini joriy qilish va ularga rioya etilishini nazorat qilish;
- Ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga tibbiy xizmatlar ko'rsatish va ularni moliyalash va sh.k.

Jahon tajribasidan shuni kuzatish mumkinki, tibbiy xizmatlarni moliyalash xarajatlari bir qancha manbalardan qoplanishi mumkin, ya'ni sog'liqni saqlash sektorini moliyalashtirishning asosiy manbalari quyidagilar:

- Davlat budjeti;
- Majburiy ijtimoiy (tibbiy) sug'urta;
- Xususiy tibbiy sug'urta;
- To'g'ridan-to'g'ri to'lovlar (iste'molchilarning tibbiy xizmatlarni sotib olishdagi xarajatlari).

Moliyalashtirishning har bir manbasi o'ziga xos xususiyatlarga ega, jumladan:

#### 1. Davlat budjeti:

- Budjetdan moliyalashtirish tibbiyot muassasalarining ishlab chiqarish quvvatlari asosida amalga oshiriladi;
- Ijtimoiy adolat ta'minlanadi;
- Barcha aholi uchun bir xil hajmdagi xizmatlar kafolatlanadi;
- Boshqarish va nazorat qilish uchun nisbatan oddiy va arzon;
- Moliyalashtirish tizimi maqbul va qulay.

#### 2. Majburiy ijtimoiy (tibbiy) sug'urta:

- Ijtimoiy adolatning ta'minlanishi;
- Barcha aholi uchun bir xil hajmdagi xizmatlarning kafolatlanishi;
- Mablag'larni to'plash va mijozlarni himoya qilish uchun xarajatlarning ortib borishi;
- Ish byeruvchilar tomonidan norozilik kelib chiqishining mumkinligi.

#### 3. Xususiy tibbiy sug'urta:

- ajratmalarning aksariyat hollarda iste'molchilarning to'lash qobiliyatiga emas, ularning ehtiyojiga bog'liqligi;
- tabaqalashgan tibbiy yordam dasturlarining amal qilishi;
- xarajatlar hajmining oshib borishi;

– butun sog'liqni saqlash tizimini qo'llab-quvvatlash uchun mablag'larning etarli emasligi;

#### 4. To'g'ridan-to'g'ri to'lovlar:

– adolatli emasligi;

– risklarni umumlashtirmasligi va keng taqsimlash imkoniyatiga ega emasligi;

– butun tizimni etarli resurslar bilan ta'minlay olmasligi.

O'zbekistonda sog'liqni saqlash xarajatlari hozirgi kunga qadar asosan davlat budjeti hisobidan moliyalashtirilib kelinmoqda. Bu mablag'larning ham qariyb 65-70 foizi xodimlarning ish haqiga sarf etilmoqda. Shunga qaramasdan, soha xodimlarini moddiy rag'batlantirish, sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilish uchun asosan budjet mablag'larining o'zi, davlat resurslarining chegaralanganligi bois, etarli emasligini amaliyot isbotlab turibdi. Shuning uchun ham sog'liqni saqlashni isloh qilishning dolzarb yo'nalishlaridan biri – tarmoqni moliyalashning ko'p kanalli tizimini joriy etish ekanligi e'tirof etildi.

Uzoq yillar mobaynida davlat budjetining ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishda yagona manba bo'lib kelganligi hech kimga sir emas. Sog'liqni saqlash tizimi ham klassik ijtimoiy soha sifatida bir necha o'n yilliklar davomida to'lig'icha budjetga qaram soha bo'lib kelgan. Hozirgi kunda ham davlat sog'liqni saqlash tizimi xarajatlarining aksariyat qismini moliyalashga budjet mablag'lari safarbar etilmoqda. Xususan, soliqni saqlash sohasiga ajratilgan budjet mablag'lari davlat budjetidan amalga oshirilgan jami xarajatlarning:

Sog'liqni saqlash muassasalari aholiga tibbiy xizmatlarni taqdim etuvchi tashkilotlar tizimini tashkil qiladi. Bu muassasalarni qurish, mavjudlarini saqlash, moddiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash, kadrlar masalasini hal qilish kabilar tarixan davlat mablag'lari evaziga amalga oshirilib kelingan. Sog'liqni saqlash tizimining joriy va kapital xarajatlarini moliyalashtirishda davlat

budjetining ahamiyati hali ham katta. Davlat budjetining ijtimoiy-madaniy sohalarni saqlash xarajatlari tarkibida sog'liqni saqlash xarajatlari xalq ta'limidan keyin 2-o'rinni egallaydi.

Sog'liqni saqlash muassasalari bo'yicha eng katta o'rinni kasalxonalar, ikkinchi ambulatoriya poliklinika muassasalari, shuningdek, tez va shoshilinch tibbiy yordam muassasalari egallaydi.

Sog'liqni saqlashga qilinadigan xarajatlarni ularning iqtisodiy mazmuni va muassasa turlariga ko'ra to'rt asosiy guruhga birlashtirish mumkin:

- Ambulatoriya-poliklinika muassasalari, sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati va boshqa muassasalar;
- Umumiy profilli statsionar tibbiyot muassasalari va boshqalar;
- Ixtisoslashtirilgan statsionar muassasalar;
- Shoshilinch va tez tibbiy yordam markazlari, tez yordam stantsiyalari.

Davlat tibbiyot va farmatsevtika muassasalari guruhlari:

I. Ambulatoriya-poliklinika muassasalari, sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati va boshqa muassasalar:

1. Qishloq vrachlik punktlari va ularning filiallari (bo'limlari)
2. Shaharlardagi poliklinikalar (bolalar poliklinikasidan tashqari)
3. Statsionar o'rinlari bo'lmagan dispansyerlar
4. Skrining - markazlar
5. Respublika bolalar va o'smirlar reproduktiv sog'lomlashtirish markazi
6. Salomatlik instituti va uning filiallari
7. Sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati muassasalari (respublika, viloyat, shahar va tuman sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari, karantin



va o'ta xavfli infeksiyalar profilaktikasi markazi va uning filiallari, dezinfeksiya stantsiyalari)

8. Tibbiyot statistikasi byurosi

## II. Umumiy profilli statsionar tibbiyot muassasalari va boshqalar:

9. Ilmiy-tekshirish institutlari va oliy tibbiyot o'quv yurtlari klinikalari

10. Respublika kasalxonalari, tibbiyot-sanitariya qismlari

11. Respublika (viloyat, shahar) pyerinatal markazi

12. Viloyat, shahar va tuman kasalxonalari, jumladan, tug'ruqxonalar, tug'ruqxona majmualari

13. Shahar va tuman markaziy kasalxonalari, qishloq uchastka kasalxonalari

14. Sud-tibbiy ekspertiza byurosi va uning filiallari

15. Patologoanatomik markazlar va ularning filiallari

16. Qon quyish stantsiyalari

17. Sanatoriylar

## III. Ixtisoslashtirilgan statsionar muassasalar:

18. Ixtisoslashtirilgan kasalxonalar, klinikalar, dispansyerlar va markazlar:

18.1. Sil kasalliklari

18.2. Yuqumli kasalliklar

18.3. Onkologik kasalliklar

18.4. Tyeri-tanosil kasalliklari

18.5. Endokrinologik kasalliklar

18.6. Ruhiiy kasalliklar

18.7. Ruhiiy-asab kasalliklari

18.8. Narkologik kasalliklar

19. Respublika neyroxirurgiya, onkologiya (jumladan xospislar), allergologiya, suyak xastaligi va jarohat oqibatlarini davolash, yiringli xirurgiya va qandli diabet asoratlarini davolash, bolalar ortopediyasi tibbiyot markazlari

20. Fiziatriya va pulmonologiya, epidemiologiya, mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar, virusologiya, endokrinologiya va parazitologiya ilmiy-tadqiqot institutlari klinikalari

21. OITSni davolash markazi va uning filiallari

22. Bolalar kasalxonalarini va poliklinikalari

23. Bolalar uylari

24. Leprozoriylar

#### IV. Shoshilinch va tez tibbiy yordam markazlari, tez yordam stantsiyalari:

25. Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi - uning viloyatlardagi filiallari, tumanlar (shaharlar) markaziy kasalxonalaridagi shoshilinch tibbiy yordam bo'limlari

26. Tez tibbiy yordam stantsiyalari

Ijtimoiy sohalar faoliyatini rejalashtirishning bir necha o'n yilliklar davomida shakllangan tartiblarga muvofiq, sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatini rejalashtirish odatda quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Aholi soni va aholining tibbiyot muassasasidagi o'rinlarga ehtiyoj me'yorlari asosida tibbiy muassasaning ishlab chiqarish quvvatlari (u yoki bu profil yo'nalishlari bo'yicha o'rinlar - koykalar soni) ni aniqlash;

2. Mazkur muassasa uchun o'rnatilgan namunaviy shtat normativlari bo'yicha zarur shtat normativlari sonini hisoblab topish;

3. Koykalar soni va tuzilishi (terapevtik, xirurgik, nevrologik)ga ko'ra ish hajmini rejalashtirish;

4. Shtatlar jadvali, ishlab chiqarish quvvatlari va koykalar ishining ko'rsatkichlari (koyka-kunlar soni) ga asoslanib tibbiyot muassasasini saqlash uchun moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash.

Demak, sog'liqni saqlash sohasidagi har bir muassasaning ishi operativ tarmoq ko'rsatkichlari, masalan:

- kasalxonalardagi o'rtacha yillik o'rinlar soni (jami va o'rinlar profillari bo'yicha),
- bir yilda o'rinlarning ishlash kunlari soni,
- o'rin-kunlar miqdori,
- barcha toifadagi xodimlar bo'yicha o'rtacha yillik shtatlar birligi soni,
- ambulatoriya-poliklinikalarda vrach qabullari (kasalni ko'rish) soni bilan tavsiflanadi.

Xarajatlarni rejalashtirishda shu narsa muhimki, davolash-profilaktika muassasasi aholiga tibbiy yordamni asosan ikki shaklda ko'rsatadi. Kasalxonaga muqim yotqizib «statsionar» (turg'un) davolash va ambulatoriya-poliklinikada yordam ko'rsatish. Turg'un davolash muassasalarining asosiy ko'rsatkichlaridan biri - o'rin-kunlar soni bo'lsa, ambulatoriya-poliklinika muassasasining asosiy ko'rsatkichini vrach lavozimlari soni va vrach qabullari soni tashkil qiladi. Shunga qarab xarajatlarni hisoblash usuli tanlanadi.

Kasalxonaning joriy saqlash xarajatlarini hisoblashda o'rinlarning o'rtacha yillik soni asos qilib olinadi. Bu miqdor yangi o'rinlar ochilishi muddatlariga qarab quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K_{o'r} = K_b + (K_o - K_b) / O$$

bu yerda:

Ko'r - o'rinlarning o'rtacha yillik soni;

Kb - yil boshidagi o'rinlar soni;

Ko - yil oxiridagi o'rinlar soni;

O - yangidan ochilgan (tashkil etilgan) o'rinlarning ishlash oylari soni.

Albatta, barcha davlat tibbiyot muassasalari xarajatlari budjet tashkiloti sifatida budjetdan moliyalashtirishning o'rnatilgan tartiblariga rioya qilgan holda mablag' bilan ta'minlanadilar.

Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar yo'nalishlaridan biri birlamchi tibbiyot muassasalarini boshqarish va moliyalashtirishning yangi usullariga o'tish, budjet mablag'larini taqsimlashning jahon amaliyotida ma'qullangan jon boshiga qarab rejalashtirish uslublarini joriy qilishdan iborat. Ana shu dasturiy vazifani bajarish doirasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 28 sentyabrdagi 217-son Qarori bilan "Boshlang'ich tibbiy-sanitariya yordami qishloq muassasalarini moliyalashtirish tartibi to'g'risida Nizom" qabul qilindi. Ushbu nizom Nizom boshlang'ich tibbiy-sanitariya yordami qishloq muassasalarining bir kishi hisobiga xarajatlar normatividan va ularni moliyalashtirish shartlaridan kelib chiqib moliyalashtirishga o'tishi tartib-qoidasini belgilaydi. Unga ko'ra, BTSYo qishloq muassasalarining bir kishi hisobiga xarajatlar normatividan kelib chiqib moliyalashtirishga o'tishi uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari ularni moliyalashtirishni Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga va viloyat hokimliklari sog'liqni saqlash boshqarmalariga byeradi.

Mahalliy sog'liqni saqlash organlari ular hududida qishloq vrachlik punktlariga aylantirilmagan qishloq vrachlik ambulatoriyalari (QVA), qishloq uchastka kasalxonalari (QUK) va feldshyer-akusherlik punktlari (FAP) mavjud bo'lgan taqdirda ularning negizida QVP-FAP, QVA-FAP-komplekslari tashkil etadilar.

QVP, QVP-FAP va QVA-FAP-komplekslari yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi va boshlang'ich tibbiy-sanitariya yordami (BTSYo)ning muassasalari hisoblanadi.

Qayta o'zgartirilgan BTSYo qishloq muassasalari shtatlarini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishuv bo'yicha Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan shtat normativlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Aholini BTSYo qishloq muassasalariga birlashtirish rejalashtirilayotgan davr boshida mavjud bo'lgan uchastkalar asosida tegishli tuman markaziy kasalxonasining bosh vrachi buyrug'iga binoan amalga oshiriladi.

BTSYo muassasalariga birlashtirilgan aholining soni va tarkibi to'g'risidagi axborot tuman markaziy kasalxonasi bosh vrachi tomonidan tuziladi, aholining umumiy soni esa tuman statistika organining rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

BTSYo qishloq muassasalari budjetini rejalashtirish bir kishi hisobiga xarajatlarning bazaviy normativi asosida amalga oshiriladi. Bazaviy normativ har yili belgilanadi va Qoraqalpog'iston Respublikasi yoki viloyatlar hududiy doirasida yagona hisoblanadi hamda quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$XBNs = VSB \times O'Us / ASs,$$

bunda: XBNs - rejalashtirilayotgan yilga bir kishi hisobiga xarajatlarning bazaviy normativi;

VSB - sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati, kapital qo'yilmalar va markazlashtirilgan tadbirlar xarajatlaridan tashqari rejalashtirilayotgan yilga Qoraqalpog'iston Respublikasi yoki viloyatlar sog'liqni saqlashining umumiy budjeti;

O'Us - rejalashtirilayotgan yilning 1 yanvariga BTSYo qishloq muassasalariga birlashtirilgan viloyat aholisi soni;

ASs - hisobot davrida viloyat sog'liqni saqlash budjetida viloyat qishloq BTSYo budjetining o'rtacha ulushi (koeffitsientlarda).

BTSYo qishloq muassasalari budjetini hisobot davridagi sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati xarajatlari, kapital qo'yilmalar va markazlashtirilgan tadbirlar xarajatlarini istisno etgan holda viloyat sog'liqni saqlash umumiy budjetiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Bunda qishloq BTSYo budjetining o'rtacha ulushi Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar sog'liqni saqlash muassasalarini qayta tashkil etish hisobiga ko'paytiriladi.

Alohida olingan BTSYo muassasasini moliyalashtirishning yillik hajmi tuzatish koeffitsientlaridan (jins-yosh tarkibi va aholi zichligi) foydalanilgan holda bir kishi hisobiga xarajatlarning bazaviy normativi va BTSYo muassasasiga birlashtirilgan aholi soni hisobidan kelib chiqib belgilanadi.

Har bir keyingi rejalashtiriladigan yilga bir kishiga xarajatlarning bazaviy normativi belgilangan tartibda aniqlanadigan indeksatsiya koeffitsientlari hisobga olingan holda hisoblab chiqiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyat hokimliklari moliya boshqarmalari va sog'liqni saqlash boshqarmalari BTSYo qishloq muassasalari budjetlarini hisoblab chiqadi va ularni xarajatlar guruhiga bo'lmasdan bitta summa bilan BTSYo muassasalariga etkazadi.

BTSYo qishloq muassasalari belgilangan tartibda moliya organlarida ro'yxatdan o'tkaziladigan xarajatlar smetasi, shtat jadvalini ajratilgan budjet doirasida mustaqil ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

BTSYo muassasalarining hisoblangan budjeti joriy faoliyat bo'yicha ularning xarajatlarini qoplashi lozim.

BTSYo qishloq muassasalarining imtiyozli retseptlar bo'yicha beriladigan dori-darmonlar uchun xarajatlari tuman markaziy kasalxonasi budjetida nazarda tutiladi. BTSYo muassasalari uchun kapital qurilish va qimmat turadigan uskunalarni sotib olish xarajatlari bir kishi hisobiga xarajatlar normativi bo'yicha moliyalashtirish tizimi doirasidan tashqarida nazarda tutiladi.

BTSYo qishloq muassasalarini moliyalashtirish tartibi. BTSYo qishloq muassasalarini moliyalashtirish tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq har oyda bitta summada (xarajatlar guruhlariga ajratmasdan) Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va viloyat hokimliklari sog'liqni saqlash boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi. Sog'liqni saqlash budjetini ajratishda mahalliy moliya organlari birinchi navbatda BTSYo muassasalari uchun moliyaviy mablag'lar ajratilishini ta'minlashi kerak.

Budjet mablag'lari har oyning 15-kunidan kechikmasdan bitta to'lov bilan BTSYo muassasalarining hisob raqamiga to'liq miqdorda o'tkaziladi. Hisobot yilining oxirida BTSYo muassasalari hisob raqamlarida qoladigan mablag'lar olib qo'yilmaydi va ularni rivojlantirish uchun foydalaniladi.

Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoya xarajatlari. O'zbekiston tanlagan islohot yo'li ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida O'zbekiston modeliga asos bo'lib xizmat qilgan mashhur besh tamoyillardan biri - aholini ijtimoiy muhofaza qilishga va kuchli ijtimoiy siyosat olib borishga qaratilgan. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tamoyili mamlakatimiz ichki siyosiy barqarorligi uchun o'ta muhim shartlardan biri ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Mazkur tamoyilning ahamiyati ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishga qaratilgani va mamlakat mustaqilligini saqlab qolishni zaruriy sharti ekanligidir.

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish iqtisodiy islohotlar dasturidagi uzluksiz ustuvor yo'nalishlardan biriga ya'ni islohotlarning hamma bosqichlarida ustuvor hisoblanadigan vazifalar qatoriga kiradi. Kuchli ijtimoiy siyosat O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining etakchi tamoyillaridan biridir.

Zero fuqarolarning munosib hayot kechirish, aholini ayrim toifalarini (qariyalar, kam ta'minlangan oilalar, yosh bolali onalar, ayollar, nogironlar va pensionerlar) moddiy jihatdan ta'minlash davlatning muhim ijtimoiy siyosati hisoblanadi.

Ijtimoiy siyosatda fuqarolar hayotini uch asosiy bosqichga ajratish muhimdir:

- mehnat qilishni boshlagungacha (mehnat faoliyati boshlangunga qadar bo'lgan inson hayoti, ma'lumot olish va kasb o'rganish davri);
- mehnat qilish davri (o'z farovonligi va jamiyat farovonligi yo'lida qilinadigan faoliyat);
- mehnat qilish tugagan davr (asosan hayot faoliyatining passiv davri — pensionerlik, nogironlik.).

Ijtimoiy siyosatning zaruriyati mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda aholi uchun qiyinchiliklarni engillashtirish bilan bog'liq. Ijtimoiy jihatdan nochor aholi kategoriyalarini muhofazalash shakllari haqida gap borgan hollarda «ijtimoiy muhofaza» atamasi davlatning ijtimoiy siyosatini ta'riflash uchun keng ishlatiladi. Yurtboshimiz ijtimoiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etish, ishonchli ijtimoiy kafolatlarni yaratish, mehnatning manfaatli bo'li-shini kuchaytirish islohotlarni o'tkazish uchun mustahkam ijtimoiy ta-yanch bo'ladi, ular muqarrarligining garovi bo'lib xizmat qiladi,- deb ijtimoiy siyosatning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini tushuntirib byerdilar.

O'zbekistonda insonni rivojlantirish milliy maqsadlariga erishish davlat maqsadli dasturlarining ishlab chiqilishi va izchil amalga oshirilishi alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ma'lumki, respublikada har bir yil muayyan,



judamuhimvayirikijtimoiymuammonihaletishgabag'ishlanadi.

Mazkurijtimoiymasalanihaletishhuchunkengko'lamlidavlatmaqsadlidasturiishlabchiqiladi. Ushbu Davlat dasturi asosida mintaqaviy hamda har bir vazirlik va idoraning dasturi ishlab chiqiladi. Davlat dasturida belgilangan vazifalarni bajarishga amalda mamlakatning barcha aholisi, har bir korxon, tashkilot va muassasa safarbar etiladi.


Ijtimoiy dasturlar – aholining bevosita turmush sharoiti va farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlarni rivojlantirishga oid ijtimoiy siyosatning chora-tadbirlarini o'z ichiga olgan rejali hujjatlardir.

Ijtimoiy dasturlarning asosiy vazifalari quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- insonlarga bepul ta'lim va tibbiy xizmat ko'rsatish;
- insonlarning moddiy-ma'naviy farovonligiga yerishishni ta'minlash;
- kishilarning mehnat faoliyati jarayonida kamolotga etishtirish;
- kishilarning madaniy-maishiy hayot sharoitlarini yanada yaxshilash.

Konstitutsiyamiz negiziga qo'yilgan talab va qoidalarga to'liq mos keladigan, dunyo hamjamiyatida "O'zbek modeli" deb nom qozongan, mamlakatimizni isloh etish va modyernizatsiya qilish yo'li naqadar to'g'ri ekanini bugun hayotning o'zi tasdiqlab byermoqda. "O'zbek modeli" ning mazmun-mohiyati iqtisodiyotni mafkuradan xoli qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi sifatidagi boshqaruvchilik rolini tan olish, mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish kabi mashhur besh tamoyilda mujassam topgan. Barcha islohotlar jarayonida respublikamizda aholining ijtimoiy himoyasini qo'llab-quvvatlash, inson huquqlari va erkinliklarining qonunchilik hamda huquqiy asoslarini shakllantirish hamda amalga oshirish masalalariga juda katta ahamiyat byerilmoqda.. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, eng avvalo, inson manfaatlarini ko'zlaydi.

Ijtimoiy ta'minot fuqarolarning qarilik, kasallik holatlari, onalik, mehnat qobiliyatining to'liq yoki qisman yo'qotishi, boquvchisini yo'qotish, ishsizlik kabi holatlarda moddiy ta'minot olishga konstitutsion huquqi borligini ko'rsatadi. To'lanadigan mablag'lar miqdori mehnat staji, oylik ish haqi, mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasini hisobga olgan holda aniqlanadi va amaldagi qonunchilikka asoslanadi. Bugun yurtimizda har tomonlama mustahkam huquqiy asosga ega bo'lgan ishonchli ijtimoiy muhofaza qilish tizimi shakllandi va u amalda o'zini oqlamoqda.



#### **4-rasm. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi**

Ijtimoiy himoya tamoyili asosida aholining kam ta'minlangan va muhtoj qatlamlarini qo'llab - quvvatlash va ularga moddiy yordam ko'rsatish borasida aniq yo'naltirilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, ta'lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash, sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoya qilish sohalarida maqsadli umummilliy dasturlarni hayotga tadbiq etish masalalariga katta e'tibor qaratildi.

Jahon tajribasi ijtimoiy himoya tizimining to'rtta asosiy tarkibiy qismini ajratib ko'rsatish imkonini byeradi:

- Mehnatga layoqatli bo'lmaganligi, ish joyi, daromad manbalari mavjud emasligi sababli o'z-o'zini mustaqil ravishda moddiy jihatdan ta'minlashga qodir bo'lmagan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilish.
- Davlat ijtimoiy va pensiya ta'minoti. Bu iqtisodiy faol aholining ish joyini yo'qotish yoki pensiya yoshiga etishi bilan daromaddan mahrum bo'lish xavfidan ijtimoiy himoya qilish tizimi bo'lib, majburiy ijtimoiy sug'urtalash shaklida amalga oshiriladi.

- Ixtiyoriy qo'shimcha (kasbiy) sug'urtalash. Bu alohida tarmoqlar va korxonalar doirasida uzoq muddatli jamoa bitimlari asosida amalga oshiriladi.
- Fuqarolarning ixtiyoriy ravishda o'z-o'zini shaxsiy sug'urtalashi.

Ijtimoiy ta'minotga ehtiyoj jamiyat paydo bo'lishi bilan tug'ildi. Har qanday jamiyatda – uning iqtisodiy va siyosiy tuzilishidan qat'iy nazar, o'zlariga bog'liq bo'lmagan vaziyatlar sababli tirikchilik kechirish uchun mablag' topishga qodir bo'lmagan aholi toifalari bo'ladi. Ularga, eng avvalo, bolalar va keksa kishilar kiradi. Bundan tashqari ijtimoiy yordamga muhtojlar safini vaqtincha yoki bir umr mehnatga layoqatsizligini yo'qotgan odamlar to'ldirishi mumkin. Jamiyat rivojlanishi va ijtimoiy aloqalar murakkablashishi bilan ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolar qatoriga iqtisodiy sabablar oqibatidagi ishsizlar, kambag'allar, shuningdek, inflyatsiyaning yuqori sur'atlaridan moddiy ahvollari og'irlashganlar kiradi.

Ijtimoiy ta'minot deyilganda quyidagilar tushuniladi:

- fuqarolarga qarilikda mehnat faoliyati, mehnat qobiliyati va boquvchisini yo'qotganligi uchun ko'zda tutilgan moddiy ta'minotdan tashqari ularning turmush kechirishi va madaniy standartlarini kafolatlaydigan taqsimlash shaklidir;
- fuqarolarni yoshi, kasallanishi, nogironligi, ishsizligi, boquvchisini yo'qotganligi, bolalarni tarbiya qilish uchun hamda qonunda belgilab qo'yilgan boshqa holatlar bo'yicha moddiy ta'minlash tizimidir;
- bir tomondan fuqarolar, ikkinchi tomondan davlat, mahalliy o'zini- o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari tomonidan daromadlari yo'qotilishi yoki kamayishi vaziyatlari paydo bo'lganda fuqarolarga maxsus jamg'armalar, budget mablag'lari hisobiga tibbiy yordam ko'rsatish, pensiyalar, nafaqalar va moddiy ta'minotning boshqa shakllari asosida tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar jamlanmasidir.

Ijtimoiy ta'minotning quyidagi olti turi keng tarqalgan:

- pensiyalar;
- nafaqalar;
- ijtimoiyta'minotkompensatsiyasi;
- imtiyozlar;
- ijtimoiyvatibbiyxizmatlar;
- hayotiyzarurashyolar.

Yuqorida qayd etilgan bu turlarning har biri, odatda yana qator turlarga bo'linadi. Bunda ijtimoiy ta'minot turlari barqaror xususiyatga ega bo'lgani holda ularning boshqa turlari muayyan siyosiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlarga bog'liq ravishda o'zgarib boradi.

Bugungi kunda aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bir necha shakllarda amalga oshirib kelinmoqda. Ular haqida quyidagilarni aytib o'tish mumkin.

Ijtimoiy yordam – kam ta'minlangan aholi qatlamlariga ko'rsatiladigan xizmatlar va imtiyozlardir.

Biz fuqarolarning ma'lum bir tabaqalariga beriladigan imtiyozlar sifatida fuqarolarning amal qilayotgan qoida, talab va majburiyatlardan qisman ozod qilinishini tushunamiz. Fuqarolarga beriladigan imtiyozlarning soni va hajmi shu imtiyozdan foydalanish huquqi byerilgan fuqaroning haqiqiy daromadlaridan qat'iy nazar byeriladi. Bu imtiyozlar bilan har xil tashkilotlar shug'ullanadi va bu imtiyozlar xarajatlarini moliyalashtirish manbalari ham turlichadir.

Ijtimoiy himoya - o'ziga bog'liq bo'lmagan ravishda ijtimoiy muhofazaga muhtoj fuqarolarga nisbatan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam shakli bo'lib, odatda bu yordam turli xarakterdagi nafaqalarni tayinlash va berish bilan amalga oshiriladi.

Bu maqsadlardagi xarajatlarning aksariyati davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Ijtimoiy himoya tadbirlari yordamida aholining umumjamiyat ishlab chiqarish jarayonida qanday qatnashishiga qaramasdan, aholining ma'lum tabaqalari turmush darajasini birmuncha (vaqtinchalik yoki doimiy) yaxshilashga erishiladi.

Ijtimoiy yordam dasturlarini moliyalashtirishning asosiy manbai davlat budjeti hisoblanadi. Davlat budjeti mablag'lari hisobidan quyidagilar byeriladi:

- bolali oilalarga nafaqalar to'lash;
- qariyalar va nogironlar uylarini saqlash, ulardagi fuqarolarni boqish va xizmat ko'rsatish;
- nogironlarni mehnatga ko'niktirish, ishga joylash, protez-ortopediya vositalari bilan ta'minlash;
- Chernobil AES halokati oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etgan fuqarolar va nogironlarga moddiy yordam ko'rsatish va sh.k.

Ijtimoiy himoya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash doirasida beriladigan nafaqalarni moliyalashtirish asosan davlat budjeti mablag'lari hisobidan, shuningdek, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan ham amalga oshiriladi. Bugungi kunda quyidagilar ijtimoiy yordam tizimini moliyaviy va moddiy jihatdan qo'shimcha tarzda qo'llab-quvvatlamoda:

- o'z mablag'lari va jamg'armalari hisobidan o'z xodimlariga ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlarida moliyaviy yordam to'layotgan va turli imtiyozlar byerayotgan korxonalar;
- jamoat tashkilotlari;
- kasaba uyushmalari, nuroniylar, nogironlar jamiyatlari va boshqalar.

Ijtimoiy sug'urta tizimi ham aholining ijtimoiy muammolarini hal qilishda ishtirok etuvchi tuzilma bo'lib, u vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotganligi sababli, pensiyaga chiqish munosabati bilan, ishsizligi tufayli aholining moddiy yo'qotishlarining ma'lum qismini qoplab berishni ko'zda tutadi. Ijtimoiy

sug'urta mablag'lari shu maqsadlarga yo'naltirilgan majburiy to'lovlar hisobidan moliyalashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy muhofaza qilishni moliyalashtirish manbalari tarkibini sanab o'tish o'rinli, ularga quyidagilar kiradi:

- davlat budjeti mablag'lari;
- davlatning ijtimoiy maqsadlardagi maqsadli jamg'armalari mablag'lari;
- ijtimoiy sug'urta mablag'lari;
- korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari;
- hayriya va homiylik tashkilotlarining mablag'lari;
- xalqaro tashkilotlarning mablag'lari
- aholining eng ta'minlangan va boy qatlamlarining ixtiyoriy hayr-ehsonlari;
- boshqa mablag'lar

Aholini ijtimoiy himoya qilish tadbirlarini mablag' bilan ta'minlashda davlat budjeti alohida o'rin egallashini avvalgi paragrafda ta'kidlagan edik. Mamlakatimizda davlat budjetining ijtimoiy maqsadlarga yo'naltiriladigan mablag'lari barcha xarajatlarning 59-60 foizini tashkil qilsa-da, uning tarkibidagi bevosita aholining turmush farovonligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy himoya xarajatlariga budjetning o'rtacha 9,5-10,5 foizi yo'naltiriladi.

Davlat budjetining aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlari amaldagi budjetning iqtisodiy tasnifiga muvofiq 250-bo'limda hisobga olinadi va uning tegishli paragraflarida ijtimoiy himoya to'lovlarining turlari aniqlashtirilgan. Unga ko'ra, 250 bo'limdagi "Turmush farovonligini oshirish bilan bog'liq xarajatlar" tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ✓ 18 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga har oylik nafaqalar;

- ✓ 2 yoshgacha bolalari bo'lgan onalarga to'lanadigan nafaqalar;
- ✓ kam daromadli oilalarga beriladigan har oylik yordam puli;

Shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiy himoya xarajatlari ichida ijtimoiy zarur tovarlar va xizmatlar bahosi o'rtasidagi farqni qoplash uchun beriladigan moliyaviy yordam xarajatlari ham aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshiriladi. Bu xarajatlar asosan transport xizmatlari, kommunal xizmatlar va boshqa sohalardagi xizmatlar haqini to'lashda aholining muhtoj qatlamlariga yordam berish maqsadidagi kompensatsion to'lovlar shaklida saqlanib kelmoqda.

Davlat budjetining aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari tizimida asosiy o'rinni bolali oilalar va kam ta'minlangan oilalar uchun tayinlanadigan nafaqa xarajatlari tashkil qiladi.

Hozirgi sharoitda davlat budjeti uchun nisbatan yuqori darajadagi moliyaviy yuk bo'lib tushayotgan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari bir tomondan aholining kam ta'minlangan qatlamini himoyalash moliyaviy asosini o'zida ifodalaydi. Ikkinchidan, aholining turmush farovonligini oshirish, zamonaviy sog'liqni saqlash tizimini shakllantirishda davlat budjetining ahamiyati ortib borayotganligini ko'rsatib byermoqda.

3- jadval

### **Davlat budjetidan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlar tarkibi**

Ko'rsatkichlar	2013 yil		2014 yil		2015 yil		2016 yil (prognoz)	
	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%
<b>Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-</b>	15573	100	18873	100	22457,0	100	25299,3	100



<b>quvatlash xarajatlari</b>								
<b>Ta'lim</b>	8984	57,6	10765	57,0	12776,2	56,8	14419,3	57,0
<b>Sog'liqni saqlash</b>	3768	24,1	4495	23,8	5372,5	23,9	6002,7	23,7
<b>Madaniyat va sport</b>	279	1,7	334	1,7	388,2	1,7	448,8	1,8
<b>Ilm-fan</b>	173	1,1	199	1,0	245,3	1,0	321,8	1,3
<b>Ijtimoiy ta'minot</b>	107	0,7	125	0,7	150,4	0,6	174,1	0,7
<b>Oilalarga ijtimoiy nafaqalar</b>	1839	11,8	2047	10,8	2279,8	10,1	2317,2	9,2

Ushbu xarajatlarning tarkibida, ta'lim sohasiga qilinayotgan budjet xarajatlari 2013 yilda 8984 mlrd. so'mni tashkil etib, jami budjet xarajatlaridagi ulushi 57,6 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich 2014 yilgi jami budjet xarajatlarida 58,1 foizni, 2013 yilda mos ravishda 57,0 foizni, 2015 yilda mos ravishda 56,8 foizni, 2016 yilda esa ushbu xarajatlar 57,0 foizni tashkil etishi ko'zda tutilgan.

Davlatning boshqaruv faoliyati o'z maqsadlari va funksiyasini murakkab tuzilishga ega bo'lgan va turli yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi o'z (davlat) apparati orqali ta'minlashida namoyon bo'ladi. Uning bir qismi qonunlarni ishlab chiqish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ijro etish bilan shug'ullanadi, ya'ni funksional ko'rinishdagi davlat boshqaruvi bilan bog'liq, boshqa qismi davlatning ichki (huquq-tartibot) va xalqaro barqarorligi va xavfsizligini, uning jahon hamjamiyati bilan o'zaro munosabatlarini ta'm inlaydi.

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati tizimihokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi va ikki daraja – markaziy va mahalliy darajalardan tashkil topadi.

Hukumatning markaziy organlari umumdavlat ahamiyatiga molik masalalarni, mahalliyari esa hududiy muammolarni hal qiladi.

Mahalliy hokimiyat organlarining boshqaruv faoliyatiga quyidagilar kiradi:

- qonunchilik, huquq-tartibotni va fuqarolarning havfsizligini ta'minlash;
- hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish masalalari;
- mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, mahalliy soliqlar,
- yig'implarni tayinlash, budjetdan tashqari jamg'armalarni shakllantirish;
- mahalliy kommunal xo'jalikni boshqarish;
- atrof muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlari qayd etilishini ta'minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish va O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi va qonun hujjatlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlar.

Davlat budjeti xarajatlarining funksional tasnifiga binoan boshqarish xarajatlari quyidagi bo'limlardaguruhlantirilgan:

1. Sud, prokuratura organlari va adliyaning boshqa muassasalarini saqlash xarajatlari.
2. Davlat hukumat organlarini saqlash xarajatlari.
3. Davlat boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari.
4. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari.
5. Referendum va saylovlar o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar.

Sud, prokuratura organlari va adliyaning boshqa muassasalarini saqlash xarajatlari o'zida quyidagilarni saqlash uchun xarajatlarni mujassamlashtiradi: O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi; viloyat, shahar va xalq sudlari; O'zbekiston Respublikasi va mahalliy organlarning Oliy xo'jalik sudi; O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Qoraqalpog'iston

Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri prokuraturasi; FHAQQ bo'limlari va boshqa xarajatlar.

Davlat hukumat organlarini saqlash xarajatlariga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti apparatini, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Saylov komissiyasi apparatini, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi apparatini saqlash, xalq deputatlari faoliyatini ta'minlash va boshqa xarajatlar kiradi.

Davlat boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari o'zida quyidagilarni saqlash uchun xarajatlarni mujassamlashtiradi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparatini; Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi apparatini; Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari apparatini; vazirliklarning markaziy apparati, davlat qo'mitalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasarrufidagi qo'mitalar va boshqa idoralarni; O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va boshqa idoralarning mahalliy organlarini; MDH mamlakatlari hukumatlari huzuridagi O'zbekiston Respublikasining doimiy vakolatxonasini; hokimliklarni; Qoraqalpog'iston Respublikasi vakolatxonalarini; hokimliklarning bo'limlari va boshqarmalarini; chet elda joylashgan respublika vakolatxonalarini, konsulliklari, agentliklari va boshqa diplomatik muassasalarini; markazlashgan buxgalteriyalar va boshqa xarajatlarni.

Mahalliy budjetlardan quyidagi xarajatlar moliyalashtiriladi:

yo'l-patrul xizmati bo'linmalari; uchastka militsiya inspektorlari; professional yong'in xavfsizligi bo'linmalari; mudofaa ishlari bo'yicha boshqarmalar; qutqaruv xizmati; markazlashtirilgan buxgalteriyalar; ma'muriy tartibda qamoqqa olingan shaxslarni saqlaydigan maxsus joy; manzillar bo'yicha ma'lumotlar byeruvchi byurolar; balog'at yoshiga etmaganlarning qonun

buzarliklarini profilaktika qilish bo'lim va bo'linmalari; balog'atga etmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam berish markazlari va boshqa xarajatlar.

Shunday qilib, davlatning boshqaruvga xarajatlari fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, huquqlari va erkinligini, fuqarolar, jamiyat va davlatning mulki va manfaatlarini noqonuniy tajovuzdan himoyalovchi davlat hokimiyati organlarining faoliyatini tashkil etish va ta'minlashga yo'naltirilgandir.

Davlat apparatini tegishli ravishda moliyalashtirmasdan boshqaruv faoliyatini amalga oshirib bo'lmaydi. Bu moddiy-texnika bazasini yaratish va saqlashni, mutaxassis-xodimlar va xizmat ko'rsatuvchi personalni ishga yollashni, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining joriy faoliyatini moliyalashtirishni nazarda tutadi.

Boshqaruv apparatini saqlash xarajatlari hajmini aniqlab byeruvchi asosiy hujjatlar – shtatlar jadvali va xarajatlar smetasi. Shtatlar jadvalida tarkibiy bo'linmalar; rahbar, ularning muovinlari va mutaxassislar lavozimlarining nomlari davlat lavozimlari reestriga binoan; har bir lavozim bo'yicha shtat birliklarining soni, lavozim okladlarining sxemalari, ustamalar (belgili muddat xizmat qilgani uchun, sirlilik uchun va boshqalar) va lavozimli okladlar bo'yicha bir oylik ish haqi **fondiD aakvsl eatt irxiilzmadait.ch ilarining** mehnatga haq to'lash fondida moddiy rag'batlantirish va belgili muddat xizmat qilgani uchun ustamalarga xarajatlar alohida ulushga ega. O'zbekiston Respublikasi budjeti loyihasiga boshqaruvga xarajatlarning jamlanma hisob-kitoblari tahlili taqdim etilgan hujjatlari va materiallari asosida tegishli respublika, viloyat, shahar, tuman ma'muriy bo'linmalari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri hisoblash usuli va me'yorlash usulida tayyorlanadi. Ajratmalar mablag'larga ehtiyoj, shuningdek bir ma'muriy yoki shtat birligiga tasdiqlangan tariflar va me'yorlar asosida hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining boshqa xarajatlariga:

– siyosiy partiyalarga ularning ustavida belgilangan faoliyatini moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag'lar;

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo'shilgan qiymat solig'ining o'rnini qoplash;

– O'zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo'lgan xalqaro tashkilotlarga a'zolik badallarini to'lash va ularni moliyalashtirishda ishtirok etish xarajatlari;

– davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish va O'zbekiston Respublikasining kafolatlangan majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq xarajatlar;

– davlat buyurtmasi bo'yicha statistika ishlariga haq to'lash;

– saylovlar va referendumlar o'tkazish bo'yicha xarajatlar;

– xo'jalik jamiyatlaridagi davlat ulushini boshqarish bo'yicha davlat ishonchli vakillarining xizmatlariga haq to'lash;

– davlat zaxiralari va strategik zaxiralarni vujudga keltirish, saqlab va yangilab turish bilan bog'liq xarajatlar;

– mudofaaga, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga, bojxona organlariga ajratiladigan mablag'lar, shu jumladan harbiy xizmatni, ichki ishlar organlarida, bojxona organlarida xizmatni o'tagan shaxslar hamda ularning oilalariga pensiyalar va nafaqalar uchun xarajatlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq faoliyati O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan moliyalashtiriladigan muassasalar, tashkilotlar va idoralarga ajratiladigan mablag'lar;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa xarajatlar kiradi.

Ma'muriy xarajatlar (asosan vakolatlar) 2010-yilda federal xarajatning taxminan 55%ini tashkil etgan. Bu esa ko'rsatkich 35% ga teng bo'lganini ko'rsatadi, 1970-yildan buyon ma'muriy xarajatlar uchun ketgan budjet miqdorining katta o'sishi kuzatilgan. Asosiy individual vakolat – umumiy ma'muriy xarajatning 36%i - bu Ijtimoiy himoyadir. Sog'liqni saqlash vakolati (Tibbiy yordam va g'amxo'rlik) ma'muriy xarajatlarning boshqa bir 41%ini tashkil etadi. 1960-yillar o'rtalaridagi ma'muriy xarajatlarning o'sishi (sog'liqni

saqlash narxlaridagi federal hukumatning roli va Jonson ma'muriyatining kichikroq "Buyuk Jamiyat" dasturi) ma'muriy xarajatlarga tegishli bo'lgan federal budjet miqdorini oshirgan.

Federal xarajatlarning boshqa turkumi sof foiz hisoblanadi. Federal hukumatning foiz xarajati kamomadni moliyalashtirish hamda foiz stavkalariga federal hukumatning bog'liqligi hisobiga o'sgan va kamaygan. 2010-yilda, u budjetning 6%ni tashkil etgan. 1995-yilda bu ko'rsatkich 15% edi. 2010-yilda ancha past foiz ulushi hisobiga juda katta qarz bilan, foiz stavkalari tarixan past bo'lgan, deyarli nolga tengdir. Kongress Budjet idorasi kutilgan foiz stavkasining o'sishi va rag'batlantirish dasturlari hamda mudofaa xarajatlaridagi kamomad hisobiga 2021-yilgacha sof foiz stavkasini yana 12%ga o'stirishni rejalashtirgandi. AQSh Kongressidagi ekstremal partizan farqlar aniq xarajat kamayishi va/yoki daromad o'sishi nihoyatda mushkul degan murosaga kelindi.

### Nazorat uchun savollar

8. Budjet xarajatlari deganda nimani tushunasiz?
9. Budjet xarajatlar qaysi omillar orqali turlarga bo'linadi?
10. Budjetning joriy va kapital xarajatlari nimalardan iborat?
11. Davlatning iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari qanday turkumlanadi?
12. O'zbekiston Respublikasida qanday ta'lim bosqichlari mavjud?
13. Sog'liqni saqlashga qilinadigan xarajatlarni ularning iqtisodiy mazmuni va muassasa turlariga ko'ra qanday guruhlariga bo'linadi?
14. Ijtimoiy ta'minot deganda nimani tushunasiz?

## 4-BOB. DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARI

### **4.1. DAVLAT BUDJETI VA DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARI BUDJETLARI LOYIHASINI TUZISH, KO'RIB CHIQISH VA TASDIQLASH**

**Bilmaslik ayb emas, o'rganmaslik ayb.**

**Rus xalq maqoli**

#### **1. Budget jarayoni, uning o'ziga xos xususiyatlari va asosiy vazifalari.**

Budget jarayoni — budget tizimi budgetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilish, budget tizimi budgetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayoni [1] dir.


Avvalo, budget jarayonitushunchasining mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, budget loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijro etilishini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budgetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinishiga tegishli bo'lgan davlat hokimiyat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda budget jarayoni ishtirokchilarining faoliyatiga budget jarayoni deyiladi.

Uning mazmuni mamlakatning davlat va budjet qurilishi, tegishli vakolatli organlar va yuridik shaxslarning budjet huquqlari bilan belgilanadi.

Budjet jarayoni, odatda, budjet faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z ichiga oladi:

- budjet loyihasini tuzish;
- budjetni ko'rib chiqish va tasdiqlash;
- budjetni ijro etish;

budjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.



**1-rasm. Budjet jarayoni bosqichlari**

Budjet jarayonining davomiyligi yuqoridagi to'rt bosqichning barchasidan iborat bo'lib, odatda, uch yilga yaqin davom etadi. Buning bir yilga yaqini budjet loyihasini ishlab chiqish, uni ko'rib chiqish va tasdiqlashga, bir kalendar yili (1 yanvardan 31 dekabrgacha) budjetni ijro etishga (budjet yili) va sakkiz oyga yaqini budjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlashga va uni tasdiqlashga to'g'ri keladi.



Alohida faoliyat turi sifatida tashkil etiladigan budjet jarayoni bosqichlarga yo'naltirilgan. **Budjet jarayoni to'rt bosqichdan iborat: 1) tayyorlash va taqdim etish 2) tasdiqlash 3) ijro va 4) audit va baholash [7].**

Fransiyada moliya yili kalendar yiliga mos bulib, u boshqa rivojlangan mamlakatlardan markazlashish darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Markaziy budjet (umumiy budjet, turli davlat tashkilotlari qo'shma budjetai va xazinachilikning maxsus hisobvaraqlari kabilarni o'z ichiga oluvchi davlat budjeti) butun moliya tizimining 80 foizga yaqin daromad va xarajatlarini o'z ichiga oladi [6].

**Budjet jarayonini boshqarish va nazorat qilishda quyidagi vazifalarning bajarilishi talab etiladi:**

- muvozanatlashtirilgan bozorga kirib borishda barqaror taraqqiyotga erishish maqsadida maksimal darajada moddiy va moliyaviy rezervlarni qidirib topish;
- alohida soliqlar va boshqa to'lovlarning, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlari va maqsadli dasturlarning samarali bajarilishini ta'minlovchi budjet daromadlarining umumiy hajmini aniqlash;
- budjetda ko'zda tutilgan umumdavlat ahamiyatiga ega barcha tadbirlarni uzluksiz moliyalashtirish ehtiyojini inobatga olgan holda, budjet xarajatlari va ularning umumiy hajmini belgilash;
- iqtisodiyotdagi inflyatsion tendentsiyalar va pul-kredit nobarqarorligini bartaraf etishga, milliy pul birligining barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan moliyaviy barqarorlashtirishning umumiy dasturini budjet bilan muvofiqlashtirish;
- iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lgan manbalar hisobidan budjet defitsitiga barham berish yoki uni qisqartirish;
- iqtisodiy mintaqalar, xo'jalik sohalari va budjetlar o'rtasida davlat daromadlarining manbalarini qayta taqsimlash yo'li bilan turli darajadagi budjetlarni balanslashtirish maqsadida budjetni tartibga solishni amalga oshirish;

- keng masshtabli barcha ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning balansliligi va proporsionalligini ta'minlashga imkon beradigan budjetni o'rta va uzoq istiqbolga mo'ljallab rejalashtirishning rolini oshirish;

- soliq majburiyatlarini bajarishda alohida fuqarolar daromadlari va yuridik shaxslarning moliyaviy faoliyatlari ustidan nazoratni ta'minlash;

- zamonaviy elektron-hisoblash texnikalaridan keng foydalanish asosida va moliyaviy hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimini joriy qilish orqali budjetlarni tuzish va ijro etish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqalar.

Budjet jarayonini tashkil qilishda quyidagi tamoyillargarioya qilinadi:

- **yagonalik** – yagona huquqiy baza, yagona budjet tasnifi, O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti va hududlar budjetlarini tuzishda statistik axborot tuzish uchun zarur bo'lgan budjet xujjatlari shaklining yagonaligi;

- **har bir qonun chiqaruvchi va ijroiya xokimiyati organi budjet jarayonining mustaqilligi** - o'z daromad manbalari va ulardan foydalanish yo'nalishlarini belgilash huquqi bilan ta'minlanadi;

- **balans usuli** – jami budjetlarning daromadlari va xarajatlari o'rtasida, shuningdek, moddiy va moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasida to'g'ri nisbatlarni belgilashni nazarda tutadi.


## **2. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihasini tuzish**

Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini va moliyaviy ilu uchun mo'ljallangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi asosida tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalariga birmoliyaviy ilidan ortiq muddatga tuzilgan Davlat budjetini va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarini qabul qilish to'g'risida taklif kiritish gahaqli.

Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihasini tuzish:

- ❖ budjet so'rovini tuzish tartibini yuborishni;
- ❖ budjet so'rovlarini hamda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlarini tayyorlash va taqdim etishni;
- ❖ budjet so'rovlarini ko'rib chiqish va jamlashni;
- ❖ budjetnomani ishlab chiqishni nazarda tutadi.



**2-rasm. Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihasini tuzish**

Davlat budjeti loyihasini tuzish uchun mas'ul organlar quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;
- vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, budjetlar loyihalarini tuzish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan so'ralgan axborot va ma'lumotlarni taqdim etishga taalluqli qismi bo'yicha.


Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihalarini tuzish uchun mas'ul organlardir.

#### **Budjet so'rovi:**

- budjet tashkilotining, budjet mablag'lari oluvchining va budjet mablag'larini taqsimlovchining budjet tizimi budjetlari mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq faoliyatining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oluvchi, o'tgan yilda erishilgan natijalar va joriy yilda kutilayotgan natijalar to'g'risidagi tahliliy hisobotni;

- xarajat majburiyatlarining ularni kiritish (ijro etish) uchun asos bo'ladigan hamda moliyalashtirish manbalari va amal qilish muddatlarini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlar, shartnomalar va (yoki) ularning alohida qoidalari ko'rsatilgan reestrini;

- budjet mablag'larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturini;
- budjet mablag'larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi bilan uzviy bog'liq holda tuzilgan kelgusi davr uchun budjet buyurtmasini o'z ichiga oladi.



**3-rasm. Budget so'rovi**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar budget so'rovi bilan bir vaqtda tegishli budgetlar va davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarining kelgusi davr uchun prognozlarini taqdim etadi.

Budget so'rovini tuzish tartibi:

Davlat budgeti bo'yicha — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;

davlat maqsadli jamg'armalari bo'yicha — ularning taqsimlovchi organlari tomonidan belgilanadi.

O'tgan yilda erishilgan natijalar va joriy yilda kutilayotgan natijalar to'g'risidagi tahliliy hisobot budget tashkiloti, budget mablag'lari oluvchi va budget mablag'larini taqsimlovchi tomonidan tuziladi hamda budget tashkiloti, budget mablag'lari oluvchi va budget mablag'larini taqsimlovchining faoliyatini baholash, bundan buyon uni budget tizimi budgetlarining mablag'lari hisobidan moliyalashtirishning maqsadga muvofiqligi haqida takliflar tayyorlash uchun foydalaniladi.

O'tgan yilda erishilgan natijalar va joriy yilda kutilayotgan natijalar to'g'risidagi tahliliy hisobot budget tashkiloti, budget mablag'lari oluvchi va budget mablag'larini taqsimlovchining har bir faoliyat turi bo'yicha o'tgan yilda erishilgan va joriy yilda kutilayotgan natijalarining asosiy miqdor va sifat ko'rsatkichlari haqidagi axborotni o'z ichiga oladi.

O'tgan yilda erishilgan natijalar va joriy yilda kutilayotgan natijalar to'g'risidagi tahliliy hisobot qisqa va aniq shaklda bayon etilishi hamda u mazkur faoliyat sohasida kasbiy bilimlarga ega bo'lmagan shaxslarning uni tushunishini qiyinlashtiradigan maxsus atamalarni o'z ichiga olmasligi kerak.

Xarajat majburiyatlarining reestri budget tashkiloti, budget mablag'lari oluvchi va budget mablag'larini taqsimlovchi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turlari va tadbirlarning budget tizimi budgetlarining mablag'lari hisobidan uni moliyalashtirish uchun asos bo'lgan tegishli qonun hujjati ko'rsatilgan ro'yxatidir.

Xarajat majburiyatlarining reestri budget tashkiloti, budget mablag'lari oluvchi va budget mablag'larini taqsimlovchi tomonidan o'zlari amalga oshirayotgan xarajatlarni asoslanganligi nuqtai nazaridan tahlil qilish uchun budget tasnifiga muvofiq tuziladi.

**Budget mablag'larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi budget mablag'larini taqsimlovchi tomonidan uch yildan kam bo'lmagan davr uchun tuziladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- budget mablag'larini taqsimlovchi faoliyatining barcha sohalari bo'yicha rivojlanishning asosiy yo'nalishlari, maqsadlari va vazifalarini;
- maqsadlarga erishish va vazifalarni bajarishga qaratilgan o'zaro bog'liq huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy va texnik tadbirlar majmuini;
- maqsadlarga erishish va vazifalarni bajarishni ta'minlaydigan, muddatlari va turlari bo'yicha kelishilgan kutilayotgan natijalar ko'rsatkichlari tizimini.

Budget mablag'larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan belgilangan maqsad va vazifalarga asoslanadi.

Budget mablag'larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi budget mablag'larini taqsimlovchi tomonidan yuqori turuvchi organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Budget buyurtmasi budget tashkiloti, budget mablag'lari oluvchi va budget mablag'larini taqsimlovchi tomonidan tuziladi.



Budjet tashkiloti yoxud budjet mablag'lari oluvchi tomonidan tuzilgan budjet buyurtmasi tegishli budjet mablag'larini taqsimlovchiga budjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan belgilangan muddatda, biroq tegishli moliya organi va davlat maqsadli jamg'armasini taqsimlovchi organga budjet so'rovini taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan taqdim etiladi.

Budjet buyurtmasida o'tgan va joriy yillar uchun hamda kelgusi uch yil uchun budjet tizimi budjetlarining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar budjet tasnifiga muvofiq aks ettiriladi.

Budjet mablag'larini taqsimlovchi o'z tasarrufidagi budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning budjet buyurtmalari asosida jamlanma budjet buyurtmasini tuzadi.

Budjet mablag'larini taqsimlovchining jamlanma budjet buyurtmasi budjet mablag'larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi bilan uzviy bog'liq holda tuziladi.

Budjet buyurtmasida xarajatlar hajmlarini o'tgan yillarga nisbatan ko'paytirishga faqat asoslovchi qonun hujjati bo'lgan taqdirda va mazkur ko'paytirish budjet mablag'larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturida nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili 15 aprelga qadar kelgusi davr uchun budjet so'rovini tuzish tartibini:

O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti loyihasini tayyorlash uchun — budjet mablag'larini taqsimlovchilarga;

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari loyihalarini tayyorlash uchun — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Budjet Kodeksini 90-moddasining [birinchi qismida](#) belgilangan muddatlarda O'zbekiston

Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralardan Davlat budjeti loyihasining daromad qismi bo'yicha takliflar so'raydi.

Budjet mablag'larini taqsimlovchilar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar kelgusi davr uchun budjet so'rovini tuzish tartibini olgandan so'ng uch ish kuni ichida tegishli budjet so'rovlarini tuzish to'g'risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash haqida qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari **Budjet Kodeksini 90-moddasining uchinchi qismida** ko'rsatilgan qarorlar qabul qilinganidan so'ng uch ish kuni ichida kelgusi davr uchun budjet so'rovini tuzish tartibini:

- tegishli budjetlar loyihalarini tayyorlash uchun — tuman va shahar hokimlariga;

- budjet so'rovlarini tuzish uchun — Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan va Toshkent shahrining shahar budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari hamda budjet mablag'lari oluvchilarga yuboradi.

Tuman va shahar hokimlari kelgusi davr uchun budjet so'rovini tuzish tartibini olgandan so'ng uch ish kuni ichida tegishli budjetlar loyihalarini tuzish to'g'risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash haqida qarorlar qabul qiladi.

Tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari Budjet Kodeksini 90- moddasining **beshinch** qismida ko'rsatilgan qarorlar qabul qilinganidan so'ng uch ish kuni ichida kelgusi davr uchun budjet so'rovini tuzish tartibini tumanlar va shaharlar budjetidan moliyalashtiriladigan budjet

tashkilotlariga va budget mablag'lari oluvchilarga budget so'rovlarini tuzish uchun yuboradi.

**Budget so'rovlarini ko'rib chiqish:**

- tumanlar va shaharlar budgetidan moliyalashtiriladigan budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilar bo'yicha — tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budgetidan, viloyatlarning viloyat budgetlaridan va Toshkent shahrining shahar budgetidan moliyalashtiriladigan budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilar bo'yicha, shuningdek tumanlar va shaharlar budgetlari loyihalari bo'yicha — Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan;

- O'zbekiston Respublikasining respublika budgetidan moliyalashtiriladigan tasarrufdagi budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilar bo'yicha — budget mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan.

- budget mablag'larini taqsimlovchilar, Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlari loyihalari, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalari budgetlari loyihalari bo'yicha — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralarning Davlat budgeti loyihasining daromad qismi bo'yicha takliflarini ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Budget so'rovlari ko'rib chiqilayotganda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga budget so'rovlari olinganidan keyin o'n ish kuni ichida quyidagilarga yozma bildirishlar yuborish huquqi beriladi:

- budget mablag'larini taqsimlovchilarga va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga — amalga oshirish uchun asoslar mavjud bo'lmagan, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi past bo'lgan, budget daromadlarining tegishli o'sishi bilan ta'minlanmagan xarajatlarni kamaytirish to'g'risida, shuningdek budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilar faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari pasaygan hollarda xarajatlarni maqbullashtirish haqida;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga — tegishli budgetlar va davlat maqsadli jamg'armalari budgetlari daromadlari hamda xarajatlarining prognozlari asossiz ravishda pasaytirilgan yoki oshirilgan hollarda, mazkur prognozlarga tuzatish kiritish to'g'risida.

Budget Kodeksini 91- moddasining [uchinchi qismida](#) ko'rsatilgan hollarda budget mablag'larini taqsimlovchilar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yozma bildirishlarini olgandan keyin uch ish kuni ichida mazkur yozma bildirishlarda ko'rsatilgan fikr-mulohazalarni hisobga olgan holda yangilangan budget so'rovlarini taqdim etishi shart.

### **Kelgusi davr uchun budget so'rovlari:**

- Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budgetidan, viloyatlarning viloyat budgetlaridan va Toshkent shahrining shahar budgetidan, tumanlar va shaharlar budgetlaridan moliyalashtiriladigan budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilar tomonidan tegishli moliya organlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining respublika budgetidan moliyalashtiriladigan tasarrufdagi budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilar tomonidan budget mablag'larini taqsimlovchilarga — joriy yilning 1 iyunigacha;

- budget mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga — joriy yilning 1 iyuligacha;

- davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga — joriy yilning 1 iyuligacha taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralar Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarining prognozi bo'yicha takliflarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga — joriy yilning 15 iyunigacha taqdim etadi.

Kelgusi moliya yili uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining hamda davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihalari:

- tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq joriy yilning 25 iyunidan kechiktirmay;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga joriy yilning 1 iyulidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihalarini tayyorlash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

**Tumanlar va shaharlar budjetlarining loyihalari tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan:**

- **daromadlar bo'yicha** — Davlat budjetiga kiritiladigan daromadlar prognoziga doir takliflar hamda davlat soliq inspeksiyalari, hokimliklarning bo'limlari va davlat boshqaruvi organlarining boshqa tuman hamda shahar

bo'linmalari tomonidan ma'muriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognoziga muvofiq taqdim etiladigan boshqa axborot asosida;

- **xarajatlar bo'yicha** — tumanlar va shaharlar budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning budjet so'rovlari asosida ishlab chiqiladi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining loyihalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan:**

- **daromadlar bo'yicha** — Davlat budjetiga kiritiladigan daromadlar prognoziga doir takliflar hamda davlat soliq boshqarmalari va hokimliklarning boshqarmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat boshqaruvi organlarining bo'linmalari tomonidan ma'muriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognoziga muvofiq taqdim etiladigan boshqa axborot asosida;

- **xarajatlar bo'yicha** — Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan, Toshkent shahrining shahar budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning budjet so'rovlari hamda tegishli tumanlar va shaharlar budjetlarining loyihalari, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan va Toshkent shahrining shahar budjetidan moliyalashtiriladigan ayrim tadbirlar uchun xarajatlarning prognoz qilinayotgan hajmi asosida ishlab chiqiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari loyihalarini taqchillik bilan ishlab chiqishga yo'l qo'yilmaydi.

**Davlat budjetining loyahasini ishlab chiqish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan:**

- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi;
- daromadlarning tashkil topish manbalari bo'yicha Davlat budjeti daromadlari prognozi;
- budget mablag'larini taqsimlovchilarning budget so'rovlari va O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti hisobidan ayrim tadbirlar uchun xarajatlar hajmining prognozi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy budgetlari loyihalari asosida ishlab chiqiladi.

Davlat budjetining loyihasida xarajatlar daromadlarning prognoz qilinayotgan hajmidan kelib chiqib Davlat budjeti taqchilligining cheklangan miqdori hisobga olingan, uni qoplash manbalari belgilangan holda nazarda tutiladi.

Davlat budjetining loyihasi:

- Budget Kodeksining [50](#) va [69-moddalariga](#) muvofiq Davlat budjetining daromadlar manbalari bo'yicha daromadlari va yo'nalishlar bo'yicha xarajatlari prognozidan;
- Davlat budjeti taqchilligining eng yuqori miqdori va uni qoplash manbalaridan tarkib topadi.

Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan ishlab chiqilgan davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihalari tushumlar manbalari bo'yicha daromadlar va yo'nalishlar bo'yicha xarajatlar prognozidan tarkib topadi.

Davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihalarini taqchillik bilan ishlab chiqishga yo'l qo'yilmaydi.

Budjetnoma — erishilgan natijalar hisobga olingan holda mamlakatni kelgusi davr uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini nazarda tutadigan hujjat bo'lib, ushbu yo'nalishlar asosida Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihalari shakllantiriladi.

## Budjetnoma:

– mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlarining prognoz bahosini;

– Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozini;

– Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari joriy yildagi ijrosining prognoz bahosini;


– soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihasini;

– Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihasini;

– davlat qarzining holati to'g'risidagi ma'lumotlarni;

– soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihasiga doir tushuntirish xatini o'z ichiga oladi.





**3-rasm. Budjetnoma**

### Budjetnoma:

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga — joriy yilning 15 sentyabriga qadar kiritiladi;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga xulosa taqdim etishi uchun — joriy yilning 20 sentyabriga qadar kiritiladi. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari, shuningdek soliq va budjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihalari bo‘yicha ikki haftalik muddatda xulosa taqdim etadi;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga — O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi bilan joriy yilning 15 oktyabridan kechiktirmay kiritiladi.

Davlat budjetining loyahasini tuzish (yaratish, ishlab chiqish) bo‘yicha ishlar yangi budjet yilining boshlanishidan ancha oldin, masalan, GFRda – 6 oy, Yaponiyada – 8 oy, Frantsiyada – 14 oy, AQShda – 18 oy, O‘zbekistonda – 7 oy oldin boshlanadi. Uning loyahasini tuzish ijroiya hokimiyat organlari, odatda, Moliya vazirligi (G‘aznachilik) tomonidan amalga oshiriladi.

Ba‘zi bir mamlakatlarda budjet loyahasini tuzish davlat ijroiya hokimiyati boshlig‘i (rahbari)ning kelgusi yilga mo‘ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining umumiy yo‘nalishlari muammolari bo‘yicha chiqishidan (ma‘ruzasidan) boshlanadi. Masalan, AQShda prezident amerika xalqiga Budjetnoma bilan murojaat qilib, unda moliya-pul siyosatining asosiy vazifalari, kelgusi budjet yili va navbatdagi to‘rt yil uchun federal budjet daromad va xarajatlarining hukumat bahosi shakllantiriladi.

Budjetni loyihalashtirish (tayyorlash) jarayonini jonglyorlik harakatiga

o'xshatish mumkin. Jongler havoga bir necha sharlarni otgani kabi, bu erda ham ayrim institutlar, budjet idoralari, ijro etuvchi hokimiyat rahbarlari va boshqalar tomonidan sharlar havoga otiladi va hayratlanarli jihati shundaki, bir necha yillar davomida bu sharlar pastga qulamaydi. Aksincha, taklif etilayotgan budjet o'z vaqtida soliqqa tortish va sarf tashabbuslarining boshni og'diruvchi assortimentdan ajralib chiqadi.

Budjet tizimida budjetni loyihalashtirish jarayoni idoralar tomonidan so'rovlar tayyorlash va ushbu so'rovlarni jamlashni o'z ichiga oladi; biroq jarayon shu bilan o'z nihoyasiga etadi deb bo'lmaydi. Aslida, so'rov tayyorlash jarayoni unchalik qiyin vazifa bo'lmasdan, balki daromad va harajatlarning tavsiya etilayotgan darajasi borasida qaror qabul qilish haqiqatda murakkab vazifa hisoblanadi. Soliqlarni oshirish kerakmi yoki yo'q? Qaysi dasturlarni kengaytirish va qaysilarini esa qisqartirish lozim? Budjetni loyihalashtirish jarayonlari markazlashtirilmagan ijro etuvchi budjet tizimlarida aynan shu muammolar dolzarb hisoblanadi. Fuqarolarning xizmatlarni kengaytirish va soliqlarni qisqartirish ehtimoliga bo'lgan ehtiyojlarini baholash, hamda mazkur ehtiyojlarni muvozanatlashtirish uchun iqtisodiy paket ishlab chiqish vazifasi qonunchilik qo'mitasi yoki qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlardan tashkil etilgan guruh zimmasiga yuklatilishi mumkin [7].

### **3. Davlat budjetini va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarini ko'rib chiqish, qabul qilish va tasdiqlash**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdim etilgan budjetnoma O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari navbatdagi yil uchun Davlat budjetini, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarini hamda soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining navbatdagi yil uchun Davlat budjeti to'g'risidagi qarorlarini ijro etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilinadi, unda:

- asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi;
- Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarining asosiy parametrlari;
- Davlat budjeti taqchilligining eng yuqori miqdori va uni qoplash manbalari;
- davlat maqsadli jamg'armalarining asosiy parametrlari;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari miqdorlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlari hajmlari, O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalarning cheklangan miqdorlari;
- umumdavlat soliqlari tushumlaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga ajratmalarning normativlari;
- O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari aylanma kassa mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zaxira jamg'armasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining zaxira jamg'armalari miqdorlari tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjetining asosiy parametrlarini tasdiqlashga doir qaroriga muvofiq, qaror qabul qilingandan so'ng bir haftalik muddatda tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari daromadlari hamda xarajatlarining hajmlari qabul qilinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qabul qilgan qarorlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari o'n ish kuni ichida:

Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlarining, tumanlar va shaharlar budgetlarining daromadlari va xarajatlari hajmlarini, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budgetidan, viloyatlarning viloyat budgetlaridan va Toshkent shahrining shahar budgetidan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalarning cheklangan miqdorlarini;

Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlari tarkibiga kiradigan tumanlar va shaharlar budgetlariga umumdavlat soliq tushumlaridan ajratmalarning normativlarini. Umumdavlat soliqlaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlari tarkibiga kiruvchi tumanlar va shaharlar budgetlariga ajratmalarning normativlari ayni shu soliqlardan Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlariga ajratmalarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilangan normativlaridan ortiq bo'lmagan miqdorlarda belgilanadi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgetining, viloyatlar viloyat budgetlarining va Toshkent shahri shahar budgetining zaxira jamg'armalari miqdorlarini;

Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlari tarkibiga kiradigan tumanlar va shaharlar budgetlari aylanma kassa mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdorlarini tasdiqlash bo'yicha qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetini,

viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarini tasdiqlash to'g'risidagi qarorlariga muvofiq xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tomonidan tumanlar va shaharlar budjetlarining daromadlari hamda xarajatlari hajmlari uch ish kuni ichida qabul qilinadi.

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlarining qarorlariga muvofiq tumanlar va shaharlar hokimlari tumanlar va shaharlar budjetlarining daromadlari hamda xarajatlari hajmlarini tasdiqlash bo'yicha uch ish kuni ichida qarorlar qabul qiladi.

Davlat budjetining, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining asosiy parametrlari tasdiqlanganidan keyin O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari daromadlari va xarajatlari hajmlarini, shuningdek ularga O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan beriladigan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar hajmlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari e'tiboriga — uch ish kuni ichida;

- budjet mablag'larini taqsimlovchilar va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar uchun belgilangan daromadlar va xarajatlarning hajmlarini ularning e'tiboriga — o'n ish kuni ichida etkazadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari tasdiqlangandan keyin Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari:

- tumanlar va shaharlar budjetlarining daromadlari va xarajatlari hajmlarini, shuningdek ularga tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan va Toshkent shahrining shahar budjetidan beriladigan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan

daromadlar hamda dotatsiyalar hajmlarini tumanlar va shaharlar hokimliklari e'tiboriga — uch ish kuni ichida;

- Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan va Toshkent shahrining shahar budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari hamda budjet mablag'lari oluvchilar e'tiboriga ular uchun nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmlarini — bir haftalik muddatda etkazadi.

Tumanlar va shaharlar budjetlari tasdiqlanganidan keyin tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tumanlar va shaharlar budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari hamda budjet mablag'lari oluvchilar e'tiboriga ular uchun nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag'larning hajmlarini bir haftalik muddatda etkazadi.

O'zbekiston Respublikasining Favqulodda Davlat budjeti O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qaroriga ko'ra favqulodda holat sharoitlarida qabul qilinadigan budjetdir.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari favqulodda holat sharoitlarida budjet sohasidagi vakolatlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga ko'ra amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda Davlat budjetining amal qilishi davrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to'g'risidagi qarorlarining, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining Qoraqalpog'iston Respublikasining budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari daromadlari va xarajatlari hajmi haqidagi qarorlarining amal qilishi to'xtatib turiladi.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda Davlat budgetining amal qilishi tugatilishi bilan Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg'armalari budgetlari parametrlariga aniqlik kiritiladi.

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi davlat budgetini tayyorlash va qabul qilish jarayoni ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi organlar funksiyalari bir xil siyosiy partiya yoki partiyalar koalitsiya(birlashma)si orqali boshqariluvchi Britaniyaga o'xshash parlamentar hukumatda qo'llaniladigan jarayondan farqlanadi. Bunday tizimlarda, budget tasdiqi fazasi ma'lum darajada yo'naltirilgandir. Umuman olganda Parlamentlar davlat budgetini o'zgartira oladilar lekin ko'pincha uni o'sib ketishiga to'sqinlik qilinadi. Partiyaviy intizom odatda parlament tomonidan amalga oshirilgan kichik o'zgarishlarni kafolatlaydi. Farqli o'laroq Amerika Qo'shma Shtatlarida qonun chiqaruvchi organ ijro etuvchi organ tomonidan taqdim etilgan budgetdan ahamiyatli e'tiborda tarqaluvchi budgetni tasdiqlashi mumkin. Xalqaro valuta fondi tomonidan 2005-yilda o'tkazilgan tadqiqot qonun chiqaruvchi organi nisbiy budgetlashtirish qudratining shartlariga binoan 28 davlatni ifodalaydi. Bu tadqiqot AQSHni Vestminster davlatlari (jumladan buyuk britaniya va Avstraliya) dan ancha oldinda eng yuqori darajadagi qonun chiqaruvchi organ budget tizimiga ega davlat sifatida qayd etdi lekin shuningdek Germaniya, Meksika va Ispaniya kabi davlatlarga nisbatan kuchliroq edi [7].



## **5-BOB. BUDJET TASHKILOTLARINI BUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALARI**

### **5.1. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari daromadlari va xarajatlari**

#### **1. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari haqida tushuncha**

Budjet tashkilotlarida barcha xarajatlar davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi. Ammo, ayrim tadbirlarni moliyalashtirish uchun budjetdan tashqari mablag'lar foydalaniladi, ya'ni bular davlat budjeti mablag'lari hisobidan emas, balki boshqa manbalar hisobidan tashkil etiladigan mablag'lardir.

Budjetdan tashqari mablag'lar jumlasiga maxsus mablag'lar, topshiriqlar bo'yicha summalar va depozit summalar kiradi.

**Maxsus mablag'lar**– bu budjet tashkilotlariga tegishli binolardan, xonalardan, korxonalaridan va yordamchi xo'jaliklardan, inventarlardan va uskunalardan foydalanish va ishlatish natijasida paydo bo'lgan budjet tashkiloti daromadlarining summasidir. Maxsus mablag'lar foydalanish xarajatlarini qoplashga, qaysi tadbirlardan olingan bo'lsa, o'sha tadbirlarning faoliyatini kengaytirish va yaxshilashga sarflanadi. Maxsus mablag'larni boshqa maqsadlarga hamda budjetdan moliyalashtiriladigan tadbirlarga sarflashga yo'l qo'yilmaydi. Maxsus mablag'larga barcha budjet tashkilotlari ega bo'lishi mumkin.

Maxsus mablag'larning har bir turi bo'yicha kirim-chiqim smetalari tuziladi. Smetaning daromadlarida maxsus mablag'larning kirimi ko'rsatiladi, xarajatlarida esa mablag'larning budjet tasnifi moddalari bo'yicha yo'naltirilishi ko'rsatiladi. Agar budjet tashkiloti maxsus mablag'larning bir nechta turlariga

ega bo'lsa, u holda individual smetalar asosida ularning yig'masi tuziladi. Yig'ma smetada maxsus mablag'lar har bir turining daromad va xarajatlari alohida-alohida ko'rsatiladi. Maxsus mablag'larning smetalari bo'yicha xarajatlar daromadlaridan yuqori bo'lishi mumkin emas.

Maxsus mablag'larning smetalarini yuqori budjet mablag'larini tasarruf qiluvchilar tomonidan tasdiqlanishi haqida ikki nusxada ma'lumotnoma tuziladi. Ma'lumotning bir nusxasi bank muassasasiga beriladi, boshqasi esa ma'lumot berilgan tashkilotda qoladi. Bank mazkur tashkilotdagi barcha maxsus mablag'lar smetalarining tasdiqlanishi haqidagi bitta ma'lumotnomani oladi va bank muassasalari Maxsus mablag'lar bo'yicha talab qilib olgunga qadar depozit hisobvaraqlaridan mablag'lar beradi. Budjet tashkilotlarining rahbarlari maxsus mablag'larning tasarruf qiluvchilari hisoblanadi. Ular smetada ko'zda tutilgan daromadlarning tushumini ta'minlashga va maxsus mablag'larning xarajatlarini har bir moddasi bo'yicha tasdiqlangan summalar doirasida smeta bo'yicha maqsadli tayinlanishiga muvofiq sarflashga majburdirlar. Maxsus mablag'larning kelib tushayotgan summalarini, odatda, to'lovchilar to'g'ridan-to'g'ri bank muassasasiga ularni budjet tashkilotining maxsus mablag'lar bo'yicha talab qilib olgunga qadar depozit hisobvaraqlariga qo'yish uchun topshirishlari kerak.

Topshiriqlar bo'yicha summalarayrim topshiriqlarni bajarish uchun boshqa tashkilotlardan budjet tashkilotiga kelib tushgan mablag'lardir. Bularga, masalan, o'quv yurtlarini tugatib ish joyiga yuborilgan yosh mutaxassislarga to'lash uchun tashkilotlardan olingan summalar, korxonalaridan o'qishga yuborilgan talabalarga ular hisobidan stipendiya to'lash uchun olingan summalar, boshqa tashkilotlardan, ular uchun uskunalar, adabiyotlar va boshqa shunga o'xshashlarni sotib olish uchun olingan summalar kiradi. Topshiriqlar bo'yicha kelib tushgan mablag'lar bank muassasalarida Topshiriqlar bo'yicha summalariga doir talab qilib olgunga qadar alohida depozit hisobvarag'ida

saqlanadi. Bunday hisobvaraqlar tegishli moliya organining ruxsati bilan ochiladi.

**Depozit summalar**– budjet tashkilotining ixtiyoriga vaqtinchalik kelib tushgan va ma'lum sharoit vujudga kelishi munosabati bilan qaytarilishi yoki tayinlanishi bo'yicha hisobga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lardir. Bular jumlasiga, masalan, davolash muassasalaridagi kasallarning, ularni davolash muassasasidan chiqarilganda egalariga qaytariladigan pullari, sud organlari ixtiyorida vaqtinchalik saqlanayotgan va sud qaroriga asosan egasiga qaytariladigan yoki tayinlanishi bo'yicha o'tkaziladigan summalar va boshqalar kiradi. Depozit summalar hukumat tomonidan belgilangan ma'lum muddat davomida bank muassasalarida budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha talab qilib olgunga qadar depozit hisobvaraqlarida saqlanadi. Bu muddat tugagandan so'ng talab qilib olinmagan summalar tegishli budjetning daromadiga o'tkaziladi.

**Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari** - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan manbalar hisobidan budjet tashkiloti tasarrufiga kelib tushadigan mablag'lardir

Germaniya Federativ Respublikasida budjet yili kalendar yili bilan mos keladi. Federal budjet parlament - Dev Bundestag tomonidan tasdiqlanadi. Federal budjetni tuzish, tasdiqlash va ijro etish kutilayotgan daromadlar va xarajatlarni aniqlash hamda buxgalteriya hisobini yuritish, budjet ijrosining haqiqiy aksini ko'zda tutadi.

Markaziy budjetni tuzish bosqichida vazirlik va idoralar taxminan 9 oyga mo'ljallangan keyingi yil xarajatlari smetalarini Moliya vazirligiga yuboradi. Moliya vazirligi prognoz qilingan daromadlar asosida budjetning xarajatlar qismini aniqlaydi va budjet loyihasini federal hukumatga topshiradi. Ijro etuvchilar tomonidan ma'qullangan budjet loyihasi qonun chiqaruvchi organlarga tasdiqlash uchun yuboriladi. Avval budjet parlamentining yuqori

palatasi - Der Bundesratra yuborilib, u erda uch hafta davomida ko'rib chiqiladi. Undan so'ng quyi palata - Der Bundestagra taqdim etiladi. Qonun loyihasi qabul qilganidan so'ng, u hukumat boshlig'i tomonidan imzolanadi va qonuniy kuchga ega bo'ladi

## **2. Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari daromadlari.**

Budget tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi daromadlari

➤ hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo'yicha tejalgan mablag'lar, kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno;


➤ faoliyat ixtisosligi bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;

➤ budget tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag'larning bir qismi;

➤ belgilangan tartibda budget tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag'lar;

➤ homiylikdan olingan mablag'lar hisobidan shakllantiriladi.

Budget tashkilotining rivojlantirish jamg'armasiga budget tashkilotlarining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlari tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar va ularni ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlar o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.



**1-rasm. Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasini shakllanish manbalari**

Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi daromadlari:

- tibbiyot tashkilotiga ajratiladigan budget mablag'lari umumiy hajmining 5 foizigacha bo'lgan miqdorda budgetdan ajratiladigan mablag'lar;
- faoliyat ixtisosligi bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;
- hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo'yicha tejalgan mablag'lar, kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno;
- tibbiyot tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag'larning bir qismi;
- belgilangan tartibda budget tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag'lar;
- homiylikdan olingan mablag'lar hisobidan shakllantiriladi.

Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasiga tibbiyot tashkilotlarining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlari tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar va ularni ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlar o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning budgetdan tashqari jamg'armalari daromadlari belgilangan tartibda davlat bojlari, yig'img'lar va soliq bo'lmagan to'lovlar, ma'muriy jarimalar hamda moliyaviy sanksiyalardan ajratmalar hisobidan shakllantiriladi.

### **3. Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari xarajatlari.**

Budget tashkilotlari tomonidan budgetdan tashqari mablag'lar

- o'quvchilar va tarbiyalanuvchilar davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarining kuni uzaytirilgan guruhlarida,

maktab-internatlarda, olimpiya zaxiralari kollejlari va boshqa ta'lim muassasalarida saqlab turilganligi uchun;

➤ o'quvchilar bolalar musiqa va san'at maktablari hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ta'lim olganligi uchun;

➤ oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olganlik uchun;

➤ statsionar davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotganlar tarkibi ovqatlanishi uchun;

➤ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turdagi undiriladigan to'lovlar hisobidan shakllantiriladi.

Undiriladigan to'lovlarning miqdorlari, ularni kiritish va ulardan foydalanish tartibi, shuningdek undiriladigan to'lovlar bo'yicha imtiyozlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

**Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari quyidagi maqsadlarda sarflanadi:**

avvalo vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalarni va mavjud kreditorlik qarzlarni to'lashga

byudjet tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlariga

ijtimoiy rivojlantirish va byudjet tashkilotlarining xodimlarini moddiy rag'batlantirish tadbirlariga

**2-rasm. Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larining sarflanishi**



Byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi hamda tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan [1]:

vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalarini va mavjud kreditorlik qarzlarni to'lash;

byudjet tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlari;

byudjet tashkiloti xodimlarini moddiy rag'batlantirish tadbirlari uchun foydalaniladi.

Budjet tashkilotida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha to'lanmagan nafaqalar va muddati o'tgan kreditorlik qarz mavjud bo'lgan taqdirda, Budjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari birinchi navbatda ushbu qarzlarni to'lash uchun sarflanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjet tashkilotlariga ko'rsatilgan homiylik mablag'larining jami summasi, agar homiy tomonidan boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, budjet tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun sarflanadi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'laridan:

- **moddiy-texnik bazani mustahkamlash;**
- **xodimlarni moddiy rag'batlantirish;**
- **boshqa xarajatlarni qoplash uchun foydalaniladi.**

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari hisobidan xodimlarning qo'shimcha sonini saqlab turish taqiqlanadi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan hollar bundan mustasno.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan budjet tashkilotlarining qo'shimcha daromadlari mablag' bilan ta'minlashning quyidagi manbalari:**

- faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish;
- budjet tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berish;
- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjet tashkilotlariga ko'rsatiladigan homiylik (begaraz) yordami hisobiga olinishi mumkin.

**Budjet tashkilotini rivojlantirish jamgarmasi:**

- g'azna ijrosiga o'tmagan budjet tashkilotlari bo'yicha - rejaga muvofiq budjetdan mablag' bilan ta'minlash hisobiga tushgan va hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida budjet tashkilotlari hisob raqamlarida qolgan tejab qolingan mablag'lar (kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlash uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno);
- g'azna ijrosiga o'tgan budjet tashkilotlari bo'yicha - hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida budjet tashkilotlarining Moliya vazirligi G'aznachiligida va uning hududiy bo'linmalarida ochilgan hisob raqamlarida qolgan tejab qolingan mablag'lar (kapital qo'yilmalar bo'yicha xarajatlarni to'lash uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno);

➤ budget tashkilotlari faoliyati turiga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlar;

➤ vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan olingan mablag'larning 50 foizi. Mablag'larning qolgan 50 foizini budget tashkilotlari mahalliy budgetlar daromadiga o'tkazadilar;

➤ yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budget tashkilotlariga berilayotgan homiylik yordami (begaraz yordam) hisobiga shakllantiriladi.

Budget tashkilotini rivojlantirish jamgarmasi mablag'lari faqat:

➤ avvalo vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalarni va mavjud kreditorlik qarzlarni to'lashga;

➤ budget tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlariga;

➤ ijtimoiy rivojlantirish va budget tashkilotlarining xodimlarini moddiy rag'batlantirish tadbirlariga sarflanadi.

Budget tashkilotida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha to'lanmagan nafaqalar muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik qarz mavjud bo'lsa, Budget tashkilotini rivojlantirish jamgarmasi mablag'lari tejab qolingan budget mablag'lari doirasida ushbu qarzlarni to'lashga (ishlar, xizmatlar tovarlar ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlar o'rni qoplangandan so'ng) sarflanadi.

Agar kreditorlik qarzi budget tashkilotining xarajatlari vaqtincha etarli miqdorda mablag' bilan ta'minlanmaganligi munosabati bilan paydo bo'lgan taqdirda, kreditorlik qarzning Budget tashkilotini rivojlantirish jamgarmasi hisobiga to'langan miqdori joriy moliya yiliga belgilangan xarajatlar limiti doirasida budgetdan qoplanadi.

Agar kreditorlik qarzi budget tashkilotlarining xarajatlar smetasiga ilovada nazarda tutilgan tegishli xarajatlar to'lanmaganligi va (yoki) xarajatlarning har qaysi guruhi bo'yicha belgilangan limitlarning oshib ketganligi munosabati bilan

paydo bo'lgan bo'lsa, to'liq hajmda budjetdan mablag' bilan ta'minlangan taqdirda, Budjet tashkilotini rivojlantirish jamgarmasi mablag'lari (ishlar, xizmatlar, tovarlar ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlar o'rnini to'ldirilgandan so'ng) avvalo xarajatlarning to'lanmagan qismi va belgilangan limitlarning ortib ketgan miqdori doirasida kreditorlik qarzlarni uzishga yo'naltiriladi.

Budjet tashkilotida vaqtincha mexnatga layoqatsizlik bo'yicha to'lanmagan nafaqalar va kreditorlik qarzi mavjud bo'lmasa yoxud ushbu qarzlarning mazkur Tartibda belgilangan doirada va shartlarda to'langan taqdirda Budjet tashkilotini rivojlantirish jamgarmasining qolgan mablag'lari (homiylilik yordami, begaraz yordam miqdori bundan mustasno):

➤ tushgan barcha mablag'larning kamida 75 foizi (sog'liqni saqlash budjet tashkilotlarida kamida 50 foizi) tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlarning o'rnini to'ldirishga va moddiy-texnika bazani mustahkamlashga;

➤ tushgan barcha mablag'larning ko'pi bilan 25 foizi (sog'liqni saqlash budjet tashkilotlarida 50 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda) budjet tashkilotlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag'batlantirish tadbirlariga sarflanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjet tashkilotiga ko'rsatilgan homiylilik (begaraz) yordamidan olingan mablag'larning barcha summasi, agar homiy bilan maxsus o'zgacha hol kelishilmagan bo'lsa, moddiy-texnika bazani mustahkamlashga sarflanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli «Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq budjet tashkilotini rivojlantirish fondi: rejaga muvofiq budjetdan moliyalashtirish hisobiga tushgan va hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida budjet tashkilotining hisobvarag'ida qolgan tejab qolingan (foydalanilmagan) mablag'lar (kapital

qo'yimalarni moliyalashtirish uchun ko'zda tutilgan mablag'lar bundan mustasno); budget tashkilotining faoliyati turiga muvofiq mahsulot(ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlar; davlatning vaqtincha foydalanilmayotgan binolari va mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan olingan mablag'larning 50 foizi hamda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budget tashkilotiga berilayotgan homiylik (beg'araz) yordami hisobiga shakllantiriladi.

Faoliyat turi bo'yicha mahsulot(ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotishdan, davlatning vaqtincha foydalanilmayotgan binolari va mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan hamda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budget tashkilotiga berilayotgan homiylik (beg'araz) yordamidan qo'shimcha daromad olayotgan budget tashkilotlari 2005 yil oxirigacha Davlat budgetiga undiriladigan soliqlar va yig'implarning barcha turlaridan ozod qilingan edi. Shu munosabat bilan bo'shab qolgan mablag'lar budget tashkilotining moddiy-texnika va ijtimoiy bazasini hamda xodimlarini moddiy rag'batlantirishga yo'naltiriladi.

Bunda shuni hisobga olish kerakki, **I - guruh** «Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar» bo'yicha tejalgan, uning chorakdagi oxirgi oying ikkinchi yarmiga tegishli mehnat haqini to'lash uchun moliyalashtirilgan mablag'lar, moliyalashtirilmaganligi sababli yoki budget mablag'lari bo'yicha talab qilib olgunga qadar asosiy depozit hisobvarag'idagi mablag'ning etmaganligi sababli olinmagan deponent qilingan mehnat haqi va stipendiyalar hamda nafaqalarning summalari tejalgan summa deb hisoblanmaydi va budget tashkilotini rivojlantirish fondi-budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha talab qilib olgunga qadar depozit hisobvarag'iga o'tkazilmaydi. **II-guruh** «Mehnat haqiga hisoblanishlar» bo'yicha hisoblangan, lekin o'tkazib berilmagan mehnat haqiga hisoblanishlar, hisoblangan, lekin to'lanmagan pensiyalar, vaqtincha mehnatga layoqatsizligi bo'yicha, bola tug'ilganda beriladigan va vafot etganda beriladigan nafaqalar summalari, budget tashkilotlarini rivojlantirish fondi-

budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha talab qilib olgunga qadar depozit hisobvarag'iga o'tkazilmaydi.

Budjet tashkilotini rivojlantirish fondi mablag'lari faqat avvalo mavjud kreditor qarzlari to'lashga, budjet tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ijtimoiy rivojlantirish tadbirlariga va budjet tashkilotining xodimlarini moddiy rag'batlantirishga xarajat qilinadi.

Budjet tashkilotida muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik qarzi bo'lsa, budjet tashkilotini rivojlantirish fondi mablag'lari tejab qolgan budjet mablag'lari doirasida ushbu qarzni to'lashga (mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlar o'rni qoplangandan so'ng) xarajat qilinadi.

Kreditor qarz budjet tashkilotining xarajatlari vaqtincha etarli miqdorda moliyalashtirilmaganligi munosabati bilan paydo bo'lgan taqdirda, kreditorlik qarzining budjet tashkilotini rivojlantirish fondi mablag'lari hisobidan to'langan miqdori joriy moliya yiliga belgilangan xarajatlar limiti doirasida budjetdan qoplanadi. Vaqtincha to'la moliyalashtirilmaganligi natijasida budjet mablag'lari bo'yicha talab qilib olgunga qadar asosiy budjet depozit hisobvarag'ida mablag' bo'lmaganda, budjet mablag'lari bo'yicha talab qilib olgunga qadar asosiy depozit hisobvarag'idagi mablag'lar hisobidan keyinchalik to'ldirilishini hisobga olingan holda, budjet hisobidan qilinadigan xarajatlar budjet tashkilotini rivojlantirish fondi-budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha talab qilib olgunga qadar depozit hisobvarag'idagi mablag'lar hisobidan ham qilinishi mumkin.

**4. Budjetdan mablag' oluvchilarning budjetdan tashqari mablag'lari hisobini yuritish uchun shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ochish tartibi.**

Budjet tashkilotlarining Budjet tasnifining mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifining 4 001 – “Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi” kodi va xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifining 7 950 100 – “Budjet tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari” bo'lim va kichik bo'limlarini qo'llagan holda ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-son “Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq shakllanadigan budjet tashkilotining budjetdan tashqari daromadlari va xarajatlari hisobi yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrdagi «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida» gi Qonunga muvofiq budjet tashkilotida ishlovchi xodimlarga pensiya to'lovlarini to'lash bo'yicha mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifining 4 002 – “O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun mablag'lari” kodi va xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifining 7 950 100 – “Budjet tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari” bo'lim va kichik bo'limlarini qo'llagan holda tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlar ochiladi.

Ushbu (4002) shaxsiy g'azna hisobvaraqda budjet tashkilotida ishlovchi pensionerlarning pensiya to'lovlari uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan moliyalashtirilgan mablag'lar hisobi va pensiya to'lovi uchun amalga oshirilgan xarajatlar hisobi yuritiladi

Ushbu shaxsiy g'azna hisobvarag'idan budjet tashkilotida ishlovchi xodimlarning pensiya to'lovlari bo'yicha xarajatlar, budjetdan mablag' oluvchilarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar uchun naqd pul olishga So'rovnoma, pensiya to'lovlarini naqd pulda olish uchun mablag'larni G'aznachilikning bankdagi 23212, 23214 balans raqamli tranzit hisob raqamlariga o'tkazish to'g'risidagi to'lov topshiriqnomalari, ushbu hisob

raqamga o'tkazilgan mablag'lar doirasida yozilgan cheklar yoki ishlovchi pensionerlarning roziligi asosida ularning pensiyalarini plastik kartochnalarga o'tkazish bo'yicha to'lov topshiriqnomalari asosida, shaxsiy g'azna hisobvarag'ida mavjud qoldiqlar doirasida amalga oshiriladi.

Bunda, ushbu shaxsiy g'azna hisobvaraqdan xarajatlarni amalga oshirishda g'aznachilik bo'linmalari tomonidan, smeta xarajatlarini "G'aznachilik-4" DM ga kiritish yoki qog'oz formatda taqdim etilishi talab qilinmaydi.

Ushbu budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha shaxsiy g'azna xisobvarag'idan amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvarag'idan ko'chirmalar budjetdan mablag' oluvchilarning talabi bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilgan kundan keyingi kunda o'rnatilgan tartibda g'aznachilik bo'linmalari tomonidan taqdim etiladi.

Ushbu shaxsiy g'azna hisobvarag'iga yuqorida ko'rsatilganidan boshqa tushumlarning tushirilishi va mablag'lardan noo'rin foydalanish bo'yicha javobgarlik budjetdan mablag' oluvchilarning rahbarlari va bosh hisobchilariga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 21 dekabrda "Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi 276-sonli qaroriga muvofiq Tibbiyot muassasasining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifining 4 003- "Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish Jamg'armasi" kodi va xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifining 7 950 100 – "Budjet tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari" bo'lim va kichik bo'limlarini qo'llagan holda alohida shaxsiy g'azna hisobvaraqlar ochiladi.

Budjetdan mablag' oluvchilarning o'tgan yillardagi debitorlik qarzlarning qaytarilgan summolari, o'tkazilgan inventarizatsiya va tekshirishlar natijasida undiriladigan summalardan tushadigan tushumlar bo'yicha mablag'lar manbasi



va budjetlar darajasi tasnifining 4 004– “O’tgan yillar debitorlik qarzlarning tushgan summasi” kodi va xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifining 7 950 100 – “Budjet tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag’lari” bo’lim va kichik bo’limlarini qo’llagan holda tegishli shaxsiy g’azna hisobvaraqlar ochiladi.

Budjetdan mablag’ oluvchilarning budjet mablag’lari hisobidan paydo bo’lgan o’tgan yillardagi debitorlik qarzlarning qaytarilgan summalari 4004 shaxsiy g’azna hisobvaraqlarga kiritilgan bo’lib, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli qaroriga muvofiq, tegishli budjetlar daromadlariga o’tkaziladi.

Maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari va maktab-internatlari (keyingi o’rinlarda –budjet tashkilotlari deb yuritiladi) da bolalar ta’minoti uchun to’lanadigan mablag’lar va ushbu mablag’larning sarflanishi O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 13 fevralda 1768-son bilan ro’yxatga olingan “Maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari va maktab-internatlardagi bolalar ta’minotiga haq to’lash tartibi to’g’risida” Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlarida bolalar ta’minotiga to’langan mablag’lar va ushbu mablag’larning sarflanishi hisobini yuritish uchun Budjet tasnifining mablag’lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifining 4 005- “Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar ta’minoti uchun ota-onalardan tushumlar” kodi va xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifining 7 950 100 – “Budjet tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag’lari” bo’lim va kichik bo’limlarini qo’llagan holda tegishli shaxsiy g’azna hisobvaraqlar ochiladi.

O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 5 fevralda 1898-son bilan ro’yxatga olingan “Ota-onalar tomonidan bolalarning musiqa va san’at maktablarida o’qishi uchun haq to’lash va undan foydalanish tartibi to’g’risida Nizom”ga muvofiq amalga oshiriladi.

Maktabdan tashqari musiqa va sa'nat maktablarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalardan to'langan mablag'lar va ushbu mablag'larning sarflanishi hisobini yuritish uchun Budjet tasnifining mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifining 4 006- "Maktabdan tashqari muassasalarda bolalar ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar (musiqa va san'at maktablari)" kodi va xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifining 7 950 100 – "Budjet tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari" bo'lim va kichik bo'limlarini qo'llagan holda tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlar ochiladi.

Musiqa va san'at maktablarida o'qish uchun to'lanadigan to'lovlar qonun hujjatlarida belgilanadigan miqdorlarda undiriladi.

Budjet tashkilotlarining Budjet tasnifining mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifining 4 007 – "Xodimlardan, ular ishlayotgan joyida ovqatlanganligi bo'yicha hisob-kitoblardan tushadigan tushumlar" kodi va xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifining 7 950 100 – "Budjet tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari" bo'lim va kichik bo'limlarini qo'llagan holda ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida budjet tashkilotlari xodimlarining, ular ishlayotgan joyida ovqatlanganligi bo'yicha hisob-kitoblardan tushadigan tushumlar va xodimlarni ovqatlantirish uchun qilingan xarajatlar hisobi yuritiladi.

Ushbu budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasi tuzilmaydi.

Xodimlarning ovqatlanganligi uchun to'lovlar xodimlarning ish haqlaridan saqlangan holda mablag'larni bir shaxsiy g'azna hisobvarag'idan ikkinchi shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazish bilan yoki xodimlarning o'zlari tomonidan bank muassasalari orqali naqd pulda yoki plastik kartochkalari orqali amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 30 iyuldagi 163-sonli "Olimpiya zaxiralari kollejlarda sport zaxirasini tayyorlash tizimini

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Olimpiya zaxiralari kollejlari hamda Olimpiya zaxiralari sport maktab internatlarida (keyingi o'rinlarda- budjet tashkilotlari deb yuritiladi) tekin (imtiyozli) ovqatlantirish xarajatlarini qisman qoplash uchun ota-onalar to'lovidan tushadigan tushumlar va ushbu mablag'larning xarajati sarfi hisobini yuritish uchun Budjet tasnifining mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifining 4 008- "Maktab-internatlar va litseylarda bolalarning ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar" kodi va xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifining 7 950 100 – "Budjet tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari" bo'lim va kichik bo'limlarini qo'llagan holda ochiladigan tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlarda yuritiladi.

Olimpiya zaxiralari kollejlari o'quvchilari, shu jumladan, umumta'lim bo'g'ini o'quvchilari olimpiya zaxiralari kollejlari o'quvchilari uchun sutkalik oziq-ovqat normasiga muvofiq, ota-onalar to'lovi hisobiga xarajatlarni qisman qoplagan holda, tekin (imtiyozli) oziq-ovqat bilan ta'minlanadilar.

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining (keyingi o'rinlarda – budjet tashkilotlari deb yuritiladi) Budjet tasnifining mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifining 4 009- "O'quv muassasalarida o'qishdan tushayotgan mablag'lar" kodi va xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifining 7 950 100 – "Budjet tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari" bo'lim va kichik bo'limlarini qo'llagan holda ochilgan tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013 yil 26 fevralda 2431-son bilan ro'yxatga olingan Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq o'qitishning to'lov-kontrakt shakli bo'yicha tushadigan mablag'lar tushumi va ushbu mablag'larning xarajati sarfi hisobi yuritiladi..

O'qitishning to'lov-kontrakt shakli bo'yicha to'lovlar qonunchilikda beligilangan miqdor va muddatlarda undiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 19 noyabrdagi 520-sonli "Vazirliklar va idoralarning budjetdan tashqari jamg'armalariga mablag'lar ajratish va ulardan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga hamda Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 2 apreldagi 62-sonli qaroriga asosan, Davlat budjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan vazirliklar va idoralarning budjetdan tashqari jamg'armalariga ajratilgan mablag'lar mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifining 4 010- "Ajratmalar hisobiga shakllanadigan vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari jamg'armalari" kodi va xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifining 7 950 100 – "Budjet tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari" bo'lim va kichik bo'limlarini qo'llagan holda tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlar ochiladi.

Davlat budjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan vazirliklar va idoralarning budjetdan tashqari jamg'armalari daromadlari va xarajatlari smetalarini ro'yxatdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan, budjet mablag'lari uchun belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 14 yanvarda 2064-son bilan ro'yxatga olingan "Umumta'lim maktablarini darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq Respublika maqsadli kitob jamg'armasiga Darsliklar uchun ijara to'lovlari mablag'lari bo'yicha mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifining 4 011- "Umumta'lim muassasalarida darsliklar ijarasi to'lovidan tushgan budjetdan tashqari mablag'lar" kodi va xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifining 7 950 100 – "Budjet tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari" bo'lim va kichik bo'limlarini qo'llagan holda tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlar ochiladi.

Darsliklar va o'quv metodik qo'llanmalarni xarid qilish va etkazib berish xarajatlari, shuningdek qonunchilikda belgilangan Jamg'armaning boshqa xarajatlari to'lovlari belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya

vazirligining G'aznachiligi tomonidan Jamg'arma mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Moliya organlari tomonidan Davlat budjeti hisobidan kapital qo'yilmalarga ajratilgan mablag'larning o'tgan yilda foydalanmagan qismiga har bir qurilish ob'ekti uchun mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifining 4 012 – “Kapital qo'yilma mablag'lari bo'yicha depozitlar” kodi va xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifining 7 950 100 – “Budjet tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari” bo'lim va kichik bo'limlarini qo'llagan holda shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochiladi. Ushbu shaxsiy g'azna hisobvaraqlardan keyingi yillarda xarajatlar smetasida nazarda tutilgan mablag'lar doirasida qat'iy belgilangan maqsadlarga ishlatiladi.

Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 2 dekabrda 532-son “Davolash-profilaktika muassasalarini mablag' bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq turg'un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun undirilgan to'lovlar bo'yicha mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifining 4 013- “Turg'un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun undiriladigan to'lovlar” kodi va xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifining 7 950 100 – “Budjet tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari” bo'lim va kichik bo'limlarini qo'llagan holda tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlar ochiladi.

Ushbu mablag'larni shakllanishi va sarflanishi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan yuqorida qayd etilgan Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Amaldagi qonun xujjatlariga asosan ayrim vazirlik va idoralarda ajratmalar hisobiga shakllanadigan budjetdan tashqari jamg'armalariga kelib tushayotgan mablag'lardan o'zining yuqori tashkilotiga ham o'tkazib berishi yoki yuqori

tashkilotdan quyi tashkilotga ushbu mablag'larni o'tkazib berish nazarda tutilgan.

a) Qayta taqsimlash uchun vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari jamg'armalariga kelib tushadigan mablag' uchun ushbu vazirlik va idoralarning quyi bo'linmalarida mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifining quyidagi 4 014 – “Taqsimlanishi ko'zda tutilgan tushumlar” kodi va xarajatlarning vazifa jihatdan tasnifning 7 950 100 – “Budjet tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari” bo'lim va kichik bo'limlarini qo'llagan holda shaxsiy g'azna hisobvaraqlar ochiladi.

Vazirlik va idoralarning tegishli bo'linmalariga ochilgan yuqoridagi shaxsiy g'azna hisobvaraqlarga kelib tushgan mablag'larning tegishli qismi (o'ziga qoladigan qismi) ushbu bo'linmalar tomonidan tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlarga (4 010...) o'tkaziladi. Mazkur bo'linmalarning shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida (mablag'lar manbasi 4 014...) qolgan mablag'lar o'rnatilgan tartibda taqsimlanadi.

b) Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 21 dekabrda 276-son “Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida”gi qaroriga muvofiq tashkil qilingan tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllanish manbalaridan biri pulli davolash va xizmat ko'rsatish hisobiga tushadigan mablag'lar hisoblanadi.

Bunda, mazkur tushgan barcha mablag'lardan ushbu amalga oshirilgan davolash va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxini chiqarib tashlagan holda Jamg'armaga yo'naltirish lozimligini nazarda tutish zarur.

Ushbu mablag'lar hisobini to'g'ri olib borilishini ta'minlash maqsadida faqatgina pulli davolash va xizmatlar ko'rsatish hisobiga tushayotgan mablag'lar mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifining 4 014 – “Taqsimlanishi ko'zda tutilgan tushumlar” kodini hamda xarajatlarning vazifa jihatdan

tasnifning 7 950 100 – “Budjet tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag’lari” bo’lim va kichik bo’limlarini qo’llagan holda shaxsiy g’azna hisobvaraqlar ochiladi.

Mazkur shaxsiy g’azna hisobvaraqdan (4 014...) belgilangan tartibda davolash va xizmat ko’rsatishning tannarxi qoplangandan so’ng qolgan mablag’lar hozirda mavjud bo’lgan 4 003 – “Tibbiyot muassasalarini moddiy rag’batlantirish va rivojlantirish Jamg’armasi” kodi bilan ochilgan shaxsiy g’azna hisobvaraqlarga (xodimlarni moddiy rag’batlantirish va tashkilotni moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlariga alohida o’rnatilgan foizlar bo’yicha) o’rnatilgan tartibda yo’naltiriladi.

v) Budjet tashkilotlarining asosiy vositalarni sotish hamda ularni sotishdan tushgan pul mablag’larini taqsimlash tartibi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 31 dekabrda 343-son qarori bilan tasdiqlangan “Budjet tashkilotlari va davlat unitar korxonalarining asosiy vositalarini hamda qurilishi tugallanmagan ob’ektlarni sotish, shuningdek ularni sotishdan tushgan pul mablag’larini taqsimlash tartibi to’risida Nizom”ga muvofiq amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlarining boshqa asosiy vositalarini sotishdan tushgan mablag’lar budjetdan tashqari mablag’lar bo’yicha budjet tashkilotlarning talab qilib olinguncha depozit hisobraqamlarida (yoki Moliya vazirligi G’aznachiligining tegishli bo’linmalarida ochilgan shaxsiy g’azna hisobvaraqlarida) jamlanisha hamda ko’rsatib o’tilgan mablag’lar budjet tashkilotlari tomonidan quyidagi tartibda taqsimlanishi:

50 foizi – tegishli budjet daromadiga o’tkazilishi;

50 foizi – budjetdan tashqari mablag’lari bo’yicha budjet tashkilotlarning talab qilib olinguncha depozit hisobraqamlarida (yoki Moliya vazirligi G’aznachiligining tegishli bo’linmalarida ochilgan shaxsiy g’azna hisobvaraqlarida) qolishi belgilangan.

Bunda, byudjet tashkilotlarning boshqa asosiy vositalarini belgilangan tartibda sotishdan tushgan mablag'lar mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifining 4 014– “Taqsimlanishi ko'zda tutilgan tushumlar” kodi bilan ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlarga 100 foiz miqdorida kelib tushadi.

Tegishli budjet tashkilotlarining 4 014– “Taqsimlanishi ko'zda tutilgan tushumlar” kodi bilan ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlarga kelib tushgan mablag'lar budjet tashkilotlari tomonidan quyidagicha taqsimlanadi:

50 foizi – tegishli budjet daromadiga;

50 foizi – tegishli budjet tashkilotlarining mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifining 4 999– “Budjet tashkilotlarining boshqa budjetdan tashqari mablag'lari” kodi bilan ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda PQ-1449-son “O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi qarorining 30-ilovasiga muvofiq umumta'lim muassasalarining kuni uzaytirilgan guruhlarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalar tomonidan to'lanadigan to'lovlar mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifining 4 015– “Boshqa ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalar to'lovi” kodi va xarajatlarning vazifa jihatdan tasnifning 7 950 100 – “Budjet tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari” bo'lim va kichik bo'limlarini qo'llagan holda shaxsiy g'azna hisobvaraqlar ochiladi. Mazkur shaxsiy g'azna hisobvaraqlar bo'yicha xarajatlar smetasi tuziladi va qonunchilikda belgilangan tartibda xarajatlar amalga oshiriladi.

Bunda, maktabdan tashqari umumta'lim muassasalari zarur hollarda (bolalarning xaqiqiy qatnov kunlaridan kelib chiqqan holda) ushbu xarajatlar smetasining belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritib borishlari mumkin.

Yuqorida keltirilgan budjetdan mablag' oluvchilarning budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlarda ko'zda tutilmagan



mablag'lar bo'yicha mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifining 4 999– “Budjet tashkilotlarining boshqa budjetdan tashqari mablag'lari” kodi va xarajatlarning vazifa jihatdan tasnifning 7 950 100 – “Budjet tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari” bo'lim va kichik bo'limlarini qo'llagan holda shaxsiy g'azna hisobvaraqlar ochiladi.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. Maxsus mablag'lar qanday shakllanadiva qanday maqsadlarda foydalaniladi?
2. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari qanday shakllanadi?
3. Budjetdan tashqari mablag'lar qanday yo'nalishlarda taqsimlanadi?
4. Budjetdan tashqari mablag'lardan foydalanish qanday qonun xujjatlariga asoslangan holda amalga oshiriladi?
5. Budjet tashkilotlarining xarajatlari qanday guruhlariga bo'linadi?
6. Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari pul mablag'lari qanday hisob varaqlarda yuritiladi?
7. Budjetdan mablag' oluvchilarning budjetdan tashqari mablag'lari hisobini yuritish uchun shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ochish tartibi qanday mezonlarga asoslanadi?
8. Xodimning ish haqidan ushlanadigan budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga ushlanmalar necha foiz va qaysi hisob varag'ida yuritiladi?
9. Budjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi daromadlari tasnifi?
10. Eng asosiy xarajatlar guruhi haqida ma'lumot bering.

## **6-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG‘ARMASI**

### **6.1.O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi**

#### **1.**

**O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi faoliyatini taashkilot qilishning zarurligi, maqsad va vazifalari.**

Hozirgi paytda Davlat budjeti jahondagi har bir davlatning eng muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Uning samarali faoliyat ko‘rsatishi iqtisodiy o‘rnatishning sifatiga va ijtimoiy farovonlikning darajasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Davlat budjetining barqarorligi mamlakat iqtisodiyoti va eng avvalo, uning ijtimoiy sohasi holatini xarakterlaydigan eng muhim ko‘rsatkichlardan biridir.

**O‘zbekiston Respublikasining jamlangan (konsolidatsiyalashgan) budjeti tarkibiga quyidagilar kiradi:**

- *Davlat budjeti;*
- *davlat maqsadli jamg‘armalarining budjetlari;*
- *O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari.*

O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliya yili yakunlari bo‘yicha tahliliy maqsadlar uchun hamda budjet tizimi budjetlarining (budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari bundan mustasno) barcha tushumlari va xarajatlarini hamda O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larini, ular o‘rtasidagi transfertlarni hisobga olmagan holda hisobga olib borish uchun tuziladi.

### **Demak, Davlat budjeti quyidagi darajadagi budjetlardan iborat:**

- O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti tuzilmasiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining budjetlari kiradi. Viloyatlar mahalliy budjetlari tuzilmasiga viloyat budjeti, tegishli viloyatlar tumanlari va shaharlarining budjetlari kiradi. Toshkent shahar mahalliy budjeti tuzilmasiga shahar budjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning budjetlari kiradi.

### **Davlat maqsadli jamg‘armalari quyidagilardir:**

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi;
- Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar jamg‘armasi;
- O‘zbekiston Respublikasining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasi.

O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi moliyaviy muassasadir va u ustuvor investitsiya loyihalarini hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlashga, mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishilishiga, shuningdek samarali tarkibiy va investitsiya siyosati amalga oshirilishiga doir loyihalarni moliyalashtirish uchun Kodeksda belgilangan mablag‘larni jamlaydi. O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasini boshqarish Kengashi O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining yuqori boshqaruv organi bo‘lib, uning tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining ijro etuvchi direksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining ijro etuvchi organi va mablag‘larini taqsimlovchidir.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyotga davlat kapital qo‘yilmalarini safarbar etishda davlatning aniq maqsadlarga mo‘ljallangan fondlari muhim ahamiyatga ega . Shunday fondlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 11 may Farmoni bilan tashkil qilingan Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidir. Mazkur jamg‘arma iqtisodiyotning yetakchi, eng avvalo bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnikaviy qayta qurollantirish loyihalari amalga oshirilishini ta‘minlash, mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish, shuningdek samarali tarkibiy va investitsiyaviy siyosatni amalga oshirish maqsadida tuzilgan.

Dastlab Jamg‘arma O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Markaziy bankining taklifiga binoan Ustav kapitali 1,0 mlrd. AQSh dollari miqdorida bo‘lgan davlat maqsadli fondi sifatida tashkil etildi. Jamg‘arma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etildi va yuridik shaxs huquqlariga egadir.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi moliyaviy muassasadir va u ustuvor investitsiya loyihalarini hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlashga, mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishilishiga, shuningdek samarali tarkibiy va investitsiya siyosati amalga oshirilishiga doir loyihalarni moliyalashtirish uchun ushbu Kodeksda belgilangan mablag'larni jamlaydi.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini boshqarish Kengashi O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining yuqori boshqaruv organi bo'lib, uning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ijro etuvchi direksiyasi O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ijro etuvchi organi va mablag'larini taqsimlovchidir.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ijro etuvchi direksiyasi O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga:

- har yili 1 iyulgacha O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining kelgusi yil uchun daromadlari va xarajatlari loyihasini;
- yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunigacha O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni taqdim etadi.

**Jamg'armaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:**

- davlat va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, shu jumladan tijorat banklari, xorijiy jamg‘arma va investorlar hamda boshqa manfaatdor tuzilmalarning moliyaviy mablag‘larini jamlash;

- iqtisodiyotni rivojlantirish, ishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va modernizatsiya qilish borasida ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan g‘oyat muhim loyihalarni moliyalashtirish;

- strategik muhim ahamiyatga ega bo‘lgan korxonalar, avvalo iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari korxonalarini yangilash va texnik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini kreditlash;

- yoqilg‘i-energetika kompleksi, kimyo sanoati, mashinasozlik va rangli metallurgiya tarmoqlarini texnikaviy qayta qurollantirishga hamda ishlab chiqarish sur‘atlari va hajmlarini oshirishga yo‘naltirilgan loyihalar moliyalashtirilishini ta‘minlash;

- birinchi navbatda istiqbolli, ammo yetarlicha rivojlanmagan mintaqalarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish bo‘yicha ijtimoiy jihatdan ahamiyatli milliy davlat dasturlari va loyihalari amalga oshirilishini moliyalashtirish;

- respublikaning xalqaro kommunikatsiyalar tarmog‘iga integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratadigan, xalqaro transport yo‘laklari va jahon bozorlariga eng qisqa yo‘l bilan chiqishini ta‘minlaydigan transport hamda telekommunikatsiyalar infratuzilmasini modernizatsiyalash va rivojlantirishni moliyalashtirish;

- xalqaro moliya institutlari, respublika va xorijiy mamlakatlarning kredit muassasalari bilan loyihalarning qo‘shma moliyalashtirilishini tashkil etishni ta‘minlash.

## **2. O‘zbekiston Respublikasi Tiklanishvataraqqiyotjamg‘armasining daromadlari.**

## O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining daromadlari :

– asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlarini tasdiqlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari bilan strategik resurslarga belgilanadigan chegara narxidan jahon narxining oshishi natijasida tushadigan tushumlar;

– O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining aktivlarini boshqarishdan, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larining bo‘sh turgan qoldiqlarini joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.


O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining mablag‘lari o‘zining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan hisobvaraqlarida chet el valyutasida shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining hisobvaraqlariga tushadigan milliy valyutadagi mablag‘larning O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mablag‘lar tushgan sanadagi almashuv kursi bo‘yicha chet el valyutasiga konvertatsiyasini amalga oshirib, ularni keyinchalik mazkur jamg‘armaning valyuta hisobvarag‘iga kiritadi.

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasini shakllantirishning asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

– strategik resurslarga jahon narxlarining qulay kon’yunkturasi natijasida, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlardan olinadigan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan navbatdagi yilga Davlat budjetini

tasdiqlash chog'ida belgilanadigan ayrim soliq va to'lov turlari bo'yicha hosil bo'ladigan qo'shimcha tushumlar;



### **1-rasm. O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining daromadlari**

- Hukumatning xorijiy valyuta va aktivlarining bir qismi;
- O'zbekiston Respublikasining xorijiy sheriklar bilan mahsulotni taqsimlash to'g'risidagi bitimlari doirasida mahsulot sotishdan oladigan daromadlari;
- davlat mulkini xorijiy investorlarga chet el valyutasiga sotishda Davlat budjeti daromadlari rejasidan ortiqcha tushadigan mablag'lar:
- Jamg'arma aktivlarini boshqarishdan olinadigan investitsiya daromadlari;
- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa



tushum va daromadlar.

Prezident Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2006-2009 yillar mobaynida Jamg'armaning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi hisobvarag'ida Jamg'arma aktivlarini 1,0 mlrd. AQSh dollari miqdorida shakllantirishni ta'minlashi belgilab qo'yildi.

Jamg'arma soliqlar, yig'imglar, bojlarning barcha turlaridan hamda davlatning maqsadli jamgarmalariga majburiy ajratmalaridan ozod qilinadi (yagona ijtimoiy to'lov bundan mustasno).

### **3. O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari.**

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mablag'laridan :

- Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish;
- yangi sanoat ishlab chiqarishlarini bundan buyon joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va rekonstruktsiya qilish loyihalarini moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlar berish;
- yangidan tashkil etilayotgan moliyaviy institutlarning hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlaridagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi strategik ahamiyatga molik korxonalarining ustav kapitaliga investitsiya kiritish;
- davlat tomonidan tashqi mablag'larni jalb qilish bo'yicha xalqaro moliya institutlari va chet ellik kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lash;
- O'zbekiston Respublikasining Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturlari doirasida tijorat

banklari uchun chet el valyutasida ochiladigan kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini jadal moliyalashtirish va amalga oshirish;

- grant asosida yoki foizsiz kreditlar berish yo‘li bilan ayrim loyihalarning dastlabki yoki uzil-kesil texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishni moliyalashtirish;

- tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va asbob-uskunalar, strategik ahamiyatga molik boshqa tovarlar xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar berish;

- ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik milliy davlat dasturlarini hamda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirishga doir loyihalarni grant asosida moliyalashtirish;

- qarz oluvchi korxonalarining investitsiya dasturlarini (biznes-rejalarini), shu jumladan ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarish quvvatlarining ishlatilishini ko‘paytirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilish hajmlarini oshirish, qo‘shilgan qiymat o‘shirishni ta‘minlashga imkon beradigan investitsiya dasturlarini (biznes-rejalarini) tijorat banklari bilan birgalikda moliyalashtirish;


- O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining ijro etuvchi devonini saqlab turish hamda uni boshqarish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash uchun foydalaniladi.

Har qanday maqsadli davlat jamg‘armasi kabi, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish yo‘nalishlari va tartiblari tegishli me‘yoriy hujjatlar bilan belgilab qo‘yilgan. Xususan, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq, Jamg‘arma mablag‘lari quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi:

- avvalo yoqilg‘i-energetika kompleksi, kimyo sanoati, mashinasozlik, rangli metallurgiya va iqtisodiyotning boshqa bazaviy tarmoqlarida, shuningdek transport va telekommunikatsiya sohasida Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan g‘oyat muhim loyihalarni moliyalashtirish, shu jumladan xalqaro va xorijiy

moliyaviy institutlar ishtirokidagi loyihalarda O'zbekiston Respublikasi ulushini qo'shma moliyalashtirish;

## O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari



**2-rasm. O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari**

- kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini moliyalash maqsadida, shu jumladan Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan imtiyozli kreditlar berish;

- yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarining ustav kapitaliga investitsiya kiritish;

- davlatning tashqi qarzlari bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lash;

- iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo'yicha Hukumat tomonidan tasdiqlangan dasturlar doirasida, tijorat banklariga xorijiy valyutada ochiladigan kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini jadal moliyalashtirish va amalga oshirish;

- ayrim loyihalarning dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishni grant asosida yoki foizsiz kreditlar ajratish yo'li bilan moliyalashtirish;

- yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq xarid qilish uchun Hukumat qarorlari bo'yicha imtiyozli kreditlar berish;

- birinchi navbatda istiqbolli, ammo yetarlicha rivojlanmagan hududlarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha ijtimoiy jihatdan ahamiyatli milliy davlat dasturlari va loyihalarini, Davlat budjeti va investitsiya dasturining tasdiqlangan parametrlari doirasida, grant asosida moliyalashtirish (qo'shma moliyalashtirish);

- tijorat banklari bilan birgalikda qarz oluvchi korxonalarining investitsiya dasturi (biznes-rejalari)ni, shu jumladan ishlab chiqarishni

- texnik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarish quvvatlarining ishlatilishini ko'paytirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uni

eksport qilish hajmlarini oshirish hamda qo'shilgan qiymat o'sishini ta'minlashga imkoniyat beruvchi loyihalarni qo'shma moliyalashtirish;

- Jamg'armani boshqarish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash.

Jamg'arma mablag'lari tushumi manbalari va ulardan foydalanish yo'nalishlari har yili belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritiladi va Jamg'arma balansida aks ettiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan 2012 yil 9 martda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1725-son qarori bilan korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash jarayonlarini amalga oshirishda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi rolini oshirish hamda ishtiroki ko'lamini kengaytirish, mamlakat sanoatining etakchi tarmoqlarida va ishlab chiqarish infratuzilmasidagi strategik investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalash hajmlarini ko'paytirish uchun Jamg'armaning resurs bazasini mustahkamlash maqsadida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining **ustav kapitali belgilangan 10 mlrd. AQSh dollari** miqdorida shakllantirildi.

O'zbekiston hududida o'zlari uchun g'oyat muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish (qo'shma moliyalashtirish)dan manfaatdor bo'lgan xalqaro va xorijiy jamg'armalar hamda investorlar hukumat qarorlariga binoan Jamg'arma hammuassislari sifatida qo'shilishi, mazkur moliya institutlarining vakillari Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tarkibiga kiritilishi mumkin.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hukm surayotgan ayni damda, iqtisodiyotning real sektor korxonalarini, shuning bilan birga infratuzilma ob'ektlari rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida investitsion mablag'larni topish va ularni maqsadli yo'naltirish muhim omillardan biriga aylanmoqda .

#### 4.

### **O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini boshqarish.**

Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash Jamg'armaning yuqori boshqaruv organi hisoblanadi, uning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

#### **Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash:**

➤ Jamg'arma faoliyatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi;

➤ Jamg'armaning e'lon qilingan ustav kapitalini qayta ko'rib chiqish to'g'risida qaror qabul qiladi, biroq u O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" 2006 yil 11 maydagi PF-3751-son Farmonida belgilangan darajadan past bo'lmasligi kerak.

➤ Jamg'armaga mablag'lar kelib tushishi va ulardan foydalanish prognozlarini ko'rib chiqadi hamda ularni navbatdagi yilga mo'ljallangan makroiqtisodiy va pul-kredit ko'rsatkichlarining asosiy parametrlari, Davlat budjeti hamda Davlat investitsiya dasturi bilan bog'liq holda belgilangan tartibda tasdiqlash uchun kiritadi;

➤ qarz olgan korxonalarni qayta moliyalashtirish (qo'shma moliyalashtirish) uchun tijorat banklariga Jamg'arma mablag'larini berish muddatlari va shartlari bo'yicha qarorlar qabul qiladi, xalqaro sarmoya bozorlarida amal qilayotgan foiz stavkalaridan kelib chiqib Jamg'arma tomonidan berilayotgan mablag'lar bo'yicha foiz stavkalarining aniq miqdorlarini tasdiqlaydi;

➤ kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlarni berish muddatlari va shartlari bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

➤ davlatning tashqi qarzlari bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lash uchun O'zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligiga mablag'lar ajratib berish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

➤ yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarining ustav kapitaliga Jamg'arma mablag'laridan investitsiya kiritish bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

➤ ayrim loyihalarning dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun grantlar va foizsiz kreditlarni ajratish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

➤ yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq xarid qilish uchun Hukumat qarorlari bo'yicha imtiyozli kreditlar berish to'g'risida qaror qabul qiladi;

➤ Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi faoliyati, ayniqsa Jamg'arma mablag'larining maqsadli yo'naltirilganligi, tijorat banklariga moliyalashtirishni o'z vaqtida ochish hamda ularga berilgan mablag'larning qaytarilishini ta'minlash ustidan nazoratni amalga oshiradi;

➤ Jamg'arma mablag'larining ishlatilishi to'g'risida Jamg'arma ijro etuvchi direktorining hamda qarz olgan korxonalar tomonidan Jamg'arma mablag'laridan samarali foydalanilishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida manfaatdor vazirliklar, idoralar va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini muntazam ravishda eshitib boradi;

➤ Jamg'armaga aktivlarni boshqarish, ekspertiza qilish va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish sohasidagi yuqori malakali mutaxassislarni jalb qiladi.

Ijro etuvchi direksiya Jamg'armaning ijroiya organi hisoblanadi, uning tarkibi va soni o'rnatilgan tartibda belgilanadi.

Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi faoliyati bilan bog'liq xarajatlar Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tomonidan tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida Jamg'arma mablag'lari hisobidan qoplanadi.



Ijro etuvchi direksiya:

- Jamg'armaga mablag'larning kelib tushish va ulardan foydalanish prognozlarini ishlab chiqadi;
- qarz oluvchi korxonalarni qayta moliyalashtirish uchun muddatli, to'lovli va qaytarish shartlari asosida tijorat banklariga moliyaviy mablag'larni taqdim etadi;
- kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlar berish to'g'risida shartnomalar tuzadi;
- davlatning tashqi qarzlari bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lash uchun Moliya vazirligiga mablag'lar ajratadi;
- yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarning ustav kapitaliga Jamg'arma mablag'laridan investitsiya kiritadi;
- ayrim investitsiya loyihalarining dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun loyiha tashabbuskorlariga grantlar va foizsiz kreditlarni, ajratilgan kreditlar miqdorini keyinchalik loyihaning umumiy qiymatiga va loyiha Jamg'arma kreditini jalb qilish yo'li bilan amalga oshirilgan taqdirda ajratilayotgan kreditning umumiy qiymatiga qo'shish sharti bilan berish to'g'risida bitimlar tuzadi;
- yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq Hukumat qarorlari bo'yicha xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar beradi;
- Jamg'arma mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishi, tijorat banklariga berilgan mablag'larning o'z vaqtida qaytarilishi ustidan tizimli ravishda monitoring olib boradi;

➤ tijorat banklarida ochilgan hisobvaraqlar holati va ular bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalar to'g'risidagi har qanday ma'lumotni olish huquqiga ega bo'lgan holda, qarz oluvchi korxonalar tomonidan Jamg'arma kreditlari bo'yicha majburiyatlarining bajarilishi masalalari yuzasidan ular faoliyatining monitoringini olib boradi.

Jamg'arma daromadlari va xarajatlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni ishlab chiqadi va Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tomonidan ma'qullangandan so'ng uni belgilangan muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Hisob palatasiga taqdim etadi.

Jamg'armaning ijro etuvchi direktori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi, maqomi bo'yicha vazir o'rinbosariga tenglashtiriladi.

#### **Jamg'armaning ijro etuvchi direktori:**

➤ Jamg'armaga yuklatilgan vazifa va funktsiyalarga binoan ijrochi direktsiyaning faoliyatini tashkil etadi va shaxsan mas'ul bo'ladi, xodimlarning belgilangan cheklangan umumiy soni doirasida ijrochi direktsiyaning shtat jadvalini shakllantiradi, Jamg'arma nomidan kredit, xo'jalik va mehnat shartnomalarini imzolaydi;

➤ Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash bilan kelishgan holda Jamg'arma mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan belgilangan tartibda tekshiruvlar tashkil qiladi, ularning natijalarini ko'rib chiqadi va ular bo'yicha qarorlar qabul qiladi hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan zarur choralarni ko'radi;

➤ qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Jamg'arma apparati tarkibida tegishli loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha xulosa yoki tavsiyalar berishga mas'ul bo'lgan yuqori malakali ekspertlar guruhi tashkil qilinadi.

### Nazorat uchun savollar

1. O‘zbekiston Respublikasining jamlangan (konsolidatsiyalashgan) budjeti tarkibiga qanday budjetlar kiradi?
2. O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining daromadlari qanday shakllanadi?
3. O‘zbekiston Respublikasi Hisobpalatasiva O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining hisobotlarini qanday muddatlarda qabul qiladi?
4. Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining ustav kapitali miqdori qanchani tashkil etadi?
5. O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining mablag‘laridan foydalanish yo‘nalishlari?
6. Jamg‘armaning mablag‘lari qanday nazorat qilinadi?
7. O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining mablag‘lari qanday valyutalarda yuritiladi?
8. Respublikamizda mavjud bo‘lgan yana qanday maqsadli jamg‘armalarni bilasiz?
9. O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining ijroiya organi qanday vazifani bajaradi?
10. Jamg‘armaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

## 7-BOB. BUDJET JARAYONINI TASHKIL ETISH ASOSLARI

### 7.1.Xarajatlarni smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va ularni ro'yxatdan o'tkazish

#### 1. Xarajatlarni smetasi – Budjet tashkilotlarini moliyaviy reja sifatida. Smeta, uning elementlari. Smetalarning turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 4-moddasida budjet tashkilotlariga quyidagicha ta'rif berilgan: «Budjet tashkiloti – davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, Davlat Budjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot Budjet tashkilotidir.

Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish shartlari va ularning Budjet hisobini yuritish tartibi Budjet to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Davlat budjeti hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish, budjet mablag'laridan samarali va aniq foydalanish maqsadida 1999 yil 3 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 414-son Qarori qabul qilindi. Mazkur Qaror 2000 yil 1 yanvardan boshlab budjet tashkilotlari xarajatlarini mablag' bilan ta'minlashning yangi tartibini belgilab berdi. U quyidagilarni nazarda tutadi:

- ◆ budjet mablag'laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda budjet intizomini mustahkamlash uchun budjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish;

- ◆ budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini soddalashtirish va budjet mablag'laridan foydalanishda yuqori natijalarga

erishish maqsadida mavjud mablaglarni oqilona taqsimlash uchun imkoniyatlar yaratish;

◆ ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni, ish haqiga qo'shimchalar, kapital qo'yilmalar va boshqa xarajatlarni guruhlagan holda bir satrda mablag bilan ta'minlash usulida budjet tashkilotlarini |normativlar bo'yicha (faoliyat turiga ko'ra) mablag bilan ta'minlashning yangi tartibini joriy etish;

◆ budjetdan mablag bilan ta'minlashni budjet tashkilotlarining faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish faoliyatini kengaytirish bilan birga qo'shib olib borish;

◆ budjet tashkilotlari xodimlari mehnatini ragbatlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarning o'rnashib qolishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

Mazkur Qarorning to'liq ijrosini ta'minlash maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan faoliyatdagi tashkilotlarga qo'shimcha ravishda 2000 yildan boshlab bir qator budjet tashkilotlari va muassasalariga yuridik shaxs maqomi berilgan. Bular:

Maorif sohasida:

-kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, professional-texnika o'quv yurtlari va bolalar uylari;

-umumta'lim maktablari, gimnaziya, litseylar, maktablararo o'quv-ishlab chiqarish kombinatlari – o'quvchilar kontingenti 400 kishidan kam bo'lmasa;

-internatlar – o'quvchilar kontingenti 200 kishidan kam bo'lmasa;

-maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari – bolalar kontingenti 350 kishidan kam bo'lmasa;

viloyat va tuman (shahar) ahamiyatiga molik maktabdan tashqari muassasalar;

Sog'liqni saqlash sohasida:

- kasalxonalar (ixtisoslashtirilgan markazlar bilan), tug'ruqxonalar, tibbiy-sanitariya qismlari, dispanserlar, shifoxonalar;

- bolalar uylari, bolalar sanatoriylari, kattalar uchun sil kasalliklari sanatoriylari;

- tajriba tariqasida ochilgan qishloq vrachlik punktlari.

Sanab o'tilgan budjet tashkilotlariga yuridik shaxs maqomi quyidagi sharoitlar mavjud bo'lgandagina berilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan:

- moddiy-texnika bazasi va faoliyat sohasi bo'yicha xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish uchun sharoitlar;

- buxgalter kadrlarning mavjud bo'lishi.

Keyingi yillarda budjet amaliyotidagi o'zgarishlar, Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risidagi Qonunning qabul qilinishi va budjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish mexanizmining o'zgarishi munosabati bilan amaldagi 414-son Qarorga 2007 yil 19 iyul 148-son Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan qator o'zgartirishlar kiritildi. Unga muvofiq, g'azna ijrosiga o'tgan Budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlari Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan yagona g'azna hisob raqamidan, shuningdek smetada ko'rsatilgan xarajatlar guruhlarining har bir moddasi bo'yicha hududiy g'aznachilik hisob raqamidan amalga oshiriladi.

**Xarajatlar smetasi - byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchi tomonidan moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan, uning uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar xarajatlar moddalari bo'yicha aks ettiriladigan hujjat .**

O'zbekiston Respublikasi Davlat Budjetidan moliyalashtiriladigan Budjet tashkiloti va Budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini, daromadlar va xarajatlar smetalarini, vaqtinchalik xarajatlar

smetalarini, shuningdek Budjet mablag'larini taqsimlovchilarning jamlanma xarajatlar smetasi hamda shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish Moliya vazirligining 2014 yil 14 noyabrdagi 74-sonli buyrug'iga asosan tasdiqlangan «Budjet tashkilotlari va Budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom» (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014 yil 15 dekabrda 2634-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) asosida amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlari o'zlarining xarajatlarini hisoblab chiqishda quyidagilarga amal qiladilar:

1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa qarorlari, Prezident farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining normativ hujjatlariga;

2. Budjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirishning normativ uslubiga;


3. Tovar va xizmatlarning davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflariga, shuningdek nodavlat korxonalar va tashkilotlarning ayrim tovarlari va xizmatlari baholariga;

4. Yuqori turuvchi tashkilotlar rahbarlarining o'zlari tasarrufidagi muassasalarning kelgusi yil uchun xarajatlar smetalarini tuzish masalalari bo'yicha ko'rsatmalari va takliflariga, agarda ular qonun hujjatlariga zid bo'lmasa,

5. Bolalar va boshqa ijtimoiy-madaniy tashkilotlarda ovqatlanishga ketadigan xarajatlar summasi qonun hujjatlari bilan tasdiqdangan tashkilotlarning ayrim turlari uchun belgilangan ovqatlanish me'yorlari ovqatlanish kunining sonidan kelib chiqib hisoblanadi;

6. Dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar summasi qonun xujjatlari bilan belgilangan pul xarajatlari me'yoriga qarab hisoblab chiqiladi;

7. Ijtimoiy-madaniy tashkilotlarning ayrim guruhi uchun kiyim-kechak, poyafzal, choyshab, yotoq anjomlari va boshqa yumshoq buyumlar sotib olishga ketadigan xarajatlar, moddiy ta'minotning amaldagi me'yorlari asosida, lekin ajratilgan mablag'lar doirasida hisoblanadi.




**1-rasm. Budjet tashkilotlari xarajatlar smetalarining guruhlanishi**

**Vaqtinchalik xarajatlar smetasi** - Budjet tashkilotining yoki Budjet mablag'lari oluvchining xarajatlar smetasi tasdiqlanganiga va ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar amal qiladigan hujjat bo'lib, unda qonun hujjatlaridagi o'zgartirishlar hisobga olingan holda uning uchun nazarda tutilgan Budjetdan ajratiladigan mablag'lar har oy uchun aks ettiriladi.



Smetalarning quyidagi turlari amalda qo'llaniladi:



Yakka smetalar yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida olingan muassasa bo'yicha tuziladi.

Umumlashtirilgan smetalar bir budjet bo'g'inidan moliyalashtiriladigan muayyan bir tarmoqning bir tur(tip)dagi muassasa va tashkilotlari bo'yicha tuziladi.

Yig'ma smetalar bir budjet bo'g'inidan moliyalashtiriladigan muayyan bir tarmoqqa tegishli barcha muassasa va tashkilotlari bo'yicha tuziladi.

Budjet mablag'lari budjet tashkilotlari tomonidan mustaqil ravishda, budjet ijrosi jarayonida belglangan tartibda ularga kiritilgan o'zgarishlarni hisobga olgan xolda tasdiqlangan xarajatlar smetasi doirasida sarflanadi.

Smeta xarajatlari quyidagi xarajat guruhlari bo'yicha rejalashtiriladi:

I-guruh – Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (bolali onalarga nafaqalar, stipendiyalar va boshqalar)

II-guruh – Ish beruvchilarning ajratmalari (Ish haqiga ustamalar)

III-guruh – Kapital qo'yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan aniq ro'yxatlarga muvofiq);

Xarajatlarni moliyalashtirish (to'lash) budget ijrosi jarayonida xarajatlar ro'yxati va smetasiga kiritiladigan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda tegishli yil uchun tasdiqlangan budget parametrlariga hamda budget tashkilotlarining xarajatlar smetalariga muvofiq tuzilgan budget xarajatlarining choraklar bo'yicha taqsimlangan yillik ro'yxatiga binoan amalga oshiriladi. (O'zR VM 19.07.2007 y. 148-son Qarori taxriridagi band)

Xarajatlar smetalariga faqat Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari, shu bilan birga belgilangan xarajatlar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimiyatlar tomonidan, ularga berilgan huquklar doirasida nazarda tutilgan xarajatlar kiritiladi.

Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi budget tashkiloti bo'yicha xarajatlar smetalari 1 yanvardan 31 dekabrgacha bo'lgan muddatga tuziladi va amal qiladi. Joriy yilda ishga tushiriladigan tashkilotlar bo'yicha esa ularning budget yilida ishlagan muddatiga tuziladi va amal qiladi.

Xarajatlar smetalari tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti xarajatlarining amaldagi iqtisodiy tasnifiga muvofiq xarajatlar guruhi bo'yicha, boshqa xarajatlar va ularning hisob-kitobini o'z ichiga olgan to'liq yoyilmasi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakllari asosida tuziladi. Tashkilotlarning xarajatlar smetalari tegishli yuqori organlari rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

I-guruh – Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (bolali onalarga nafaqalar, stipendiyalar va boshqalar) ga quyidagi xarajat turlari kiradi:

- “Ish haqi”
- “Umumta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirish Direktor fondi mablag'lari” (Faqat umumta'lim maktablarida)

- Stipendiyalar

Umuman olganda, budjet tashkilotlari xodimlari ish xaqini hisoblashda ular mehnatiga haq to'lashning Yagona Tarif Setkasi qo'llaniladi. YaTS O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan o'rnatiladi. U 22 ta razryaddan va har bir razryad uchun o'rnatilgan tegishli tarif koeffitsientlaridan iborat. Yagona Tarif Setkasi qonunan o'rnatilgan eng kam ish haqi miqdoriga asoslanadi va budjet tashkilotlari xodimlari lavozim okladlarini aniqlash uchun qo'llaniladi. Ayrim tarmoqlar uchun esa mehnatga haq to'lashning tarmoq setkasi qo'llaniladi. Masalan, oliy ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, sog'liqni saqlash davlat tashkilotlari uchun ular xodimlari mehnatining xususiyatidan kelib chiqqan holda haq to'lashning tarmoq setkalari ishlab chiqilgan.

Kod 01200 "Ish haqiga ustamalar" (Ish beruvchilarning ajratmalari):

Bu kodda mehnat haqi fondiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan yagona ijtimoiy to'lov summasi aks ettiriladi. Xarajatlar 01100 kod bo'yicha ko'rsatilgan summaga nisbatan o'rnatilgan foizlarda hisoblanadi. 2013 yil uchun yagona ijtimoiy to'lov miqdori mehnat haqi fondiga nisbatan 25 foiz qilib belgilangan.

IY guruh «Boshqa xarajatlar» tarkibiga quyidagi xarajat turlari va ularga mos xarajat kodlari kiradi:

- «Xizmat safar xarajatlari»
- «Kommunal xizmatlarni to'lash xarajatlari»
- «Telefon, telekommunikatsion va axborot xizmatlari xarajatlari»
- «Joriy ta'mirlash xarajatlari»
- «Saqlash, ekspluatatsion xarajatlar va boshqa xizmatlarni to'lash xarajatlari»
- «Texnika, uskunalar, joriy maqsadlardagi boshqa buyumlarni va oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish xarajatlari»

- « Boshqa joriy xarajatlar»
- «Asosiy kapital aktivlarni sotib olish»
- «Noishlab chiqarish sohasidagi kapital ta'mirlash xarajatlari».

IV guruh moddalari bo'yicha xarajatlarni rejalashtirish va hisob-kitob qilishning o'ziga hos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- amaldagi narhlar va tariflar asosida hisoblab chiqariladi;
- natural shaklda ajratilgan limitlar asosida aniqlanadi;
- hisoblagichlarning ko'rsatkichlari bo'yicha o'tgan yildagi haqiqiy xarajatlar inobatga olinadi;
- har bir birlik uchun o'rnatilgan xarajat me'yorlariga rioya etiladi;
- energo-yoqilg'i va boshqa resurslarni iqtisod qilish rejimiga rioya etiladi.

## **2. Xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish va tasdiqlash.**

Budjet tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan budjetdan mablag' bilan ta'minlash normativlari asosida smeta va shtatlar jadvalini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mustaqil ravishda ishlab chiqadilar va tasdiqlaydilar.

Smetalar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarining amaldagi tasnifnomasiga muvofiq xarajatlarning to'liq yoyilmasi ilova qilingan holda xarajatlarning to'rt guruhi bo'yicha tuziladi.

Ilova smetaning ajralmas qismi hisoblanadi, smetaning prognoz hisob-kitoblarini asoslash uchun xizmat qiladi va hisobot maqsadlari uchun foydalaniladi.

Xalq ta'limi muassasalari bo'yicha xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali hududiy moliya organlari bilan birgalikda tuziladi.

Xarajatlar smetalari Budjet tashkilotlari va Budjet mablag'lari oluvchilar tomonidan, yil oylari bo'yicha taqsimlangan holda :

- xarajatlarning birinchi - uchinchi guruhleri bo'yicha xarajatlarning moddalariga ko'ra ajratib;
- xarajatlarning to'rtinchi guruhi bo'yicha xarajatlarning moddalariga ko'ra ajratmasdan tuziladi.

Xarajatlar smetasiga xarajatlarning moddalari bo'yicha to'rtinchi guruh xarajatlari yoyilmasi, shuningdek davlat ehtiyojlari uchun ustuvor ravishda kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) guruhlarining ro'yxati bo'yicha xarajatlar yoyilmasi ilova qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining diplomatik muassasalari bo'yicha xarajatlar smetalari har bir diplomatik muassasa bo'yicha alohida-alohida xorijiy va milliy valyutalarda tuziladi.

Budjet tashkilotlarining va Budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari ikki nusxada, Budjet mablag'larini taqsimlovchi tasarrufidagi Budjet tashkilotlari va Budjet mablag'lari oluvchilar bo'yicha uch nusxada tuziladi.

Moliya organlari va Budjet mablag'larini taqsimlovchilar Budjet tashkilotlari hamda Budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalariga doir hisob-kitoblarni talab qilishga haqlidir.

Budjet mablag'larini taqsimlovchi o'z tasarrufidagi tashkilotlardan kelib tushgan xarajatlar smetalarini moliya yili uchun Budjet mablag'larini taqsimlovchiga Budjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmi doirasida ko'rib chiqadi va Budjet mablag'larini taqsimlovchining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladigan jamlanma xarajatlar smetasini tuzadi.

Xarajatlar smetasining, jamlanma xarajatlar smetasining va ularga doir ilovalarning shakllari, shuningdek ularni tuzish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Xarajatlar smetasini tuzish bo'yicha ishlarni tashkil etish davomida O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari o'zlariga bo'ysunuvchi tashkilotlarga tegishli halq deputatlari Kengashi sessiyasining Budjetni tuzish tartibi va muddati to'g'risidagi qaroridan va moliya organining ushbu masala bo'yicha ko'rsatmalaridan kelib chiqib, kelgusi yil uchun smetalarni tuzish tartibi va muddatlari to'g'risida ko'rsatmalar beradilar.

Buning uchun O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari va idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari o'zlariga qarashli tashkilotlarning rahbarlari hamda tegishli xodimlari kengashini chaqiradilar va xarajatlar smetasini tuzish tartibi va muddatlari to'g'risida yo'l-yo'riqlar ko'rsatadilar, ularga tashkilotlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga va ularga xarajatlar smetasini tuzish masalalari bo'yicha qonunchilik talablarini tushuntiradilar, byud-jet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasi hisob-kitoblarini albatta qonunchilikka muvofiq kelishi, xarajat qilishda moliya intizomiga, iqtisod qilish tartibiga rioya qilish haqida ko'rsatmalar beradilar, shuningdek, xarajatlar smetasini tuzish hamda blankalarni to'ldirish texnikasi masalalari bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatadilar.

Bir vaqtning o'zida o'zlariga qarashli tashkilotlarga ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida (sinflar, o'quvchilar, bolalar, shifoxonalarda joy-kunlar, bola-kunlar soni va boshqalar) kelgusi yil uchun ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yozma ravishda xabar qiladilar.

Xarajatlar smetasi bo'yicha xarajatlarni hisoblab chiqish mablag'larga bo'lgan ehtiyojga muvofiq iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlarini va iqtisod qilishning qat'iy tartibini amalga oshirishni hisobga olgan holda amalga oshirilishi shart. Tashkilotlarning xarajatlar smetasi uch nusxada tuzilib, tashkilotning rahbari yoki uning o'rinbosari (birinchi imzo huquqiga ega shaxs), tashkilot bosh hisobchisi yoki uning o'rinbosari (ikkinchi imzo huquqiga ega shaxs), shuningdek moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i (shtatlar jadvaliga muvofiq

moliya-iqtisod masalalari bo'yicha mutaxassis) tomonidan imzolanadi hamda belgilangan tartibda moliya organida ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng:

- birinchi nusxasi - tashkilotda qoladi;
- ikkinchi nusxasi - tegishli moliya organiga taqdim qilinadi;
- uchinchi nusxasi - yuqori tashkilotga taqdim qilinadi (zarur hollarda).

Budjet tashkilotlari va Budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi tashkilot bosh buxgalteri (uning o'rinbosari) va moliya-iqtisod bo'linmasi boshlig'i (shtat jadvaliga muvofiq moliyaviy-iqtisodiy masalalar bo'yicha mutaxassis) tomonidan imzolanadi hamda tashkilot rahbari yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan tasdiqlanadi .

Budjet mablag'larini taqsimlovchining jamlanma xarajatlar smetasi Budjet mablag'larini taqsimlovchining bosh buxgalteri (uning o'rinbosari) va moliya-iqtisod bo'linmasi boshlig'i (shtat jadvaliga muvofiq moliyaviy-iqtisodiy masalalar bo'yicha mutaxassis) tomonidan imzolanadi hamda Budjet mablag'larini taqsimlovchining rahbari yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining diplomatik muassasalari bo'yicha xarajatlar smetalari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining bosh buxgalteri va moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig'i tomonidan imzolanadi hamda O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri va O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri yoki ular vakolat bergan shaxslar tomonidan tasdiqlanadi. Kapital qurilish ob'ektlari bo'yicha xarajatlarning smetalari buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan qurilishlarning manzilli ro'yxatlari va ob'ektlarning titul ro'yxatlari asosida tuziladi.

Budjet tashkilotlari va Budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini, Budjet mablag'larini taqsimlovchining jamlanma xarajatlar smetalarini tasdiqlash joriy moliya yilining 10 martidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Xarajatlar smetasini tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesining yoki tegishli viloyatlar, shaharlar, tumanlar Xalq deputatlari kengashlari sessiyalarining Budjet haqidagi qarori kabul kilingan kundan boshlab ikki hafta muddat ichida (agar boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa) va tegishli Budjetlarda turuvchi tashkilotlar uchun xarajatlar tasnifi moddalari bo'yicha bo'lingan holda amalga oshiriladi hamda smetalarni tasdiqlagan tashkilot rahbari (yoki rahbar o'rinbosari) imzosi bilan, tasdiqlangan kuni ko'rsatilgan holda, shuningdek ushbu tashkilotning muhri smetaning barcha nusxalariga bosilib, bir paytning o'zida xarajatlar smetasi bo'yicha umumiy summasini yuqori o'ng burchagida shtatdagi xodimlarning mehnatga haq to'lash jamg'armasining umumiy summasini ajratib ko'rsatgan holda rasmiylashtiriladi.

Xarajatlar smetalarida Budjet mablaglarini yil choraklari (oylari) bo'yicha taqsimoti tegishli Budjetlarning daromadlari va xarajatlari choraklar (oylar) bo'yicha taqsimotini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Shtat jadvali - doimiy xodimlar lavozimlari va bo'sh o'rinlar nomlarining soni va lavozim maoshlarining miqdorlari ko'rsatilgan ro'yxatni o'z ichiga oladigan, byudjet tashkiloti tomonidan tuziladigan hujjat

Budjet tashkilotining shtat jadvali 1 yanvar holatiga ko'ra har bir Budjet tashkiloti bo'yicha mazkur tashkilot uchun belgilangan mehnatga haq to'lash shartlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo'yicha tuziladi.

Yangidan tuzilayotgan Budjet tashkilotining shtat jadvali, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Budjet tashkiloti faoliyat ko'rsata boshlashidan ikki oy oldin tuziladi va kuchga kiradi.



Lavozimlarning nomlari va xodimlar soni, mehnatga haq to'lash bo'yicha razryadlar, bazaviy stavkalar:

- Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorida, namunaviy shtatlarda hamda qonun hujjatlari bilan tasdiqlangan mehnatga haq to'lash bo'yicha tarif razryadlarida, bazaviy stavkalarda nazarda tutilgan lavozimlarga;

- tasdiqlangan namunaviy shtatlarda nazarda tutilgan xodimlar soniga;

- xodimlarning tasdiqlangan umumiy cheklangan soniga, shu jumladan Budget tashkilotlarining Budget mablag'lari va Budgetdan tashqari jamg'armalari hisobidan saqlab turilgan boshqaruv xodimlari soniga;

- davlat boshqaruvi organlarining belgilangan tartibda tasdiqlangan boshqaruv, xizmatlar ko'rsatuvchi va texnik xodimlari sonining o'zaro nisbati normativlariga muvofiq bo'lishi kerak.

Ish haqining hisob-kitobi tarifkatsiya ro'yxatlariga muvofiq amalga oshiriladigan lavozimlar shtat jadvaliga lavozimlarning har bir guruhi bo'yicha stavkalar soni, oylik mehnatga haq to'lash jamg'armasi ko'rsatilgan, tarifkatsiya ro'yxati shtat jadvaliga ilova qilingan holda kiritiladi.

Ayrim Budget tashkilotlari uchun tasdiqlangan namunaviy shtat normativlari va mehnatga haq to'lash bo'yicha razryadlar, bazaviy stavkalar mavjud bo'lmaganda, ularning shtat jadvallariga kiritiladigan lavozimlarning nomi va xodimlar soni hamda ularning mehnatga haq to'lash bo'yicha razryadlari, bazaviy stavkalari ushbu tashkilotlar tomonidan tashkilotning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan kelishuvga ko'ra belgilanadi. Amaldagi mehnatga haq to'lash shartlarida nazarda tutilgan, ustamalar, qo'shimcha haq to'lash va xodimlarni moddiy rag'batlantirishga yo'naltiriladigan, bir yil uchun hisob-kitob qilingan mehnatga haq to'lash jamg'armasi Budget tashkilotining shtat jadvalida alohida satr bilan ko'rsatiladi. Budget mablag'lari oluvchilar - kapital qurilish bo'yicha

buyurtmachilar xizmatlarining shtat jadvali Budjet kodeksida belgilangan tartibga muvofiq tuziladi.

Budjet tashkilotining shtat jadvali tashkilotning bosh buxgalteri (uning o'rinbosari) va moliya-iqtisod bo'linmasi boshlig'i (shtat jadvaliga muvofiq moliyaviy-iqtisodiy masalalar bo'yicha mutaxassis) tomonidan imzolanadi hamda tashkilot rahbari yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan tasdiqlanadi. Budjet tashkilotlarining shtat jadvallari tasdiqlash joriy moliya yilining 10 martidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Tashkilotlar vaqtinchalik xarajatlar smetasini tuzish va tasdiqlash oylar kesimida birinchi chorakdan oshmagan davr uchun amalga oshiriladi. Bunda, har oylik xarajatlar, qoida tariqasida, moliya yilining boshlanishida amalga oshirilishi rejalashtirilmaydigan xarajatlar summasini hisobga olgan holda, o'tgan moliya yilining oxirgi choragi Budjet mablag'larining uchdan bir qismidan oshib ketmasligi shart.

Vaqtinchalik xarajatlar smetasida o'tgan moliya yilida amalga oshirilmagan Budjet xarajatlari ko'zda tutilmaydi. Vaqtinchalik xarajatlar smetasi xarajatlar smetasi tasdiqlangunga qadar amalda bo'ladi, bunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasidagi birinchi chorak uchun xarajatlar summasi tashkilotlarning vaqtinchalik xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan xarajatlar summasidan kam bo'lishi mumkin emas.

## **2. Xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish.**

Budjet tashkilotlari tasdiqlangan smeta va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yoki uning hududiy moliya organlariga taqdim etadilar.

Tasdiqlangan smeta va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish, ilovalarni kelishish taqdim etilgan hujjatlarning tasdiqlangan budjet xarajatlari limitlariga va normativlariga hamda budjet parametrlariga muvofiqligi tahlili asosida tegishli moliya organlarida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlarining tasdiqlangan smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish mazkur budjet tashkiloti xarajatlarini moliyalashtirish (to'lash), budjet parametrlari tasdiqlangan paytdan boshlab 40 kundan kechiktirmay (ammo, moliya yilining 10 fevralidan kechikmagan holda) tegishli moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tashkilotlarning belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar smetalari va shtat jadvallari ular moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin amalga kiritiladi.

Joriy yilning 1 apreliyigacha:

➤ Budjet mablag'larini taqsimlovchilarning tasdiqlangan jamlanma xarajatlar smetalari va jamlanma shtat jadvallari, shuningdek xarajatlar smetalari va shtat jadvallari - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida;

➤ Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika Budjetidan, viloyatlarning viloyat Budjetlaridan va Toshkent shahrining shahar Budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarning tasdiqlangan xarajatlar smetalari va shtat jadvallari - Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligida, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalarida;

➤ tumanlar va shaharlar Budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarning tasdiqlangan xarajatlar smetalari va shtat jadvallari - tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlarida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika Budjetining, viloyatlar viloyat Budjetlarining va Toshkent shahri shahar Budjetining zaxira

jamg'armalari, shuningdek tegishli Budjetning qo'shimcha manbalari mablag'lari hisobidan xarajatlari tegishli moliya organi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.

Xarajatlar smetalarini va shtat jadvallarini ro'yxatdan o'tkazishdan oldin moliya organlari:

➤ Budjet tashkilotlari xodimlarining xarajatlar smetalari bo'yicha tasdiqlangan ish haqi summalarining shtat jadvallari bo'yicha tasdiqlangan ish haqiga muvofiqligini;

➤ shtat jadvalida nazarda tutilgan lavozimlar nomlarining va xodimlar sonining, mehnatga haq to'lash razryadlarining, bazaviy miqdorlarining belgilangan normativlarga muvofiqligini;

➤ Budjet tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasining to'g'ri shakllantirilganligini;

➤ Umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining direktor jamg'armasi to'g'ri shakllantirilganligini;

➤ xarajatlar smetasida tasdiqlangan stipendiyalar uchun xarajatlar summasining xarajatlar smetasiga doir hisob-kitoblarga muvofiqligini;

➤ to'rtinchi guruhning moddalar bo'yicha yoyilmasidagi xarajatlar summasining xarajatlar smetasida tasdiqlangan summaga muvofiqligini tekshiradi.

Tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish paytida moliya organlari o'z vakolatlari doirasida ortiqcha shtatlarni yo'qotishlari lozim. Aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyingina ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshirish lozim. Yangidan tashkil qilinayotgan (jumladan, qayta tashkil etish natijasida) tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish ushbu tashkilotlarni belgilangan tartibda tashkil qilinishi to'g'risidagi tegishli qaror ko'rsatilganidan so'ng amalga oshiriladi.

Yangidan tashkil qilinayotgan mahalliy tasarrufdagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish mazkur tashkilotlarni belgilangan tartibda tashkil qilinishi to'g'risidagi tasdiqlovchi hujjatlar ko'rsatilganidan so'ng amalga oshiriladi. Tashkilotlar xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatga olish ro'yxatdan o'tkazish kartochkasini berish yo'li bilan rasmiylashtiriladi.

Tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar Budjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali hisobining jurnaliga kiritiladi. Kompyuter texnikasi mavjud bo'lganda Budjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali hisobining jurnali avtomatlashtirilgan tarzda yuritilishi mumkin. Ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjatlar (ro'yxatdan o'tkazish kartochkalari, smetalar va shtatlar jadvali) quyidagi tarzda: smetalar va shtatlar jadvali O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida ro'yxatdan o'tkaziladigan tashkilotlar bo'yicha - moliya vazirining o'rinbosari, sohalarni moliyalashtiruvchi boshqarma va bo'lim boshliqlari tomonidan, hududiy moliya organlarida - moliya organlari boshliqlari (mudirlari) yoki ularning o'rinbosarlari hamda moliya organlari Budjet bo'limlari boshliqlari tomonidan imzolanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Budjetlarida turuvchi xalq ta'limi muassasalari (tashkilotlari) bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish haqidagi hujjatlar moliya organi boshlig'ining (mudirining) o'rinbosari - xalq, ta'limi muassasalarini moliyalashtirish bo'limi boshlig'i va moliya organi Budjet bo'limining tegishli mutaxassisi tomonidan imzolanadi.

Tashkilotlar rahbarlarining xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish masalalari bo'yicha arizalari mazkur xujjatlar ro'yxatdan o'tkazilgan xududiy moliya organining rahbari tomonidan o'n kunlik muddatda ko'rib chiqiladi.

Xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazgan xududiy moliya organining qarori bo'yicha norozilik to'g'risidagi arizalar yuqori moliya organida ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining o'rinbosari qarori bo'yicha norozilik to'g'risidagi ariza O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri tomonidan ko'rib chiqiladi.

Moliyaviy yil o'z nihoyasiga yetganda barchaagentliklar o'z budjetlarini nolga tenglashtirishadi. Moliyaviy yil oxiridaxali ham sarflanmagan mablag'gaega bo'lgan agentlik judaoddiy agentlik sifatida ta'riflanadi. Yil oxirida budjet profitsitigaega bo'lgan agentliklar keyingi moliyaviy yilda kamaytirilgan budjet bazalarigaega bo'ladilar. Bundan tashqari odatda sarflanmay qolgan budjet mablag'lari moliyaviy yil so'ngida "o'qib ketadi". Agentliklar fikriga ko'ra, "xozir yoki hech qachon" holati mavjud bo'lgan mablag'larni sarflashgaqaratilgan. Ta'sir qiluvchi omillardan yana biri bu kutilmagan holatlarga tayyor turish maqsadida xarajatlarning bir qismini agentlik tomonidan olib qo'yilishidir. Bu kabi mablag'ni tejash yil so'ngida katta sarf-xarajatlarga sabab bo'lishi mumkin, ayrim xarajatlar o'rinli bo'lsa, ayrimlari esa mutlaqo isrofgarchilikkaolib keladi. Bunga muqobil sifatida hech qanday mablag'ni qaytarib bermaslik sharti bilan agentliklarning yangi budjetiga ko'chirilgan mablag'larga ruxsat berish lozim. Ayrim yurisdiksiyalar ma'lum bir me'yorlargaasoslangan holda mablag' ko'chirishga ruxsat berishadi, masalan umumiy budjetdan kichik foiz olish kabilar shular jumlasidandir.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Xarajatlar smetasi nima uchun tuziladi va uni ahamiyatini tushuntirib bering?
2. Shtatlar jadvalini tuzish tartibini aytib bering?
3. Budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlar va daromadlar smetasi tuzilishi xaqida aytib bering?

4. Budget mablagʻlari boʻyicha xarajatlar smetasi, Budgetdan tashqari mablagʻlar boʻyicha daromadlar va xarajatlar smetasi, shuningdek shtatlar jadvali qaysi organ tomonidan tekshiriladi va tartibi qanday?
5. Xarajatlar smetalarini va shtat jadvallarini roʻyxatdan oʻtkazishdan oldin moliya organlari qanday tadbirlarni amalga oshirishadi?
6. Yangidan tuzilayotgan Budget tashkilotining shtat jadvali, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan boʻlsa, Budget tashkiloti faoliyat koʻrsata boshlashidan necha oy oldin tuziladi va kuchga kiradi?
7. Xarajatlar smetasining, jamlanma xarajatlar smetasining va ularga doir ilovalarning shakllari, shuningdek ularni tuzish tartibi qaysi organ tomonidan tomonidan tasdiqlanadi?
8. Budget tashkilotlarining va Budget mablagʻlari oluvchilarning xarajatlar smetalari necha nusxada, Budget mablagʻlarini taqsimlovchi tasarrufidagi Budget tashkilotlari va Budget mablagʻlari oluvchilar boʻyicha esa necha nusxada tuziladi?
9. Budget tashkilotlari oʻzlarining xarajatlarini hisoblab chiqishda nimalarga amal qiladilar?
10. Xarajatlar smetasi turlarini sanab oʻting va har birining belgilangan vazifasini tushuntirib bering?

## 7.2. Budjet tizimi budjetlarini ijro etish tartibi

### 1. Davlat budjetining g'azna ijrosini tashkil qilish.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasi tizimida iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat moliyasini boshqarishdagi islohotlar sharoitida umumdavlat moliya tizimining bosh bo'g'ini - davlat budjetini boshqarish, budjet jarayonini tashkil etish tizimidagi islohotlar, xususan budjet ijrosida kassali tizimdan jahon amaliyotida sinalgan va o'zining ijobiy natijalarini bergan davlat budjetining g'azna ijrosiga o'tildi.





Davlat budjetining kassaviy ijrosi sharoitida Markaziy bank va uning topshirig'iga muvofiq tijorat banklari davlat budjetining kassa ijrosini amalga oshiradilar.

***Lekin, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida budjet ijrosida bank tizimidan foydalanish bir qator muammolarni keltirib chiqardi:***

---

budjet daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi axborotlarning etarli darajada operativ (tezkor) emasligi;

daromadlarning bank hisobraqamlariga tushishi va budjetning hisobraqamlarida aks ettirilishidagi uzilishlarning mavjudligi bois budjet resurslarini boshqarishdagi tezkorlikning sustligi;

Soliq daromadlarining budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanish jarayonlarini samarali tartibga solish va daromadlar tushumini jadallashtirishning zarurligi;

budjet ajratmalarining hajmlari bilan haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar summalari ko'rsatkichlarining tarqoqligi tufayli mablag'larning tushumi va sarflanishi ustidan yagona nazoratning murakkablashuvi;

budjet tashkilotlarining hisobraqamlarida ishlatilmayotgan budjet mablag'larining turib qolishi;

budjet mablag'larining ajratilishi bilan ularning so'nggi iste'molchilarga etib borishigacha bo'lgan vaqtning uzoqligi;

davlat mablag'lari harakatining murakkablashuvi va hajmlarining ortib borishi bilan ulardan oqilona foydalanish ustidan dastlabki nazoratning va joriy monitoringning zarurligi va boshqalar.

**Sanab o'tilgan holatlar davlat budjetining kassaviy ijrosidan g'azna ijrosiga o'tishning zarurligini belgilab berdi.**

Davlat budjetining g'azna ijrosi davlat budjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobraqamiga kiritishdan, shuningdek, davlat budjetining xarajatlarini shu hisobraqamdan to'lashdan iborat.

Davlat budjeti g'azna ijrosining asosiy tamoyillari - kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat. Davlat budjetining g'azna ijrosi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan maxsus vakolatli moliya organi hamda uning Qorag'alpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

G'aznachilik bo'linmalari — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha G'aznachilik boshqarmalari, tumanlar va shaharlar bo'yicha G'aznachilik bo'linmalari.

Moliya vazirligi G'aznachiligi davlat moliyasini samarali boshqarish uchun ham, undan oqilona foydalanilishi ustidan qat'iy nazoratni ta'minlash uchun ham mustahkam zamin yaratdi. Buni esa quyidagicha izohlash mumkin:

Birinchiidan, g'aznachilik davlat budjetining ijrosi jarayonida yuzaga keladigan daromad va barcha xarajatlarni yagona g'azna hisobraqamidan amalga oshiradi. Mablag'larning Yagona g'azna hisobraqamiga soliq va soliq bo'lmagan daromadlar ko'rinishida kelib tushishi moliyaviy resurslarni operativ boshqarish va davlat budjeti xarajatlarini o'z vaqtida to'lash uchun barqaror asos yaratdi.

Ikkinchiidan, dastlabki nazoratni amalga oshirish uchun sharoit yuzaga keladi, ya'ni majburiyatlarni qabul qilish jarayoni boshlanadi, bunda budjet tashkiloti tomonidan smetada ko'zda tutilgan mablag'lar doirasida kelajakda moliyaviy xarajatlarni amalga oshirish bo'yicha majburiyatlar g'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tkaziladi va shu asosda mablag'larning maqsadli harakatini ta'minlash uchun zamin yaratdi.

Budjet tizimi budjetlarining ijrosi budjet to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan budjet tizimi budjetlari daromadlarining tushishini ta'minlash va xarajatlarini amalga oshirishni, shuningdek ularning ijrosi bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ta'minlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining ijrosi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklari tomonidan ta'minlanadi.

Budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg'armalarining ijrosi budjet tashkilotlari tomonidan ta'minlanadi.

Budjet tizimi budjetlarining ijrosi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan g'azna ijrosi yo'li bilan amalga oshiriladi. G'azna ijrosi faoliyatni chet elda amalga oshirayotgan budjet tashkilotlariga va budjet mablag'lari oluvchilarga tadbiiq etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimida budjet tizimi budjetlari, budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar uchun shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochiladi.

Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar o'z xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag'larni moliya yili tugaguniga qadar sarflashga haqli.

Budjet tizimi budjetlarining ijrosi moliya yili mobaynida va qo'shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi.

Keyingi yilning yanvar oyi moliya yiliga qo'shimcha vaqt davri bo'lib, bu davr mobaynida o'tgan yil uchun budjet tizimi budjetlarining ijrosi amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi budjet tizimi budjetlarining qo'shimcha vaqt davridagi ijrosi bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish tartibini va oxirgi muddatlarini belgilaydi.

Yagona g'azna hisobvarag'i O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvarag'i bo'lib, unga budjet tizimi budjetlarining daromadlari va boshqa tushumlari kiritiladi hamda undan mazkur budjetlarning xarajatlari to'lanadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va boshqa banklarda o'zga bank hisobvaraqlari ochish huquqiga ega.

Yagona g'azna hisobvarag'i O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochiladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bank hisobvaraqlaridan mablag'larning so'zsiz tartibda hisobdan chiqarilishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bank hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatilganligi uchun haq olinmaydi.

Har bir budjet bevosita yoki bilvosita qilinishi zarur bo'lgan ishlar va erishilishi zarur bo'lgan natijalar rejalarini o'zida mujassamlashtiradi. Ijro shu rejalarini amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda budjet boshqarmasi xodimlari muassasalar ish faoliyati haqida muhim ma'lumotlarni oladi va bu bilimlar keyinchalik budjetni tayyorlashning keyingi bosqichi uchun muhim bo'ladi .

## **2. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari daromadlari va xarajatlarining yoyilmasi.**



## Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari daromadlari va xarajatlarining yoyilmasi:



budjet tasnifiga muvofiq tuzilgan daromadlar va xarajatlar prognozi ularning tasdiqlangan parametrlariga muvofiqligini;



daromadlar va xarajatlar parametrlari ijrosining monitoringini ta'minlash maqsadida tuziladi.

Daromadlar va xarajatlar yoyilmasining daromad qismi tegishli budjet daromadlarining budjet tasnifiga muvofiq oyma-oy bo'lingan yillik hajmlaridan tashkil topadi.

Daromadlar va xarajatlar yoyilmasining xarajat qismi tegishli budjet xarajatlarning moliya yili uchun tasdiqlangan jamlanma xarajatlar smetalari xarajatlar smetalari asosida tuziladigan, budjet tasnifiga muvofiq oyma-oy bo'lingan yillik hajmlaridan tashkil topadi.

Daromadlar va xarajatlar yoyilmasining yakuniy ma'lumotlari, budjetlararo transfertlar bundan mustasno, tasdiqlangan yillik budjetda qabul qilingan summalarga mos kelishi lozim.

### ***Daromadlar va xarajatlar yoyilmasi:***

---

O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti bo'yicha — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjeti bo'yicha — Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan;

tumanlar va shaharlar budjetlari bo'yicha — tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan;

davlat maqsadli jamg'armalari bo'yicha — davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan tuziladi.

### ***Daromadlar va xarajatlar yoyilmasining xarajat qismiga xarajatlar smetalarini tuzish talab qilinmaydigan quyidagi hollar:***

---

- budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini ro'yxatdan o'tkazish hamda ijro etish jarayonida bo'shaydigan;
- tovar-moddiy qimmatliklarning normativdan ortiq zaxiralari bo'yicha hisobga olingan;
- advokatlar tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam uchun davlat hisobidan to'lanishi nazarda tutiladigan;
- qo'shilgan qiymat solig'i summasini soliq to'lovchilarga qaytarish uchun nazarda tutiladigan;
- davlat organlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida jismoniy yoki yuridik shaxslarga etkazilgan zararining o'rnini qoplash uchun nazarda tutiladigan;
- budjet tashkilotlarida ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug'ish nafaqasini to'lash uchun nazarda tutiladigan, budjet tashkilotlarining xarajatlar smetalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritilgan hollar bundan mustasno;
- bir yo'la beriladigan davlat pul mukofotlari va mukofotlarini to'lash uchun nazarda tutiladigan;

- Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatish ishtirokchilariga kompensatsiyalar to'lash uchun nazarda tutiladigan;
- transportda imtiyozli yurishni qoplash uchun nazarda tutiladigan;
- davlat qarzini to'lash va unga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo'lgan xalqaro tashkilotlarga a'zolik badallarini to'lash va ularni moliyalashtirishda ishtirok etish uchun mo'ljallangan;
- davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirayotgan qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun nazarda tutiladigan;
- saylov va referendumlar o'tkazish uchun nazarda tutiladigan;
- budjetlararo transfertlar ajratish uchun nazarda tutiladigan;
- tijorat banklari va boshqa moliya institutlarining ustav kapitalini shakllantirish va ko'paytirish uchun nazarda tutiladigan;
- rezident-yuridik shaxslarga budjet ssudalari ajratish va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining kredit liniyalarini ochish uchun nazarda tutiladigan;
- soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlarida nazarda tutilgan tadbirlar hamda moliya yili mobaynida amalga oshirilishi nazarda tutilgan va Davlat budjeti xarajatlarini ko'paytirishni talab qiladigan boshqa tadbirlar uchun mo'ljallangan davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazib beriladigan;
 

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining zaxira jamg'armalarini shakllantirish uchun budjetdan ajratiladigan mablag'lar kiritiladi.

**Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning tasdiqlangan hamda ro'yxatdan o'tkazilgan vaqtinchalik xarajatlar smetalari asosida tegishli budjetlarning moliya yilining birinchi choragi uchun vaqtinchalik xarajatlari yoyilmasi tuziladi.**


Hukumat va federal darajalarda proportsional taqsimot jarayoni keng qo'llaniladi va ushbu jarayonda agentliklar tizimi ajratilgan ajratmalar qay

tarzda ishlatilishini aniqlash maqsadida o'z rejalarini markaziy budget boshqarmalariga taqdim etishadi.

Rejalar odatda har oy yoki moliyaviy yilning choragi (kvartali)da ishlatilgan sarf-xarajatlarni ko'rsatadi. Ma'muriy masalalar va Budget boshqarmalari (A-11 rasmiy xati) bu jarayonni federal darajada boshqaradi.

Ma'muriy masalalar va Budget boshqarmasining fikriga ko'ra, "proportsional taqsimot bu –Ma'muriy masalalar va Budget boshqarmalarning mavjud miqdordagi ajratmalarning o'zlashtirish vazifasini bajaradigan taqsimot yoki mavjud miqdordagi mablag`ning belgilangan vaqt, dastur, faoliyat, loyixa hamda ob'yektlardagi fond hisobidir”.

Proportsional taqsimot summasi (miqdori) paydo bo`ladigan ayrim majburiyatlarni cheklab qo`yadi.



*1-rasm. Budget tizimi budgetlari daromadlari ijrosini*

*tashkil etish*



Davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlariga daromadlarni yig'ishga vakolatli bo'lgan organlar va tashkilotlar, bundan davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlari mustasno, daromadlarning to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi, shuningdek, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat soliq xizmati organiga hisobot taqdim etishi shart. Tartibga soluvchi daromatlardan tushgan tushumlar budjet tizimi budjetlari o'rtasida taqsimlanadi.

Budjet tizimi budjetlari o'rtasidagi tartibga soluvchi daromatlardan ajratmalarning normativlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki u vakolat bergan organ tomonidan belgilanadi.

Tartibga soluvchi daromatlardan Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga, Toshkent shahrining shahar budjetiga hamda tumanlar va shaharlar budjetlariga ajratmalarning normativlari tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

Tartibga soluvchi daromadlarni budjet tizimining budjetlari o'rtasida taqsimlash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 51-moddasida ko'rsatilgan qaysi daromadlar bo'yicha tartibga soluvchi daromatlardan ajratmalarning normativlari belgilanmagan bo'lsa, o'sha daromadlar O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga to'liq hajmda kiritilishi lozim, ushbu Kodeksning 52-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tegishli moliya organlarining taklifiga ko'ra mahalliy soliqlar to'liq hajmda kiritiladigan budjet darajasini belgilaydi.

Davlat budjetining qo'shimcha manbalari Davlat budjetining har bir darajasidagi budjetlarida alohida-alohida shakllantiriladi va quyidagilardan tashkil topadi:

O'zbekiston Respublikasi respublika budgetining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgetining, viloyatlar viloyat budgetlarining, Toshkent shahri shahar budgetining, tumanlar va shaharlar budgetlarining har yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag'laridan;

O'zbekiston Respublikasining respublika budgeti, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budgeti, viloyatlarning viloyat budgetlari, Toshkent shahrining shahar budgeti, tumanlar va shaharlar budgetlari daromadlarining birinchi — uchinchi hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilishidan;

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budgetiga, viloyatlarning viloyat budgetlariga va Toshkent shahrining shahar budgetiga davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lardan;


Budget Kodeksining 120-moddasi to'rtinchi qismiga muvofiq budgetdan ajratiladigan mablag'lar kamaytirilishi natijasida bo'shab qolgan mablag'lardan.

O'zbekiston Respublikasi respublika budgetining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgetining, viloyatlar viloyat budgetlarining, Toshkent shahri shahar budgetining, tumanlar va shaharlar budgetlarining erkin qoldiq mablag'lari ularning shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridagi budget mablag'lari qoldig'ining (davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tushgan mablag'larning yil boshidagi qoldiqlari summasi bundan mustasno) ushbu budgetlar uchun joriy moliya yiliga tasdiqlangan aylanma kassa mablag'lari miqdoridan oshgan summasi sifatida aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi respublika budgeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgeti, viloyatlar viloyat budgetlari, Toshkent shahri shahar budgeti, tumanlar va shaharlar budgetlari daromadlari prognozining oshirib bajarilishi birinchi — uchinchi hisobot choraklari uchun haqiqatda tushgan tushumlarning tegishli hisobot choraklari uchun soliqlar va boshqa

majburiy to'lovlar bo'yicha daromadlarning aniqlangan prognozidan ortiq summasi sifatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlanadi.

Quyi turuvchi budjetlar daromadlari prognozining oshirib bajarilishi summalarini yuqori turuvchi budjetda markazlashtirishga yo'l qo'yilmaydi.



*Tushumlarni hisobga oluvchi idora tushumlarni nazorat qilish va uning hisobga olish kabir funksiyalarini bajaradi. U ikki asosiy Kengash,*

#### **4. Budjet tizimi budjetlari xarajatlar qismining ijrosi.**

*ya'ni Aksiyabojlarni hisobga oluvchi markaziy kengash ham dato'g'risoliqlarni hisobga oluvchi markaziy kengash orqali barcha dato'g'riva egrisoliqlar birlashmasiga oid bo'lgan masalalar ustida ish olib boradi.*

---



**2-rasm. Budget tizimi budjetlari xarajatlari**

**ijrosini tashkil etish**

Budjet tizimi budjetlarining xarajatlari daromadlar va xarajatlar yoyilmasida nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida hamda budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan muddatlarda, daromadlarning tushishi hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlariga va budjet mablag'lari oluvchilarga turli darajadagi budjetlardan budjetdan ajratiladigan mablag'larni ajratishga yo'l qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan hollar bundan mustasno.

## **BUDJET TIZIMI BUDJETLARINING IJROSI JARAYONIDA BUDJETDAN AJRATILADIGAN MABLAG'LAR:**

### **1) quyidagilar munosabati bilan foydalanilmay qolgan byudjetdan ajratiladigan mablag'larning:**

- byudjet tashkilotlarining tarmog'i, shtatlari va kontingentlari bo'yicha reja bajarilmaganligi;
- byudjet tashkilotlarining tasdiqlangan shtat jadvalida nazarda tutilgan shtat birliklari to'ldirilmaganligi;
- kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag'lar moliya yili yakuni bo'yicha to'liq o'zlashtirilmaganligi;
- byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchilar faoliyati to'xtatib turilganligi — to'xtatib turilgan davr uchun;

2) byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning tasdiqlangan xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan, davlat moliyaviy nazorati bo'yicha tadbirlar davomida aniqlangan ortiqcha va qonunga xilof ravishda byudjetdan ajratilgan mablag'larning summalariga;

3) qonun hujjatlari qabul qilinishi munosabati bilan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar miqdorlarining qisqartirilishi summalariga;

4) moliya yili boshiga tovar-moddiy qimmatliklarning normativdan ortiq zaxiralarining summalariga;

5) dotatsiyalar va subsidiyalarni to'lash uchun mo'ljallanib, ammo zarurati qolmagan summalariga kamaytiriladi.

tdajratiladigan mablag'larni Budjet Kodeksining 120-moddasining to'rtinchi qismiga muvofiq kamaytirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Budjet tizimi budjetlari ijrosida davlat xaridlari muhim o'rin egallaydi. Davlat xaridlari tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilarning raqobati va ochiqlikni ta'minlash asosida amalga oshiriladi.

Davlat xaridlari amalga oshirilishi va ularning yakunlari to'g'risidagi e'lonlar belgilangan tartibda maxsus axborot portalida (O'zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasining maxsus veb-saytida) joylashtirilishi kerak.

Davlat xaridlari amalga oshirilishi to'g'risidagi e'lonlar maxsus axborot portalida ushbu xaridlar amalga oshirilishidan kamida o'n kun oldin, biroq joriy moliya yilining 10 dekabridan kechiktirmasdan joylashtirilishi kerak.

Raqobat va ochiqlik cheklangan holdagi davlat xaridlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Budjet tizimi budjetlari xarajatlari ijrosi jarayonida budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar tomonidan yuridik majburiyatlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish muhim hisoblanadi.

Yuridik majburiyatlar iqtisodiy tasnif kodlari bo'yicha budjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar tomonidan qabul qilinadi hamda g'aznachilik bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari hisobidan ijro etilishi lozim bo'lgan yuridik majburiyatlar g'aznachilik bo'linmalari tomonidan daromadlar va xarajatlar

smetalarida nazarda tutilgan ajratilgan mablag'lar doirasida hisobga olish uchun qabul qilinadi.

Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning budjetdan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ular g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin kuchga kiradi.

Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar yuridik majburiyatlar yuzaga kelishini tasdiqlovchi hujjatlarni g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazish uchun joriy moliya yilining 25 dekabridan kechiktirmay taqdim etadi.

Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish to'g'risida tuziladigan shartnomalarida 15 foiz miqdorida oldindan to'lovni amalga oshirish nazarda tutiladi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan hollar bundan mustasno.

Budjet tashkilotlarining va budjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) import qilish bo'yicha shartnomalari, ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ushbu shartnomalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda vakolatli organlarda tegishli ekspertizadan o'tganidan va hisobga qo'yilganidan so'ng g'aznachilik bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda shartnomalarda ko'rsatilgan summalar g'aznachilik bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida hisobga olinadi.

Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning birinchi hamda ikkinchi guruh xarajatlari bo'yicha yuridik majburiyatlari g'aznachilik bo'linmalari tomonidan buyurtmalar shaklida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari joriy moliya yili doirasida amal qilish muddati bilan tuzilishi lozim, kapital qo'yilmalar bo'yicha shartnomalar hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan amal qilish muddati bir necha yilni tashkil etishi mumkin bo'lgan hollar bundan mustasno. Shartnomaning amal qilish muddati tugagach, agar shartnomaning amal qilish

muddatini uzaytirish to'g'risida qo'shimcha bitim tuzilmagan bo'lsa, yetkazib beruvchi (pudratchi) tomonidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish bo'yicha yuridik majburiyatlarni bajarish tugatiladi.

Budjetdan ajratiladigan mablag'lar asosida belgilangan yuridik majburiyatlarni qabul qilish uchun limit birinchi navbatda tegishli moddalar bo'yicha moliya yili boshida mavjud bo'lgan, budjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobidan to'lanishi lozim bo'lgan va g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalar bo'yicha yuzaga kelgan kreditorlik qarzi summasiga band qilib qo'yiladi.

### ***Mablag'larni:***

---

- -budjet tashkilotining iqtisod qilingan budjetdan ajratiladigan mablag'lari hisobidan o'z budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasiga, shuningdek tibbiyot muassasasi tomonidan — xarajatlar smetasida nazarda tutilgan maqsadli budjetdan ajratiladigan mablag'lari hisobidan o'zining tibbiyot tashkilotlarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasiga;
- -har bir ob'ekt bo'yicha kelishilgan manzilli va titul ro'yxatlarda hamda shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida ushbu maqsadlar uchun nazarda tutilgan summalar doirasida kapital qo'yilmalar bo'yicha buyurtmachi xizmatini saqlab turishga;
- -soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining xizmatlari uchun haq to'lashga;
- -yuridik majburiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladigan xarajatlarni to'lashga o'tkazish shartnoma tuzilmagan holda amalga oshirilishi mumkin.



Budjet tizimi budjetlari xarajatlari ijrosi jarayonida budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar tomonidan moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazish ham muhim hisoblanadi.

Moliyaviy majburiyatlar qabul qilingan yuridik majburiyatlar va xarajatlarni to'lash uchun berilgan ruxsatnomalar doirasida hisobvaraqq-fakturalar hamda moliyaviy majburiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida g'aznachilik bo'linmalari tomonidan qabul qilinadi hamda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Birinchi va ikkinchi guruh xarajatlari, shuningdek Budjet Kodeksining 122-moddasi o'ninchi qismida ko'rsatilgan xarajatlar bo'yicha moliyaviy majburiyatlar yuridik majburiyatlarni qabul qilishga doir buyurtmalar asosida, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha esa, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalari asosida g'aznachilik bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

Amal qilish muddati tugagan shartnomalar bo'yicha yetkazib berilgan tovarlar (ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar) haqini to'lash bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish joriy moliya yili doirasida hamda Budjet Kodeksi 122-moddasining sakkizinchi qismida ko'rsatilgan hollarda hisobvaraqq-faktura va o'zaro majburiyatlarni solishtirish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

G'aznachilik bo'linmalari budjet tashkilotlarining va budjet mablag'lari oluvchilarning buyurtmalari bo'yicha to'lovlarni ularda budjetdan ajratiladigan mablag'lar, yuridik va moliyaviy majburiyatlar mavjud bo'lgan taqdirda, shuningdek budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larining qoldiqlari doirasida amalga oshiradi.

Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar xarajatlarni to'lash uchun to'lov hujjatlarini g'aznachilik bo'linmalariga to'lov amalga oshiriladigan sanadan kechi bilan bir ish kuni oldin taqdim etadi.

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan xizmat ko'rsatiladigan budjet tashkilotlari (budjet mablag'lari oluvchilar) o'rtasidagi, budjet tizimi

budjetlarining turli darajalari o'rtasidagi, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari o'rtasidagi to'lovlar g'azna memorial orderlari asosida amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlarining va budjet mablag'lari oluvchilarning chet el valyutasidagi to'lovlari hamda pul o'tkazmalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining norezidentlari foydasiga amalga oshiriladi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchi tomonidan shaxsiy g'azna hisobvarag'iga joriy yoki kelgusi yilda qaytariladigan Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari hisobidan o'tgan moliya yilida hosil bo'lgan debitorlik qarzining summasi, tegishli moliya yiliga qo'shimcha davrda qaytariladiganidan tashqari, tegishli budjet daromadlariga o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Yagona g'azna hisobvarag'idagi mablag'larni boshqarishni Davlat budjeti daromadlari tushumlari va xarajatlarning qisqa muddatli prognozlarini tuzish yo'li bilan amalga oshiradi.

Qabul qilingan moliyaviy majburiyatlarni bajarish uchun Yagona g'azna hisobvarag'ida mablag'lar yetishmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat budjeti xarajatlarning cheklangan hajmini belgilaydi hamda uning asosida budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarga xarajatlarni to'lash uchun ruxsatnomalar beradi.

Xarajatlarni to'lash uchun ruxsatnomalar berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining vaqtincha bo'sh turgan mablag'lari mavjud bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tijorat banklarida depozitlarga joylashtirilishi mumkin bo'lgan mablag'larning hajmini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini joylashtirish va ularni tijorat banklarida depozitlarga

joylashtirishdan olingan daromadlardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining qo'shimcha manbalari O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti taqchilligini qoplashga, joriy moliya yili uchun belgilangan aylanma kassa mablag'larining miqdorini to'ldirishga, qolgan qismi esa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan belgilanadigan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining, Toshkent shahri shahar budjetining, shuningdek tumanlar va shaharlar budjetlarining qo'shimcha manbalari birinchi navbatda joriy moliya yili uchun belgilangan aylanma kassa mablag'larining miqdorini to'ldirishga yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining, Toshkent shahri shahar budjetining, shuningdek tumanlar va shaharlar budjetlarining qo'shimcha manbalari tegishli budjet hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni saqlab turishga yo'naltirilishi mumkin emas.

Qo'shimcha manbalarning mablag'larini yo'naltirish to'g'risidagi qarorlar:

O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti bo'yicha — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan;

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjeti bo'yicha — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan;

tumanlar va shaharlar budjetlari bo'yicha — tuman va shahar hokimlari tomonidan qabul qilinadi.

Davlat maqsadli jamg'armalarining qo'shimcha manbalaridan foydalanish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida davlat

maqsadli jamg'armalarining faoliyat yo'nalishi bilan bog'liq xarajatlar uchun amalga oshiriladi.

Joriy moliya yili uchun mo'ljallangan Davlat budjeti taqchilligining tasdiqlangan cheklangan miqdori ortgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga Davlat budjeti xarajatlarini qisqartirish to'g'risida takliflar kiritadi.

Davlat budjeti xarajatlarini qisqartirishda xarajatlarning ustuvorligi va ijtimoiy yo'naltirilganligi budjet tashkilotlarining va budjet mablag'lari oluvchilarning qabul qilingan yuridik hamda moliyaviy majburiyatlari hisobga olingan holda baholanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar Kengashlari o'z budjetlarining balanslilikiga buzilishiga va Davlat budjeti taqchilligining tasdiqlangan cheklangan miqdori oshishiga olib keladigan tegishli budjet daromadlarini qisqartirishga yoki xarajatlarini ko'paytirishga qaratilgan biror-bir qaror qabul qilishga haqli emas.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari qabul qilinganidan keyin moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar Kengashlarining tegishli budjet daromadlari qisqarishiga olib keladigan qarorlari tegishli budjet xarajatlari qisqartirilgan taqdirdagina qabul qilinishi mumkin.

Agar Davlat budjeti qabul qilinganidan keyin moliya yili mobaynida tegishli budjetlarning daromadlari va xarajatlari parametrlarini ko'paytirish yoki kamaytirish to'g'risida qarorlar qabul qilinsa, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya organlari tomonidan tegishli darajadagi budjetlar hajmlariga o'zgartirishlar kiritiladi. Xarajatlarni ko'paytirish yoki qisqartirish barcha darajadagi budjetlar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar yo'li bilan amalga oshiriladi.

Agar kelgusi moliya yili uchun Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari yil boshlanguniga qadar qabul qilinmagan bo'lsa, Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari quyidagi shartlarga rioya etilgan holda ijro etiladi:

- o'tgan moliya yilida amalda bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni taqsimlash normativlari saqlab qolinadi;
- boshlanayotgan moliya yilida xarajatlar tasdiqlangan vaqtinchalik xarajatlar smetalariga muvofiq amalga oshiriladi.
- Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining budjetlari moliya yili boshlanganidan keyin qabul qilingan taqdirda, moliya yili mobaynida xarajatlarning umumiy summasi qabul qilingan Davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlariga muvofiqlashtirilishi kerak.
- Joriy moliya yilining budjet tizimi budjetlariga tushumlarni kiritish bilan bog'liq bo'lgan barcha operatsiyalari joriy moliya yilining oxirgi ish kunida yakunlanadi.
- Davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg'armalarining budjetlariga kelgusi yilda kiritilgan daromadlar yangi boshlangan yil daromadlari hisoblanadi.
- Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining budjetlari daromadlari bo'yicha tranzit hisobvaraqlariga joriy yilning oxirgi ish kuni tugaguniga qadar kiritilgan va yangi boshlangan yilning uch ish kuni mobaynida Yagona g'azna hisobvarag'iga o'tkazilgan daromadlar o'tgan yilning daromadlari hisoblanadi.
- Joriy yilning Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlaridan barcha to'lovlar moliya yiliga qo'shimcha vaqt davri tugaganidan so'ng yakunlanadi.

Qo'shimcha vaqt davrida joriy moliya yili uchun Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarini ijro etish bo'yicha operatsiyalar, shu jumladan:

- I. budjetlararo munosabatlarni tartibga solish;
- II. budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning kreditorlik qarzlarni to'lash;
- III. budjet tashkilotlari tomonidan iqtisod qilingan mablag'lar summalarini budjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armalariga (tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armalariga) o'tkazish;

Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining budjetlari mablag'lari hisobidan boshqa ruxsat etilgan to'lovlar amalga oshiriladi.

Budjetlararo munosabatlarni tartibga solish yuqori va quyi turuvchi budjetlar, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari o'rtasidagi o'zaro qarzdorlikning jami summasi to'lanishini nazarda tutadi.

O'tgan yilni yakunlash bo'yicha qo'shimcha vaqt davrida muayyan to'lovlarni amalga oshirish tartibi va muddatlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Xarajatlar bo'yicha idora Markaziy hukumatda ijtimoiy moliyaviy boshqaruv tizimining ustidan nazoratni olib borish uchun yoki davlat moliyasi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish uchun tuzilgan markaziy idora sanaladi.

Idoraning asosiy faoliyati katta projektlarga (rejalashtirilgan va rajalashtirilmagan xarajatlar) sanksiya qo'llashdan oldin baholash va shtatlarga ajratiladigan markaziy budjet resurslarining darajasini aniqlash.

Moliya va Markaziy to'lov komissiyasi tomonidan berilgan takliflarni ijro etish, auditor kuzatuvlari va xulosalarimonitoring orqali, moliyaviy tartibotlar boshqaruvi va moliyaviy maslahatchilar o'rtasidagi interfeys orqali Markaziy vazirliklar va idoralarda xarajatlar ustidan boshqaruvni amalga qo'yish.

Markaziy hukumat hisob kitoblarini tayyorlash, Markaziy hukumatda xodimlar boshqaruvining moliyaviy ko'rinishlari ustidan nazorat olib borish, ijtimoiy xizmatlar xarajatlari va narxlari ustidan nazoratni amalga oshirishda Markaziy vazirliklar hamda idoralarga yordam ko'rsatish, ekspluatatsiya va xizmat ko'rsatish tadbirlari hamda xodimlarni o'qitish ustidan kuzatuvni olib borib, tashkiliy qayta injenerlash ishlariga ko'maklashish va ijtimoiy xarajatlar natijalari hamda bu natijalarni optimallashtirish uchun protsedura va tizimlarni ishlab chiqishdan iborat.

Bundan tashqari yuqorida keltirib o'tilgan idora vazirliklarning parlamentga bog'liq bo'lgan masalalaridan iborat moliya vazirligiga oid bo'lgan masalalarni muvofiqlashtirish bilan ham shug'ullanadi. Idora joylashgan Moliyaviy menejment milliy instituti ma'muriy boshqaruvi ostida faoliyat yuritib boradi.

### **Nazorat savollari**

1. Davlat budjetining g'azna ijrosi deganda nimani tushunasiz
2. Jahon tajribasida davlat budjeti ijrosining nechta shakllari amal qiladi va ularga izoh bering?
3. Davlat budjetining kassa ijrosi deganda nimani tushunasiz?
4. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari daromadlari va xarajatlarining yoyilmasi nimadan iborat?
5. Daromadlar va xarajatlar yoyilmasining xarajat qismiga xarajatlar smetalarini tuzish talab qilinmaydigan hollar nimalardan iborat?
6. Budjet Kodeksining 120-moddasi to'rtinchi qismida nimalarga urg'u berilgan?
7. Budjet tizimi budjetlari daromad qismining ijrosi nimalarni o'z ichiga oladi?

8. Davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining qo'shimcha manbalari qaysilar?
9. Budjet tizimi budjetlari xarajatlar qismining ijrosi nimalarni nazarda tutadi?
10. Budjet Kodeksi 122-moddasining sakkizinchi qismi nimalardan iborat?
11. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari deganda nimani tushunasiz?



## 7.4. Budjetlararo Munosabatlar

*Budjetlararo munosabatlar budjet jarayoni davomida davlat va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida yuzaga keluvchi iqtisodiy-huquqiy munosabatlar majmui hisoblanadi.*

*Budjetlararo munosabatlar davlat boshqaruvi tizimida vertikal yoki gorizontal bo'yicha paydo bo'ladi va amal qiladi hamda hokimiyat har bir darajasining faoliyat maqsadlaridan kelib chiqib, ularning moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda tartibga solinadi.*

### **Budjetlararo munosabatlar quyidagi tamoyillarga asoslanadi:**

1. *Vaqtinchalik qisqa muddatli (moliya yilidan kam bo'lmagan muddatga) yoki budjet tizimining darajalari bo'yicha daromadlarni tartibga solishning uzoq muddatli me'yorlari bo'yicha doimiy asosda chegaralash va biriktirish.*

2. *Budjet xarajatlarini budjet tizimining darajalari bo'yicha taqsimlash va biriktirish.*

3. *Budjetlarning o'zaro munosabatlarida budjet huquqlarining tengligi.*

*Budjetlararo munosabatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:*

- *alohida ijtimoiy va iqtisodiy funksiyalarni bajarish uchun javobgarlikni budjet tizimining budjetlari o'rtasida taqsimlash va huquqiy jihatdan biriktirishni;*

- *budjet tizimining har bir darajasiga biriktirilgan vakolatlarni amalga oshirishni ta'minlaydigan xarajatlar hajmini belgilashni;*


- *budjetning barcha darajalarida daromadlar manbasini belgilash va huquqiy biriktirishni;*

- *hududlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning barcha shakllarini.*

*Budjetlararo munosabatlarning maqsadlarini quyidagilarda ya'ni, yagona iqtisodiy makonni yaratish, hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida yagona minimal standartlarni ta'minlash, teng ijtimoiy himoyani ta'minlash va fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini kafolatlash, butun mamlakat hududida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning qulay sharoitlarini ta'minlashda ko'rishimiz mumkin*

*Budjetlararo munosabatlarning modeli deganda, budjet tizimi darajalari o'rtasida daromadlar va xarajatlarni taqsimlash masalalarini echishda o'zaro munosabatlarni tashkil etishning asoslarini aniqlashga nisbatan institutsional yondashuv tushuniladi.*

*Budjetlararo munosabatlarning markazlashtirilgan, markazlashtirishdan chiqarilgan va kooperativ modellari farqlanadi (1-rasm).*



**1-rasm. Budjetlararo munosabatlar modellari**

Budjetlararo munosabatlarning markazlashtirilgan modeli quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Mahalliy hokimiyat organlarining o'z budjetlarini shakllantirishga doir huquqlarini cheklash.
2. Davlat boshqaruvi bo'g'inlari o'rtasida funktsional majburiyatlar taqsimotining yo'qligi yoki rasmiyligi.
3. Hududiy manfaatlarining milliy ehtiyojlarga bo'ysunishi.
4. Soliq vakolatlarini davlat tomonidan taqsimlash va mahalliy hokimiyat organlariga moliyaviy yordam berishning avtoritar usuli amal qilishi.
5. Davlat tuzilishi shakliga bog'liqlik.

Markazlashtirilgan modelda mahalliy budjetlarni shakllantirish markaziy budjet bilan uzviy bog'liqlikda konsolidatsiyalashgan budjet rejasi doirasida amalga oshiriladi.

Budjetlararo munosabatlarni tashkil etishning ushbu modelining afzalliklari quyidagilarda ya'ni, boshqarishni tashkil etishning yagonaligi, budjet tizimining tashkilotchilik qobiliyatini oshirish, belgilangan maqsadlarga jadal erishishga moliyaviy resurslarni yo'naltirish, mahalliy hokimiyat organlarining xarajatlar vakolatlarini nazoratini yaxshilash va muvofiqlashtirish, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ularga berilgan vakolatlar doirasida mablag'lar ni taqsimlash borasida xato qarorlar qabul qilish havfini pasaytirish, hududlarda aholi turmush darajasini nazorat qilish va tenglashtirishda namoyon bo'ladi.

Mazkur modelning kamchiliklari esa quyidagilarda ya'ni, markaziy hokimiyat organlarining ish hajmi ko'payib ketganligi sababli faoliyati samaradorligining pasayishi, hududlarning moliyaviy ta'minoti va moliyaviy bazasini rivojlantirishning zaiflashishi, mahalliy hokimiyat organlarining

boqimandalik kayfiyati, ular har qanday holatda hududlar budjetlari balanslashtirilishiga ishonchlari komilligida namoyon bo‘ladi.

Markazlashtirishdan chiqarilgan model  
quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Markaziy hukumat munitsipalitetlar va mintaqalarning budjet jarayoniga aralashmaydi.

2. Xarajatlarga oid vakolatlar boshqaruvning turli darajalari o‘rtasida qonun yo‘li bilan aniq belgilab qo‘yiladi.

3. Mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarishning moliyaviy mustaqilligini rivojlantirish izchil amalga oshiriladi

4. Daromadlar manbalarini taqsimlash budjet kelishuvlariga muvofiq amalga oshiriladi

5. Markazlashtirishdan chiqarilgan budjet davlat tuzilishi shakliga bog‘liq bo‘lmaydi

Budjetlararo munosabatlarning markazlashtirishdan chiqarilgan modeli iqtisodiy rivojlangan federativ davlat tuzilmasiga ega mamlakatlarga xos bo‘lib, ular hududiy va mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv organlarining budjet huquqlari kengayishini ta‘minlaydi, bu esa o‘z navbatida, umumiy davlat xarajatlarida mahalliy budjetlarning ulushi oshib borishiga olib keladi.

Mazkur modelning kamchiliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi ya‘ni, budjetlararo munosabatlarning markazlashtirishdan chiqarilgan modelida hukumatning makroiqtisodiy maqsadlarga erishish va davlatda moliyaviy imkoniyatlar muvozanatini ta‘minlash faoliyatini muvofiqlashtirish murakkablashadi, markazlashtirishdan chiqarilgan tartibda budjetlararo munosabatlarni boshqarish ko‘p hajmda axborot talab qiladi va qarorlar qabul qilishning tezkorligi pasayadi, qarorlar qabul qilishda mahalliy hokimiyat organlari ko‘pincha o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy siyosati manfaatlaridan kelib chiqadi va davlat ahamiyatiga molik maqsadlarni doim ham hisobga olavermaydi.

Budjetlararo munosabatlarning kooperativ modeli quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Milliy daromadni qayta taqsimlash va makroiqtisodiy barqarorlikka erishishda hududiy hokimiyatlarning kengroq qatnashishi, bu o'z navbatida, hududiy va markaziy davlat tuzilmalarining budjet sohasidagi hamkorligi kengayib borishiga ko'maklashadi.

2. Soliqqa oid daromadlarni taqsimlash tizimida hududiy hokimiyatlar rolini oshirish.

3. Gorizontaal budjet tenglashuvining faol siyosati, hududiy davlat moliyasining holati, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi uchun markazning ma'suliyatini oshirish, bu esa o'z navbatida, markaz tomonidan nazoratning kuchayishiga olib keladi va hududiy hokimiyatlarning mustaqilligini ma'lum darajada chegaralaydi (bu boshqaruvning yuqori darajada markazlashuvida hamda hududiy hokimiyatlar markaziy tuzilmalarning agentlariga aylanishida namoyon bo'ladi).

Budjetlararo munosabatlar - moliya oqimlarini maqbullashtirish jarayonining shartli uchta asosiy yunalishini ko'rsatish mumkin:

- xarajatlar bo'yicha vakolatlarning chegaralanishi;
- bo'g'inlararo budjet tizimi daromadlarining chegaralanishi;
- budjet bo'g'inlari o'rtasida mablag'larning qayta taqsimlanishi

Budjetlararo munosabatlar O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari, Toshkent shahrining shahar budjeti, tumanlar, shaharlar budjetlari, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari o'rtasidagi Budjet kodeksi bilan tegishli budjetlarga birlashtirilgan xarajatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tegishli budjetlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga doir munosabatlardir.

Budjet kodeksi O‘zbekiston Respublikasining budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish va budjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksida turli darajadagi budjetlarning vakolatlari chegaralanib, budjetlararo munosabatlar tizimi takomillashtirilgan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining “Budjetlararo munosabatlar” nomli 20-bobida budjetlararo munosabatlar tushunchasi, budjetlarning darajalari o‘rtasida daromadlar va xarajatlarni o‘tkazish, budjetlararo transfertlarning shakllari, subventsiyalar, o‘tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiya, budjetlararo o‘zaro hisob-kitoblar, budjetlararo transfertlarni o‘tkazish tartibi, budjet ssudasi shaklidagi budjetlararo transfert, aylanma kassa mablag‘lar i, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga qo‘llaniladigan cheklovlarga to‘xtalib o‘tilgan.

Shunday qilib, budjetlararo munosabatlarga quyidagicha ta‘rif berishimiz mumkin: “Budjetlararo munosabatlar - davlat budjet mexanizmining muhim ajralmas elementi bo‘lib, mamlakatning ma‘muriy-hududiy tuzilmalari sub‘ektlari o‘rtasida markaziy boshqaruvning markazdan turib barcha moliyaviy oqimlarni taqsimlash jarayonini oqilona tartibga solishni ta‘minlaydi va bundan tashqari, markaziy hukumatning aniq funktsiyalarini davlat boshqaruvining turli darajalarida huquq va majburiyatlarni o‘zaro taqsimlab olish orqali bajarish uchun davlat budjetida jamlangan pul mablag‘lar ining ushbu sub‘ektlar o‘rtasida qayta taqsimlanishini o‘z ichiga oluvchi munosabatlar yig‘indisidir”.

## 2. Byudjetlarning darajalari o'rtasida daromadlar va xarajatlarni o'tkazish tartibi. Byudjetlararo transfertlar shakllari.

Daromadlarni kompensatsiya qilish yoki xarajatlarni qoplash Davlat budjetini ijro etish jarayonida quyi turuvchi budjetlarning daromadlarini va (yoki) xarajatlarini kamaytirishga yoxud ko'paytirishga olib keladigan hollarda o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'larni ajratish yoki olib qo'yish orqali majburiy tartibda amalga oshiriladi.

Budjetlararo o'zaro hisob-kitoblar moliya yili mobaynida budjetlar parametrlari o'zgarganda yuqori va quyi turuvchi budjetlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro pul munosabatlaridir:

### Budjetlararo o'zaro hisob-kitoblar

- qonun hujjatlari qabul qilinganligi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari daromadlarining prognozi aniqlashtirilganligi;
- budjet tashkilotlari va budjet mablag'lar i oluvchilarning bo'ysunuvi o'zgarganda xarajatlar bir budjetdan boshqa budjetga o'tkazilganligi;
- kapital qo'yilmalar limitlari budjetlar darajalari o'rtasida qayta taqsimlanganligi munosabati bilan yuzaga keladi.

Budjetlararo o'zaro hisob-kitoblarga kiritilishi lozim bo'lgan summa yuqori turuvchi moliya organi tomonidan aniqlanadi. Budjetlararo transfertlar subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiyalar, budjet ssudasi va o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar shaklida amalga oshiriladi.

Budjetlararo transfertlarning hajmlari:

- joriy moliya yilida turli darajadagi budjetlar daromadlari va xarajatlari o'zgarishiga sabab bo'luvchi qonun hujjatlari qabul qilinganda;

- tegishli barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushishidan hamda budjetdan ajratiladigan mablag'larning o'zlashtirilishidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Yuqori turuvchi moliya organi tashabbusi bilan yuqori turuvchi budjet quyi turuvchi budjet oldidagi budjetlararo transfertning bir shakli bo'yicha majburiyatlari quyi turuvchi budjetning yuqori turuvchi budjet oldidagi budjetlararo transfertning boshqa shakli bo'yicha majburiyatlarini kamaytirish evaziga hisobga olinishi mumkin. Budjetlararo munosabatlarning tasniflanishini quyidagi 2-rasmda ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 3-moddasida keltirilgan asosiy tushunchalar sharhida "Subventsiya", "O'tkazib beriladigan daromadlar", "Dotatsiya" va "Budjet ssudasi" kabilarga tegishlicha talqin berilgan:


«Subventsiya - muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori turuvchi budjetdan quyi turuvchi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lar idir»;

“O'tkazib beriladigan daromadlar - tegishli ma'muriy-hududiy birlikda shakllanadigan va yuqori turuvchi budjetga omtkaziladigan, ular qaerda shakllangan bo'lsa, keyinchalik o'sha ma'muriy-hududiy birlik budjetiga o'tkazib beriladigan daromadlar”;

“**Dotatsiya**- budjet tizimi budjetlariga ularning o'z daromadlari etishmagan taqdirda daromadlar bilan xarajatlar o'rtasidagi farqni qoplash uchun qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'laridir”;

“**Budjet ssudasi**- qaytarish sharti bilan yuqori turuvchi budjetdan quyi turuvchi budjetga, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalariga, rezident-yuridik shaxsga ajratiladigan pul mablag'lar idir”. Shu bilan birga, Budjet kodeksining 138-moddasiga muvofiq, “Budjetlararo o'zaro hisob-kitoblar - moliya yili mobaynida budjetlar parametrlari o'zgarganda yuqori va quyi turuvchi budjetlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro pul munosabatlaridir”.





**2-rasm. Budjetlararo munosabatlarning tasniflanishi**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizni jadal rivojlanib borishi mahalliy budjetlarning davlat budjetidagi salmog'i o'sishiga olib keladi. Shu sababli umumdavlat soliqlarini turli darajadagi budjetlar o'rtasida taqsimlanishini takomillashtirib borish ham budjet o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni samarali boshqarishni talab etadi. Bunda umumdavlat soliqlaridan ajratmalarning roli faqat mahalliy budjetlarni daromadlar bilan ta'minlash emas, balki mahalliy hokimiyat organlarining yuqori budjetlarda mablag'lar yig'ilishidagi manfaatdorligini, hududlarda ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bog'liqligiga e'tibor berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar hududlarda yig'iladigan ushbu soliqlar miqdoriga nisbatan foiz hisobida belgilanadi, lekin bu foiz miqdorlari har yili budjet loyihalarini tayyorlab, tasdiqlanganda o'sha tasdiqlangan yil uchun belgilanadi va har yil budjetida o'zgarib turadi. Quyidagi jadval orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga 2014-2016 yillarda umumdavlat soliqli tushumlaridan o'tkazmalar me'yorlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Mahalliy budjetlarda 2014-2016 yillarda umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yori bo'yicha quyidagi 2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida tahlil qilsak, ayrim viloyatlarga ajratmalar me'yori 2014 yilga nisbatan 2016 yilda oshirilgan bo'lsa, ayrimlarda kamaytirilgan. Masalan, yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'idan ajratmalar Buxoro viloyati mahalliy budjetiga 2014-2015 yillarda jami tushumlarning 55,0 foiz miqdorida belgilangan bo'lsa, 2016 yilda bu ko'rsatkich 53,0 foizga kamaytirilgan. Qashqadaryo viloyati mahalliy budjetiga 2014-2015 yillarda jami tushumlarning 52,0 foiz miqdorida belgilangan bo'lsa, 2016 yilda bu ko'rsatkich 60,0 foizga oshirilgan. Toshkent shahrida 2014 yilda 3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015-2016 yillarda 2,0 foizga kamaytirilgan.

**1-jadval****Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy  
budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me‘yorlari [8]**

(foizda)

Soliq turi	Yuridik shaxslarning daromadi (foydasi) ga soliq	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadidan yagona soliq	Mikrofirma va kichik korxonalar dan yagona soliq	Jismoniy shaxslarning daromadiga soliq	QQS	Aktsiz solig‘i				Er osti boyliklari dan foydalanganlik uchun soliq
						Benzin	Dizel yoqilg‘isi	Aviatsiya kerosini	Alkogen mahsuloti (etil spirtidan tashqari)	



Navoiy viloyati	62	57	55	100	100	100	100	100	100	62	57	55	62	57	55										50	50	50			
Namangan viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100										100	100	100		100	100
Samarqand viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100										100	100	100		100	100
Surxandaryo viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100			100			100			100	100	100	100	100	100	100
Sirdaryo viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100										100	100	100		100	100
Toshkent viloyati	50	40	30	100	100	100	100	100	100	50	40	30	50	40	30										50	50	50			
Fargʻona viloyati	98	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	98	100	100	98	100	100	98	100	100	98	100	100	50	100	100		100	100

Xorazm viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100									1000	1000	1000		1000	1000
Toshkent shahri.	3	2	2	3	2	2	3	2	2	3	2	2	3	2	2									500	500	500			

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadidan yagona soliq hamda mikrofirma va kichik korxonalardan yagona soliq ajratmalar me'vori Toshkent shahri tashqari barcha hududlarga 100,0 foiz tushum sifatida berilgan.

Jismoniy shaxslarning daromadiga soliqdan ajratmalar me'vori Buxoro, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahridan tashqari qolgan viloyatlarga 100,0 foiz tushum sifatida berilgan.

Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'idan ajratmalar me'vori faqatgina Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahridan tashqari boshqa viloyatlarda 2014,2015,2016 yillarda mahalliy budjetlarga 100,0 foiz tushum sifatida berilgan.

Yuqori turuvchi budjetdan quyi turuvchi budjetga dotatsiya quyi turuvchi budjet xarajatlarining rejalashtirilgan hajmi subventsiyalar va o'tkazib beriladigan daromadlar hisobga olingan holda mazkur budjet daromadlarining prognoz qilingan hajmidan oshib ketgan taqdirda ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan davlat maqsadli jamg'armalarining budjetlariga dotatsiya jamg'armalar xarajatlarining rejalashtirilgan hajmi yil boshidagi qoldiq hisobga olingan holda jamg'armalar daromadlarining prognoz qilingan hajmidan oshib ketgan taqdirda ajratilishi mumkin.

Dotatsiyaning miqdori:

O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan quyi turuvchi budjetlarga va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlariga ajratilganda - asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda;

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan va Toshkent shahrining shahar budjetidan tumanlar va

shaharlar budgetlariga ajratilganda - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan belgilanadi.

Dotatsiya mahalliy budgetlar daromadlari va xarajatlarini moslashtiruvchi usul sifatida foydali bo‘lgani holda u ayrim salbiy xususiyatlarga ham egadir. Mahalliy budget daromadlarining bu manbai mahalliy hokimiyat organlarida boqimandalik kayfiyatini yuzaga keltiradi. Ularning qo‘shimcha daromad topish, o‘z daromadlarini ko‘paytirishga qiziqishlarini pasaytiradi, budgetlarni o‘z daromad qismini bajarish imkoniyatlarini cheklabgina qolmay, moliyaviy nazoratning susayishiga sharoit yaratadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, Respublikamizda hukumatimiz tomonidan tasdiqlangan hududlarni dotatsiyadan chiqarish Davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan izchil islohotlar hozirda barcha hududlarda mahalliy budgetlarni dotatsiyadan chiqarish imkonini berdi. 2012 yildan boshlab barcha hududlar dotatsiyaga muhtojligiga barham berildi.

Subventsiyalar asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat budgetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda belgilangan xarajatlarni amalga oshirish uchun ajratiladi.

O‘zbekiston Respublikasining respublika budgetidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi budgetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlariga beriladigan subventsiyalarning miqdorlari asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat budgetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda belgilanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budgetidan, viloyatlarning viloyat budgetlari va Toshkent shahrining shahar budgetidan tumanlar va shaharlar budgetlariga beriladigan subventsiyalarning miqdorlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan belgilanadi.

Foydalanilmagan subventsiyalar joriy moliya yili oxirida tegishli yuqori turuvchi budgetga qaytariladi.



Mahalliy budjetlarga 2014-2016 yillarda ajratilgan subvensiyalar hajmi 2-jadvalda keltirilgan. Mahalliy budjetlarga ajratilgan jami subvensiyalar hajmida hududlarni salmog'ini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2016 yilda Surxondaryo viloyati 28,7 foizni, Namangan viloyati 27,3 foizni, Qoraqalpog'iston Respublikasi 19,8 foizni, Jizzax viloyati 16,8 foizni va Sirdaryo viloyati 7,4 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlariga 20014-2016 yillarda  
ajratilgan subventsiyalarning taqsimlanishi [8]**

(mln.so‘m)

№	Xududlar nomi	2014 yil		2015 yil		2016 yil (reja)	
		Subventsiya	Jamiga nisbatan %	Subventsiya	Jamiga nisbatan %	Subventsiya	Jamiga nisbatan %
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	495375,5	16,9	506359,2	20,1	475415,7	19,8
2	Jizzax viloyati	372025,0	12,7	367229,1	14,6	404531,0	16,8
3	Namangan viloyati	508364,9	17,4	597393,3	23,7	656235,2	27,3
4		642249,6	21,9	249999,1	9,9		

	Samarqand viloyati						
5	Surxondaryo viloyati	618393,6	21,1	645061,4	25,6	688639,1	28,7
6	Sirdaryo viloyati	159553,3	5,4	155712,4	6,2	178035,6	7,4
7	Xorazm viloyati	133169,6	4,5				
	<b>Jami hududlar bo'yicha</b>	<b>2929113,5</b>	<b>100,0</b>	<b>2521754,5</b>	<b>100,0</b>	<b>2402856,6</b>	<b>100,0</b>

Maqsadli subventsiyalar shaklidagi mablag'larni quyidagi hollarda berish maqsadga muvofikdir: birinchidan, vakolatlarni bajarish uchun xarajatlar hajmi nobarqaror va budjet xizmatlarini olayotgan kontingent miqdoriga bog'liq bo'lsa; ikkinchidan, xarajatlar hajmi mahalliy hukumat organlari qarorlariga bog'liq bo'lsa, bunday xarajatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: aniq kompensatsiyalarni to'lash xarajatlari, aholiga markaziy hukumat organlari tomonidan belgilangan nafaqalar va imtiyozlar .

O'tkazib beriladigan daromadlarning umumiy hajmi:

O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan quyi turuvchi budjetlarga - asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda;

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan va Toshkent shahrining shahar budjetidan tumanlar va shaharlar budjetlariga - Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan quyi turuvchi budjetlarga tushumlari o'tkazib beriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hamda ular tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda tasdiqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlaridan tumanlar va shaharlar budjetlariga tushumlari o'tkazib beriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hamda ular tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari ro'yxati Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari bilan birgalikda tasdiqlanadi.

Yuqori turuvchi budjetdan quyi turuvchi budjetga o'tkazib beriladigan daromadlarning summasi tegishli quyi turuvchi budjetga tushishi lozim bo'lgan daromadlar hisobga olingan holda belgilanadi.

O'tkazib beriladigan daromadlarni o'tkazish ular bo'yicha haqiqatda tushgan tushumlar doirasida, biroq ularning tasdiqlangan hajmidan ortiq bo'lmagan miqdorda amalga oshiriladi.

Budjet ssudasi budjet manbalarining to'liq safarbar qilinishi tegishli budjetlarda nazarda tutilgan xarajatlar qoplanishini ta'minlamagan taqdirda, qaytarish sharti bilan va foizsiz beriladi.

Budjet ssudasi:

prognoz qilingan daromadlar va rejalashtirilgan xarajatlar o'rtasidagi rejali vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash uchun - to'qqiz oygacha bo'lgan muddatga;

daromadlar tushumlari va xarajatlarni amalga oshirish o'rtasida kutilayotgan vaqtinchalik kassa uzilishlarini qoplash uchun - olti oygacha bo'lgan muddatga beriladi.

### Budjet ssudasi

prognoz qilingan daromadlar va rejalashtirilgan xarajatlar o'rtasidagi rejali vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash uchun - to'qqiz oygacha bo'lgan muddatga;

daromadlar tushumlari va xarajatlarni amalga oshirish o'rtasida kutilayotgan vaqtinchalik kassa uzilishlarini qoplash uchun - olti oygacha bo'lgan muddatga beriladi.

Rejali budjet ssudasi daromadlarning prognoz qilingan tushumlari, nazarda tutilgan subvensiya, o'tkazib beriladigan daromadlarning summasi, aylanma kassa

mablagʻlar idan va yil boshidagi erkin qoldiqlardan vaqtinchalik mablagʻ jalb qilish, dotatsiya tasdiqlangan tegishli budjetlarda nazarda tutilgan ayrim choraklardagi xarajatlar qoplanishini taʼminlamagan hollarda beriladi.

Budjet ssudasi:

Oʻzbekiston Respublikasining respublika budjeti mablagʻlar i hisobidan

- Qoraqalpogʻiston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga, Toshkent shahrining shahar budjetiga, davlat maqsadli jamgʻarmalari budjetlariga;

Qoraqalpogʻiston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari, Toshkent shahrining shahar budjeti mablagʻlar i hisobidan

- tumanlar va shaharlar budjetlariga ularning daromadlari hamda xarajatlari oʻrtasidagi rejali yoki kutilayotgan vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash uchun beriladi.

Budjet ssudalarini berishning majburiy sharti ulardan belgilangan maqsadda foydalanish, shuningdek joriy moliya yili mobaynida ularni oʻz vaqtida qoplashdan iboratdir.

Budjet ssudasi Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimliklarning, davlat maqsadli jamgʻarmasini taqsimlovchi organ rahbarining budjet ssudasiga boʻlgan ehtiyojni asoslovchi hisob-kitoblar ilova qilingan yozma soʻrovi asosida beriladi. Budjet ssudasi berish toʻgʻrisidagi yozma soʻrovni koʻrib chiqishda moliya organi qaror qabul qilish uchun zarur boʻlgan axborot va hisob-kitoblarni soʻrab olish huquqiga ega.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimliklarning, davlat maqsadli jamgʻarmasini taqsimlovchi organ rahbarining yozma soʻrovini koʻrib chiqish yakunlari boʻyicha budjet ssudasini berish toʻgʻrisidagi qaror:

O‘zbekiston Respublikasi respublika budjetidan - O‘zbekiston Respublikasi moliya vaziri tomonidan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari, Toshkent shahrining shahar budjetidan - tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari boshliqlari tomonidan besh ish kuni ichida qabul qilinadi.

Budjet ssudasini ajratish budjet ssudasini berayotgan moliya organi va budjet ssudasini oluvchi moliya organi (davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organ) o‘rtasida budjet ssudasi berish to‘g‘risidagi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Budjet ssudasini qaytarish muddatlarini uzaytirish budjet ssudasini oluvchida uni belgilangan muddatlarda o‘z vaqtida to‘lash imkoniyatini istisno etadigan moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelgan hollarda amalga oshiriladi.

Budjet ssudasini qaytarish muddatlarini uzaytirish budjet ssudasini berish uchun ushbu moddada belgilangan tartibda va shartlar asosida amalga oshiriladi.

Budjet ssudasini oluvchi tegishli moliya organiga budjet ssudasini to‘lash muddatlarini uzaytirish to‘g‘risidagi yozma so‘rov bilan to‘lash muddati tugashidan kamida besh ish kuni oldin murojaat etadi.

Budjet ssudasini to‘lash budjet ssudasini berish to‘g‘risidagi shartnomada belgilangan muddatlarda:

- mablag‘lar ni o‘tkazish;
- quyi turuvchi budjetlarga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazilishi kerak bo‘lgan subventsiyalar, o‘tkazib beriladigan daromadlar, - budjetlararo o‘zaro hisob-kitoblar va dotatsiyalar evaziga o‘zaro hisobga olish;
- ish haqini to‘lash, ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar, stipendiyalar, pensiyalar, kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam, kompensatsiya to‘lovlari

va nafaqalar to'lash xarajatlari qoplanganidan so'ng quyi turuvchi budjetlarning shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan mablag'lar ni so'zsiz undirib olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Qo'shma Shtatlarda hukumatlar daromad manbalaridan foydalanish va xarajatlarning asosiy sohalari turlari farq qiladi. Federal hukumat asosan shaxsiy va korporativ daromad solig'i hamda ijtimoiy sug'urta solig'iga tayanadi. Federal xarajatlar mudofaa, tibbiy huquqlar va ijtimoiy sug'urta tarzida jamlangan. Shtatlar federal hukumatdan o'z daromadining deyarli to'rt dan bir qismini qoplaydi va qolgan qismi asosan savdo va individual foyda soliqlaridan iborat. Ularning xarajatlari ta'lim, ijtimoiy xizmatlar va xalq farovonligiga sarflanadi. Mahalliy hukumatlar, solishtiradigan bo'lsak, o'z fondlarining uchdan bir qismini boshqa hukumatlardan va to'rt dan bir qismi, ya'ni ta'lim eng salmoqli xarajat funksiyasiga kirsam ham, mulk solig'idan shakllantiriladi .

#### **4. Mahalliy byudjetlarda aylanma kassa mablag'lari me'yori. Mahalliy byudjetlarga qo'llaniladigan cheklovlar.**

O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining, Toshkent shahri shahar budjetining, shuningdek tumanlar, shaharlar budjetlarining aylanma kassa mablag'lari ularning daromadlari bilan xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash maqsadida shakllantiriladi.





Yil mobaynida aylanma kassa mablag'laridan jalb qilingan summalar yil oxirigacha tiklanishi lozim. Aylanma kassa mablag'larining yil oxiridagi miqdori belgilangan summaga mos kelishi kerak.

Kelgusi moliya yili uchun belgilangan aylanma kassa mablag'lari:

➤ tegishli budjetlarning shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridagi mablag'larning yil boshidagi qoldiqlari;

➤ joriy yilning birinchi — uchinchi choraklari yakunlari bo'yicha daromadlar prognozining oshirib bajarilishi summolari hisobidan to'ldiriladi.

Tumanlar va shaharlar budjetlarining tegishli manbalari etarli bo'lmaganda tumanlar va shaharlar budjetlarining aylanma kassa mablag'larini to'ldirish to'g'risida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan qaror qabul qilinishi mumkin.

Respublikamizda budjetlararo munosabatlarni tartibga solish va boshqarishda huquqiy jihatdan budjet jarayonida:

- O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining tumanlar va shaharlar budjetlari bilan;

- davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining tumanlar va shaharlar budjetlari bilan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining bir-biri bilan, shuningdek boshqa ma'muriy-hududiy birlikning tumanlari va shaharlari budjetlari bilan;

- tumanlar va shaharlar budjetlari o'rtasida o'zaro munosabatlariga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan.

Alohida qayd etish lozimki, respublikamizda Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga qo'llaniladigan cheklovlar huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan.

Jumladan, Budjet kodeksining 142-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari balanslashtirilgan daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi lozim. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarini qabul qilish va ijro etishda:

- mablag'lar jalb qilishni amalga oshirishga, yuqori turuvchi budjetlardan budjet ssudalari olish bundan mustasno;

- tasdiqlangan budjetdan ajratilgan mablag'lar dan ortiq xarajatlarni amalga oshirishga;

- tegishli budjetlar mablag'lar i hisobidan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berishga;

- yuridik va jismoniy shaxslarga budjet ssudalari va kredit liniyalari berishga yo'l qo'yilmaydi.

## 5. Byudjetlararomunosabatlarnitashkiletishborasidajahontajribalari.

Budjetlararo munosabatlarni boshqarishning xorij tajribalarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, federal va unitar davlatlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Unitar davlatlar budjet tizimi budjet resurslarining yuqori darajada markazlashuvi va mahalliy budjetlarning huquq va majburiyatlari darajasi pastligi bilan ajralib turadi. Federativ davlatlarda esa budjet tizimi mahalliy budjetlarning nisbatan mustaqilligi va bu boradagi vakolat doirasining kengligi bilan ajralib turadi.

Rivojlangan davlatlarda budjetlararo munosabatlar tizimi allaqachon ishlab chiqilgan, bunda ayrim tarkibiy qismlar vaqti- vaqti bilan o'zgartirilib turiladi.

Dunyo tajribasiga ko'ra budjetlararo munosabatlar muammosi quyidagi uchta savolni o'z ichiga oladi:

- turli darajadagi budjetlar o'rtasida daromadlarni taqsimlash;
- xarajatlarni moliyalashtirish bo'yicha vakolatlarni chegaralash va belgilab berish;
- bir darajadagi budjetdan ikkinchi darajadagi budjetga mablag'lar ni turli shaklda qayta taqsimlashni o'z ichiga oladigan budjetlararo tartibga solish.

Turli darajadagi budjetlar o'rtasida daromadlarni taqsimlashning ko'plab usullarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bu uslublar budjet avtonomiyasi darajasiga, ular ta'sirining adolatliligi va betarafliligi darajasiga, shuningdek xudulararo qayta taqsimoti darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Jahon tajribasida daromadni taqsimlash vakolatining asosan uch shakli keng qo'llaniladi:

1. Soliq manbalarini budjetlararo taqsimlash va ulardan alohida foydalanish;
2. Federativ budjet daromadlarining bir qismi bo'linishi.
3. Aynan bir manbadan birgalikda foydalanish.

Kanada federativ tuzilish modeli markazlashtirishdan chiqarish darajasining yuksakligi bilan tavsiflanadi. Konstitutsiyaga muvofiq federal hukumat va provintsiyalar hukumatlari teng huquqli sheriklar hisoblanadi, mahalliy hokimiyat organlari mustaqil konstitutsiyaviy maqomga ega emas. Bu hol soliq solish bazasi, soliq stavkasini belgilash, soliqlarni yig'ish va ularni boshqarish borasidagi vakolatlarning federal hukumat, provintsiyalar hamda mahalliy o'rtasida taqsimlanishida o'z aksini topgan.

Xarajatlar sohasida federal hukumat vakolatlariga quyidagilar kiradi: mudofaa, pul - kredit siyosati, temir yo'l va havo transporti, tashqi iqtisodiy munosabatlar va ishsizlik bo'yicha sug'urta.

Federal hukumat va provintsiyalar hukumatlarining qo'shma vakolatlariga quyidagilar kiradi: pensiya ta'minoti, immigratsiya, sanoat hamda qishloq xo'jaligi.

Provintsiyalarning vakolatlariga quyidagilar kiradi: ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, huquqni muhofaza qilish faoliyati (politsiya), tabiiy resurslar va yo'llar.

Kanadada minimal milliy standartlarni ta'minlashga budjet mablag'lar ini quyidagi uch yo'nalishda vertikal qayta taqsimlash yo'li bilan erishiladi:

- mavjud dasturlarni moliyalashtirish (sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida ko'rsatiladigan xizmatlarning federal darajada belgilangan standartlariga asoslanuvchi aniq maqsadga qaratilgan blokli grantlar);
- Kanada yordam rejasi (ijtimoiy yordam sohasida aniq maqsadga qaratilgan ulushli grantlar);

- Kanada budjetni tenglashtirish dasturi.

Budjetni (daromadlarni) tenglashtirish har yili soliq salohiyati standart darajadan past bo'lgan va ijtimoiy xizmatlarni lozim darajada moliyalashtirish imkoniyatini bermaydigan provintsiyalarga maqsadsiz grantlar berish orqali amalga oshiriladi.

Kanada federativ tuzilish modeli markazlashtirishdan chiqarish darajasining yuksakligi bilan tavsiflanadi. Mazkur sharoitda soliq solinadigan bazani va soliq stavkasini belgilash, liqlar, yig'implarni yig'ish hamda boshqarish bo'yicha vakolatlar federal hukumat, provintsiyalar va mahalliy ma'muriyatlar o'rtasida taqsimlangan.

Ayrim davlatlarda ya'ni, Kanada, Germaniya, Frantsiya va Avstraliya davlatlarida soliq turlari bo'yicha tushumlarning budjet darajalari o'rtasida taqsimlanishini ko'rishimiz mumkin. Kanadada umumiy soliqlarning budjet darajalari ya'ni, federal budjetga 48,9 foiz, hududiy budjetga 41,5 foiz, munitsipal budjetga 9,6 foiz taqsimlanadi. Germaniyada umumiy soliqlarning budjet darajalari ya'ni, federal budjetga 70,7 foiz, hududiy budjetga 22,0 foiz, munitsipal budjetga 7,3 foiz taqsimlanadi. Frantsiyada umumiy soliqlarning budjet darajalari ya'ni, federal (markaziy) budjetga 89,2 foiz va munitsipal budjetga 10,8 foiz taqsimlanadi. Avstraliyada umumiy soliqlarning budjet darajalari ya'ni, federal budjetga 77,4 foiz, hududiy budjetga 19,3 foiz, munitsipal budjetga 3,3 foiz taqsimlanadi .

## **Nazorat uchun savollar:**

- 1 Budjetlararo munosabatlar qanday mezonlarga asoslanadi?
- 2 Budjetlararo munosabatlar modellarining o'ziga xos xususiyatlari va bir biridan farqli tomonlari?
- 3 Budjetlararo transfertlar qanday ko'rinishda amal oshiriladi?
- 4 Dotatsiyani uzluksiz yoki ko'p marotaba berish natijasida qanday salbiy holatlar yuzaga chiqishi mumkin?
- 5 Maqsadli subvensiyalar qanday holatlarda berish maqsadga movofiq hisoblanadi?
- 6 Budjet ssudasi nimaga asoslangan holda berilishi mumkin?
- 7 Budjet ssudasi o'z vaqtida qaytmasa, unidirish uchun qanday choralar ko'riladi?
- 8 Kelgusi yil uchun belgilangan aylanma kassa mablag'lari nimalar hisobidan to'ldirilishi mumkin?
- 9 Byujet kodeksiga asosan qaysi budjetlarini taqchillik holatda bo'lishi mumkin emas?
- 10 Xalqaro amaliyotda byujetlararo munosabatlar nimasi bilan biznikidan ajralib turadi?

#### **7.4. Davlat budjeti taqchilligi va profitsiti, davlat tomonidan mablag' jalb qilish**

1. Davlat budjetining holati. Davlat budjetining balansliligi, profitsit va taqchillik holatlari.

Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning bugungi bosqichida budjet daromadlari ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo'jalik sub'ektlarining va aholi daromadlarining oshib borishi, soliq bazalarining kengayishi, mulk shakllarining ko'payishi bilan ortib bormoqda. Lekin, bu davrda jamiyatning ko'p tomonlama ehtiyojlari ham kamaygani yo'q, aksincha, budjet tomonidan moliyalashtirilishi ob'ektiv zaruriyat bo'lgan, mohiyat jihatidan yangi-yangi tadbirlar, loyihalar, yo'nalishlar paydo bo'ldi. Ularni to'liq hajmda moliyalashtirish yanada ko'proq mablag'larni taqozo etadi. Lekin daromadlarni muttasil oshirib borish (xususan, soliqlarni oshirish orqali) imkoniyati amaldagi soliq qonunchiligi bilan chegaralangan. Shu bilan birga, soliqlarni asossiz ravishda oshirish iqtisodiy sub'ektlarning xo'jalik faoliyatiga jiddiy putur yetkazadi, ularning ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Bunday sharoitda budjet xarajatlarining budjet daromadlari bilan balanslangan bo'lishiga har doim ham erishib bo'lmaydi.

Daromadlar va xarajatlarning tengligini amalga oshiruvchi budjet balanslashtirilgan budjet deyiladi. Balanslashtirilgan budjetda defitsit va profitsit bo'lmaydi. Yanada umumiyroq aytadigan bo'lsak, unda budjet defitsiti bo'lmaydi, lekin ehtimoliy budjet profitsiti bo'lishi mumkin. Ko'pchilik iqtisodchilar hukumat haqiqatan ham uni uddalay olsa, federal budjetni balanslashtirish foiz stavkalarini pasayishiga, jamg'armalar va investitsiyalarning o'sishiga, savdo defitsitini kamayishiga va uzoq vaqt davomida iqtisodiyotni tezroq o'sishiga olib keladi. Kelajak avlodlar o'z yashash turmush darajalarini pasaytirishlari talab etilmaydi va hozirgi avlod mana shu holatda yashashni davom ettirishi mumkin.

*Juda ko'p davlatlar o'z konstitutsiyalarida daromaddan ko'ra ko'proq sarflashni taqiqlash orqali budjet balansi tuzatishlarini amalga oshirgan. 2003-yilda Shveysariyaning qonun chiqaruvchi organi budjet har doim balansda bo'lishi kerakligi to'g'risida konstitutsion o'zgartirish kiritdi, bu iqtisodiy holatlarni inobatga olgan holda amalga oshirilgan. Hukumat inqirozlarda defitsitga duch kelishi mumkin, lekin iqtisodiy rivojlanishda bundan saqlanishi kerak. Germaniyaning konstitutsiyasi 2009-yilda Shkuldenbremse (qarzni to'xtatish) maqsadida tuzatilgandi, bunda 0,35 foizdan ortiq defitsitlarni taqiqlash belgilandi.*

*U davlat va federal darajada amal qiladi. 2011-yilda Ispaniya o'z konstitutsiyasini istalgan berilgan yil uchun YaIMda qarzning 60 foizdan ortiq ulushini taqiqlash bo'yicha o'zgartirdi. AQSHda Vermont shtatidan boshqa har bir shtat balanslashtirilgan budjetning tuzilmasiga ega. Yevro hudud davlatlari 2012-yil martda imzolagan "Budjet Moslashuvchanligi" har yili emas, balki butun iqtisodiy davrda budjet defitsitini taqiqlovchi hujjat hisoblanadi. Hukumat iqtisodiy sho'ng'ishlar va qo'shimcha vaziyatlar paytida yuqori defitsit holatini amalga oshirishi mumkin.<sup>13</sup>*

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksida davlat budjetining holatini belgilab beruvchi tushunchalarga quyidagicha ta'riflar berilgan:

Davlat budjeti profitsiti — muayyan davrda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti daromadlarining uning xarajatlaridan oshib ketishi;

Davlat budjeti taqchilligi — muayyan davrda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti xarajatlarining uning daromadlaridan oshib ketishi .


Davlat budjeti daromadlarining budjet xarajatlaridan oshish holati yuzaga kelganda, budjet profitsiti paydo bo'ladi. Budjet profitsiti, odatda, davlatning qarz majburiyatlarini to'lashga va likvidli mablag'larini ko'paytirishga jalb etiladi.

Keyingi yillarda budjet-soliq tizimidagi islohotlarning ijobiy pirovard natijalari sifatida 2005-2016 yillarda davlat budjetining profitsit bilan ijrosi ta'minlanganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, inflyatsiya jarayonining me'yordagi darajasini ta'minlanishi islohotlarni hozirgi sharoitida makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishning natijalari hisoblanadi.

---

<sup>13</sup>Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice, CreateSpace USA, 2016. p. 115





1-rasm. 2000-2016 yillarda davlat budjetining holati to'g'risida ma'lumot

Respublikamizda kuzatilayotgan makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish sur'ati sharoitida davlat budjetining taqchillik bilan rejalashtirilishiga qaramasdan, birgina 2016- yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsit bilan ijro etilayotgani nafaqat iqtisodiy sohada, balki davlatning moliyaviy faoliyati sohasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning natijasidir.

1-rasmdan ko'rinadiki, 2000-2004 yillar davomida mamlakatimiz davlat budjeti taqchilligini -1,0 foizdan -0,4 foizga pasaytirish, 2005-2008 yillar davomida esa davlat budjeti taqchilligiga barham berib, davlat budjeti profitsitini 0,1 foizdan 1,5 foizga oshirishga erishildi. Keyingi yillarda mazkur jarayonlarga ham jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishiga qaramasdan, budjet profitsitini saqlab qolishga erishilmoqda.

Xususan, murakkab kechgan 2016 yilda ham maqsadga muvofiq yo'naltirilgan chora-tadbirlar natijasida budjet daromadlarining xarajatlardan ortish hajmi yalpi ichki mahsulotning 0,1 foizi darajasida bo'lishiga erishildi.

Amaliyotda budjet daromadlari va xarajatlarining tengligiga hamma vaqt ham erishilavermaydi. Ayrim hollarda budjetning daromadlari uning xarajatlaridan ko'p bo'lishi mumkin. Bunday budjet profitsitli budjet deyiladi. Aksincha, ba'zi hollarda esa budjetning xarajatlari uning daromadlaridan ko'proq bo'ladi. Shunga muvofiq ravishda budjet xarajatlarining budjet daromadlaridan ko'p bo'lishiga budjet defitsiti deyiladi.

Sobiq Ittifoqda ma'muriy-buyruqbozlik yillarida davlat budjeti taqchilligi uzoq vaqtlargacha mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida tan olinmagan. Davlat budjetini shakllantirishda moliyaviy resurslarga bo'lgan talabdan kelib chiqqan xolda, ularni moliyalashtirish uchun mablag'lar qidirib topilardi va shu asosda davlatning moliyaviy manfaatlari ta'minlanardi. Rejali iqtisodiyot ma'lum davrlargacha hech qanaqa larzalarsiz, bir tekisda ma'muriy-buyruqbozlik asosida rivojlanib borishi daromadlar va xarajatlar orasida "kasallik" alomatlarini aniq ko'rsatmadi. Ammo, keyingi davrlarda sobiq Ittifoqda budjet taqchilligi xolati yuzaga chiqa boshladi. Dastlabki yillardagi budjet taqchilligi jamg'arma kassalardagi aholi mablag'lari, hayotni uzoq muddatga sug'urta qilish badallarining o'sishi va aholi o'rtasida davlatning ichki yutuqli zayom obligatsiyalarini chiqarish hisobiga qoplab borildi. Bu turdagi qarzar oldindan mavjud bo'lgan resurslarni qayta taqsimlash bo'lgani uchun moliyaviy-moddiy balansning buzilishiga olib kelmadi, ammo bu jarayon davlat qarzarining o'sishiga olib keldi. 1986- yilda budjet taqchilligining juda tez sur'atda o'sib ketishi (45,5 mlrd rubl) Ittifoq moliya tizimining parokandalik holatini boshlab berdi.

Aksariyat shtatlarda muvozanatlashgan budjet talablari mavjud bo'lsada, mazkur talablar barcha shtatlar uchun bir xil emas. Birinchi navbatda, "muvozanat" tushunchasi harajatlarning daromadlardan oshib ketmasligi kerakligini anglatadi, biroq barcha mavjud daromadlarni ham muvofiqlashtirish va sarflashning iloji bo'lmaydi. Sarflanadigan daromadlar barcha mablag'larni qamrab olmaydi, va odatda grantlar (trust funds) hamda kapital xarajatlar mazkur ro'yxatga kirmaydigan xarajatlar hisoblanadi. Natijada, davlat jamg'armasining kamida yarim qismi muvozanatlashgan budjet talablari tomonidan qamrab olinishi mumkin. Budjet idorasiga so'rovni taqdim etish, budjet loyahasini qonun chiqaruvchi organga taqdim etish va tasdiqlatish muddatlari kabi masalalar sababli muvozanatlashtirish talablari ham turlicha bo'lishi mumkin. Huddi shunday farqlar mahalliy darajada ham uchraydi. Shtat budjet tizimining muvozanatga erishishi siyosiy jarayon hisoblanadi. Daromadlarni oshirish yo'llarini izlab topish va xarajatlarni qisqartirish muvozanatga erishishning keng tarqalgan yo'li bo'lsada, muvozanatni ta'minlash uchun boshqa vositalardan ham foydalaniladi. Masalan, budjet zaxiralari, qora kun (favqulotda vaziyatlar) uchun saqlab qo'yilgan mablag'lar, avvalgi yillardan qolgan jamg'armalar harajatlarni qoplashga yo'naltirilishi mumkin. Ayrim davlatlar budjet harajatlarini qisqartirish talab etilgan paytda ham qora kunga asrab qo'yilgan mablag'lar hisobidan harajatlarni yuqori darajada amalga oshirishda davom etadilar. Shuningdek, ayrim hollarda, resurslardan avvalgi yilda foydalanilgan bo'lsa ham to'lovlar bir moliyaviy yildan keyingisiga o'tkazilishi mumkin. Siyosiy rahbarlar budjet muvozanatda bo'lmagan

paytda ham uni muvozanatlashgan budjet qilib ko'rsatish uchun shu va boshqa vositalardan foydalanadilar.

2. Budjet taqchilligini tartibga solish. Taqchillikni keltirib chiqaruvchi omillar. Taqchillikni moliyalashtirish manbalari.

1. Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish uchun mamlakat markaziy bankidan kreditlar olish, ya'ni muomalaga qo'shimcha pul emissiyasini amalga oshirish. 2. Davlat budjeti xarajatlarining hajmini qisqartirish. 3. Davlat budjeti daromadlarini ko'paytirish, ya'ni amaliyotga yangi soliq turlarini kiritish yoki amaldagi soliq stavkalarini oshirish. 4. Davlat mulkini mahalliy va xorijiy sarmoyadorlarga sotish. 5. Mamlakat aholisidan, mahalliy xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan, xorijiy mamlakatlar hukumatidan, xalqaro moliya tashkilotlaridan va yirik xorijiy tijorat banklaridan qarz olish.

**Taqchillikni hajmi:**

milliy valyutada absolyut summada;  
mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmiga nisbatan;  
milliy daromad hajmiga nisbatan;  
budjet daromadlari va xarajatlariga nisbatan foizlarda aniqlanadi.  
Boshqa hollar teng bo'lgan sharoitda, budjet defitsiti vujudga kelishining eng umumiy sabablari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:  
iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yirik davlat kapital quyilmalarini amalga oshirishning zarurligi;  
favqulodda hodisalarning mavjudligi;  
iqtisodiyotdagi tanazzulli (krizisli) holatlar va uning emirilishi;  
moliya-kredit aloqalarining yetarli darajada samarali emasligi;  
hukumat tomonidan mamlakatdagi moliyaviy holat ustidan yetarli darajada nazorat qila olmaslik;  
ijtimoiy ishlab chiqarishning nisbatan past darajada samaradorligi;  
tashqi iqtisodiy aloqalarning nisbatan kam natijaliligi;  
budjet xarajatlarining nooqilona tarkibiy tuzilishi (strukturasi);  
mamlakat miqyosida mavjud bo'lmagan mablag'lar hisobidan yashashga intilish;  
yirik davlat investitsiyalarini amalga oshirish amaliyo-ting mavjudligi;  
harbiy xarajatlar darajasining nisbatan kattaligi;  
ichki real imkoniyatni yetarli darajada inobatga olmagan holda boshqa mamlakatlarga yordam berilishi;  
davlatga iqtisodiyot va sotsial sohani rivojlantirishga stimulyat sifatida foydalanish imkonini bermaydigan va yetarli darajada samarali bo'lmagan budjet mexanizmining mavjudligi;

mamlakat Markaziy bankdan kredit olish o'z mohiyatiga asosan muomalaga qo'shimcha pul emissiyasini amalga oshirish hisoblanadi. Ushbu usul qo'llanilganda, mamlakatda davlat budjeti taqchilligi rasman moliyalashtirishga erishiladi, lekin ushbu usulning ayrim salbiy tomonlari mavjud. Mamlakat Markaziy bankidan xaddan tashqari ko'p kreditlar olish natijasida mamlakatda shiddatli yoki jilovlanmagan inflyatsiya yuzaga chiqishi mumkin. Buning natijasida, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol keskinlashib ketadi. Xalqaro amaliyotda ko'plab rivojlanayotgan, shu jumladan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarda davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirishda yaqingacha ushbu usuldan keng foydalanganlar. O'zbekiston Respublikasida ham davlat budjeti taqchilligini qisqartirishda 2003-yilgacha Markaziy bank kreditlaridan foydalanilgan.

**Budjet kodeksining 151-moddasiga asosan,** O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kreditlarini Davlat budjeti taqchilligini qoplash manbasi sifatida jalb qilishga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu moddaga asosan, respublikamizda davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirishda Markaziy bank kreditidan foydalanish qonunan ta'qiqlangan.

Budjet defitsiti vujudga kelganda, unga nisbatan strategik yondoshuv quyidagilarga alohida e'tibor berilishini taqozo etadi:

budjet defitsitining mavjudligini matematik yo'l bilan hal qilishga harakat qilmaslik kerak. Chunki, bu holda, iqtisodiyotni "davolash" o'rniga uning kasalligi kuchayadi;

budjetning balansliligi, daromadlarning xarajatlardan ko'pligi sog'lom va uzluksiz rivojlanayotgan iqtisodiyotdan dalolat bermaydi. Budjet defitsiti bo'lishi mumkin;

budjet defitsitining miqdori (darajasi), odatda, mamlakat yalpi milliy mahsulotining 2-3%dan oshmasligi lozim. Ana shu chegaradan oshilsa, uni tezroq qisqartirish (yoki shu darajaga keltirish) choralarini ko'rish kerak;

budjet defitsitini qoplash uchun, eng avvalo, davlat kreditining turli shakllaridan foydalanmoq lozim. Shuningdek, davlat qimmatbaho qog'ozlarini moliyaviy bozorda joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Aksincha, milliy pul birligi belgilarini zarb etuvchi uskunani (stanokni) ishga solmaslik kerak;

budjet defitsitining darajasini kamaytirish yoki unga barham berish uchun, birinchi navbatda, iqtisodiyotning o'zini "davolamoq" lozim. Aks holda, ana shu maqsadga erishish uchun ko'zda tutilgan har qanday tadbir, albatta, muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Budjet defitsitining darajasini kamaytirish yoki unga barham berish borasidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning eng asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

budjet xarajatlarining investitsion yo'nalishini o'zgartirish, ularni eng ko'p samara beradigan yo'nalishlarga yo'naltirish;

xo'jalik yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi moliyaviy imtiyoz va jazolardan keng foydalanish;

davlatdan moliyalashtirishni va davlat iqtisodiyoti sohasini qisqartirish, xorijiy davlatlarga yordam ko'rsatishni keskin kamaytirish;

harbiy xarajatlarni qisqartirish;

eng muhim sotsial dasturlarigina moliyalashtirishni saqlab qolish, yirik budjet xarajatlarini talab etuvchi dasturlarni qabul qilishni to'xtatib turish;

qarzlarni davlat qimmatbaho qog'ozlari shaklida rasmiylashtirmasdan turib hukumat organlariga kredit berishni Markaziy bank uchun taqiqlab qo'yish;

xorijiy sarmoyalarni jalb etish;

va boshqalar.

Taqchillik ko'p hollarda quyidagilar asosida kelib chiqadi:

taqchillik davlatning markazlashgan kapital qo'yilmalarini iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida oshirish yuzasidan kelib chiqishi mumkin. Bunday holatda u iqtisodiyotdagi krizis holatini bildirmaydi, balki davlatning iqtisodiy konyukturani tartibga solish, jadal rivojlanishni ta'minlash zaruriyatidan kelib chiqadi;

taqchillik favqulodda holatlar natijasida kelib chiqishi mumkin (urushlar, tabiiy ofatlar va boshq.). Bunday holatlarda odatdagi rezervlar yetarli bo'lmaydi va ortiqcha mablag'larga ehtiyoj tug'iladi;

taqchillik krizis holatidan kelib chiqadi. Bunda iqtisodiyot parokandalikka yuz tutadi, moliya-kredit mexanizmlari samarasiz ishlaydi, hukumat mamlakatning moliyaviy barqarorligini amaldagi usullar bilan boshqara va tartibga sola olmaydi. Bunday taqchillik iqtisodiyot uchun xatarli bo'lib, zudlik bilan iqtisodiyotni barqarorlashtirish, xo'jalikning moliyaviy holatini sog'lomlashtirish bo'yicha aniq choralar ko'rishnigina emas, balki voqelikka mos keluvchi siyosiy qaror qabul qilishni taqozo etadi. Aynan shu turdagi, iqtisodiy rivojlanishni, iqtisodiy

tizimning tashkiliy printsiplarini stixiyali holda qayta qurish mamlakatda (80-yillar) turg'unlik holatini keltirib chiqardi.

Taqchillikning kelib chiqish sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:

iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida davlat budjeti hisobidan kapital qo'yilmalar hajmining oshib ketishi;

favqulodda holatlar – urushlar, davomiy ommaviy tartibsizliklar, tabiiy ofatlar;


YaIM ushish sur'atlarining pasayib ketishi, ishlab chiqarishning izdan chiqishi;

budget daromadlari bazasining mustahkam emasligi;

YaIM ning o'sish sur'atlariga erishmasdan turib markazlashgan uzoq muddatli investitsiyalarni, ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirishni muttasil oshirib borish;

iqtisodiy inqirozlar va boshqalar.

Davlat budjeti taqchilligi:



Budget defitsiti vujudga kelgan paytda uni moliyalashtirish manbalarini aniqlab olmoq zarur. Uni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri davlatning qarz olishidir.

Davlatning qarzlarni olishi jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qilinadigan zayom va kreditlarni olishdan iborat bo'lib, ular bo'yicha qarz oluvchi yoki boshqa qarz olganlarning qarzlarni qaytarish bo'yicha kafolatchi sifatida hukumatning qarz majburiyatlari vujudga keladi.

Davlatning ichki qarzlarni olishi jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qilinadigan zayom va kreditlarni olishdan iborat bo'lib, ular bo'yicha qarz oluvchi yoki boshqa qarz olganlarning qarzlarni qaytarish bo'yicha kafolatchi sifatida hukumatning o'z milliy valyutasida ifodalangan qarz majburiyatlari paydo bo'ladi.

Davlatning tashqi qarzlarni olishi jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qilinadigan zayom va kreditlarni olishdan iborat bo'lib, ular bo'yicha qarz oluvchi yoki boshqa qarz olganlarning qarzlarni qaytarish bo'yicha kafolatchi sifatida hukumatning xorijiy valyutada ifodalangan qarz majburiyatlari vujudga keladi.

Budjet defitsitini moliyalashtirishning barcha manbalari jalb qilingan mablag'larning barcha asosiy turlari bo'yicha navbatdagi moliyaviy yilga mo'ljallangan budjet to'g'risidagi qonunda qonunchilik hokimiyati organlari tomonidan albatta tasdiqlanishi kerak.

Budjet defitsitini moliyalashtirishning manbai sifatida mamlakat Markaziy bankining kreditlari va Markaziy bank tomonidan hukumatning sotib olingan qarz majburiyatlari maydonga chiqishi maqsadga muvofiq emas.

Budjet defitsitini moliyalashtirishning barcha manbalarini ikki guruhga bo'lish qabul qilingan:

1)ichki manbalar;

2)tashqi manbalar.

Budjet defitsitini moliyalashtirishning ichki manbalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

mamlakat hukumati tomonidan shu mamlakatning milliy valyutasida kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar;

mamlakat hukumati nomidan qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish orqali amalga oshirilayotgan davlat zayomlari;

davlat mulkiga tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olingan tushumlar;

davlat zaxiralari va rezervlar bo'yicha daromadlarning xa-rajatlardan o'sgan qismi summasi;

budjet mablag'larini hisobga oluvchi hisob varaqlaridagi mablag'lar qoldig'ining o'zgarishi;

va boshqalar.

Budjet defitsitini moliyalashtirishning tashqi manbalari qatoriga quyidagilar kiradi:

mamlakat hukumati nomidan qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish orqali xorijiy valyutada amalga oshirilgan davlat zayomlari;

xorijiy valyutada taqdim etilgan va mamlakat hukumati tomonidan jalb qilingan xorijiy davlatlar, banklar va firma-lar, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning kreditlari.

Yuridik va jismoniy shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro huquqning boshqa sub'ektlari oldidagi (davlat kafolatlari bo'yicha majburiyatlarni qo'shgan holda) mamlakat hukumatining qarz majburiyatlari hukumatning davlat qar-zini vujudga keltiradi. Bu qarz davlat xazinasini tashkil etadigan davlat mulki bilan to'liq va hech qanday shartsiz ta'minlanishi kerak. Bunda davlat hokimiyati organlari mamlakat hukumatining qarz majburiyatlari va davlat qarzigacha xizmat qilish uchun respublika budjetining daromadlarini shakllantirish bo'yicha barcha vakolatlardan foydalanadilar.



Mamlakatning qarz majburiyatlari quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

qarz oluvchi sifatida mamlakat hukumati nomidan kredit tashkilotlari, xorijiy davlatlar va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan tuzilgan kredit bitimlari va shartnomalari;  
mamlakat hukumati nomidan qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish orqali amalga oshirilgan davlat zayomlari;  
mamlakat hukumati tomonidan davlat kafolatini berish to'g'risidagi shartnomalar;  
o'tgan yillardagi mamlakatning qarz majburiyatlarini restrukturizatsiya qilish va muddatini o'zgartirish to'g'risidagi mamlakat hukumati nomidan tuzilgan (shu jumladan, xalqaro) bitimlar va shartnomalar;  
va boshqalar.

Mamlakatning qarz majburiyatlari o'zining muddatiga qarab qisqa muddatli (bir yilgacha), o'rta muddatli (bir yildan ortiq va besh yilgacha) va uzoq muddatli (besh yildan yuqori) bo'lishi mumkin. Ular zayomning konkret shartlariga muvofiq ravishda (zayom shartlarini, jumladan, to'lov muddatlari, foiz to'lovlarining miqdori, muomala muddatlarini o'zgartirmasdan) qaytarilishi kerak.

Mamlakat hukumatining davlat ichki qarzlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. hukumat davlat qimmatbaho qog'ozlari bo'yicha qarzining asosiy nominal summasi;
2. hukumatga taqdim etilgan kreditlar bo'yicha asosiy qarz-ning hajmi;
3. mamlakat hukumati tomonidan berilgan kafolatlar bo'yicha majburiyatlar hajmi va boshqalar.

O'z navbatida, hukumatning davlat tashqi qarzlari:

xorijiy davlatlar hukumatlari, kredit tashkilotlari, firmalar va xalqaro moliyaviy tashkilotlarga mamlakat hukumati tomonidan taqdim etilgan davlat kafolatlari bo'yicha majburiyat-lar hajmi;

xorijiy davlatlar hukumatlari, kredit tashkilotlari, firmalar va xalqaro moliyaviy tashkilotlardan hukumat olgan kreditlar bo'yicha asosiy qarz hajmidan iborat bo'ladi.

2011 yil 1 yanvardan budget amaliyotiga kiritilgan yangi budget tasnifiga muvofiq, budget defitsitini moliyalashtirish manbalari quyidagicha guruhlangan:

Moliyalashtirishning ichki manbalari:

- 1.Davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar
- 2.Markaziy bank kreditlari
- 3.Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar
- 4.O'zbekiston Respublikasi respublika budgeti mablag'larining qoldig'i
- 5.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larining qoldig'i
- 6.Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi mablag'larining qoldig'i
- 7.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi mablag'larining qoldig'i
- 8.O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasining maxsus hisobvarag'i mablag'lari
- 9.Boshqa ichki manbalardan jalb qilinadigan mablag'lar

Moliyalashtirishning tashqi manbalari:

- 1.Davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar
- 2.Xalqaro moliyaviy institutlar, tashkilotlar kreditlari
- 3.Xorijiy davlatlar kreditlari
- 4.Boshqa tashqi manbalardan jalb qilinadigan mablag'lar

3. Budget taqchilligi to'g'risidagi zamonaviy kontseptsiyalar, ularning mazmuni, xususiyatlari va ahamiyati.

Bu muammoni hal qilish bo'yicha jahonda bir-biriga zid bo'lgan bir qancha kontseptsiyalar mavjud:

**-Har yili balanslashtiriladigan budget**

**-Tsiklik asosda balanslashtiriladigan budget**

**-Funksional taqchillik**

Quyida biz bu kontseptsiyalarni alohida ko'rib chiqamiz.

“Har yili balanslashtiriladigan budget” kontseptsiyasi bo'yicha budget har yili daromad va xarajat qismining tenglik sharti bilan tuzilishi kerak.

30-yillardagi “Buyuk depressiya”gacha bu turdagi budget tuzilishi davlat moliyasining asosiy maqsadlaridan edi. Ammo, ko'pgina iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra, ba'zi iqtisodiy holatlarda ijobiy Yoki salbiy holdagi qoldiqqa ega bo'lgan budgetning bo'lishi maqsadga muvofiqdir (ishsizlik va daromadlarning pasayishi). Bunday holatda soliq tushumlari avtomatik ravishda qisqaradi. Hukumat budgetni balanslashtirishga harakat qilib:

solliqlarni oshirishi mumkin;

davlat xarajatlarini qisqartirishi mumkin;

har ikkala choralarni birgalikda amalga oshirishi mumkin.

Yuqoridagi choralar jilovlovchi, yakka holda iqtisodiyotda yalpi talabni yana ham qisqartiruvchi choralar hisoblanadi. Bunday har yili balanslashtiruvchi budget inflyatsiyani tezlashtiradi.

Iqtisodiy ko'tarilish jarayonida pul daromadlari ortadi, o'z-o'zidan, soliq tushumlari ham ortadi. Hosil bo'lgan budgetdagi ijobiy qoldiqni yo'qotish uchun bunday holatda hukumat:

solliq stavkalarini pasaytiradi;

davlat xarajatlarini oshiradi;

yuqoridagi ikkalasini birgalikda amalga oshiradi.

Bu uchala chora ham iqtisodiyotda inflatsion bosimning ortishiga olib keladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, har yili balanslashtiriladigan budjet mexanizmi iqtisodiy samarali emasligi kelib chiqadi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan kamchiliklariga qaramasdan, dunyoning ko'pgina davlatlarida «har yili balanslashtiriluvchi budjet» g'oyasi qo'llab-quvvatlanadi. 70-yillar oxiri, 80-yillar boshlarida Frantsiya konstitutsiyasi bo'yicha budjetni balanslashtirish aytib o'tilgan va unda taqchillikning bo'lishi taqiqlangan. Dastlab bu printsip yaxshi samara bergan, ammo taqchilliksiz budjetni ta'minlash juda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi boshqa yo'llarni qidirishga majbur qilgan. Budjet yili uchun balanslashtirilgan budjet tuzilgan va qabul o'ilingan, yil oxiriga oz muddat qolganda qo'shimcha budjet qabul qilingan. Dastlab qo'shimcha budjetdagi taqchillik uncha katta bo'lmagan, ammo yildan-yilga bu summa yiriklashib bordi. Balanslashtirilgan budjet bu davlatda vaqt sinovini engib o'ta olmadi.

Ammo Fransiya tajribasi bu g'oya tarafdorlariga etarlicha xulosa bermadi va bu g'oya tarafdorlari AQShda o'z rivojini topdi. 1985- yilda Grem-Ridman-Xollings qonuni qabul qilindi, bunga ko'ra, federal budjet taqchilligi har yili qisqartirib borilib, 1993- yilga kelib uni to'liq balanslashtirish ko'zda tutilgan edi. Bu qonun AQShda ham ko'zda tutilgan natijilarni bermadi.

Tsiklik asosda balanslashtiriladigan budjet g'oyasini S.Peland fikri bilan quyidagicha qisqacha tushuntirish mumkin: «Davlatning moliyaviy siyosati imkoni boricha iqtisodiy ritm bilan sinxron ravishda amalga oshirilishi kerak. Krizis va depressiya yillarida yuzaga kelgan taqchillik iqtisodiy o'sish davrida hosil bo'lgan profitsit (ijobiy qoldiq) hisobidan qoplanishi kerak. Ammo bu yerda asosiy muammo shundaki, iqtisodiyotdagi ko'tarilish va pasayish o'zining chuqurligi va davom etishi bilan bir-biriga mos tushavermaydi.

Masalan, uzoq davom etuvchi va chuqur pasayish ulkan budjet taqchilligini keltirib chiqaradi, undan keyin keladigan qisqa va uncha katta bo'lmagan rivojlanishdan hosil bo'ladigan ijobiy saldo bilan qoplanmaydi va budjetning tsiklik taqchilligini keltirib chiqaradi.

Funksional taqchillik kontseptsiyasining g'oyachilaridan biri R.Lindxolm "Umummoliyaning eski g'oyasi budjet balanslashtirilishi kerak deb uqtirsa, yangi qoidalar - budjet iqtisodiyotni balanslashtirishi kerak deydi». Funksional moliya g'oyasiga ko'ra budjetni har yili yoki tsiklik asosda balanslashtirish birlamchi emas, balki davlat moliyasining asosiy maqsadi davlat budjetini emas, iqtisodiyotni noinflyatsion, to'la bandlik asosida balanslashtirishdan iborat.

Yuqorida ko'rib o'tilgan kontseptsiyalardan qaysi biri O'zbekiston Respublikasi uchun bugungi kunda to'g'ri keladi?

Taqchilik shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan makroiqtisodiy omillar dinamikasini o'rganish, uning aniqlilik darajasini oshiradi. Taqchilikni prognozlashtirish va uni boshqarish bo'yicha AQSh Kongressining Budget bo'limi uzoq yillik tajribaga ega. AQShda budget taqchiligining hajmiga ta'sir etuvchi quyidagi an'anaviy makroiqtisodiy omillar o'rganilgan:

- YaIM o'sish sur'atining bir foizga pasayishi, iqtisodiy o'sish paytidagi soliq bazalari pasaytirilishi hisobiga, tushumlarni taxminan, birinchi uch yilda 50 mlrd. dollarga qisqartiradi. Yo'qotishlar hajmi kumulyativ tarzda o'sib boradi;
- ishsizlikning yuqori darajasi, huddi, iqtisodiy o'sishning past sur'atlari kabi, soliq bazasini o'zgartirmasada, ishsizlik bo'yicha nafaqalar hajmini oshiradi. Ishsizlik darajasining bir foizga ortishi, budgetning ahvolini, taxminan, YaIMning bir foizi miqdorida yomonlashtiradi.

#### 4. Davlat tomonidan mablag' jalb qilish va ularning turlari.

Davlat tomonidan mablag' jalb qilish ichki va xorijdan mablag' jalb qilishdan iborat .

##### 1. Tashqi (ichki) qarz (mablag' jalb qilish)/ davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish

Davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish O'zbekiston Respublikasi rezidentlaridan mablag'larni jalb etish bo'lib, bu mablag'lar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi yoki qarz oluvchi-rezidentlarning kreditlarini (qarzlarini) to'lashga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga keladi.

##### 1. Tashqi (ichki) qarz (mablag' jalb qilish)/ Davlatning xorijdan mablag' jalb qilishi.

Chet el manbalaridan (chet davlatlar, xalqaro tashkilotlardan, xalqaro moliya va iqtisodiy institutlardan, chet el hukumatlarining moliya tashkilotlari va O'zbekiston Respublikasining boshqa norezidentlaridan) mablag'larni jalb etish davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish bo'lib, bu mablag' bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi yoki qarz oluvchi-rezidentlarning kreditlarini (qarzlarini) to'lashga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga keladi.

Davlat tomonidan mablag' jalb etish bo'yicha qarorlar belgilangan tartibda qabul qilinadi.

Davlat tomonidan mablag' jalb qilish:

iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini, shu jumladan davlat investitsiya dasturlarini moliyalashtirish;

davlat qarzini qayta moliyalashtirish;

Davlat budjeti taqchilligini qoplash uchun amalga oshiriladi.

Davlat qarzining eng yuqori miqdori har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan navbatdagi yil uchun Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining budjetlari qabul qilinayotganda belgilanadi.

Davlat tomonidan mablag' jalb qilish turlari quyidagicha:

1) O'zbekiston Respublikasi tomonidan qarz oluvchi sifatida chet davlatlardan, xalqaro tashkilotlardan, xalqaro moliya va iqtisodiy institutlardan, chet el hukumatlarining moliya tashkilotlaridan hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa rezidentlari va norezidentlaridan jalb qilingan kreditlar (qarzlar);

2) O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari;

3) O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilgan davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha qarz majburiyatlari.

Qarz majburiyatlari qisqa muddatli (bir yilgacha bo'lgan muddatga), o'rta muddatli (bir yildan besh yilgacha muddatga) va uzoq muddatli (besh yil va undan ortiq muddatga) bo'lishi mumkin.

Davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan jalb qilinadigan kreditlar (qarzlar). O'zbekiston Respublikasi tomonidan xorijiy banklardan, davlatlardan, xalqaro moliya va iqtisodiy institutlardan, chet el hukumatlarining moliya tashkilotlaridan jalb qilinadigan kreditlar (qarzlar) davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish jumlasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan jalb qilinadigan kreditlar (qarzlar) belgilangan tartibda:

davlat investitsiya dasturini moliyalashtirishga yoki birgalikda moliyalashtirishga; tarmoqlarni, iqtisodiyot sohasini va mintaqalarni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish uchun kreditlarni (qarzlarni) qaytadan kreditlashga yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan kreditlarni (qarzlarni) qaytadan kreditlashda kredit (qarz) bo'yicha xizmat ko'rsatish yuzasidan ehtimoldagi tavakkalchiliklarni qoplashda foydalanish uchun jalb qilinayotgan kredit (qarz) stavkasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda O'zbekiston Respublikasi marjasi belgilanishi mumkin. Kredit (qarz) bo'yicha qarzdorlik to'liq to'langan taqdirda kredit (qarz) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi marjasining foydalanilmay qolgan summasi O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining daromadiga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari.

#### 1. Hukumat kafolatlari / O'zbekiston Respublikasi kafolatlari

O'zbekiston Respublikasining davlat kafolati qarz oluvchi-rezident o'zidan undiriladigan summani qarz (kredit) bo'yicha bitimlarda belgilangan muddatda to'lamagan taqdirda O'zbekiston Respublikasining qarz beruvchi oldidagi qarzni to'liq yoki qisman to'lab berish majburiyatidir.

O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari qarz beruvchilarga qarz oluvchi-rezidentlar o'zi olgan kreditlar (qarzar) bo'yicha majburiyatlarni bajarishining ta'minoti sifatida beriladi. Jismoniy shaxslarning majburiyatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari berilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlarini rasmiylashtirish bo'yicha vakolatli organdir.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasining berilgan davlat kafolatlari bilan shart qilib qo'yilgan to'lovlarni amalga oshirgach, amalga oshirilgan to'lovlar va ular bilan bog'liq xarajatlar summasini qarz oluvchi-rezidentdan so'zsiz undirib olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlarini rasmiylashtirish, taqdim etish, ro'yxatdan o'tkazish va ular bo'yicha majburiyatlarni bajarish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladigan davlat qimmatli qog'ozlari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi nomidan davlat qimmatli qog'ozlarini chiqaradi. Davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish va ularning cheklangan hajmi to'g'risidagi qaror belgilangan tartibda qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan emissiya qilingan davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishda;

davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha qiymatni, foizlarni va boshqa to'lovlarni to'lashda;

davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirishda fiskal agent sifatida ishtirok etishi mumkin.

Davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarishdan olingan tushumlar Davlat budjeti taqchilligini qoplash manbaidir.

Jahon iqtisodiyotining bugungi kundagi holatiga ta'sir etuvchi ikkinchi muhim omil bo'lib AQSHning xususiy shaxslarga, korporatsiyalarga va hukumatlarga bo'lgan qarzdorligining mavjudligi hisoblanadi. Fuqarolar murakkab siyosiy sharoitlarning yuzaga kelishi, shu jumladan, terrorizmning kuchayib borishiga bog'liq ravishda benzin va boshqa mahsulotlar importining qimmatlashib borayotganligini his qilmoqdalar. 1985 yilda Qo'shma Shtatlar birinchi marta sof qarzdor bo'ldilar. Rasman olib qaraganda bu shuni anglatadiki, AQSHdagi xorijiy investitsiyalarning qiymati Shtatlarning xorijdagi investitsiyalari qiymatidan ortib ketdi. 2009 yilda xorijiy investitsiyalarning qiymati (joriy bozor narxlarida) 21,1 trln. dollar, AQSHning xorijdagi investitsiyalarining qiymati esa 18,4 trln. dollar miqdorida baholandi; 90-yillarning o'rtalaridan boshlab ushbu qiymatlar ikki barobardan ziyod ko'paydi. 21 trln. dollarlik investitsiyalarning deyarli 25 foizi rasmiy xorijiy investorlar (hukumatlar va hukumat tashkilotlari) tomonidan kiritilgan.<sup>8</sup> Ushbu rasmiy xorijiy investitsiyalarning katta qismi Shtatlarning xazina qimmatli qog'ozlari va boshqa hukumat qarz majburiyatlariga qo'yilgan bo'lib, bu AQSH ning rasmiy qarzlari tashqi qarz ekanligini aks ettiradi.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida har yilgi taqchillikning va tez o'sib boruvchi davlat qarzining mavjud bo'lishi kuzatiladi. 70-yillar boshlariga kelib,



budjet taqchilligining YaIM ga nisbatan foiz hisobida o'sgan davlatlar bu ko'rsatkich pasaygan mamlakatlarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan. AQSh da ikkinchi jahon urushi yillarigacha budjet taqchilligi bo'lmagan, faqat urush yillarida davlat budjetida taqchillik yuzaga kelgan.

Ammo budjet taqchilligini favqulodda, mustasno bo'lgan hodisa deb qarab bo'lmaydi. O'zining tarixiy va iqtisodiy rivojlanishining u yoki bu bosqichida budjet taqchilligiga duch kelmagan davlat bo'lmasa kerak. Masalan, AQSh da federal budjet keyingi yarim asr mobaynida faqat 1969 yildagina taqchilliksiz ijro etilgan.

Davlat budjeti taqchilligini tartibga solishning quyidagi beshta turini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi ilmiy adabiyotlarida ilgari surilgan "funktional moliya" g'oyasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida budjet taqchilligi muammolarini xal qilish uchun umuman iqtisodiyotni balanslashtirish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiyasiz to'la bandlikka erishish zarur.

Davlat budjeti taqchilligiga taalluqli kontseptsiyalar - bu taqchillikning amal qilishi bilan bog'liq asosiy printsip va an'analar, shuningdek ularni tartibga solish, moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlash bilan bog'lik choralardir.

Umumlashtirib shuni aytish mumkinki, hozirgi sharoitda ko'proq «funktional moliya» g'oyasi ko'proq to'g'ri keladi, chunki davlat o'z maqsadlariga erishish

uchun xarajatlarni taqchilli moliyalashga ehtiyoj seziladi va shu yo'l bilan ishlab chiqarishning pasayishini oldini olish va iqtisodiyotni to'la barqarorlashtirishga erishish mumkin.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. Balanslashtirilgan budget nima?
2. Defitsit va profitsit balanslashtirilgan budgetda bo'ladimi?
3. Davlat budgeti defitsiti va profitsiti deganda nimalarni tushunasiz?
4. Davlat budgeti taqchilligi nima?
5. Davlat budgeti taqchilligining tartibga solishning nechta turi mavjud va ular qanday?
6. Budget kodeksining 151-maddasida budget taqchilligi to'g'risida nima deyilgan?
7. Davlat budgeti taqchilligining kelib chiqish sabablari qanday?
8. Davlat tomonidan mablag' jalb qilish va uning turlari qaysilar?

## **8-BOB. DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI**

### **8.1.Davlat moliyaviy nazorati**

#### **1. Davlat moliyaviy nazoratining mazmuni, vazifalariva ahamiyati. Davlat moliyaviy nazoratining prinsiplari.**

Davlat moliyaviy nazoratitegishli davlat hokimiyati organlarining hamda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining davlat moliyaviy resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi, maqsadga muvofiq va samarali ishlatilishi ustidan, shuningdek, davlat va mahalliy mulkdan qonuniy asosda foydalanish ustidan nazorat qilish yuzasidan moliyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan maqsadli faoliyatdir. Bu faoliyatning asosiy maqsadi nazorat qilinadigan ob'ektlar faoliyatidagi kamchiliklarni topish va mansabdor shaxslarni jazolashdan iborat bo'lib qolmasdan, balki bu kamchiliklarning oldini olish, ularga yo'l qo'ymaslik, ogohlantirishdan iboratdir.

Davlat moliyaviy nazorati budget to'g'risidagi qonun hujjatlarining moliyaviy nazorat ob'ektlari tomonidan buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo'l qo'ymaslik maqsadida davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

## Davlat moliyaviy nazorati:

### Respublika darajasida

- O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining va respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan

### Mahalliy darajada

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan amalga oshiriladi

Davlat moliyaviy nazorat organlari davlat moliyaviy nazoratini davlat moliyaviy nazorat organlari yoki vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadigan nazorat qilish yillik rejalariga muvofiq amalga oshiradi.

Ayrim hollarda rejadan tashqari davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishga:


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining:

davlat moliyaviy nazorat organiga budjet to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risida ma'lumotlar kelib tushgan hollarda davlat moliyaviy nazorat organlari rahbarlarining qarorlari asosida yo'l qo'yiladi.


O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar davlat moliyaviy nazorat organlaridir.

Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining daromadlari qismi bo'yicha davlat moliyaviy nazorati berilgan vakolatlar doirasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bizga ma'lumki, umumdavlat moliyaviy nazorati butun mamlakat miqyosida tegishli vakolatlarga ega bo'lgan ixtisoslashgan davlat nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi.



Umumdavlat moliyaviy nazoratining asosini budjet nazorati tashkil qiladi. Budjet nazoratibarcha darajadagi budjetlarning, davlatning budjetdan tashqari fondlarining shakllanishi, davlat moliyaviy resurslarining qonuniy va maqsadga muvofiq ishlatilishi ustidan nazoratni ta'minlaydi. Nazoratning bu turini O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, uning qoshidagi Nazorat-taftish boshqarmasi, Moliya vazirligi G'aznachiligi kabi ixtisoslashgan operativ boshqarish va nazorat organlari amalga oshiradilar.



Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy tangliklar va moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar sharoitida budjet nazoratining ahamiyati o'sib boradi va yangicha mazmun kasb etadi.

#### Budjet nazorati:

- davlat moliyaviy nazoratining muhim qismi bo'lib, budjet jarayonida amalga oshiriladi;
- bosh maqsadi - budjet munosabatlarining barcha ishtirokchilari tomonidan budjet qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish;
- budjet tizimi budjetlari mablag'larining tashkil topishi, taqsimlanishi va foydalanilishining qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi va samarali ekanligini davlat organlari tomonidan tekshirish tadbirlari tizimi sifatida qaraladi;
- qonunbuzarliklarning oldini olish, aniqlash, fosh qilish va bartaraf etish bo'yicha choralarni qo'llashga, davlat budjetini shakllantirish va xarajatlarni amalga oshirishda yangi imkoniyatlarni topishga, soliq-budjet intizomini yaxshilashga yo'naltirilgan;
- hukumatning vakolatli organlari tomonidan Hisob palatasi (O'zbekistonning moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi oliy mustaqil organi)ni jalb qilgan holda, moliya va soliq organlari tomonidan (hukumat ijroiya

organlarining nazorati) amalga oshiriladi.

Budjet nazoratining vazifalari:

- ❖ budjet moddalari hajmi, tarkibi va maqsadliligi bo'yicha to'g'ri tuzilishi va ijro etilishini ta'minlash;
- ❖ budjet mablag'lari hisobiga xarajatlarni nazarda tutuvchi yoki budjetning shakllanishi va ijrosiga ta'sir etuvchi davlat organlarining qonun va normativ-huquqiy hujjatlari loyihalari, davlat dasturlari va boshqa hujjatlarning moliyaviy ekspertizasini amalga oshirish;
- ❖ buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishining to'g'riligi ustidan nazorat;
- ❖ budjet mablag'lari va budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'larining samarali va maqsadli ishlatilishi ustidan nazorat;
- ❖ barcha darajadagi budjetlar va budjetdan tashqari jamg'armalarga tushumlar to'liq va o'z vaqtida kelib tushishi ustidan nazorat;
- ❖ budjet jarayonining barcha bosqichlarida budjet va soliq intizomiga rioya qilinishi ustidan nazorat;
- ❖ turli darajadagi budjetlarning daromadlar bazasini oshirish va ularning xarajatlar qismini kamaytirish zaxiralarini aniqlash;
- ❖ budjetlararo munosabatlar mexanizmini amalga oshirish ustidan nazorat;
- ❖ budjet va budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari harakatlarining qonuniyligi va o'z vaqtidaligi ustidan nazorat;
- ❖ isrofgarchilik va moliyaviy suiiste'mollarni aniqlash, soliq imtiyozlari, davlat dotatsiyalari, subventsiyalar, transfertlar va alohida to'lovchilar yoki hududlarga boshqa turdagi yordamlarni berish bo'yicha noqonuniy qarorlarning oldini olish va aybdor shaxslarga tegishli jazo choralarini qo'llash;
- ❖ budjet-moliya intizomini kuchaytirish maqsadida profilaktika, axborot-tushuntirish ishlari olib borish.

**Budjet nazorati tizimi o'zida quyidagi elementlarni mujassamlashtiradi:**

- nazorat sub'ekti (kim nazorat qiladi)
- nazorat ob'ekti (kimni nazorat qiladi);
- nazorat printsiplari;
- nazorat predmeti (nimani nazorat qiladi);
- nazorat uslubi (metodikasi);
- nazorat texnikasi va texnologiyasi;
- nazorat jarayoni;
- nazoratni amalga oshirish uchun dastlabki ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash;
- nazorat natijasi;
- nazorat natijasi bo'yicha qaror qabul qilish;
- nazorat samaradorligini baholash.

Yuqorida sanab o'tilgan elementlar yig'indisi budjet nazorati mexanizmini tashkil etadi va u moliya (budjet) qonunchiligining normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadi.


Budjet nazoratining sub'ektlari hokimiyatning vakillik organlari (parlament nazorati) hamda hukumat va davlat boshqaruvi (ijro) organlari (ma'muriy nazorat), Moliya vazirligi, G'aznachilik, hududlarning moliya organlari, budjet mablag'larining bosh tasarrufchilari va boshqalardir.



Budjet nazorati ob'ektlariga soliq-budjet sohasi va budjet jarayonigina emas, balki bozor munosabatlari sub'ektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati jarayoni ham to'liq kiradi.

Budjet nazorati predmetiga quyidagilar kiradi: budjet jarayonining barcha bosqichlari; budjetga soliq va boshqa majburiy to'lovlarning tushishi; budjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar; soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar; buxgalteriya (moliyaviy) hisobi va hisoboti; maqsadli budjet jamg'armalari; dotatsiyalar; subvensiyalar; ssudalar; transfertlar; tovar-moddiy boyliklarini ayirboshlash va tekinga berish; bojxona qiymati va boshqalar.

Davlat moliyaviy nazoratini o'tkazishning qonuniyligi va mustaqilligi, shuningdek davlat moliyaviy nazorati natijalarining ishonchliligi va xolisligi davlat moliyaviy nazoratining printsiplaridir .



**1-rasm. Davlat moliyaviy nazoratining prinsiplari**

Moliyaviy faoliyatning ajralmas qismi hisoblangan budjet nazoratiga qonuniylik, rejalilik, tizimlilik, uzluksizlik, samaralilik, oshkoralik, mustaqillik, ob'ektivlik va layoqatlilik printsiplari xosdir.

Qonuniylik prinsipi Konstitutsiya bilan belgilangan bo'lib, davlat va uning barcha organlari (shu jumladan nazorat organlari) qonunga muvofiq faoliyat yuritishini, jamiyat va fuqarolarning manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlashini nazarda tutadi va pul mablag'lari jamg'armalarining yaratilishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanish jarayoni moliya va budjet qonunchiligi normalari bilan mufassal tartibga solinishida namoyon bo'ladi.

Rejalilik prinsipi davlatning moliyaviy faoliyati moliya-reja hujjatlari (davlat budjeti, mahalliy budjetlar, davlatning budjetdan tashqari jamg'armalari budjetlari, budjet tashkilotlari smetalari, davlat korxonalarining daromadlar va xarajatlar balansi) tizimiga asoslanganini anglatadi, ularni tuzish, tasdiqlash, ijro etish tartibi tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

Tizimlilik prinsipi nazorat tadbirlarini o'tkazishda nazorat ob'ek-tining barcha tomonlari va uning o'zaro aloqalari vertikal va gorizontal boshqaruv tizimlari bo'yicha ko'rib chiqilishini nazarda tutadi.

Uzluksizlik prinsipi barcha nazorat ob'ektlari (boshqariladigan tizim) nazorat sub'ektlari (tizimni boshqaruvchilar) tomonidan doimiy ravishda amalga oshiriladigan dastlabki operativ va davriy nazorat, ularning faoliyatlari shartlari va xususiyatlaridan kelib chiqib belgilangan muddatlarda nazorat ostida bo'lishini anglatadi. Bu rejalar va vazifalarning bajarilishi ustidan doimiy kuzatishni, belgilangan ko'rsatkichlardan og'ishlar aniqlanganda faoliyatga tuzatishlar kiritish choralarini ko'rilishini ta'minlaydi.

Nazoratning samaraliligi prinsipi moliya-xo'jalik faoliyatidagi me'yordan og'ishlarni va ularning sabablarini o'z vaqtida va to'liq aniqlashda, shuningdek yuz bergan salbiy holatlarni tezkorlik bilan bartaraf etish va etkazilgan moddiy zararni o'z vaqtida qoplashda namoyon bo'ladi.

Oshkoralik prinsipi jamiyat e'tiboriga ommaviy axborot agentligi orqali turli moliyaviy-reja hujjatlari loyihalarini, ularning ijrosi bo'yicha berilgan hisobotlarni, moliyaviy faoliyatni tekshirish va taftish qilish natijalari mazmunini etkazishda namoyon bo'ladi.

Mustaqillik prinsipi nazorat qiluvchi organning moliyaviy mustaqilligini, nazorat organlari rahbarlarining vakolat muddatlari parlamentnikiga nisbatan uzunligini, ularning maqomi Konstitutsiya bilan belgilanganligini ko'rsatadi.

Ob'ektivlik va layoqatlilik (kompetentlik) prinsipi nazorat natijalari, tekshirilgan faktlarning mazmuni qonunlar, yo'riqnomalar va mansabdor shaxslarning faoliyatini nazorat qilishni tartibga soluvchi boshqaruv organlarining farmoyishlari bilan solishtirish asosida to'g'ri, to'liq va ob'ektiv tushuntirilishini nazarda tutadi. Bu printsip nazoratchi-taftishchilar kasbiy mahoratining yuqoriligini va ular amaldagi qonun hujjatlariga to'liq rioya qilishlarini taqozo etadi.

14

*Hindistonda Moliyaviy mablag'lar ustidan Qonuniy Nazorat organi tomonidan olib boriladi.*

*Hindistonda qonuniy nazorat instrumentlari bo'lib:*

- *Budjetni tasdiqlash orqali nazorat qilish*
- *Audit orqali nazorat qilish*
- *Parlament qo'mitalari orqali nazorat qilish*

*Demokratiya amal qiladigan mamlakatlarda qonun chiqaruvchi hokimiyat soliqlarni to'plashda hukumatga huquq beradigan qonuniy vakil hisoblanadi.*

## **2.Davlat moliyaviy nazoratining shakllari, turlari va usullari.**

Bizga ma'lumki, moliyaviy nazoratning dastlabki, joriy va so'nggi nazorat kabi shakllari mavjud. Budjet nazoratini tashkil etish jarayoni ham nazoratning ana shu shakllari orqali amalga oshiriladi.

Dastlabki moliyaviy nazoratturli darajadagi budjetlar loyhalarini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash; daromad va xarajatlarni smetasi, budjet bilan bog'liq qonun loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida amalga oshiriladigan nazorat shaklidir. U moddiy va moliyaviy resurslarni noratsional ishlatilishining oldini olishga xizmat qiladi. Dastlabki nazorat chog'ida qo'shimcha mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari, ko'zda tutilgan xarajatlarning asoslanmaganligi

<sup>14</sup>Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice, CreateSpace USA, 2016. p. 15

aniqlanishi mumkin. Nazoratning bu shakli xo'jalik operatsiyalarining budjet yilining boshlanishidan oldinoq qonunlar va me'yoriy xujjatlar talablari buzilishining oldini oladi. Masalan, moliya organlari har budjet yilining birinchi choragida barcha budjet tashkilotlarining xarajatlar smetalarining to'g'ri tuzilishi, tasdiqlanishi va o'z vaqtida molyalashtiruvchi organga etkazilishi ustidan dastlabki nazoratni o'tkazadilar<sup>1</sup>. Umuman, amaldagi qonunchilikka asosan, budjet mablag'larini ishlatish yuzasidan olib boriladigan operatsiyalar ustidan dastlabki va joriy nazorat bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, uning joylardagi hududiy bo'linmalari, Moliya vazirligi G'aznachiligi (davlat budjetining g'azna ijrosini amalga oshirish chog'ida) organlariga yuklatilgan.

Joriy budjet nazorati operatsiyalarni amalga oshirish chog'ida, ssudalar va budjet subsidiyalarini ajratish paytida, ajratilayotgan moliyaviy mablag'larning rejaviy ko'rsatkichlarga muvofiqligini aniqlashda amalga oshiriladi. Nazoratning bu shakli molyalashtiruvchi organlar tomonidan ajratilgan va sarflanayotgan mablag'larning o'zlashtirib olinishini, su'iste'mol qilish holatlarining oldini oladi, moliyaviy intizomga rioya qilishni, pullik hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunda buxgalteriya hizmatlari faoliyati alohida ahamiyatga ega. Yaxshi yo'lga qo'yilgan joriy nazorat budjet resurslarini iqtisod qilish imkonini beradi.

So'nggi nazorat hisobot davri va budjet yili tugagandan so'ng amalga oshiriladi. So'nggi nazorat hisobot yilida budjet mablag'larining ishlatilishi, rejaviy ko'rsatkichlarning bajarilishi, xarajatlar smetasining bajarilishi, budjet limitlari va normativlariga rioya qilinganligi, buxgalteriya hisobi va yakuniy moliyaviy natijalarni tahlil va taftish qilish asosida o'tkaziladi. Ko'p hollarda so'nggi nazorat natijalari keyingi moliyaviy davr uchun dastlabki nazoratga zamin yaratadi.

Davlat moliyaviy nazorati taftish, tekshirish (shu jumladan budjet to'g'risidagi qonun hujjatlarining avvalgi taftishda yoki tekshirishda aniqlangan buzilishi hollarini bartaraf etish yuzasidan nazorat tartibidagi tekshirish) va o'rganish shaklida amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazoratining turlari quyidagi :

dastlabki nazorat — moliyaviy operatsiyalar bajarilguniga qadar g'aznachilik bo'linmalari va moliya organlari tomonidan amalga oshiriladigan;

joriy nazorat — moliyaviy operatsiyalar bajarilishi jarayonida g'aznachilik bo'linmalari, moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan;

yakuniy nazorat — moliyaviy operatsiyalar bajarilganidan so'ng davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratlardir.



**2-rasm. Davlat moliyaviy nazoratining turlari**

Davlat moliyaviy nazoratining usullari quyidagilardir :

hujjatlarni tekshirish hajmiga qarab:

yoppasiga nazorat — tekshirilayotgan davr uchun barcha buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarni nazorat qilish;

tanlov asosidagi nazorat — muayyan davr uchun buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarning ayrim qismlarini nazorat qilish;

nazoratning maqsadga yo'naltirilganligi va predmetiga qarab:

kompleks nazorat — moliyaviy nazorat ob'ektining muayyan davr uchun moliyaviy-xo'jalik faoliyatining barcha yo'nalishlarini nazorat qilish;

mavzuli nazorat — moliyaviy nazorat ob'ektining muayyan davr uchun ayrim masalalar bo'yicha faoliyatini nazorat qilish;

muqobil nazorat — operatsiyalar yagonaligi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan va turli moliyaviy nazorat ob'ektlarida turgan hujjatlarni solishtirishni o'z ichiga olgan tekshirish.

Shtatning shaharlar ustidan boshqaruvi chegaralanmagan. 1996 yil Dekabrda Florida Shtati Mayami shahri budjeti va moliyasi ustidan 5 yillik Shtat Nazorati Doskasini tuzdi chunki shahar o'z budjet tizimini boshqara olmadi. Undan tashqari shahar bir necha siyosiy muamolarga duch keldi masalam hokimni saylash, hokim o'z joyini egallagandan keyin ham bir necha oy davomida muammolarga duch keldi. 2002 yilda shahar odatiy moliyaviy asosni qo'yishda hato qilib \$32 millionlik obligatsiyalarni qaytadan sotuvga qo'yib ular ustidan foyda olish maqsadida sotishga erishdi. Ular oldin katta foydaga sotilgandi.

2011 yilda Pensilvaniyadagi Garrisburg shahri kerak bo'lmagan chiqindilarni yoq qiluvchi apparatlarini sotib olish uchun 65 million ishlatib o'zi bankrot bo'lganini e'lon qildi. Shtat hokimiyati shahar oldingi ishlarini davom ettirishi uchun uning nazoratini qo'lga oldi. Alabamadagi Jefferson okurugi 2011 yilda amerika tarixidagi eng katta kasodga uchragan shahar sifatida shubhali farqlarni o'shirib yubordi. Muammoda \$3 milliard ega bo'lgan majburiy qarzlarni to'lashda omadsizlikka duch kelindi. Detroyid ham 2011 yilda shtatning qaramo'gida qoldi. Michigan shaharning moliyaviy va hizmatlar nazoratini amalga oshirish va boshqarish uchun uning boshqaruvini qo'lga oldi.

*Qonuniy nazoratni amalga oshirishda qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan quyidagicha amalga oshiriladi:*

#### *A)Konstitutsiyaviy ta'minot*

*Hindiston konstitutsiyasi qonuniy nazorat qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Parlamentda kelib chiqadigan Moliyaviy xarajatlar va pul bilan bo'g'liq xarajatlarni ko'rsatadigan 109 va 117- moddalarni taminlanishiga oid va Ikkala palata tomonidan biror o'zgarish bilan yoki o'zgarishsiz xarajat tasdiqlanmasa bu xarajat Parlamentdan o'tdi deb xisoblanilmaydigan vaziyatni ko'rsatuvchi 108 va 109 –moddalarga oid bo'lgan hodisalarni 107- modda o'zida aks ettiradi. 109 –modda shtatlar kengashida tanishtirilmagan pul xarajatlarini o'zida ifoda etadi. 112- moddada esa Prezident o'z navbatida har moliya yiliga masul bo'lib mo'ljallangan Hindistonning daromad va xarajatlari to'g'risidagi bayonet Parlamentga taqdim etadi. 113- moddaning har qismiga ko'ra xarajatlarga oid bo'lgan bashoratlarni Parlamentda tan olinmaydi.*

#### *B)Budjet tasdig'i*

*Prezident moliya yiliga masul bo'lib, yillik Moliyaviy bayonet sifatida qaraladigan Hindiston davlatining oldingi yil uchun mo'ljallangan daromad va xarajatlar to'g'risidagi bayonotni tasdiqlashidan oldin Prezident taqdim qiladi. Parlament mahalliy puldan tashqari pullarni saqlaydi.*

*Umumiy muhokama davomida imtiyozli mablag'lar berishdagi talab ham muhokama qilinadi. Xarajatlar Parlament tomonidan o'zgartirish kiritish yoki kiritishsiz tasdiqlanadi.*

*Xarajatlar Parlament tomonidan tasdiqlanmasa u kuchga kirmaydi.*

#### *C)Audit tomonidan nazorat*

*Hindiston konstitutsiyasiga ko'ra nazoratchi va auditor Parlament tomonidan tayinlanadigan birlashma va tashkilotlarning buxgalteriyasiga oid ishlar bilan shug'ullanadi. Parlament nazoratchi va auditorlarni burchlari xizmat vazifalariga oid 1971-yilda qabul qilingan yo'riqnomaga ko'ra chiqarildi. Unga 1976-yilda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi. Ushbu yo'riqnomaga ko'ra davlat darajasida audit oldidan buxgalteriyani ajratish hamda nazoratchi va auditorlarga xisobotlar tayyorlashda yangilliklar yaratishdan iborat bo'ldi.*

<sup>15</sup>Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice, CreateSpace USA, 2016. p. 15

### **3. Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi organlar va ularning vazifalari.**

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi Davlat moliyaviy nazoratida quyidagilarni amalga oshiradi:

➤ makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni, budget-soliq va pul-kredit parametrlarini shakllantirish jarayonlarini, ularning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligiga rioya etilishini tizimli o'rganish;

➤ budget tizimi budgetlarining daromadlarini shakllantirish va mablag'lari sarflanishini umumiy, moddalar bo'yicha, tarmoqlar hamda hududlar kesimida nazorat qilish va tekshirish;

➤ davlat maqsadli dasturlari amalga oshirilishining to'liqligi va samaradorligini baholash;

➤ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bank hisobvaraqlaridagi mablag'larining qonuniy shakllantirilganligini, maqsadli hamda samarali sarflanganligini nazorat qilish va tekshirish;

➤ O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti va Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlari o'rtasida maqbul nisbatga erishishga doir takliflarni tahlil qilish hamda baholash;

➤ davlat aktivlari shakllantirilishini, ulardan samarali va maqsadli foydalanilishini tekshirish;

➤ daromad keltiruvchi tarmoqlar korxonalarini faoliyatini budget tizimi budgetlariga qo'shimcha tushumlar zaxiralarini aniqlashga yo'naltirilgan tarzda tahlil va nazorat qilish;

➤ O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun hisob-kitoblar jamg'armasi, Qishloqlarni qishloq xo'jalik texnikasi bilan ta'minlashni davlat tomonidan rag'batlantirish jamg'armasi va belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg'armalarning mablag'lari tushumi va daromadlarining shakllantirilishi, ularning mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishi yuzasidan tahlil va nazorat qilish;

➤ valyuta, eksport va import operatsiyalari o'tkazishning qonuniyligini, shuningdek budget tizimi budgetlariga tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporti va importidan majburiy to'lovlar bo'yicha mablag'lar tushumini nazorat qilish;

➤ mamlakat oltin-valyuta zaxiralarining o'rni qayta to'ldirilishi va ular bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar ustidan nazorat qilish;



➤ ichki va tashqi aktivlarni boshqarish bo'yicha hisobotlar va balans hisob-kitoblarini tahlil qilish, mablag'lar va oltin-valyuta zaxiralarini chet el banklariga va boshqa banklarga joylashtirish hamda qayta joylashtirishning asosli va samarali ekanligini nazorat qilish;

➤ davlat qarzini boshqarish samaradorligini tahlil qilish, unga o'z vaqtida xizmat ko'rsatilishi ustidan nazorat qilish, O'zbekiston Respublikasi nomidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan chet el kreditlari mablag'laridan samarali foydalanish masalalari bo'yicha predmetli tekshiruvlar tashkil etish;

➤ davlat mulki realizatsiya qilinishi bilan bog'liq masalalarni tahlil qilish va ular bo'yicha nazoratni ta'minlash;

➤ budjet tizimi budjetlari mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan nazorat qilishga doir vazifalar moliya organlari, shu jumladan g'aznachilik bo'linmalari tomonidan bajarilishi samaradorligini tahlil qilish;

➤ davlat mulki ulushi bo'lgan korxonalarining moliya-xo'jalik faoliyatini dividendlar to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi yuzasidan tekshirish.

Ichki nazorat quyidagi maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladi :

-budjetning tasdiqlangan parametrlari (limitlar) doirasida ijro etilishiga doir ma'lumotlarni yig'ish tahlil qilish, hulosalar chiqarish;

-budjet tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan suuste'molchilik holatlari haqida o'z vaqtida ogohlantirish va oldini olish.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respblikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari o'z vakolatlari doirasida:

➤ quyi turuvchi moliya organlari tomonidan budjet to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosining ta'minlanishi ustidan;

➤ ijtimoiy nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlanishi hamda o'z vaqtida to'lanishi ustidan;

➤ budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar tomonidan smeta-shtat intizomiga rioya etilishining ta'minlanishi ustidan;

➤ aksiz solig'i to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi ustidan;

➤ aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarning aksiz markalari bilan to'liq tamg'alanishi va olingan aksiz markalari sonining ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga muvofiqligi ustidan;

➤ budget tashkilotlari tomonidan budget hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishning, shuningdek quyi turuvchi hududiy moliya organlari tomonidan budget hisobotini tuzishning to'g'riligi ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiradi.

*Hindiston hukumati moliya vazirligi mamlakatning moliyaviy va iqtisodiy masalalariga ma'sul hisoblanadi. U resurslar aylanishi va davlat xarajatlarini nazoratiga ham ma'sul hisoblanadi. Barcha hukumat vazirliklari ichida moliya vazirligi eng muhim organ hisoblanadi. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda 1810- yilda alohida moliya departamenti Britaniya koloniyasi tomonidan tashkil qilingan. Uning bo'limlari uchta hisoblanib ular quyidagilar:*



*bo'limlardan iborat bo'lib 1947-yilda moliya vazirligi sifatida qaytadan nomlangan. Mustaqil Hindistonning birinchi budjeti 1947-yil 26-noyabrda o'sha paytdagi moliya vaziri Chetty tomonidan taqdim qilingan. Moliya vazirligi iqtisodiy masalar, xarajatlar, daromadlar, moliyaviy xizmatlar, investitsiya va ijtimoiy mablag'lar boshqaruvi kabi bo'limmalardan iborat.*

A) *Iqtisodiy masalar departamenti tarkibidagi bo'limlarning vazifalari quyidagilar:*

a) *Moddiy yordam bugalteriya va audit bo'limi*

*Bu bo'lim turli agentliklar va kredit bo'limlari tomonidan taqdim qilingan qarzar grantlar uchun fondlarning pasayishini muvofiqlashtirishga masul hisoblanadi. Shuningdek bu bo'lim turli xizmat ko'rsatuvchilarning davriy xarajatlarini kafolatlaydi, tashqi yordamlar hisobini yuritadi, eksportni qo'llab quvvatlashda tekshiruvni amalga oshiradi va kredit bo'limlarini boshqaruv malumotlari bilan taminlaydi*

*b) Boshqaruv va muvofiqlashtirish bo'limi*

*Bu bo'lim quyidagilarga ma'sul :*

- *Shu departamentning ishchilari va ofitserlariga aloqador adminstrativ va pensiya masalari*

- *Departamentning ishchi jamoasi uchun farovanlik masalalari*

- *Mahalliy trening dasturlari va tashkiliy masalalarga aloqador administrativ masalalar*

- *Subordinativ idoralar va Iqtisodiy masalalar departamentidagi hukumatning ramziy siyosatining amalga oshirilishini nazorat qilish*

- *Protokol vazifalari*

- *Departamentga nisbatan ommaviy shikoyatlar*

- *Markaziy registratsiya*

- *Umumiy adminstrativ masalalar*

*c) Ikki taraflama kooperatsiya bo'limi*

*Bu bo'lim katta sakkizlik davlatlari (ya'ni Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya, Fransiya, Italiya, Kanada, Yaponiya, Germaniya va Rossiya federatsiyasi ) da n ikki taraflama rivojlanish yordami bilan shug'ullanadi va unga aloqador siyosatni yuritadi. Bu bo'lim shuningdek, turli xalqaro agentliklar tomonidan taklif qilingan to'rt xaftagacha bo'lgan qisqa muddatli barcha xorijiy treyning kurslarini tashkillashtiradi.*

*d) budjet tasnifi*

*Budjet tasnifi Temiryo'llar, shuningdek grantlarga bo'lgan ortiqcha talab va grantlarni oshirishga bo'lgan talablardan ko'ra parlament markaziy hukumat budjetini tasdiqlash va tayyorlash uchun ma'suldir. Budjet, unga qo'shimcha va davlat daromadlarini oshishi va birlashgan hududlar ham prezident boshchiligida bu tasnifga mos keladi. Bundan tashqari, bu tasnif jamoa majburiyati, Markaziy Hukumat bozor ijarasi va Markaziy Hukumat tomonidan ijaraga berish shart-sharoitlarini tuzatish, ma'muriyat foiz stavkasini tuzatish*

va Markaziy Hukumat holatida soatdan foydalanish kerak. Bu tasnif, shuningdek, tasnif Milliy Jamg'arma Tashkiloti va Kichik Jamg'arish Tizimiga, majburiyatlariga, xizmat turi va sifatiga, Hindiston Auditorlik xizmatiga, buxgalteriya faoliyatiga bog'liq bo'lgan masalalar bilan shug'ullanadi, shuningdek, Milliy himoya fondi, Temiryo'l shartnomaviy komiteti va markaziy yo'l fondi bilan budjet tasnifini bog'liqligi to'g'risida xam shug'ullanadi. Budjet tasnifi shuningdek, fiskal siyosat boshqaruvchilariga bog'liq funksiyalar (FSBB) va budjet boshqaruvi 2003-yilda tuzilgan akt, 2012-yilda tuzatilgan va qoidalar keltirilib o'tilgan<sup>16</sup>.

G'aznachilik bo'linmalari davlat moliyaviy nazoratini:

➤ budjet tashkilotlarining va budjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni etkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar) bilan Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari mablag'lari hisobiga tuzilgan shartnomalarini xarajatlar smetalarida ko'rsatilgan summalar doirasida hamda belgilangan maqsadlarga muvofiq tuzilganligi ustidan nazorat qilish asosida majburiy ro'yxatdan o'tkazish;

➤ xarajatlar smetalarida va ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarda nazarda tutilgan summalar doirasida budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar nomidan hamda ularning topshirig'i bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib beruvchilarning hisobvaraqlariga to'lovlarni bevosita amalga oshirish orqali to'lov intizomiga rioya etilishini ta'minlash yo'li bilan amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari:

➤ budjet va smeta-shtat intizomiga rioya qilinishi;

➤ budjet tizimi budjetlarining xarajatlari ijrosi;

➤ budjet tizimi budjetlarining mablag'lari hisobidan to'lovlarni amalga oshirishning navbatliligi, muddatlariga rioya etilishi va to'liqligi;

➤ davlat investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun markazlashtirilgan manbalardan ajratiladigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi;

➤ O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik muassasalari tomonidan chet el valyutasidagi mablag'lardan to'g'ri va maqsadli foydalanilishi;

---

<sup>16</sup>Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice, CreateSpace USA, 2016. p. 15

- pensiyalar va nafaqalar to'g'ri tayinlanishi, hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi;
- tibbiy-mehnat ekspert komissiyalarining faoliyati;
- budjet ssudalari va kredit liniyalaridan maqsadli foydalanilishi;
- O'zbekiston Respublikasi tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan kreditlardan (qarzlardan) maqsadli foydalanilishi;
- insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish mablag'laridan maqsadli foydalanilishi;
- davlat xaridlari bo'yicha tender (tanlov) savdolarining to'g'ri o'tkazilishi ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiradi.

Budjet tashkilotlarini nazorat qilish rejalari davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat moliyaviy nazorat organlari moliyaviy nazorat ob'ekti mansabdor shaxslarining harakatlarida jinoyat alomatlari bo'lgan huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda nazorat materiallarini huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshiradi.

Moliyaviy nazorat ob'ekti mansabdor shaxslariga nisbatan ma'muriy huquqbuzarliklarga doir materiallar sudlarga yoki tegishli vakolatli davlat organlariga topshiriladi.

Hindistonning nazoratchi bosh auditori.

#### A) Kelib chiqishi

Buxgalteriya va audit tajribalari Hindlarga tarixiy davrlardan ma'lumdir. Kautilyaning Arshastra asari Mauryan davrlaridagi buxgalteriya va audit faoliyati jarayonlari va mexanizmlarini yaqqol yoritib beruvchi davlat arboblari haqidagi tarixiy kitobdir.

Mukerj Guptaning fikriga ko'ra boshqaruvchilar mukkamal va tartibli tizimlarni joriy qilishgan ya'ni hozirgi bosh hisobchi lavozimiga o'xshash tarzda buxgalteriya tashkilotini alohida vazifalarga joylashtirib chiqqan va davrlar mobaynida auditda hisob-kitobning amaliy tajribalari saqlanib kelgan. Gupta sulolasi davrida Maurya namoyondalari davrida bo'lgani singari hisob kitoblar saqlanib qolgan va davrlar mobaynida auditga va ma'qullangani topshirilgan, keyinchalik, hisob boshqarmasi vakili va vazirlar kengashida o'z harakatlari uchun javobgar hozirgi bosh hisobchiga to'g'ri keluvchi keng ravishda talqin qilinganda Patyuoarika deb nomlanuvchi so'zdan foydalanish yuzaga keldi. O'rta

asrlarda dehlida Mushrif va Mustafilar saltanati buxgalteriyaga va auditga javobgar bo'lishgan. Muhgal boshqaruvchilari daromadlarni yig'ish va auditorlik ishlarini olib borishga o'z diqqatlarini qaratishgan. Vazir yoki Devon Muhgal davrida moliya boshqarmasi vakili sifatida faoliyat yuritgan. Shunga qaramay buxgalteriyaning va auditning yangi zamonaviy tizimlarini Hindiston hududida amaliyotga joriy qilinishi Britanlar hukmronligi davriga borib taqaladi. Qirolchanning 1858 yildagi hisobchilarni tayorlash va yakka tartibdagi auditorlarni tayilsh tog'risidagi qarori Hindiston bosh hisobchilari idorasida yangi lavozimni vujudga keltirdi. 1860 yilda buxgalteriya va auditorlik vazifalari birlashtirildi va bosh auditor singari bosh hisobchi ham qayta shakllantirildi. 1919 yilgi Hindiston hukumat qonuni bosh auditorga yuqori davlat maqomi berdi va 1935 yildagi qonunga ko'ra 166 dan 171 chi moddagacha bosh auditor idorasini kuchaytirishga qaratilgan. 1950 yil Hindiston konstitutsiyasi mustaqilligidan so'ng bosh auditor bosh nazoratchi auditor deb qayta nomlandi.

#### (B) BNA ning konstitutsiyaviy o'rni

BNA ning vazifalari Hindiston konstitutsiyasi va mustaqil konstitutsaviy tashkilot tomonidan belgilanadi. BNA qonun hujjatlari orqali ruxsat etilgan har bir harakatga ketgan har bir sarf me'yori ustidan nazorat qiluvchi shaxsdir. Konstitutsiya BNA mustqilligini kafolatlaydi va hech kimga yon bosmasdan, qo'rqmasdan, mehr oqibat qilmasdan moliyaviy birdamlikni, odamlarni qiziqishini qonunan himoya qilish va qonun bilan mutanosibligiga ko'maklash vazifalarini talab qiladi. BNA ning o'rni Hindiston konstitutsiyasining 5 qismi va 5 bo'limida 148 moddada keltirib o'tilgan.

(1) Hindisotn nazoratchi va bosh auditori prezident tomonidan uning qo'li va muhri asosida ma'lum muddatga tayinlanadi va idoradagi o'zini tutishi va faoliyati yuzasidan faqatgina oliy sud tomonidan o'z lavozimidan chetlatilishi mumkin.

(2) Nazoratchi va bosh auditor etib tayinlangan har bir shaxs, ishga kirishdan avval prezidentdan avval kimnidir o'z vakili sifatida aniqlaydi va tavsiya etadi va shu shaxs 3- tartibga muvofiq bu shaxs rozilik bildiradi va qasamyod qiladi.

(3) Bosh auditor va azoratchining xizmatining oylik maoshi va boshqa shart-sharoitlar qonun orqali Parlament tomonidan belgilab berilishi mumkun va o'zlari xohlaguncha ikkinchi tartib bo'yicha belgilanadi. Shuni inobatga olish kerakki, na Bosh auditorning oyligi na nazoratchiining oyligi ishni tark etish,

pensiyaga , yosh nuqtai nazaridan nafaqaga chiqish yuzasidan kelishuvdan keyin uning kamchiliklaridan farqlanmaydi.

(4) Bosh auditor yoki nazoratchi ishni to'xtatgandan so'ng Hindiston hukumatda yoki boshqa davlat hukumat idoralarida ortiq faoliyatini davom ettira olmaydi.

(5) Bu qonun yoki parlament tomonidan yaratilgan qonunlarning amal qilinishi masalasi, shaxslarning Hind auditorlik tashkilotida yoki buxgalteriya boshqarmasida xizmat qilish shart-sharoitlari va Bosh auditorning va nazoratchining boshqaruv vazifalari nazoratchi va bosh auditor bilan surishtiruv

ishlari olib borilgandan so'ng prezident qoidalari asosida ko'rsatib beriladi.

(6) Nazortchi bosh auditor idorasining boshqaruv xarajatlari oyliklar, mukofot pullari va nafaqa to'lovlari yoki shaxsning idoradagi xizmati Hindiston barqaror fondi tomonidan to'lanadi.

#### (C) Nazoratchining va bosh auditorning burch va vazifalari

Nazoratchi va bosh auditor parlament tomonidan chiqarilgan qonunlar asosida davlat hisob organlari va hisob birlashmasi yoki boshqa davlat organlari bilan aloqada o'z burch va vazifalarini bajaradi bu konstitutsiya amal qilishdan avval, vakil qilib tayinlangan shaxs hisob birlashmasi va davlat hisob boshqarmasi bilan bog'langan tarzda Hindiston hisob boshqarmasi va viloyatlar boshqarmalarida bosh auditor tomonidan tan olinishi bilanoq zudlik bilan bu kabi burch va vazifalarni amalga oshiradi. Hisob birlashmasi va davlat hisob boshqarmasi prezident tomonidan nazoratchi va bosh auditorning taklifi asosida faoliyat yuritadi.

(1) Auditorlik hisobotlari. Nazoratchi va Hindiston bosh auditorning hisob birlashmasiga oid hisobotlari prezidentga ko'rib chiqishi uchun topshiriladi va president uni parlamentning har bir palatasiga topshiradi.

#### C) BNA ning majburiyat va vakolatlari

Hinsitonning hokimliklari va viloyatlar hisobvaraqaalari bilan aloqadorlikda Konsitutsiya ijrosi boshlanishidan oldin BNA ayrim majburiyatlarni va vakolatli faoliyatlarni Uyushma, Davlat va boshqa davlat vakolatli organlari hisob raqamlari bilan aloqadorlikda amalga oshiradi va qabul qilingan har qanday qonun Parlament nazorati ostida yoki uning yordamida tayinlanadi va BNA ayrim majburiyatlarni va

vakolatli faoliyatlarni Uyushma, Davlat hisobotlari bilan aloqadorlikda Hindistonning Umumiy Auditorlikidan foydalangan holda amalga oshiradi.

Auditorlik bayonoti Hindistonning Moliya va Umumiy Auditorliki Uyushma hisob raqamlariga tegishli bayonotlarni Prezidentga taqdim etadi, Prezident bayonotlarni Parlament Uyiga taqdim etishga tayyorlaydi.

Hindistonning Moliya va Umumiy Auditorligi mamlakat hisob raqamlariga tegishli bayonotlarni mamlakat gubernatoriga taqdim etadi. Mamlakat gubernatori bayonotlarni mamlakat qonun chiqaruvchi organiga taqdim etishga tayyorlaydi.

D) BNA majburiyatlari, vakolatlari va servis hizmatidagi holati. 1971-yildagiga 1976, 1984, 1987 va 1994 yillarda o'zgartirishlar kiritilgan.

Hindistonning Moliyaviy va auditorlik ishlari bo'yicha funksiyasi Hindistonning konsitutsiyasining asosan 149 dan 151 gacha bo'lgan bo'limida keltirib o'tilgan. 149 chi bo'limda Hinsonning hokimliklari va viloyatlar hisobvaraqaqlari bilan aloqadorlikda Konsitutsiya boshlanishidan oldin BNA ayrim majburiyatlarni va vakolatli faoliyatlarni Uyushma, Davlat va boshqa davlat vakolatli organlari hisobotlari bilan aloqadorlikda amalga oshiradi va qabul qilingan har qanday qonun Parlament nazorati ostida yoki uning yordamida tayinlanadi va BNA ayrim majburiyatlarni va vakolatli faoliyatlarni Uyushma, Davlat hisobotlari bilan aloqadorlikda Hindistonning Umumiy Auditorlikidan foydalangan holda amalga oshiradi.

Bu o'tish dasturlari mobaynida, Moliya va Umumiy Auditorlik(BNA) o'zining majburiyatlari va vakolatli faoliyatlarini 1936 yil Hindiston hukumati tomonidan qabul qilingan (Audit va hisobvaraqaqlar) buyruq, asosida uyushgan va shtat hisobotlari bilan muvofiqlikda bajarishni davom ettiradi. Bu buyruq 1936-yil Hindiston hukumati tomonidan qabul qilingan (Audit va hisobvaraqaqlar) buyruq, 1971 yildan Moliyaviy va Umumiy Auditorlik ( majburiyat, vakolat va servis holati) qonuni sifatida Parlamentta tasdiqlandi. 1971 yil 15 dekabrda kuchga kiritildi va 1976, 1984, 1987, 1994 yil unga o'zgartirishlar kiritildi. Bu qarorning negizi konsitutsiyaning 148(3) va 149 bo'limida berib o'tilgan. Unga ko'ra (a) BNA servisi sohasida ishlovchilar uchun oylik maosh va boshqa imkoniyatlar va (b) BNA ning majburiyatlari va vakolatlari, Uyushma, Davlat va boshqa davlat vakolatli organlari hisobotlari va auditorlik hisobotlari bilan aloqadorlikda tayinlanishi keltirib o'tilgan. Davlatning boshqa qonunlari BNA ning yoki vakillarining majburiyatlarini belgilamaydi va ularning vakolatlarini taqsimlamaydi. Shu bilan birga BNA ning majburiyat va vakolatlarini Parlament



chiqargan qonunlar asosida tayinlanadi, Davlatning qonun chiqaruvchi organi tomonidan bu qonunlarga qisqartirish va o'zgartirish kiritilishi mumkin emas.

E) BNA ning hisob raqamlar bilan bog'liqlikdagi majburiyatlari:

Qonunning 10 dan 12 bo'limigacha Moliya va Umumiy Auditorlik(BNA)ning Uyushma, Davlat va Uyushgan Territoriyalar qonun chiqaruvchi organlar bilan aloqadorlikda hisobotlarni to'plash majburiyatlarini ochib beradi.

Bu 10 bo'limning (1)qismida bo'lgan birinchi ehtyot chorasi prezidentning BNA ga u bilan maslahatdan so'ng, farmoyish orqali, quydagicha ko'rsatish mumkin:

(iii) Uyushma hisob raqamlari( bir marta yoki bosqichma-bosqich bir necha buyruqlar berish orqali),

(iv) ma'lum bir servis hisobotlari yoki Uyushma idoralari hisobotlarini to'plash mas'uliyati bo'lganidan, yordam berish vakolatiga ega.

Bu 10 bo'limning qismida bo'lgan ikkinchi ehtyot chorasi mamlakat gubernatorining BNA ga, prezidentning birinchi maqullashi va BNA bilan maslahatdan so'ng , farmoyish orqali, quydagi


(iii) Mamlakat hisobotlari( bir marta yoki bosqichma-bosqich bir necha buyruqlar berish orqali),

(iv) ma'lum bir servis hisobotlari yoki Mamlakat idoralari hisobotlarini to'plash mas'uliyati bo'lganidan, yordam berish vakolatiga ega. Prezidentning BNA ga u bilan maslahatdan so'ng, farmoyish orqali, har qanday toifadagi va o'ziga xos hisobotlarni saqlash mas'uliyati bo'lganidan, yordam berish vakolatiga ega.

Prezident 1978-yil 20-iyunda nazoratchi va auditorlarni 1977-1988 yillardan boshlab hukumatning moliyaviy hisobotlarini tayyorlash ma'suliyatini kamaytirish bo'yicha qaror qabul qildi. C&AG ham Prezidentning 1989-yil 10-aprelda ishlab chiqilgan qaroriga ko'ra 1988-1989-yillardan boshlab Pondicherry hududlari birlashmasining maqsadlari uchun yillik kirim va chiqim hisobotlarini tegishli qoidalar asosida har yili namoyish qilish tayyorgarliklari ma'suliyatidan ozod qilindi. Prezidentning 27-iyun 1989- yildagi qarori va Gao shtati Gubernatori tomonidan ishlab chiqilgan qarorga muvofiq u ham 1988-1989-yillardan boshlab Gao shtati maqsadlari uchun yillik kirim va chiqim hisobotlari va tegishli qoidalar

asosida har yili taqdim etish javobgarliklaridan ozod qilindi. Yuqoridagi hujjatlarga muvofiq Bosh auditor va nazoratchi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash majburiyatidan ozod qilinganligi haqida qayd etilgan lekin u Prezident\Gubernator\Administrator oldida Parlament\Shtat qonunchiligi asosida hisobot topshirishga javobgar hisoblanadi.

Prezidentning ilgari qabul qilingan Bosh auditor va nazoratchi to'g'risidagi qaroriga asosan bosh auditor va nazoratchi shtatlarning moliyaviy hisobotlarini tayyorlash ma'suliyatidan ozod qilinishi talab etilgan. Bosh auditor va nazoratchi majburiyati bilan bog'liq aktning 12 bo'limi bo'yicha ular hukumat birlashmasiga, shtat hukumatiga va hududiy birlashmaga moliyaviy hisobot tayyorlashda qonun chiqaruvchi organlar bilan ma'lumot berish va yordam berishga ma'suldir.



F) BNAning audit bilan bog'liq vazifasi aktning 13,21,23 va 24 bo'limlarini o'z ichiga oladi. Aktning 13 bo'limi BNA dagi vazifasi

Hindistonning jamlanma fondidan, har bir shtat va har bir qonun chiqaruvchi organlarga ega bo'lgan hududiy birlashmalardan ajratiladigan xarajatlarni audit qilish va hisobotlarda ko'rsatilgan mablag'larni qonuniy asosda va murojaat etilgan xizmat yoki maqsadlar uchun to'g'ri taqsimlanganligi va hukumat boshqaruviga xarajatlarni mos kelishini aniqlashdir.

Hisobotlarning aniq va to'liq tekshirilishi to'lov dalillari va voucher haqiqiylikida namoyon bo'ladi. Fond ta'minoti auditining maqsadi hisobotlarda ko'rsatilgan mablag'larni qonuniy asosda to'langan yoki murojaat qilingan xizmat yoki maqsadlar to'g'ri taqsimlanganiga ishonch hosil qilish hisoblanadi.

Hukumat birlashmalarining, shtat hukumatlarining va hududiy birlashma hokimiyatlarining o'zlashtirma hisobotlari tegishli hukumatlar tomonidan tuziladi va saqlanadi. Nazoratchi va bosh auditor tomonidan ko'rib chiqiladi va audit qilinadi. Qolgan shtat hukumatlarining o'zlashtirma hisobotlari yuqorida qayd etilgan hisobotlar yordamida nazoratchi va bosh auditor tomonidan tuziladi va saqlanadi. Bu audit jarayonida xarajatlarning hukumat boshqaruviga mos kelishida namoyan bo'ladi (Doimiy audit).

Audit mulkni ijro etish harakatini ham tekshiradi va mulk xarajatlaridagi halollik, iqtisodiy va qonunchilik belgilari, xarajatlar sabablari, yo'qotishlar, behuda va foydasiz xarajatlar to'grisidagi mulohazalar va ularni rasmiylashtirilishini ko'rib chiqadi (Mulk auditi).

Samaradorlik va mahsuldorlik auditi rivojlantirish dasturlarining bajarilish samaradorligi va jarayonini har tomonlama baholash hisoblanadi. Bu audit qay darajada va baholash va soliq yukini aniqlashda urinib ko'riladi, ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlar ko'rib chiqiladi, erishilishi kerak bo'lgan narx darajasi; bo'lim yoki agentlik qay darajada o'zining moliyaviy majburiyatlarini bajaryabdi va ularning iqtisodiy faoliyati dasturga muvofiq amalga oshirilganligiga ishonch hosil qilish. Tizimli auditda tashkilot va tizimlar boshqarish, hisob berish, hisoblash va ichki nazorat tahlil qilinadi va sifat standartlari va ijro etish baholanadi. Actning 13 bo'limida nazoratchi va bosh auditor birlashmaning, shtatlarning va qonun chiqaruvchi organlarga rga hududiy birlashmaning barcha operatsiyalari auditlashi hamda tasodifiy fondlar va ijtimoiy hisoblarga bog'liq va savdo ishlab chiqarish, foyda, yo'qotishlar hisobotlari va balans varaqasi, boshqa qo'shimcha hisobotlar birlashmalar, shtat yoki hududiy birlashma bo'linmalarida saqlanishi va auditlanishi qayd etilgan. 13 bo'limda nazoratchi va auditor tamonidan audit qilingan hisobotlar, operatsiyalar, xarajatlar haqida hisob berish ham nazoratchi, auditor vazifasi hisoblanadi.

## **Nazorat uchun savollar**

1. Davlat moliyaviy nazorati deganda nima tushunasiz?
2. Rejadan tashqari davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish qanday hollarda amalga oshiriladi?
3. Umumdavlat moliyaviy nazorat turlarini ayting.
4. Budget nazorati funksiya va vazifalarini ayting.
5. Davlat moliyaviy nazoratning asosiy prinsiplari qaysilar?
6. Davlat moliyaviy usullarini ayting.
7. Qonuniy nazoratni amalga oshirish deganda nimani tushunasiz?
8. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi Davlat moliyaviy nazoratida qanday vazifalarni amalga oshiradi?
9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi Davlat moliyaviy nazoratida qanday vazifalarni amalga oshiradi?
10. Hindiston davlati davlat moliyaviy nazoratining o'ziga xos jihatlarini ayting.

## TEST SAVOLLARI VARIANTLARI

1. Budjet tizimi» fanining predmeti?
  - a) O'zbekiston Respublikasida Budjet tizimi mexanizmlarini va dastaklarini o'rganishdir
  - b) davlat Budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari va xarajatlarini o'rganish
  - c) Budjetlararo munosabatlarni o'rganish;
2. Talabalarga Budjet tizimi Budjetlari haqida nazariy bilimlar berish, ularda mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichida O'zbekiston Respublikasi Budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari va ularni hayotga tadbiiq etish yo'llari boyicha asosiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat
  - a) Budjet tizimi vazifasi
  - b) Budjet tizimi maqsadi
  - c) Budjet tizimi tamoyili
3. Mamlakat moliyaviy resurslarining davlat ihtiyorida markazlashish darajasini aks ettiruvchi davlat budjetining hajmi qanday omillarga bog'liq?
  - a) iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasiga;
  - b) davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasiga;
  - c) korxonalar, xo'jalik yuritish usullariga tashkilot va muassasalardagi
  - d) jamiyat tomonidan xalq etilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarning xarakteriga, iqtisodiyotda va ijtimoiy soha-tarmoqlarda amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarning ko'lamiga va boshq.
  - e) a va b
4. Budjet so'zining manosi?
  - a) charm karmon, hamyon
  - b) yigindi
  - c) jamgarma
5. Davlat bilan xo'jalik sub'ektlari hamda aholi o'rtasidagi qiymat taqsimlanishi jarayonida paydo bo'luvchi moliyaviy munosabatlar?
  - a) budjet tizimi
  - b) takror ishlab chiqarish
  - c) budjet

6. Budget munosabatlarining huquqiy asoslari?

- a) Davlat boshqaruvining har bir pogʻonasida Budget jarayonida sodir boʻladigan Budget munosabatlarini tartibga soluvchi qonuniy-huquqiy va meyoriy hujjatlar
- b) Davlat ixtiyoridagi markazlashgan pul fondlarini tuzish va ishlatish bilan bogʻliq boʻlgan pul munosabatlari
- c) Budget daromadlari, xarajatlari va taqchillikni moliyalashtirish manbalarining turli belgilariga koʻra guruhlanishi

7. Unitar davlatlarda nechki pogʻonali Budget tizimi amal qiladi?

- a) 4
- b) 3
- c) 2

8. Jahon amaliyotida davlat tuzilishining shakllariga mos ravishda bir qancha Budget tuzilishi modellari amal qiladi, shularni koʻrsating?

- a) oddiy va murakkab
- b) markazlashmagan model; markazlashgan model; aralash model.
- c) rejali, rejasiz va aralash

9. Budget tuzilishining qaysi modelida markaziy va mahalliy Budgetlar avtonom

(mustaqil) boʻlib, ularning har biri oʻz xarajatlarini toʻliq qoplay oladigan daromad manbalariga ega boʻladi.

- a) markazlashgan
- b) b) markazlashmagan
- c) c) aralash

10. Budget kodeksi qachon qabul qilingan?

- a) 2015
- b) b) 2014
- c) c) 2013

11. AQShning natijaviylikka yoʻnaltirilgan Budgetlashtirish amaliyoti konsepsiyasini joriy etish bosqichlari nectar?

- a) 4
- b) 5
- c) 6

12. “O‘zbekiston Respublikasi o‘z moliya va pul-kredit tizimiga ega. O‘zbekistonning davlat Budjeti Respublika Budjetidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Budjetidan va mahalliy Budjetlardan iborat” ?
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasida
  - Budjet kodeksining 122 moddasi
  - Budjetni tashkil qilish to‘g‘risida qonunning 122 moddasi
13. Tushunarlilik va Alohidalik(Yakkalik)budjetni tuzishning qaysi qonun qoidasiga kiradi?
- Budjet loyihasi amaldagi hokimyat(hukumat)ning budjet siyosati va fiscal siyosati bilan muvofiq bo‘lishi kerak.
  - Budjet mexanizmining shakllanishi quyidagi omillar ta’sirida vujudga keladi:
  - Budjetni taqdim etishning shakllari va uslublari
14. Budjetni taqdim etishning shakllari va uslublari ?
- Yagonalik, maxsuslik davriylik, aniqlilik
  - Aniqlilik, oshkoralilik
  - Tushunarlilik va alohidalilik
15. Kongressning ikkala palatasi ham tomonidan olib boriladigan, lekin prezident imzosini talab qilmaydigan xatti-harakat
- NYB
  - parallel rezalyutsiya
  - budjet rezalyutsiyasi
16. Budjet kodeksida nechta tushunchaga tariff berilgan?
- 37
  - 38
  - 39
17. Yangi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar belgilanishini, imtiyozlar to‘liq yoki qisman bekor qilinishini, soliq solinadigan baza oshirilishini nazarda tutuvchi soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, ular rasmiy ravishda e‘lon qilingan paytdan e‘tiboran kamida nechi oy o‘tgach, amal qilinadi?
- 3 oy
  - 6 oy
  - 1 yil

18. Budget tasnifi kim tomonidan tasdiqlanadi?
- Moliya vazirligi
  - Oliy Majlis
  - Prezident
19. Budgetni muhim tasniflash tizimlari?
- Obyekt muhimligi tasnifi; Funktsional tasnif.
  - Mahalliy tasnif, respublika bo'yicha
  - Daromadiga ko'ra tasnif, iqtisodiy tasnif
20. Foizli to'lovlar umumiy xarajatlarning iqtisodiy tasnifi bo'yicha qaysi bo'limiga kiradi?
- Chiqim xarajatlari
  - o'tkazma to'lovlari
  - budget resurslarining yalpi capital shakllanish
21. 21 ta raqamdan iborat daromadlar tasnifi tuzilmasida daromad turini kursatadigan qism nechta raqamdan iborat bo'ladi?
- 5
  - 6
  - 7
22. Xarajatlar tasnifi tuzilmasida vzifa jihatdan tasnifi kursatadigan qism nechta raqamdan iborat bo'ladi?
- 5
  - 6
  - 7
23. Budget tizimini boshqarish to'g'ri ko'rsatolgan qatorni aniqlang.
- Tuzish, ijro etish, Nazorat
  - Tuzish, xulosa berish, tasdiqlash
  - Rejalashtirish tashkil etish muvofiqlashtirish.
24. Budget tizimini boshqarish obyektlarini ko'rsating.
- Oliy majlis, Vazirlar mahkamasi, Moliya vazirligi;
  - Budget munosabatlari, daromatlari, xarajatlari
  - Davlat Budgeti tashkilotlari.
25. Budgetni boshqarish jarayonida kimlar ishtirok etmaydi.



- a) Oliy M, V mahkamasi
  - b) mahalliy davlat xokimiyat organlari
  - c) Hisob palatasi
26. Markaziy va mahalliy davlat xokimiyati organlari budjetnomani kimga taqdim etadi.
- a) Oliy majlisga,
  - b) Moliya vaziriga
  - c) Yuqori moliya organlariga
27. Moliya vazirligi boshqarishdagi vakolatlaridan noto'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.
- a) So'rovnomanini to'ldiradi
  - b) Maqsadli jamg'armalar, Budjetlar ko'rib chiqadi
  - c) Budjet ssudalarini beradi.
28. Budjet ijrosini shakllari noto'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.
- a) Davlat Budjeti kassaviy ijrosi
  - b) Davlat Budjeti aralash ijrosi
  - c) Davlat Budjeti nazorat ijrosi
29. G'aznachilik bo'limlarini ketmaketligini aniqlang.
- a) Moliya vazirligi g'aznachiligi, Toshkent shahar
  - b) Moliya vazirligi g'aznachiligi, Qoraqalpog' Res, viloyatlar, Toshkent shahar
  - c) Moliya vazirligi g'aznachiligi, viloyat Toshkent shahar
30. Davlat maqsadli jamg'armalar ijrosi kim tomonidan taminlanadi.
- a) Vazirlar mahkamasi
  - b) Moliya vazirligi
  - c) Oliy majlis
31. Moliya vazirligining bank xisob varag'iga xizmat ko'rsatganligi uchun necha foiz xaq oladi.
- a) 3 %
  - b) 1 %
  - c) Olmaydi
32. Xarajatlarni to'lash uchun ruxsatnoma kim tomonidan beriladi.

- a) Xisob palatasi
  - b) Vazirlar mahkamasi
  - c) Prezident
33. Budjetlararo munosabatlar modellariga qaysilar kirmaydi.
- a) Koopirativ
  - b) Individual (yakka)
  - c) Markazlashtirilgan.
34. Moliya yili mobaynida budjetlar o'zgarganda yuqori va quyi turuvchi budjetlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro pul munosabatlari.
- a) Dotatsiya
  - b) Budjet sudasi
  - c) Budjetlararo o'zaro xisob-kitoblar.
35. Dotatsiya qanday xolatda ajratiladi.
- a) Inqirozga uchraganda
  - b) Ochilganda
  - c) Daromadlarda xarajat ko'payganda.
36. Budjet ssudasi vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash maqsadida qancha vaqtga beriladi.
- a) 1 yilga
  - b) 9 oyga
  - c) 3 oyga
37. Budjet ssudasini subsidiyadan farqi.
- a) budjet ssuddasini muddati uzoq bo'ladi
  - b) budjet sudasini qaytarish sharti bo'ladi
  - c) subsidiya maqsadsiz bo'ladi.
38. Budjetlararo munosabatlar modellariga qaysilar kirmaydi.
- a) Koopirativ
  - b) Individual (yakka)
  - c) Markazlashtirilgan.
39. Moliya yili mobaynida budjetlar o'zgarganda yuqori va quyi turuvchi budjetlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro pul munosabatlari.

- a) Dotatsiya
  - b) Budget sudasi
  - c) Budgetlararo o'zaro xisob-kitoblar.
40. Dotatsiya qanday xolatda ajratiladi.
- a) Inqirozga uchraganda
  - b) Ochilganda
  - c) Daromadlarda xarajat ko'payganda.
41. Budget sudasi vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash maqsadida qancha vaqtga beriladi.
- a) 1 yilga
  - b) 9 oyga
  - c) 3 oyga
42. Budget sudasini subsidiyadan farqi.
- a) budget sudasini muddati uzoq bo'ladi
  - b) budget sudasini qaytarish sharti bo'ladi
  - c) subsidiya maqsadsiz bo'ladi.
43. O'zbekiston Respublikasining jamlangan (konsolidatsiyalashgan) budjeti tarkibiga qaysilar kiradi?
- a) Davlat budjeti;
  - b) davlat maqsadli jamg'armalarining budjetlari;
  - c) O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari.
44. Davlat budjeti qanday darajadagi budjetlardan iborat?
- a) O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari
  - b) Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti
  - c) Barcha javoblar to'g'ri
45. Davlat maqsadli jamg'armalari nechta?
- a) 5 ta
  - b) 6 ta
  - c) 4 ta
46. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini boshqarish Kengashi tarkibini kim belgilaydi?
- a) Oliy majlis
  - b) Vazirlar mahkamasi

- c) Jamg'arma rahbari
47. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi qachon tashkil qilingan?
- a) 2006 yil 11 iyun
  - b) 2006 yil 11 may
  - c) 2007 yil 11 iyun
48. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning Budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'laridan nima maqsadda foydalanadi?
- a) moddiy-texnik bazani mustahkamlash
  - b) xodimlarni moddiy rag'batlantirish va boshqa xarajatlarni qoplash uchun
  - c) barcha javoblar to'g'ri
49. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning Budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi qaysi organ tomonidan belgilanadi?
- a) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
  - b) Oliy majlis
  - c) Moliya vazirligi
50. "Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi" kodi qanday?
- a) 4001
  - b) 4003
  - c) 4004
51. Budjet jarayoni, odatda, Budjet faoliyatining necha bosqichini o'z ichiga oladi?
- a) 4 ta
  - b) 5 ta
  - c) 6 ta
52. Davlat Budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari Budjetlarining loyihasini tuzish qanday ketma-ketlikda amalgam oshiriladi?
- a) Budjet so'rovini tuzish tartibini yuborishni;
  - b) Budjet so'rovlarini hamda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlarini tayyorlash va taqdim etishni;
  - c) Budjet so'rovlarini ko'rib chiqish va jamlashni;
53. Davlat Budjeti loyihasini tuzish uchun mas'ul organlar –
- a) Moliya vazirligi, Vazirliklar, davlat qo'mitalari

- b) mahalliy davlat hokimiyati organlari
  - c) barchasi
54. Budget mablag'larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi nimalarga asoslanadi?
- a) O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari
  - b) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari
  - c) Barchasi
55. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili qaysi muddatgacha kelgusi davr uchun Budget so'rovini tuzish tartibini so'raydi?
- a) 1 may
  - b) 15 aprel
  - c) 15 mart
56. Smetalarning qanday turlari amalda qo'llaniladi?
- a) Yakka smetalar; Yig'ma smetalar
  - b) Umumlashtirilgan smetalar;
  - c) Barchasi
57. Smeta xarajatlari nechta guruhdan iborat?
- a) 2 ta
  - b) 3 ta
  - c) 4 ta
58. Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi budget tashkiloti boyicha xarajatlar smetalari qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?
- a) 1 yanvardan 30 dekabrgacha
  - b) 1 fevraldan 31 yanvargacha
  - c) 1 yanvardan 31 dekabrgacha
59. Tashkilotlarning xarajatlar smetasi nechta nusxada tuziladi?
- a) 2 ta
  - b) 3 ta
  - c) 4 ta

60. Budget tashkilotlari va Budget mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini, Budget mablag'larini taqsimlovchining jamlanma xarajatlar smetalarini tasdiqlash joriy moliya yilining qaysi muddatigacha amalga oshiriladi?
- a) 10 maygacha
  - b) 1 martgacha
  - c) 1 maygacha
  - d) 10 martgacha
61. Balanslashtirilgan budget deb nimaga aytiladi.
- a) budget defetsit bo'lganda
  - b) budget profedsid bo'lganda
  - c) teng bo'lganda
62. Davlat budjeti taqchiligi arxivga solishni to'g'ri ko'rsatilmagan qatorni toping.
- a) M bankda pul chiqarish
  - b) Aholidan kelasi yillar sog'liqlarni undirish
  - c) Davlat mulkini sotish orqali
63. Budget taqchiligini qoplash maqsadida Markaziy bank kreditlaridan qancha muddatga foydalanish mumkin.
- a) 1 yil
  - b) 1 yilgacha
  - c) mumkin emas
64. Defedsidni moliyalashtirish manbalari guruhleri to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.
- a) ichki tashqi
  - b) uzoq muddatli, qisqa muddatli
  - c) yuqori, quyi
65. Budjedda ijobiy qoldiq vujudga kelganda davlat qanday yo'l tutadi.
- a) soliqlarni tushiradi
  - b) soliqlarni ko'taradi
  - c) xarajatlarni ko'paytiradi

## ASOSIY TERMINLAR RO'YXATI

**Budjet tizimi** - turli darajadagi Budjetlar va Budjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, Budjetlarni tashkil etishni va tuzish tamoyillarini ifodalaydigan, Budjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek Budjetlar hamda Budjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlar majmuidir. Ko'pchilik hollarda, soddaroq tarzda, Budjet tizimi deyilganda, mamlakatdagi mavjud Budjetlar to'plami (majmui) tushuniladi.

**Budjet** - hujjat yoki hujjatlar yig'indisi, ya'ni tashkilotning (oila, korporatsiya, hukumat) moliyaviy holati va kelgusi rejalari, ya'ni daromadlar, xarajatlar va maqsad hamda natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi rejalar sifatida qaraladi. Tarixan, *budjet* so'zi charm karmon, hamyon, sumka va hamyonchadir. Asosan, inglizchada bu termin hukumat ehtiyojlari va resurslarini Parlament bayonotiga Moliya Vaziri ko'tarib boradigan charm sumka sifatida tasvirlangan.

**Davlat Budjeti** - Davlat ixtiyoridagi markazlashgan pul fondlarini tuzish va ishlatish bilan bog'liq bo'lgan pul munosabatlaridir.

**Budjetlararo munosabatlar shakllari** - Budjet jarayonida turli darajadagi Budjetlar o'rtasida sodir bo'ladigan iqtisodiy-huquqiy munosabatlar majmuidir.

**Budjet tasnifi** - Budjet daromadlari, xarajatlari va taqchillikni moliyalashtirish manbalarining turli belgilariga ko'ra guruhlanishi.

**Budjet munosabatlarining huquqiy asoslari** - Davlat boshqaruvining har bir pog'onasida Budjet jarayonida sodir bo'ladigan budjet munosabatlarini tartibga soluvchi qonuniy-huquqiy va me'yoriy hujjatlar.

**Parallel rezolyutsiya** – bu Kongressning ikkala palatasi ham tomonidan olib boriladigan, lekin prezident imzosini talab qilmaydigan xatti-harakat.

**Budjet kodeksi** – ma'lum bir mamlakat Budjet tizimining asoslarini, uning tuzilishi, umumiy printsiplarini, turli darajadagi Budjetlar va ularning vakolatlarini, Budjet jarayoni asoslari va Budjetlararo munosabatlarni, Budjet qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik choralarini belgilovchi qonun hujjati hisoblanadi.

**Budjetga oid vakolatlar** - hukumatga xarajatlar bo'yicha majburiyatni yuklash vakolatidir.

**Budjet tizimi Budjetlari xarajatlarining tasnifi** - Budjet tizimi Budjetlari xarajatlarini kodlashdan iborat bo'ladi hamda davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish sektori birliklari asosiy funksiyalarini bajarishiga, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishiga Budjet mablag'larini yo'naltirilishini aks ettiradi.

**Budjet tizimi Budjetlari daromadlarining tasnifi** - daromadlarni ularning turlari va manbalari bo'yicha kodlashdan iborat bo'ladi.

**Budjet daromatlari bu** – Budjetlarga qonun xujjatlarga belgilangan tartibda beg'arazlik va qaytarib bermaslik sharti bilan kelib tushgan pul.

**Davlat maqsadli budjetdan tashqari** – jamg'armalar-davlat budjeti tarkibida jamg'arilgan jamg'armalar bo'lib ularning xar biri uchun mablag'lar manbalari bir manbadan mablag'lashtirilishi normalari.

**Taftish** – korxonalar va muassasalarning moliyaviy xo'jalik faoliyatini shuningdek moliya organlarining budjetni tuzish va ijro etish bo'yicha ishlarini o'zaro bog'langan tekshiruvlar majmuidir.

**Budjet tashkilotlari xarajatlar smetasi bu** – BT tomonidan bir moliya yili uchun davlat budjeti mablag'larini olish maqsadida tuziladigan bevosita o'ziga tegishli bo'lgan moliya organlari tomonidan ro'yhatdan o'tkaziladigan tasdiqlanadigan moliyaviy reja xisoblanadi.

**Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta**– budjet tashkilotlari tomonidan tuziladigan va tasdiqlanadigan xujjat bo'lib qonun bilan taqiqlanmagan va foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan xujjatdir.

**Vaqtinchalik xarajatlar smetasi** – tashkilotlarning xarajatlar smetasi tasdiqlanganga qadar amal qiluvchi xujjat.

**Dotatsiya** – budjet tizimi budjetlariga ularning o'z daromadlari yetishmagan taqdirda daromadlari bilan xarajatlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun qaytarilmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

**Budjet ssudasi qaytarish**– sharti bilan yuqori turuvchi budjetdan quyi budjetga ajratiladigan pul mablag'lari.

**Subsidiya**– muayyan maqsadlarga sarflash maqsadida yuqori budjetdan qaytarilmaslik sharti bilan beriladigan pul mablag'lari.

**Davlat budjeti profetsidi** – muayyan davrda davlat budjeti daromadlarini xarajatlardan oshib ketishi.

**Davlat budjeti taqchiligi** – muayyan davrda O'z.Res ning davlat budjeti xarajatlari daromadlaridan oshib ketishi.

**Respublika Budjeti**- davlat Budjetining umumdavlat ahamiyatiga molik tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Mahalliy Budjet**- davlat Budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda ma'lum ma'muriy birlikning daromadlar



manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Budjet tizimi budjetlari** - O'zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari Budjetlari va Budjet tashkilotlarining Budjetdan tashqari jamg'armalari» dan iborat.

**Budjet daromadlari** - bu davlat Budjet tizimining Budjetlariga qonun hujjatlarida belgilangan beg'arazlik va qaytarib bermaslik tartibida kelib tushadigan pul mablag'laridir.

**Davlat daromadlari** - bu yaratilgan milliy boylikning davlat ehtiyojlari uchun jalb etiladigan qismidir.

**Soliqlar** - davlat Budjetiga va davlat pul fondlariga kelib tushadigan, majburiy harakterga ega bo'lgan pul munosabatlaridir.

**Davlat budjeti xarajatlari**-YaIMning qayta taqsimlanishi natijasida davlat budjetida jamlangan pul mablag'larining maqsadga muvofiq qayta taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog'liq budjet qonunchiligi bilan tartibga solinadigan pul munosabatlari yig'indisidir.

**Kapital xarajatlari** – budjet xarajatlarining innovatsiya va investitsiya faoliyatini ta'minlaydigan qismi hisoblanadi.

**Joriy xarajatlari**– budjet xarajatlarining bir qismi bo'lib, davlat xokimiyati organlarining, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining, budjet tashkilotlarining joriy faoliyatini ta'minlashga, davlat tomonidan quyi pog'onadagi budjetlar va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga mablag' ajratish, dotatsiyalar, subventsiyalar va subsidiyalar shaklida yordam ko'rsatish uchun ajratiladi.

**Pensiya** - uni olish huquqi Qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovi" dir.

**Koridorli moliyalashtirish** – bu pensiya rejasining moliyalashtirish koeffitsienti bo'lib bir xil diapazonda qolsa, aktuar asosda aniqlangan pensiya jamg'armasiga kiritiladigan hissalar stavkasi muttasil qoladi.

**Davlat tasarrufidan chiqarish** - davlat korxonalarini va tashkilotlarini xo'jalik shirkatlari va jamiyatlariga, davlatga qarashli mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar tashkilotlarga aylantirishdir.

**Ish bilan samarali bandlik** – bu aholining ish bilan bandlikka ehtiyojining mavjud ish o'rinlariga muvofiq kelishining sifat xususiyati bo'lib, iqtisodiy nuqtai nazardan mehnat resurslaridan eng oqilona foydalanishni, ijtimoiy jihatdan mehnat faoliyatining inson manfaatlariga eng muvofiq kelishini bildiradi.

**Budjet tashkiloti** – davlat funktsiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, Davlat Budjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot Budjet tashkilotidir.

**O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti-** O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliya yili yakunlari bo'yicha tahliliy maqsadlar uchun hamda budjet tizimi budjetlarining (budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari bundan mustasno) barcha tushumlari va xarajatlarini hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini, ular o'rtasidagi transfertlarni hisobga olmagan holda hisobga olib borish uchun tuziladigan budjet.

**O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining daromadlari-** asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlarini tasdiqlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari bilan strategik resurslarga belgilanadigan chegara narxidan jahon narxining oshishi natijasida tushadigan tushumlar.

**Budjet jarayoni** — Budjet tizimi Budjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilish, Budjet tizimi Budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonidir.

**Budjet jarayoni ishtirokchilari** — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, Budjet tashkilotlari va Budjet mablag'lari oluvchilardir.

**Budjetnoma** — erishilgan natijalar hisobga olingan holda mamlakatni kelgusi davr uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini nazarda tutadigan hujjat bo'lib, ushbu yo'nalishlar asosida Davlat Budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari Budjetlarining loyihalari shakllantiriladi.

**Maxsus mablag'lar** – bu Budjet tashkilotlariga tegishli binolardan, xonalardan, korxonalardan va yordamchi xo'jaliklardan, inventarlardan va uskunalardan foydalanish va ishlatish natijasida paydo bo'lgan Budjet tashkiloti daromadlarining summasidir.

**Depozit summalar** – Budjet tashkilotining ixtiyoriga vaqtinchalik kelib tushgan va ma'lum sharoit vujudga kelishi munosabati bilan qaytarilishi yoki tayinlanishi bo'yicha hisobga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lardir.

**Budjet tashkilotlarining Budjetdan tashqari jamg'armalari** - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan manbalar hisobidan Budjet tashkiloti tasarrufiga kelib tushadigan mablag'lardir.

**Xarajatlar smetasi** - Budjet tashkiloti yoki Budjet mablag'lari oluvchi tomonidan moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan, uning uchun nazarda tutilgan Budjetdan ajratiladigan mablag'lar xarajatlar moddalari bo'yicha aks ettiriladigan hujjat.

**Vaqtinchalik xarajatlar smetasi** - Budget tashkilotining yoki Budget mablag'lari oluvchining xarajatlar smetasi tasdiqlanishiga va ro'yxatdan o'tkazilishiga qadar amal qiladigan hujjat bo'lib, unda qonun hujjatlaridagi o'zgartirishlar hisobga olingan holda uning uchun nazarda tutilgan Budgetdan ajratiladigan mablag'lar har oy uchun aks ettiriladi.

**Shtat jadvali** - doimiy xodimlar lavozimlari va bo'sh o'rinlar nomlarining soni va lavozim maoshlarining miqdorlari ko'rsatilgan ro'yxatni o'z ichiga oladigan, Budget tashkiloti tomonidan tuziladigan hujjat.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

### **I. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI.**

#### **ASOSIY ADABIYOTLAR:**

1. Malikov T., Xaydarov N. Budget (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2008, 98b.
2. Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi budget tizimi. T.: «infoCOM.UZ». 2010. 500 b.
3. Karimova Z.X., Djamalov X.N., Islamqulov A.X. Budget tizimi. O'quv qo'llanma. “VORIS-NASHRIYOT”. 2012. 208 b.
4. O. G'aybullaev, U. O'roqov. O'zbekiston Respublikasida budget tizimi va jarayoni: O'quv qo'llanma. Toshkent: Baktria press, 2015, 168 b.
5. Public budgeting systems / Robert Lee, Ronald Johnson, and Philip Joyce.- 9th ed. 2013.- 656 pages
6. Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice. CreateSpace Independent Publishing Platform (4 Jun. 2016) USA.

#### **QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
2. Malikov T., Xaydarov N. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2007, 84b.
3. Pulatov D., Nurmuxamedova B., “G'aznachilik”. Darslik. T: “Sano-Standart”, 2014 y.
4. Qosimova G.A. “G'aznachilik”. O'quv qo'llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015 y.

5. Malikov T., Jalilov P., Budjet-soliq siyosati. Monografiya. T.: Akadernashr, 2011. 472 b.
6. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Budjet nazorati va auditi: O'quv qo'llanma T.: «infoCOM.UZ». 2009.
7. Nuritdinova V.SH., Sharapova M.A. Moliyaviy nazorat: O'quv qo'llanma /– Toshkent, 2014 – 380 b.
8. Understanding Government Budgets: A Practical Guide// R. Mark Musell (Author).- Routledge, 2008.- 108 pages
9. The Federal Budget Process: A Description of the Federal and Congressional Budget Processes, including Timelines // TheCapitol.Net, Inc., 2009.- 396 pages

#### **INTERNET SAYTLARI:**

10. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) - O'zbekiston Ruspublikasi Moliya Vazirligi portali.
11. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)- O'zbekiston Ruspublikasi hukumat portali.
12. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Ruspublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi.
13. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)- O'zbekiston Ruspublikasi Statistika Qo'mitasi portali.
14. [www.undp.uz](http://www.undp.uz)
15. [www.publicfinance.uz](http://www.publicfinance.uz)